O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

2.2023

научно-теоретический, методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2023

“ILM SARCHASHMALARI” ilmiy-nazariy, metodik jurnal

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

TAHRIR HAY’ATI:

ABDULLAYEV Bahrom, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
ABDULLAYEV Ravshanbek, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),
ABDULLAYEV O‘tkir, tarix fanlari doktori (UrDU),
ATADJANOV Ilxam, geografiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
ATAYEV Shokir, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
BERDIMUROTOVA Alima, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),
DAVLETOV Sanjarbek, tarix fanlari doktori, professor (UrDU),
DO‘SCHONOV Tangribergan, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),
ERMETOVA Jamila, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (UrDU),
HAJIYEVA Maqsuda, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),
IBRAGIMOV Zafar, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),
IMOMQULOV Sevdiyor, fizika-matematika fanlari doktori, professor (NavDPI),
JUMANAZAROV Doniyor, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
JUMANIYAZOV Maqsud, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),
JUMANIYOZOV Otaboy, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),
KALANDAROV Aybek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas’ul kotib, UrDU),
KAVALYAUSKAS Vidas, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva unversiteti),
NAVRUZOV Qurolboy, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
OTAMURODOV Sa’dulla, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),
PRIMOV Azamat, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),
QUTLIYEV Uchqun, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),
RUZMETOV Surojbek, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, UrDU),
RO‘ZIYEV Erkinboy, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),
SADULLAYEV Azimboy, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),
SADULLAYEVA Nilufar Azimovna, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),
SALAYEV San’atbek, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),
SALAYEVA Muxabbat Soburovna, pedagogika fanlari doktori (UrDU),
SATIPOV G‘oipnazar, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),
XODJANIYOZOV Sardor, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari, (UrDU),
YOQUBOV Jamoliddin, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),
O‘ROZBOYEV Abdulla, filologiya fanlari doktori (UrDU),
O‘ROZBOYEV G‘ayrat, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),
G‘AYIPOV Dilshod, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN●JURNAL OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI●2023 2(188)

MUASSIS: Urganch davlat universiteti●Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan●**GUVOHNOMA № 1131.**

Matyoqubov Ollabergan (UrDU), Matkarimov Sanjar (UrDU), Xusainov Islom (TATU Urganch filiali)

CHEGARAVIY SHARTI SPEKTRAL PARAMETRGA CHIZIQLI RAVISHDA BOG‘LIQ BO‘LGAN SHTURM-LIUVILL MASALASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bitta chegaraviy sharti spektral parametrga chiziqli ravishda bog‘liq bo‘lgan Shturm-Liuvill masalasi xos qiymatlarining va xos funksiyalarining xossalari o‘rganilgan.*

Аннотация. *В статье изучаются свойства собственных значений и собственных функций задачи Штурма-Лиувилля, одно граничное условие которой зависит линейно от спектрального параметра.*

Annotation. *In this article, we have studied the properties of eigenvalues and eigenfunctions of the Sturm-Liouville problem, one boundary condition of which depends linearly on the spectral parameter.*

Kalit so‘zlar: *Shturm-Liuvill masalasi, xos qiymat, xos funksiya, spektr, spektral parametrga bog‘liq chegaraviy shart.*

Ключевые слова: *задача Штурма-Лиувилля, собственное значение, собственная функция, спектр, зависящее от спектрального параметра граничное условие.*

Key words: *Sturm-Liouville’s problem, eigenvalue, eigenfunction, spectrum, spectral parameter-dependent boundary condition.*

Chegaraviy shartlari spektral parametrga bog‘liq bo‘lgan Shturm-Liuvill chegaraviy masalalari uchun to‘g‘ri va teskari masalalar [1]-[3] maqolalarda, ular uchun regulyarlashtirilgan izlar formulalari esa [4]-[7] maqolalarda o‘rganilgan.

Ushbu maqolada bitta chegaraviy sharti spektral parametrga chiziqli ravishda bog‘liq bo‘lgan Shturm-Liuvill masalasi xos qiymatlarining va xos funksiyalarining sodda xossalari batafsil o‘rganilgan.

Quyidagi Shturm-Liuvill chegaraviy masalasini ko‘rib chiqamiz:

$$Ly \equiv -y'' + q(x)y = \lambda y, \quad x \in [0,\pi], \tag{1}$$

$$\begin{cases} y'(0) = hy(0), \\ y'(\pi) = -(H_0 + H_1\lambda)y(\pi). \end{cases} \tag{2}$$

Bu yerda: $q(x) \in C^1[0,\pi]$ haqiqiy qiymatli funksiya, h, H_0, H_1 haqiqiy sonlar, λ esa kompleks parametr. Biz $H_1 < 0$ bo‘lgan holni o‘rganamiz.

1-xossa. (1)+(2) masala ixtiyoriy ikkita yechimining Vronskiy determinanti x o‘zgaruvchiga bog‘liq bo‘lmaydi.

2-xossa. (1)+(2) Shturm-Liuvill masalasining xos qiymatlari haqiqiy bo‘ladi.

Isbot. $\lambda = u + iv$, ($v \neq 0$) son (1)+(2) Shturm-Liuvill chegaraviy masalasining xos qiymati bo‘lsin deb faraz qilaylik va unga mos keluvchi xos funksiyani $y(x)$ orqali belgilaylik. U holda $\overline{\lambda} = u - iv$ son ham shu chegaraviy masalaning xos qiymati bo‘ladi va unga $\overline{y}(x)$ xos funksiya mos keladi. Quyidagi

$$(\lambda - \overline{\lambda})\int_0^\pi |y(x)|^2 dx = \int_0^\pi (\lambda - \overline{\lambda})y(x)\overline{y}(x)dx = \int_0^\pi [(\lambda y)\overline{y} - y(\overline{\lambda}\,\overline{y})]dx =$$

$$= \int_0^\pi \{\overline{y}[-y'' + q(x)y] - y[-\overline{y}'' + q(x)\overline{y}]\}dx = \int_0^\pi (\overline{y}''y - y''\overline{y})dx = \int_0^\pi (\overline{y}'y - y'\overline{y})'dx =$$

$$= \begin{vmatrix} y(\pi) & \overline{y}(\pi) \\ -(H_0 + H_1\lambda)y(\pi) & -(H_0 + H_1\overline{\lambda})\overline{y}(\pi) \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} y(0) & \overline{y}(0) \\ hy(0) & h\overline{y}(0) \end{vmatrix} = (\lambda - \overline{\lambda})|y(\pi)|^2 H_1$$

tenglikdan

$$\int_0^{\pi} |y(x)|^2 dx = |y(\pi)|^2 H_1$$

ziddiyat kelib chiqadi, chunki $H_1 < 0$.

Natija. Xos funksiyani haqiqiy qilib tanlash mumkin. Agar λ xos qiymatga $y(x) = u(x) + iv(x)$ xos funksiya mos keluvchi bo‘lsa, $u(x)$ ham $v(x)$ ham (1)+(2) masalaning yechimi bo‘ladi. Bu yechimlardan kamida bittasi noldan farqli bo‘ladi, chunki $y(x) \not\equiv 0$.

3-xossa. (1)+(2) Shturm-Liuvill masalasining $\lambda_1 \neq \lambda_2$ xos qiymatlariga mos keluvchi $y_1(x)$, $y_2(x)$ xos funksiyalari uchun ushbu

$$\int_0^{\pi} y_1(x) y_2(x) dx - H_1 y_1(\pi) y_2(\pi) = 0 \qquad (3)$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Isbot. Ushbu

$$(\lambda_1 - \lambda_2) \int_0^{\pi} y_1(x) y_2(x) dx = \int_0^{\pi} [(\lambda_1 y_1) y_2 - y_1 (\lambda_2 y_2)] dx =$$

$$= \int_0^{\pi} (y_2'' y_1 - y_1'' y_2) dx = \int_0^{\pi} (y_2' y_1 - y_1' y_2)' dx = \begin{vmatrix} y_1 & y_2 \\ y_1' & y_2' \end{vmatrix}_0^{\pi} =$$

$$= \begin{vmatrix} y_1(\pi) & y_2(\pi) \\ -(H_0 + H_1\lambda_1) y_1(\pi) & -(H_0 + H_1\lambda_2) y_2(\pi) \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} y_1(0) & y_2(0) \\ h y_1(0) & h y_2(0) \end{vmatrix} =$$

$$= (\lambda_1 - \lambda_2) y_1(\pi) y_2(\pi) H_1$$

ayniyatda $\lambda_1 \neq \lambda_2$ bo‘lgani uchun (3) tenglik o‘rinli bo‘ladi.

4-xossa. (1)+(2) Shturm-Liuvill masalasining turli xos qiymatlariga mos keluvchi $y_1(x)$, $y_2(x)$, … xos funksiyalari chiziqli erkli bo‘ladi.

Isbot. Teskarisini faraz qilaylik, ulardan bittasi qolganlari orqali chiziqli ifodalansin: $y_n = C_1 y_1 + C_2 y_2 + \ldots + C_{n-1} y_{n-1} + C_{n+1} y_{n+1} + \ldots$. U holda

$$\int_0^{\pi} y_n^2 dx = C_1 \int_0^{\pi} y_n y_1 dx + C_2 \int_0^{\pi} y_n y_2 dx + \ldots + C_{n-1} \int_0^{\pi} y_n y_{n-1} dx + C_{n+1} \int_0^{\pi} y_n y_{n+1} dx + \ldots,$$

$$\int_0^{\pi} y_n^2 dx = C_1 H_1 y_1(\pi) y_n(\pi) + C_2 H_1 y_2(\pi) y_n(\pi) + \ldots +$$

$$+ C_{n-1} H_1 y_{n-1}(\pi) y_n(\pi) + C_{n+1} H_1 y_{n+1}(\pi) y_n(\pi) + \ldots.$$

Bunga ko‘ra,

$$\int_0^{\pi} y_n^2 dx = H_1 y_n^2(\pi).$$

Ziddiyat, chunki chap tomon musbat, o‘ng tomon esa manfiy.

5-xossa. (1)+(2) Shturm-Liuvill masalasining bitta xos qiymatiga mos keluvchi xos funksiyalari bir-biriga proporsional bo‘ladi.

6-xossa. $y(x, \lambda)$ funksiya Shturm-Liuvill tenglamasining λ bo‘yicha uzluksiz differensiallanuvchi ixtiyoriy yechimi bo‘lsin. U holda ushbu

$$\int_0^{\pi} y^2(x,\lambda)dx = W_{\pi}\{\dot{y}, y\} - W_0\{\dot{y}, y\}$$

tenglik bajariladi. Bu yerda $\dot{y} = \dfrac{\partial y(x,\lambda)}{\partial \lambda}$ (1) differensial tenglamaning quyidagi

$$\varphi(0,\lambda) = 1,\ \varphi'(0,\lambda) = h$$

boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini $\varphi(x,\lambda)$ orqali belgilaymiz. $\varphi(x,\lambda)$ yechim (2) chegaraviy shartlardan birinchisini qanoatlantirishi ravshan. Bu yechimni chegaraviy shartlardan ikkinchisiga qo‘ysak, ushbu

$$\Delta(\lambda) \equiv \varphi'(\pi,\lambda) + (H_0 + H_1\lambda)\varphi(\pi,\lambda) = 0$$

tenglama hosil bo‘ladi. Bu tenglamaga (1)+(2) Shturm-Liuvill masalasining xarakteristik tenglamasi deyiladi. Uning ildizlari xos qiymatlardan iborat. $\varphi(x,\lambda_n)$ funksiya (1)+(2) Shturm-Liuvill masalasining xos funksiyasi bo‘ladi.

7-xossa. (1)+(2) Shturm-Liuvill chegaraviy masalasi uchun ushbu

$$\int_0^{\pi} \varphi^2(x,\lambda_n)dx = -\varphi(\pi,\lambda_n)\dot{\Delta}(\lambda_n) + H_1\varphi^2(\pi,\lambda_n) \tag{4}$$

tenglik o‘rinli bo‘ladi.

Isbot. 6-xossada $y(x,\lambda)$ yechim o‘rnida $\varphi(x,\lambda)$ yechimni olib, $\lambda = \lambda_n$ desak, ushbu

$$\int_0^{\pi} \varphi^2(x,\lambda_n)dx = \begin{vmatrix} \dot{\varphi}(\pi,\lambda_n) & \varphi(\pi,\lambda_n) \\ \dot{\varphi}'(\pi,\lambda_n) & \varphi'(\pi,\lambda_n) \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} \dot{\varphi}(0,\lambda_n) & \varphi(0,\lambda_n) \\ \dot{\varphi}'(0,\lambda_n) & \varphi'(0,\lambda_n) \end{vmatrix} =$$

$$= \begin{vmatrix} \dot{\varphi}(\pi,\lambda_n) & \varphi(\pi,\lambda_n) \\ \dot{\varphi}'(\pi,\lambda_n) & -(H_0 + H_1\lambda_n)\varphi(\pi,\lambda_n) \end{vmatrix} - \begin{vmatrix} 0 & 1 \\ 0 & h \end{vmatrix} =$$

$$= -\varphi(\pi,\lambda_n)[\dot{\varphi}'(\pi,\lambda_n) + (H_0 + H_1\lambda_n)\dot{\varphi}(\pi,\lambda_n)] \tag{5}$$

tenglik hosil bo‘ladi. Quyidagi

$$\dot{\Delta}(\lambda) \equiv \dot{\varphi}'(\pi,\lambda) + (H_0 + H_1\lambda)\dot{\varphi}(\pi,\lambda) + H_1\varphi(\pi,\lambda),$$

ifodani hisobga olsak, (5) tenglik ushbu

$$\int_0^{\pi} \varphi^2(x,\lambda_n)dx = -\varphi(\pi,\lambda_n)[\dot{\Delta}(\lambda_n) - H_1\varphi(\pi,\lambda_n)]$$

ko‘rinishni oladi.

8-xossa. (1)+(2) Shturm-Liuvill chegaraviy masalasining xos qiymatlari oddiy (karrasiz) bo‘ladi, ya’ni $\dot{\Delta}(\lambda_n) \neq 0$ bo‘ladi.

Isbot. Teskarisini faraz qilaylik, ya’ni $\dot{\Delta}(\lambda_n) = 0$ bo‘lsin. U holda (4) tenglikka ko‘ra ushbu

$$\int_0^{\pi} \varphi^2(x,\lambda_n)dx = H_1\varphi^2(\pi,\lambda_n)$$

munosabat bajariladi. Bu yerda $H_1 < 0$ ekanligini hisobga olsak, ziddiyat hosil bo‘ladi.

Misol. Ushbu

$$\begin{cases} -y'' = \lambda y, \quad 0 \le x \le \pi \\ y'(0) = 0, \\ y'(\pi) = -H_1\lambda y(\pi), \end{cases} \tag{6}$$

chegaraviy masalaning xos qiymatlarini izlaymiz. Shu maqsadda (6) chegaraviy masaladagi differensial

tenglamaning quyidagi $\varphi(0,\lambda)=1$, $\varphi'(0,\lambda)=0$ boshlang‘ich shartlarni qanoatlantiruvchi $\varphi(x,\lambda)=\cos\sqrt{\lambda}x$ yechimini aniqlaymiz.

Topilgan bu yechim chegaraviy shartlardan birinchisini qanoatlantirishi ravshan. Bu yechimni chegaraviy shartlardan ikkinchisiga qo‘yib, xarakteristik tenglamani keltirib chiqaramiz:

$\Delta(\lambda)=\sqrt{\lambda}[H_1\sqrt{\lambda}\cos\sqrt{\lambda}\pi-\sin\sqrt{\lambda}\pi]=0$. Bunga ko‘ra,

$$\lambda=0 \quad \textbf{yoki} \quad H_1 ctg\sqrt{\lambda}\pi=\frac{1}{\sqrt{\lambda}}.$$

Bu holda $\lambda=0$ eng kichik xos qiymat bo‘lishini isbotlaymiz. Buning uchun manfiy xos qiymat yo‘q ekanligini ko‘rsatish kerak. Teskarisini faraz qilaylik, $\lambda=-a^2$ manfiy xos qiymat bo‘lsin. Bu yerda $a>0$. U holda

$$\sqrt{\lambda}=ia,\ ctg\sqrt{\lambda}\pi=\frac{\cos ia\pi}{\sin ia\pi}=\frac{i(e^{-a\pi}+e^{a\pi})}{e^{-a\pi}-e^{a\pi}}=-icth a\pi$$

bo‘lgani uchun $H_1 cth a\pi=\frac{1}{a}$ bo‘ladi. Ziddiyat, chunki bu tenglikning chap tomoni manfiy, o‘ng tomoni esa musbat. Musbat xos qiymatlar cheksiz ko‘p ekanligini ko‘rsatish maqsadida $\sqrt{\lambda}=t$, $(t>0)$ belgilash kiritib olamiz. Ushbu

$$H_1 ctg\pi t-\frac{1}{t}=0 \qquad \textbf{(7)}$$

tenglamaning chap tomoni har bir $(n-1,n), n=1,2,\ldots$ oraliqda o‘suvchi bo‘lgani uchun bu oraliqlarning har birida (7) tenglama yagona $t_n\in(n-1,n)$ ildizga ega bo‘ladi. Agar $t_n=n-1+\delta_n$ belgilash kiritsak, $\delta_n\in(0,1)$ bo‘ladi.

Demak, (6) masalaning xos qiymatlari

$$\lambda_0=0,\ \lambda_n=(n-1+\delta_n)^2,\ n=1,2,\ldots$$

bo‘lib, ularga ushbu

$$y_0(x)=1,\ y_n(x)=\cos(n-1+\delta_n)x,\ n=1,2,\ldots$$

xos funksiyalar mos keladi.

Shturm teoremasi va taqqoslash teoremasi chegaraviy shartlarga bog‘liq bo‘lmagani bois qaralayotgan masala uchun ham o‘rinli bo‘ladi [8]. Quyidagi ossillyatsiya teoremasi [8] monografiyada chegaraviy shartlari spektral parametrga bog‘liq bo‘lmagan Shturm-Liuvill masalasi holidagi isbotdan ozroq farq qiladi, xolos. Bunda $H_0+H_1\lambda$ funksiya kamayuvchi ekani ishlatiladi.

1-teorema. (Ossillatsiya teoremasi). (1)+(2) Shturm-Liuvill chegaraviy masalasi cheksizta $\lambda_0<\lambda_1<\lambda_2<\ldots<\lambda_n<\ldots$ xos qiymatlarga ega. Bundan tashqari, λ_n xos qiymatga mos keluvchi $y_n(x)$ xos funksiya $(0,\pi)$ intervalda n ta ildizga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Binding P.A., Browne P.J., Seddighi K. Sturm-Liouville problems with eigenparameter dependent boundary conditions. Proc. Edinburg Math. Soc., 37 (1993), p. 57 – 72.

2. Binding P.A., Browne P.J., Watson B.A. Sturm-Liouville problems with boundary conditions rationally dependent on the eigenparamete, I. Proc. Edinburgh Math. Soc., 45 (2002), p. 631 – 645.

3. P.A.Binding, P.J.Browne, B.A.Watson. Sturm-Liouville problems with boundary conditions rationally dependent on the eigenparameter, II. Comp. Appl. Math., 148 (2.2002), 147 – 168.

4. Gulijev N.J. The regularized trace formula for the Sturm-Liouville equation with spectral parameter in the boundary conditions. Proc. Inst. Math. Mech. Natl. Acad. Sci. Azerb. 2005. v. 22, p. 99–102.

5. Эткин А.Е., Эткина Г.П. Вычисление регуляризованного следа задачи Штурма-Лиувилля со спектральным параметром в граничных условиях. Изв. Иркутского гос. ун-та. Серия «Мате-матика» 2012, т. 5, № 2, с. 81 – 89.

6. Yaxshimuratov A., Qo‘ziyeva K. Chegaraviy shartlari spektral parametrga bog‘liq bo‘lgan Shturm-Liuvill masalasi uchun izlar formulasi. “Ilm sarchashmalari”, 2017, 3-son, 5 – 10-betlar.

7. Yaxshimuratov A., Xusainov I., Qurbandurdiyev Sh. Chegaraviy shartlari spektral parametrga ratsional bog‘liq bo‘lgan Shturm-liuvill masalasi uchun izlar formulasi. “Ilm sarchashmalari”, 2020, 9-son, 3 – 9-betlar.

8. Hasanov A.B. Shturm-Liuvill chegaraviy masalalari nazariyasiga kirish. I qism, T., “Fan”, 2011, 500-bet.

Saidov Doniyor Yusupovich (O‘zbekiston Milliy universiteti; doniyorsaidov86@gmail.com)

UMUMLASHGAN BAHOLARNI HISOBLASH USULINING ARXEOLOGIK ARTIFAKTLARNI TASNIFLASHDA QO‘LLANILISHI

Annotatsiya. *Ushbu ishda arxeologik ma’lumotlar bazasidan yashirin qoidalar ko‘rinishidagi bilimlarni olish uchun dastlabki berilganlarni qayta ishlash va tahlil qilish usuli qaralgan. Yangi bilimlarning olinishi arxeologiya sohalarida qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Arxeologik obyektlarning ma’lum sinflarga mansubligini aniqlash uchun ularning umumlashgan baholarini hisoblash usulini qo‘llash taklif etilgan. Ushbu usul aniq o‘lchov birliklariga ega bo‘lmagan umumlashtirilgan ko‘rsatkichlarni (baholarni) hisoblash usulidir. Ushbu ish (PPI/APM/2019/1/00004) 3D DIGITAL SILK ROAD Polsha va O‘zbekiston xalqaro akademik hamkorlik loyihasi doirasida amalga oshirilgan.*

Аннотация. *В статье рассмотрен метод обработки и анализа данных для извлечения знаний из археологических баз данных в виде скрытых правил и закономерностей. Открытие новых знаний должно способствовать повышению эффективности принятия решений в области археологии. Предлагается использовать метод вычисления обобщенных оценок археологических объектов для определения их принадлежности к определенным классам. Метод вычисления агрегированных обобщенных показателей (оценок), не имеющих явных единиц измерения. Работа выполнена при поддержке гранта (PPI/APM/2019/1/00004) 3D DIGITAL SILK ROAD, программы международного академического партнерства Польши и Узбекистана.*

Annotation. *In the articele, the method of processing and analyzing data for extracting knowledge from the databases of archaeological data is considered in the form of hidden rules and patterns. The discovery of new knowledge should help to improve the efficiency of decision-making in the fields of archeology. It is proposed to use the method of calculating generalized estimations of archeological objects to define their belonging to certain classes. The method of calculating aggregated generalized indicators (estimates) that do not have explicit units of measurement. This work was supported by grant (PPI/APM/2019/1/00004) 3D DIGITAL SILK ROAD, Poland and Uzbekistan international academic partnerships program*

Kalit so‘zlar*: umumlashgan baho, intervallarga ajratish, arxeologik obyekt, obyektlarni tasniflash.*

Ключевые слова*: обобщенная оценка, деление на интервалы, археологический объект, классификация объектов.*

Key words*: generalized estimation, division into intervals, archaeological object, object classification.*

Kirish. Arxeolog olimlarning Markaziy Osiyo arxeologiyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarida keltirilganlar ma’lumotlarga asosan aytish mumkinki, ushbu hududda hukm surgan barcha davlatlaring kulolchilik maktablari o‘ziga xos yo‘nalishga ega bo‘lgan. Shu jumladan, qadimgi Xorazmda dastlabki davrlardan boshlab asosiy qurilish materiali loy bo‘lgan. Loydan yasaladigan ro‘zg‘or buyumlari ayniqsa XX asrgacha bo‘lgan davrda juda keng tarqalgan. Bunga, albatta, shu davrlardagi boshqa materiallar, masalan yog‘och, temir, mis, kumush, oltin kabi materiallardan foydalanib yasaladigin ro‘zg‘or buyumlari nisbatan mashaqqatli va qimmatga tushishi bilan izohlash mumkin. Loydan yasalgan sapol buyumlari turi juda ko‘p bo‘lib, ular orasida, ayniqsa, ko‘za, xurmacha, tovoq kabilari eng ko‘p tarqalgan ro‘zg‘or buyumi hisoblangan. Shuning uchun ham ushbu hududlarda olib borilgan deyarli barcha arxeologik ekspeditsiyalarda shunga kabi turli xil shakldagi loydan yasalgan arxeologik artifaktlar va ularning parchalari topilgan (1-rasm).



1-rasm. Arxeologik artifaktlarga ba'zi misollar: (a) – ostadon, mil. avv. 1,2 asrlar, Chuck-Cham, Toshkent; b) ko'za – mil. avv. 1,2 asr, Kavardan, Toshkent; d) – tovoq, mil. avv. 1,2 asr, Kavardan, Toshkent.

Hozirgi kunda O'zbekiston hududida joylashgan muzeylarda loydan yasalgan arxeologik artifaktlarining turli namunalari iborat juda katta kolleksiyasi mavjud. Bu, o'z navbatida, ular ustida turli xil tadqiqotlar olib borish imkonini beradi. Shu jumladan, obyekt sifatida arxeologik artifaktlar (masalan, ko'za, xurmacha, tovoqlar) olinib, ular ustuda turli tadqiqotlar olib borish mumkin. Misol tariqasida quyidagilarni sanash mumkin:

– markaziy osiyodagi turli kulolchilik maktablari (regionlar) namunalari o'rtasidagi o'xshashlik-farqlanishlarni baholash:[1]

– ularni bir-biridan ajratib turuvchi asosiy ko'rsatkichlarni aniqlash;

– kulolchilik maktablari bo'yicha to'plangan namunalar asosida noma'lum arxeologik artifaktni qaysi regionga tegishli ekanligini aniqlash;

– turli kulolchilik maktablariga tegishli bo'lgan namunalarni 2 yoki 3 o'lchamli fazoda (masalan, t-sne metodi,[2] iyerarxik aglomerativ guruhlash orqali) vizuallashtirish orqali yashirin qonuniyatlarini topish va izohlash kabi masalalar.[3]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tadqiqod sifatida qanday masala qo'yilishiga qarab, obyektlar alomatlari shakllantiriladi. Agar dastlabki berilganlar sifatida arxeologik artifaktlar rasmlari beriladigan bo'lsa, alomatlar sifatida n ta miqdoriy alomatlarni shakllantirish talab qilinadi. Odatda, bunday hollarda sun'iy intellekt usullarini (dastlabki qayta ishlov berish usullari) qo'llagan holda, obyekt – alomat jadvaliga akslantiriladi. Ya'ni, har bir arxeologik artifaktni ifodalovchi rasm uchun mos ravishda $X=(x_1,..,x_n)$ vektor hosil qilinadi. Shu tarzda $m \times n$ o'lchamli obyekt – alomat matritsasi hosil qilinadi.

Agar arxeologik artifaktlar fizik va ximik xossalari orqali ifodalansa, ya'ni, ularning o'lchamlari, qaysi davrga oidligi, topilgan hududi, materilaning mexanik tarkibi va shunga o'xshash mutaxassislar tomonidan o'lchangan barcha xususiyatlari bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlar orqali ifodalansa, obyektlarni tavsiflash n ta turli toifadagi alomatlar $X(n)=(x_1,\ldots,x_n)$ orqali amalga oshiriladi. Bunday hollarda alomatlarning ξ tasi interval shkalalarda, n-ξ tasi esa nominal shkalalarda o'lchanadi. I, J orqali, mos ravishda, sonli va nominal alomatlar indekslari to'plamlari belgilanadi.

Yuqoridagigi kabi arxeologik artifaktlarni obyekt – alomat shaklida tayyorlab olgandan keyin sun'iy intellekt usullarini qo'llagan holda, turli tadqiqotlar olib borilishi mumkin. Misol sifatida birorta arxeologik artifakt (masalan, ko'za)ning qaysidir hududga tegishliligini obrazlarni anglash masalasining standart shaklida qarab chiqaylik.

Masalaning standart qo'yilishi. Berilganlar sifatida m ta obyekt (ko'za) olinib, har bir obyektning oldindan tanlangan biror-bir hududga tegishli (K_1) yoki tegishli emas(K_2)ligining umumlashgan bahosini

[1] Н.А.Игнатьев. Обобщенные оценки и локальные метрики объектов в интеллектуальном анализе данных. Монография, Ташкент, издательство "Университет", 2014, с. 72.

[2] Laurens van der Maaten, Geoffrey Hinton. Visualizing Data using t-SNE,Journal of Machine Learning Research 9(86):, 2008, p. 2579 − 2605.

[3] D.Y.Saidov. Data Visualization and its Proof by Compactness Criterion of Objects of Classes. International Journal of Intelligent Systems &Applications, Vol. 9 Issue 8, 2017, p. 51 – 58.

topish masala sifatida qaralsin.[1] $E_0=\{S_1...S_m\}$ deb, o‘zaro kesishmaydigan K_1 va K_2 sinflarga tegishli bo‘lgan obyektlar to‘plamini belgilaymiz. Har bir obyekt n ta miqdoriy alomatlar bilan tasvirlanadi. Ikki sinfli obrazlarni anglash masalasining qaralishi qiyidagilar bilan izohlanadi:

♦har qanday umumlashtirilgan baholash (ko‘rsatkich) nisbiydir. Har bir sinfning obyektlari boshqa sinf obyektlariga qarama-qarshidir;

♦har xil turdagi alomatlar fazosida bog‘liqlikni tiklash uchun analitik funksiyalar sinflari mavjud emas.

K_1 sinfidagi obyektlarni chiziqli tartiblash maqsadida ularning umumlashgan baholarini hisoblash talab etiladi.

Obyekt tavsifidagi $X=(x_1,..,x_n)$ alomatlarning miqdoriylari raqamlari to‘plamini I orqali belgilaymiz. Obyektlarni o‘zaro kesishmaydigan K_1 va K_2 sinflarga ajratishni hisobga olgan holda, miqdoriy alomatlar uchun vazn qiymatlarni aniqlaymiz. Obyektlarning $x_j, j \in I$ alomat bo‘yicha tartiblangan qiymatlari 2 ta $[c_0,c_1],(c_1,c_2]$ oraliqqa ajratiladi va ularning har biri nominal alomatning gradatsiyasi sifatida qaraladi. c_1 chagara qiymatini aniqlash mezoni ikki oraliqning har biri faqat bitta sinfga tegishli obyektlarning miqdoriy qiymatlaridan tashkil topadi degan mulohaza (tasdiq)ni tekshirishga asoslangan.

Aytaylik, $u_1^1,u_1^2\left(u_2^1,u_2^2\right) - x_j, j \in I$ alomat bo‘yicha obyektlar qiymatlarining mos ravishda $[c_0,c_1]$ va $(c_1,c_2]$ oraliqlardagi K_i, $i=1,2$ sinfga tegishlilari soni bo‘lsin. Va p – E_0 to‘plam obyektlarining x_j alomat bo‘yicha qiymatlarining o‘sib borish tartibida tartiblangan $r_{j_1},...,r_{j_p},...,r_{j_m}$ ketma-ketlikdagi oraliq chegaralari $c_0=r_{j_1}, c_1=r_{j_p}$, $c_2=r_{j_m}$ qiymatlarini aniqlovchi elementning tartib raqami bo‘lsin. Quyidagi mezon

$$\left(\frac{\sum_{p=1}^{2}\sum_{i=1}^{2}u_i^p\left(u_i^p-1\right)}{m_1(m_1-1)+m_2(m_2-1)}\right)\left(\frac{\sum_{p=1}^{2}u_1^p\left(m_2-u_2^p\right)+u_2^p\left(m_1-u_1^p\right)}{2m_1m_2}\right)\to max \qquad (1)$$

$[c_0,c_1],(c_1,c_2]$ oraliqlar o‘rtasidagi chegaraning optimal qiymatini hisoblash imkonini beradi va miqdoriy alomat uchun nominal o‘lchov shkaladagi gradatsiyasini ifodalaydi. (1) ifodadagi chap qavs sinflar o‘rtasidagi o‘xshashlikni, o‘ng tarafdagi qavs esa sinflararo farqni bildiradi.

w_i – orqali i – alomatning $i \in I$ (1) mezon bo‘yicha optimal qiymatini belgilaymiz, bu yerda c_0^i,c_1^i,c_2^i – lar mos ravishda oraliqni K_1 va K_2 sinflar bo‘yicha ajratgandagi chagaraviy qiymatlarni ifodalaydi. Miqdoriy alomatlar bilan ifodalangan obyektlarning umumlashgan baholari quyidagi tarzda aniqlanadi. Ixtiyoriy maqbul $S=(x_1,...,x_n)$ obyektning bahosini hisoblash uchun quyidagi funksionaldan foydalaniladi:

$$R(S)=\sum_{i=1}^{n}w_it_i\left(x_i-c_1^i\right)/\left(c_2^i-c_0^i\right), \qquad (2)$$

bu yerda $t_i \in \{-1,1\}$, vektor $T=(t_1,...,t_n)$ quyidagi shart asosida topiladi:

$$\min_{S_p\in K_1} R(S_p) - \max_{S_p\in K_2} R(S_p)\to max. \qquad (3)$$

Ushbu (2), (3) funksionallar yordamida umumlashgan baholarni topishning stoxastik algoritmida keltirilgan.

[1] Н.А.Игнатьев. Обобщенные оценки и локальные метрики объектов в интеллектуальном анализе данных. Монография, Ташкент, “Университет”, 2014, с. 72.

Hisoblash eksperimenti. Hisoblash eksperimenti sifatida O‘zbekiston tarixi davlat muzeyidan olingan 18 ta arxeologik artifakt rasmlari qaralib, ular mos ravishda K_1 (10 ko‘za) va K_2 (4 ta ostadon va 4 ta tovoq) tegishli deb olindi. Ularga *scipy, pillow, tensorflow, scikit-learn* kutubxonalari orqali dastlabki qayta ishlov berilib, obyekt-alomat shakliga keltirildi va (1), (2)lar asosida barcha obyektlar uchun umumlashgan baholar 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Obyektlarning (2) bo‘yicha umumlashgan baholari

№	K_1	K_2
1	0.82931891	0.06731956
2	0.60900684	0.20301293
3	0.73742238	0.26815992
4	0.65012873	0.30854208
5	0.60606661	0.32626462
6	0.67762112	0.35438857
7	0.27191095	0.36282830
8	0.86978240	0.40902840
9	0.87936884	
10	0.96426572	

Bu yerda 18 ta obyektlar uchun umumlashgan baholar hisoblangan. K_1 sinf vakillari 2 ustunda K_2 sinf vakillari esa 3 ustunda keltirilgan. Ushbu umumlashgan baholarni (1) mezonni qo‘llash orqali sinflar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rish mumkin (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Umumlashgan baholar uchun (1) bo‘yicha hisoblangan vazn qiymat

Sinflar o‘rtasidagi o‘xshashlik	Sinflararo farq	(1)
0.790123	0.811111	0.640878

Yuqoridagi natijadan shuni aytish mumkinki, (1) mezon bo‘yicha olingan 0.640878 qiymat sinf obyektlari orasidagi munosabatni anglatadi. Mezonning 1.0 teng qiymati sinf obyektlari umumlashgan baholari orqali aniq ajratilishi mumkinligini beradi. Bizni holda ular nisbatan aralashganligini bildiradi.

Ushbu olingan natijalarini berilganlarni intellektual tahlilining boshqa usullaridan foydalangan holda, yanada yaxshilash mumkin. Masalan, obyektlar orasidan shovqinlarini o‘chirish orqali (1) mezon qiymatini yanada yaxshilash mumkin.

Xulosa. Xulosi qilib shuni aytish mumkinki, berilganlar bazasidan umumlashgan baholarni hisoblash usuli yordamida yashirin qonuniyatlarni izlash va ularni tushunishga qulay tarzda tasvirlash soha mutahassislariga obyektlar va sinflar o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha yangi bilimlarni olishga imkon beradi. Yangi bilimlarning olinishi arxeologiya sohalarida qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Алмуратов Шавкат Нарпулатович (докторант Ташкентского Химико-технологического института; alshavkat@mail.ru)

ОСОБЕННОСТИ ЛИНЕЙНЫХ КОЛЕБАНИЙ ВЯЗКОУПРУГОЙ СФЕРИЧЕСКОЙ ОБОЛОЧКИ

Аннотация. *Ушбу ишда елимшакэластик сферали қобиқнинг чизиқли тебраниши масаласи кўриб чиқилган. Мазкур масала сферик функция ёрдамида топилган ва аналитик ечилган.*

Аннотация. *В данной работе рассмотрена задача линейных колебаний вязкоупругой сферической оболочки. Данная задача была найдена с помощью сферических функций и решена аналитически.*

Annotation. *In this paper, we consider the problem of linear oscillations of a viscoelastic spherical shell. This problem was found using spherical functions and solved analytically.*

Калит сўзлар: *елимшакэластик, сфера, эластиклик, чизиқли тебраниш, радиал тебраниш.*

Ключевые слова: *вязкоэластичный, сфера, упругость, линейные колебания, радиальные колебания.*

Key words: *viscoelastic, sphere, elasticity, linear vibrations, radial vibrations.*

Чисто радиальные колебания упругой изотропной пустотелой сферы – относительно старая задача [1]. Более доступное решение приведено в [2,5], где частотное уравнение в виде

$$\frac{\nu ha+(h^2a^2-\nu)tgha}{(h^2a^2-\nu)-\nu hatgha}-\frac{\nu hb+(h^2b^2-\nu)tghb}{(h^2b^2-\nu)-\nu hbtghb}=0 \qquad (1)$$

Здесь a, b – соответственно внутренний и наружный радиусы пустотелой сферы.

$$\nu=2\frac{1-2\sigma}{1-\sigma},h=\frac{\omega}{2}\sqrt{\nu\frac{\rho}{G}} \qquad (2)$$

Ω – комплексная частота радиальных колебаний, ρ–плотность материала, σ – коэффициент Пуассона, G – модуль сдвига. Вычисления частот выполнены только для пустотелых сфер с пренебрежимо малой толщиной стопки. Целью настоящего сообщения является вывод частотного уравнения в иной форме, позволяющей получить очень просто решение. Приводя уравнение (1) к общему знаменателю и приравнивая числитель нулю, получим

$$\frac{\nu h(b-a)(h^2ab+\nu)}{\nu^2h^2ab+(h^2a^2-\nu)(h^2b^2-\nu)}=\frac{tghb-tgha}{1+tghatghb}=0 \qquad (3)$$

Правая часть уравнения (3) эквивалентна включена tgh(b-a). Введем теперь следующие обозначения:

$$a=R-\frac{t}{2}\ ,\ b=R+\frac{t}{2}, \quad (4)$$

$$u=hl=h(b-a)\ ,\quad \zeta^2=h^2ab=h^2(R^2-\frac{t^2}{4})=h^2R^2-\frac{u^2}{4}$$

Где: R–радиус срединой поверхности толстостенной сферической оболочки, а t–толщина стенки. Замечаем также, что

$$h^2(a^2+b^2)=h^2(b-a)^2+2h^2ab=2\zeta^2+u^2$$

Таблица 1

Зависимость основной частоты радиальных колебаний от толщины стенки

σ		0			1/3	
u	hR	$\omega R/2\sqrt{1(1-\sigma)/(1+\sigma)\rho/G}$	t/R	hR	$\omega R/2\sqrt{1(1-\sigma)/(1+\sigma)\rho/G}$	t/R
0.00	1.414	1.000	o.ooo	1.414	1.000	0.000
0.25	1.412	0.999	0.177	1.420	1.004	0.176
0.50	1.406	0.994	0.356	1.435	1.015	0.348
0.75	1.394	0.986	0.538	1.460	1.032	0.514
1.00	1.382	0.970	0.729	1.489	1.053	0.671
0.25	1,336	0.945	0.936	1.521	1.076	0.822
1.50	1.279	0.905	1.172	1.551	1.097	0.967
π/2	7.258	0.890	1.248	1.558	1.102	1.008
1,75	1.195	0.845	1.465	1.572	1.112	1.113
2.00	1.076	0.761	1.859	1.577	1.115	1.268
2.082	1,041	0.736	2.000			
2.25				1.553	1.098	1.449
2.50				1.483	1.049	1.685
2.744				1.372	1.970	2.000

Теперь (3) можно переписать так:

$$\frac{\nu u(\zeta^2+\nu)}{\zeta^4-\nu(2-\nu)\zeta^2+\nu(\nu-u^2)}=tgu$$

Или в виде

$$\zeta^4-\nu(2-\nu+uctgu)\zeta^2+\nu^2(1-uctgu)-\nu u^2)\ . \quad (5)$$

Легко получить решение уравнения (5)

$$\zeta^2 = \frac{\nu}{2}[2-\nu+uctgu \pm \sqrt{(2-\nu+uctgu)^2 + 4(\frac{1}{\nu}u^2 + uctgu - 1)}]$$

Поскольку ξ^2 должно быть положительным, то в (5) следует брать только знак плюс. Тогда получим следующее частотное уравнение в параметрическом виде:

$$h^2R^2 = \frac{u^2}{4} + \frac{\nu}{2}[2-\nu+uctgu + \sqrt{(2-\nu+uctgu)^2 + 4(\frac{1}{\nu}u^2 + uctgu - 1)}] \quad (6)$$

С **помощью** этого уравнения легко построить кривую зависимости параметра частоты от отношения толщины сферы к ее радиусу. Некоторые результаты вычислений для первой формы колебаний при нескольких значениях коэффициента Пуассона (σ = 0, 1/3) даны в табл. 1. Очевидно, что на характер изменения основной частоты в зависимости от толщины стенки существенно влияет коэффициент Пуассона изотропной оболочки. Замечаем, что ограничение, наложенное на значение *u* в пределах, когда данное частотное уравнение справедливо, заключается в том, что *u* не может быть меньше нуля (случай сплошной сферы). Из уравнении (4a) и (6b) следует

$$t \le 2R \quad \text{или} \quad u = 2hR \quad (7)$$

уравнение при ограниченных значениях hR для сплошной сферы получаем теперь заменой *u* на 2hR в уравнении (6):

$$\frac{tg2hR}{2hR} = \frac{1}{\frac{1}{\nu}(2hR)^2 - 1} \quad (8)$$

Такой же результат получим, приравнивая внутренний радиус нулю в уравнении (3). Решения приведены в работе [3,4,6] и показаны в табл. 2.

Таблица 2

Номер корня	σ=0	1/2		1/3
1	0.6620	0.8160	0.8500	0.8733
2	1,8909	1,9285	1.9391	1.9479
3	2.9303	2,9539	2,9606	2.9656
4	3.0485	3.9658	3.9707	3.9744
5	4,9590	4.9728	4.9607	4.9776
6	5.9660	5,9774	5,0806	5.9830

Рассмотрены также другие предельные случаи для первой формы колебаний тонкой сферической оболочки положим $u = \varepsilon \prec 0$, а из уравнения (6) получим тогда

$$hR \approx \sqrt{\nu(3-\nu)}[1 + \frac{7-4\nu}{24\nu(3-\nu)}\varepsilon^2 + ...) \quad (9)$$

А из уравнения (6) $\frac{\varepsilon}{\nu(3-\nu)} \approx \frac{t}{R}$.Отсюда

$$hR \approx \sqrt{\nu(3-\nu)}(1 + \frac{7-4\nu}{24}\frac{t^2}{R^2} + ...)$$

,

что дает зависимость hR от отношения толщины к радиусу. Интересно сравнить эту величину со значением n лученным на основе линейной теории оболочки. Но выражение легко найти:

$$hR \approx \sqrt{\frac{\nu(3-\nu)}{1 + \frac{1}{12}\frac{t^2}{R^2}}} \approx \sqrt{\nu(3-\nu)}(1 - \frac{1}{24}\frac{t^2}{R^2} + ...) \quad (10)$$

Как легко убедиться, различие между двумя величинами имеет порядок $(t/R)^2$ по сравнению с единицей и обусловлено влиянием относительной радиальной колебания стенки оболочки, которое учитывается в теории оболочки, но не учтено в линейной классической теории. Замечаем из (6), что при более низких частотах тонкой оболочки толщина *t* будет малой. Из уравнения (6) замечаем, hR стремится к бесконечности или когда u равно nπ(n≠0). Следовательно для очень тонкой оболочки имеем ht=u→nπ Чтобы найти изменение ht при малых значениях отношения толщины к

радиусу, положим u=nπ+Ɛ. Тогда на (6) найдем $hR \approx \sqrt{\frac{\nu R\pi}{\varepsilon}}$

Заключение. Таким образом, мы показали метод анализа для нахождения частоты колебаний сферической оболочки.

Использованная литература:

1. Lamb H. On the Vibrations of a Spherical Shell. Proceedings of the London Matematical Sociecty, Vol. 14, December 14, 1882, p. 50 – 56.
2. Ляв А. Математическая теория упругости. ОИТИ, 1935.
3. Lamb H. On the Vibrations of an Elastic Sphero. Proceedings of the London Matematical Sociecty, Vol. 13, Jung 8 14, 1882, p. 150 – 156.
4. Сафаров И.И., Эсанов Н.Н., Алмуратов Ш.Н. Об исследовании спектров собственных колебаний тонкостенких пластин в магнитных полях//central asian journal of theoretical and applied sciences. Volume, 02 Issue, 05 May 2021, с. 124 – 132.
5. Almuratov Sh.N., Safarov I.I., Esanov N.Q. About research of spectra of own oscillations thin-wall plates in magnetic fields. European Journal of Molecular and Clinical Medicine. 2020, т. 7, № 7, с. 1109 – 1116.
6. Yahshiboyev Sh.R. Shavkat Almuratov, Esanov N.Q. Собственные колебания криволинейных участков трубопроводов спротекаюшей жидкостью. “Me’morchilik va qurilish muammolari”, 2020, т 2 № 3, с. 120 – 123.

FALSAFA

Юлдашев Фахриддин Абдувоситович (фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори, PhD)

ФОРОБИЙ МЕРОСИДА МУСИҚА САНЪАТИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ

Аннотация. *Мазкур мақолада Абу Наср Форобийнинг серқирра илмий мероси, хусусан, мусиқа санъатига доир фалсафий-концептуал қарашлари таҳлил қилинган. Мутафаккирнинг "Катта мусиқа китоби"рисоласида мусиқа феномени, унинг мақсадлари, мусиқа санъатининг назарий ва амалий қирралари атрофлича баён этилган.*

Аннотация. *В данной статье проанализировано многогранное научное наследие Абу Насра Фараби, в частности его философско-концептуальные взгляды на музыкальное искусство. В трактате мыслителя "Большая книга о музыке" подробно излагается феномен музыки, ее цели, теоретическая и практическая стороны музыкального искусства.*

Annotation. *This article analyzes the multifaceted scientific heritage of Abu Nasr Farabi, in particular his philosophical and conceptual views on the art of music. The thinker's treatise "The Big Book of Music" describes in detail the phenomenon of music, its goals, theoretical and practical aspects of musical art.*

Калит сўзлар: *мусиқа, санъат, билиш фалсафаси, маданият, ўрта асрлар.*

Ключевые слова: *музыка, искусство, философия познания, культура, средневековье.*

Key words: *music, art, philosophy of knowledge, culture, the Middle Ages.*

Жаҳон мусиқа маданияти тарихи мусиқа санъатини изохлашда илмий билимларнинг турли-туман босқичларини босиб ўтган. Бу йўналишдаги таълимотларга мурожаат қилар эканмиз, замонавий маданият чорраҳаларида мусиқага оид илмий дунёқарашни буюк алломалар илгари сурган ғоялар, фикр-мулоҳазаларсиз тасаввур этиш қийин. Мусиқа санъати тараққиётида туб бурилиш даврини ясаган файласуф, мусиқа назариясига оид қарашлар тизимини яратган мутафаккир Абу Наср Форобийдир. У йирик қомусий олим сифатида фалсафа, мантиқ, табиий ва аниқ фанлар билан бир қаторда, мусиқа назарияси таълимотини ҳам ривожлантиришга катта ҳисса қўшган.

Ўрта аср Шарқида "илм ал-мусиқа" йўналиши номи билан мусиқа назариясига оид билимлар Абу Наср Форобийнинг "Катта мусиқа китоби" рисоласида ўз ифодасини топган.[1] Файласуфнинг мусиқага оид қарашларини тавсифлар экан, Г.Дж.Фармер шундай ёзади: "Ўрта асрлар давомида мусиқа назариясининг бебаҳо муаллифи, шак-шубҳасиз, Абу Наср Форобийдир. У қадимги даврда греклар яратган мусиқий концепцияни ривожлантирибгина қолмай, балки ўрта аср ислом маданияти ҳамда ғарбий Европада ғоялари билан унга тенг келадиган назариётчи бўлган эмас".[2]

"Мусиқа ҳақида катта китоб" рисоласи файласуфнинг улкан меҳнати ва қобилиятининг натижасидир. Олим ўз олдига мусиқани ҳар томонлама ўрганиш вазифасини қўйди ва буни уддалади.[3]Илк бора мусиқа тарихида мусиқага оид билимларни тизимлаштиришни амалга оширди, мусиқа асбоблари ҳақидаги билимлар асосини яратди. Танбур, дутор, сурнай, шоҳруд каби мусиқа асбобларининг илмий изоҳланишини ёзиб қолдирди. Форобийнинг таъкидлашича, мусиқий асбоблар худди "куй"дан роҳатланишни вужудга келтиради. Бу ерда олим инсон овозини маъноли, ифодали, ғайриоддий ҳайратомуз даражада оҳангдор асбоб сифатида ўзида барча товушларнинг нозик сифатларини бирлаштирадиган восита, деб талқин қилди.

Абу Наср Форобийнинг ижодий меросида мусиқа санъати ҳақидаги масалаларга катта эътибор берилган. Таъкидлаш жоизки, мусиқа ўрта аср ислом маданиятида марказий ўринни эгаллаган. Борлиқни эстетик жиҳатдан ўзлаштириш, оламдаги "эзгулик" ва "гўзаллик"ни англаш Форобий фалсафасида ўз ифодасига эга. Мутафаккирнинг эстетик қарашларида "эзгулик" ва "гўзаллик" ғоялари ақл-идрокнинг мазмун-моҳиятини, инсон маънавий олами ва баркамоллиги, инсон ҳаёти ва жамият равнақининг юксак фазилатларга йўналганлигини кўришимиз мумкин.[4]

---

[1] Курмангалиева Г.К. Феномен музыки в наследии аль-Фараби. № 6, 2011, с. 33 – 37.

[2] Farmer K.G. Al-Farabi's Arabic-Latin writings on music. The texts ed., trans, and comment, by H.G.Farmer. Glasgow, 1934.

[3] Матякубов О. Фараби об основах музыки Востока. Ташкент, 1986.

[4] Юлдашев Ф.Ю. Концепция познания аль-Фараби в истории философии. «Философия инноваций и социология будущего в пространстве культуры: научный диалог». Сборник статей Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Уфа, 2020, с. 389 – 393.

Энг муҳими, файласуф таълимотида мусиқа феномени атрофлича ва моҳиятан асосланган тарзда шарҳлаб берилган. “Катта мусиқа китоби” рисоласи ўрта аср ислом маънавий маданиятида оламшумул фикр-мулоҳазаларнинг баёни билан эътироф этилади. Мазкур рисола ўз даврида Шарқ мусиқа маданиятида улкан бурилиш ясаган десак, муболаға бўлмайди. Бу, биринчидан, ўрта аср ислом маданиятида тарихан шаклланган мусиқа назариясининг яратилишини ифодаласа, иккинчидан, ўша даврда мусиқий чолғу асбобларининг ўзига хос оҳанглари жилоси билан машҳур бўлганлигидан далолат беради.

Форобий “Катта мусиқа китоби” рисоласи орқали нафақат араб мусиқасининг, балки турли халқларнинг мусиқа маданияти билан танишиш имкониятини беради. “...чунки у маданиятлараро ҳамкорликни вужудга келтирган”.[1] “Катта мусиқа китоби” рисоласи ўрта асрлардаги фалсафа, математика, педагогика ва психология каби фанларнинг мажмуидан келиб чиққан ҳолда ёзилган. У қадимги давр мутафаккирлари ва ўрта аср ислом дунёси мутафаккирлари билимларини уйғунлаштиришга, давлатлараро маданиятларни бир-бири билан боғлашга хизмат қилган.

Ўрта аср ислом маданиятида Форобийнинг бадиий-эстетик ижодини ўзига сингдирган мусиқа санъати манба бўлиб хизмат қилади. Бу маданият бошидан-охиригача мусиқа билан сингдирилган бўлиб, баланд миноралардан тараладиган илоҳий оятлар оҳанги ва халқ чолғу асбобларининг оҳанглари орқали ифодаланади. Айнан бу даврда юксак даражадаги мусиқий ижролар профессионаллик даражасига кўтарилган, мусиқа назарий фан сифатида ишлаб чиқилган, ўрта аср мутафаккирларининг фалсафий-эстетик қарашлари билан, шунингдек, мусиқий санъатнинг анъаналарини авлоддан-авлодга узатадиган мусиқий ижро мактаблари билан чамбарчас боғланиб кетган.

“Катта мусиқа китоби” рисоласи мусиқа ва мусиқий санъатга оид қомусий билимларнинг мажмуи сифатида ҳам назарий, ҳам амалий билимларни мужассамлаштирган десак, муболаға бўлмайди. Унда Форобий мусиқа санъати ҳамда унинг аҳамиятини тушуниш ҳақида назарий ва амалий фикр-мулоҳазаларини баён қилган.

Маълумки, қадимги даврларда Пифагор, Афлотун, Арасту каби файласуфлар мусиқанинг серқирра ва мураккаб хусусиятлари ҳамда инсон ва жамият ҳаётидаги ижтимоий, маданий ва диний ролини чуқур англаганлар. Ўрта аср ислом маданияти вакиллари эса ана шу мураккабликларнинг ечимини топишда кенг қамровли ёндашувларни илгари сурганлар. Бунда, аввалambор, мусиқанинг тарбиявий аҳамиятига катта урғу берилган. Хусусан, Ал-Киндий, Ал-Форобий, Ибн Сино, Ибн Божжа каби файласуфлар мусиқанинг иккиёқлама хусусиятини таъкидлаганлар. Биринчидан, мусиқа ақл-идрок билан тасаввур қилинади ва бу назарий асос сифатида амалиёт учун имконият яратади. Амалий тарзда эса мусиқа чолғу ижрочилиги санъати билан боғланиб кетади. Мусиқанинг иккиёқламалилиги ўртасида услубият борасида бирмунча фарқлар кўзга ташланади. Форобий мусиқани таҳлил қилишда умумийлик тамойили асосидаги ёндашувга таянди ва шу орқали мусиқага оид назарияни яратди. Мазкур ёндашув воситасида мусиқа назариясининг назарий ва амалий қирраларининг узвийлигини кўришимиз мумкин. Мутафаккир мусиқани нафақат билиш объекти сифатида, балки субъектив билимлар, яъни, мусиқа ва мусиқий асарларни идрок қилиш масаласини ўрганиш сифатида ҳам таҳлил қилди. Форобийнинг фикрича, мусиқа, даставвал, амалий санъат сифатида вужудга келган: “...у “инсон овози” воситасида ижро этилган санъатдир”. Демак, бундан кўриниб турибдики, мусиқа санъатининг бирламчи шакли қўшиқ куйлаш бўлиб, у бадавийларнинг қўшиқлари ёки саҳрода туяларини етаклаган подачиларнинг қўшиқлари тарзида ифодаланган. Бундай ижрони файласуф табиий феномен сифатида баҳолаган. Мусиқий чолғу асбобларида куй ижро этиш эса, мутафаккирнинг фикрича, инсон тараққиёти билан боғлиқ равишда юзага келган жараён ҳисобланади. Чунки инсон ақл-идроки билан мусиқа асбобини яратишни амалга оширган. Бундан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, қўшиқ куйлаш бирламчи мусиқа санъати бўлса, чолғу асбоблари ижроси сунъийлашган ҳамда ижтимоий-тарихий, маданий ўзлаштирилган жараён сифатида ифодаланади. Шу ўринда мусиқий ижодни шеърият ижоди билан узвий алоқаси ҳам таъкидланади.

Мусиқий амалиёт ривожланган сари, деб ёзади Форобий, мусиқа назарияси вужудга келади. Амалиётнинг барча тараққиёт босқичлари босиб ўтилганидан сўнг, куй яратилади, натижада мусиқий асар вужудга келади. Шунга қарамай, мусиқанинг назарий ва амалий томони босқичма-босқич амалга ошса-да, Форобий уларни бир бутунликда талқин қилади. “Мусиқанинг назарий ва амалий

[1] Аль-Фараби. Трактаты о музыке и поэзии. Пер. с арабского, Алма-Ата, “Ғылым”, 1992, с. 159.

томони бир-бирини тўлдиради, иккаласининг бирлашуви эса мусиқа ҳақидаги таълимотни ташкил қилади”.[1]

Мусиқа назарияси ақлий салоҳият билан етишадиган фандир. У муайян чолғу асбоби ва унинг ижрочиси орқали мавҳумлашади. Мусиқа назарияси куйнинг қандай мавжуд бўлиши сабабларини ўрганади. Бу жараёнда унинг умумфалсафий методологияси муҳим аҳамият кашф этади. Ал-Форобий, файласуфгина амалий санъат қирраларини таҳлил қилади ҳамда уларни оддий халқ учун тушунарли тилда етказиб беради, деб ёзади.[2]Форобийнинг такидлашича, мусиқий тамойиллар ноаниқ ва кам ўрганилган бўлиб, уларни мусиқа санъати амалий тажрибасида маълум бўлган қирраларини умумлаштирган ҳолда ўрганиш зарур. Шунинг учун мусиқа санъати асосларини ўрганишга кўп ёқлама ёндашув орқали эришиш мумкин.

Ўрта асрлар мусиқасини таҳлил қилар эканмиз, унда мумтоз мусиқанинг ўрнини таъкидлаш лозим. У ўрта аср ислом маданиятининг чўққиси, нафосати, назокати, юксак бадиийлиги ва мукаммаллигини ифодалайди. Мумтоз мусиқа санъати мураккаб тараққиёт йўлини босиб ўтган ва ўзида турли халқлар маданиятининг анъаналарини мужассамлаштирган. “Катта мусиқа китоби” рисоласида мусиқанинг моддийлиги ижтимоий нуқтаи назардан инсон фаолиятидаги мақсад ва вазифалари доирасида тушунтириб берилган. Файласуфнинг мусиқа ва мусиқий санъатнинг инсон ва жамият хаётидаги ўрни ҳақидаги фикр-мулохазалари ижтимоий-фалсафий мазмунда йўналтирилиб идеал жамият, унда шахс баркамоллиги ва бахт-саодатга эришуви масалаларига боғланиб кетади.

Мусиқа санъати Форобий томонидан фалсафий-метафизик жиҳатдан тадқиқ этилади. “Катта мусиқа китоби” рисоласининг якуний боби “Инсон фаолиятида куй ва унинг мақсадлари” деб номланиб, унда файласуф борлиқни “бирламчи ва бирламчи бўлмаган субстанциялар” (ҳодисалар)га фарқлайди. “Бирламчи бўлмаган субстанциялар” табиий фанлар ҳамда инсоннинг иродаси билан боғлиқ бўлган маънавий, интеллектуал ва жисмоний сифатлари; қадриятлар тизими, ахлоқ-одоби ва ҳис-кечинмаларига тааллуқли нарса-ҳодисалардан иборат бўлади.[3] Иккиламчи субстанциялар эзгулик ва ёвузлик каби ижтимоий-ахлоқий мезон орқали таъсифланади. Бунда инсон фаолияти иккита умумлашган тушунчалар, меҳнат ва ўйин воситасида ифодаланади. Меҳнат орқали инсон ўз мақсадларини амалга оширса, ўйин эса кишининг ўз имкониятларларини тиклашида меҳнат қилишга ундайди. Инсон хатти-ҳаракатларининг ўзаро мувофиқлиги унинг ҳақиқий бахт-саодатга эришувини ёки ҳиссий қониқишни бошдан кечириб, хотиржамликка етишувини кўрсатиб беради.[4]

Мусиқий санъатнинг жамиятга муносабатига оид мулоҳазалари Форобийнинг фалсафий-ахлоқий қарашларини ифодалайди. Олам инсон табиатига хос бўлган бундай хусусиятларни ўзининг “Бахт-саодатга эришув”, “Фуқаролик сиёсати”, “Фозил одамлар шаҳри” каби асарларида изоҳлаб берилган. Форобийнинг таъкидлашича, бахтга эришиш ёки мутлоқ эзгулик ва юксак камолот инсон мавжудлигининг мазмуни ҳамда мақсадидир. Агар файласуфнинг фалсафий мушоҳадасида бахт бирламчи мавжудлик, яъни, билишдан иборат бўлса, ижтимоий-ахлоқий нуқтаи назардан бу инсоннинг интеллектуал ва баркамолликка эришувини билдирадиган тушунча сифатида фалсафий билимларнинг назарий ва амалий жихатларини ташкил килади.[5]

Хулоса сифатида айтадиган бўлсак, Абу Наср Форобий илгари сурган мусиқага оид фалсафий-эстетик қарашлари ўзбек мусиқа маданияти ва маънавий ҳаётининг ажралмас қисмидир. Мутафаккир фалсафасида мусиқа санъати бошқа фанлар ва санъатлар билан бир қаторда, инсоннинг яратувчанлик қобилияти сифатида талқин қилинади. Бу эса инсонга хос бўлган билиш доирасини белгилайди. Фан ва санъатнинг турли-туман кўринишлари инсонни оламни билишга ва англашга олиб борувчи йўл бўлиб хизмат қилади. Шунингдек, Форобий фалсафасида мусиқа назариясининг талқини бевосита олим илгари сурган билишга оид таълимотининг махсус хусусияти сифатида ифодаланади. Бу эса мусиқа барча назарий-фалсафий тизимда кўриб чиқилишини талаб қилади. Модомики, мусиқа санъати бутун бир тизимнинг яхлит тарздаги муфассал фани, деб қаралиши, табиий.

---

[1] Шу манба. 225-бет.

[2] Шу манба. 145-бет.

[3] Шу манба. 145-бет.

[4] Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Т., “Янги аср авлоди”, 2016, 320-бет.

[5] Юлдашев Ф.А. Абу Наср Форобийнинг ақл ва билим эволюцияси ҳақидаги қарашлари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси, 09.00.03-фалсафа тарихи. Самарқанд Давлат университети, Самарқанд, 2018, 134-бет.

Abdullayev Madamin (UrDU tadqiqotchisi)

MAXTUMQULI HIKMATLARIDA HAYOT FALSAFASI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Maxtumquli Firog‘iyning hayot haqidagi falsafiy qarashlari ayrim hikmatlari asosida qisqacha tahlil etilgan. Hayot haqidagi purma’no fikrlar Maxtumquli hikmatlarida alohida o‘rin tutadi. Hayot yo‘llarida uchraydigan turli tasodiflar, yaxshi-yomon kunlardagi orttiriladigan tajriba, turli xarakterdagi insonlarning muomala va munosabati kishini falsafiy fikrlashga undashi borasida muayyan g‘oyalar ilgari surilgan. Shoir hayotda ko‘rgan-kechirganlari asnosida o‘z fikrlarining ijod mahsuli bo‘lgan hikmatlarida, pand-nasihatlarida bayon etar ekan, bu hayotda hech qachon tushkunlikka tushmaslik zarurligini uqdiradi.*

Аннотация. *В данной статье кратко анализируются философские взгляды Махтумкули Фираги на жизнь, основанные на некоторых образцах его мудрых цитат. Философские мысли о жизни занимают особое место в мудрости Махтумкули. Высказывались определенные идеи о том, что различные жизненные совпадения, опыт, полученный в хорошие и плохие дни, поведение и отношение людей разного характера побуждают человека мыслить философски. Свои мысли, основанные на увиденном в жизни, поэт излагает в своей книге мудрости и советах, являющихся продуктом творчества, и подчеркивает необходимость никогда не впадать в депрессию в этой жизни.*

Annotation. *This article briefly analyzes the philosophical views of Magtymguly Firagi on life, based on some of his wisdom. Philosophical thoughts about life occupy a special place in Magtymguly's wisdom. Certain ideas have been put forward that the various coincidences of life, the experiences of good and bad days, the behavior and attitudes of people of different characters encourage a person to think philosophically. The poet expresses his thoughts, based on what he saw in life, in his wisdom and advice, which are the product of creativity and emphasizes the need to never become depressed in this life.*

Kalit so‘zlar: *hayot, oxirat, yoshlik, e’tiqod, boylik, sog‘lik, nasihat.*

Ключевые слова: *жизнь, загробная жизнь, молодость, вера, богатство, здоровье, наставление.*

Key words: *life, hereafter, youth, faith, wealth, health, advice.*

O‘z zamonasining yetuk mutafakkiri Maxtumquli Firog‘iy ma’naviy merosi asrlar osha ko‘plab millat va elatlar, jumladan, turkiy xalqlarning ezgulik yo‘lidagi kechmishida yo‘lboshlovchi g‘oyaviy mayoq vazifasini o‘tab kelgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Uning pand-nasihatlari, she’r-u g‘azallari hali hamon insonlarning qalbini tug‘yonga keltirib, yaxshilik va savob ishlarga chorlab keladi. Mazkur maqolada mutafakkir qalamiga mansub hikmatlarga asoslanib, uning hayot falsafasini, imkon qadar, tahlil qilishga harakat qildik.

Maxtumqulining shaklan sodda, lekin juda chuqur falsafiy mazmunga ega hikmatlarini mutolaa qilar ekanmiz, ularda katta hayotiy falsafaga duch kelamiz. Alloma hikmatlarining asosini iymon-e’tiqod, o‘lim va hayot, umr o‘tkinchiligi va oxiratning boqiyligi, qiyomatning haqligi va ogohlik bilan unga hozirlik ko‘rish zarurligi kabi ezgu g‘oyalar tashkil etadi. Shoir o‘z hikmatlarida insonning umri juda qisqa ekanligini, uni behuda ishlarga sarf etmaslikni, olamni anglash, savobli amallarni ko‘proq ado qilish lozimligini ko‘p bora uqdirgan.

G‘oyatda murakkab turmush sharoitlari va taqdir zarbalari Maxtumqulining hayot falsafasini shakllantirgan muhim omillar bo‘ldi. Sevgilisi Menglixondan ayrilish, ota-onasi va yaqin jigarlaridan, ayniqsa, ikki o‘g‘lidan erta judo bo‘lish uning hayotidagi eng ayanchli voqealar edi. Shunday vaziyatda allomaning yagona ilinji, tayanchi, uning ijodi bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Zero, atrofida yaqinlari qolmagan bir sharoitda unga dalda bo‘lgan yagona narsa – bu qog‘oz va qalam edi. U hayotda ko‘rgan-kechirganlari asnosida o‘z fikrlarini ijod mahsuli bo‘lgan hikmatlarida, pand-nasihatlarida bayon etar ekan, bu hayotda hech qachon tushkunlikka tushmaslik zarurligini uqdiradi. Foniy dunyo hoy-havaslariga emas, balki boqiy dunyo tadorikiga ko‘proq e’tibor berishga chorlaydi.

Maxtumqulining “Bo‘lmas” deb nomlangan hikmatida umrning o‘tkinchiligi xususida, mol-dunyoga ruju qo‘ymaslik haqida ajoyib fikrlar bayon etilgan:

Mag‘rur bo‘lib kezma umring guliga,
Duch bo‘larsan bir kun xazon yeliga,
Yuz yil yashab, tushsang ajal qo‘liga,

Chapingdan o‘ngingga boqqancha bo‘lmas.[1]

Bu yerda mutafakkir umr guli deya yoshlikni nazarda tutib, uning o‘tkinchi ekanligini, xazon yeliga mengzalgan keksalik davri ko‘z ochib yumguncha kelib qolishini ta’kidlaydi. Inson qancha uzoq yashamasin, baribir, bir kun kelib, bu foniy dunyoni tark etajagini unutmaslikni uqdiradi. Hayotning shunchalar qisqaligini chapdan o‘ngga boqqanchalik fursatga o‘xshatadi.

“Ko‘ring” deb nomlangan she’rida esa mavzuni davom ettirib, kishilarni qanoatga chorlovchi, moldunyoning o‘tkinchi ekanligini uqdiruvchi pand-nasihatlarni bayon etadi:

Bir nechani qilding moli bisyori,
Bir nechani qilding bir pulning zori,
Yaxshi-yomon odam zotining bori
Navbat bilan o‘tib borishin ko‘ring.[2]

Hayotda kimdir boy, kimdir kambag‘al, kimdir yaxshi, kimdir yomon bo‘ladi. Lekin, baribir, barcha navbati bilan bu dunyoni tark etadi. Insondan bu dunyoda faqat yaxshi yoki yomon xotiralar qoladi. Bunga esa har kim umri davomida erishib boradi, degan xulosani takror-takror ta’kidlab o‘tadi, alloma.

Maxtumquli insoniy sifatlarni tavsiflar ekan, avvalo, odamlarning hayotda o‘z o‘rnini topishlarini, maqsad, intilishlarini to‘g‘ri belgilab olishlarini, muhimi, insoniylikni yo‘qotmasliklarini uqdiradi. O‘tkinchi dunyoning tashvishlari deb atrofdagi insonlarning qadr-qimmatini unutmaslik, o‘zaro hurmatni saqlash lozimligini ko‘p bora ta’kidlagan. Mutafakkir odamlarga qarata hayotning qadriga yetishni ta’kidlar ekan, bunda turli misollardan unumli foydalanadi.

Sog‘lig‘ing qadrini bilgil, xasta bo‘lmasdan burun,
Xastalik shukrini qilg‘il, toki o‘lmasdan burun,
Tuz yer qadrini bilgil, daryo to‘lmasdan burun,
Kemada xushyor o‘tirgil, girdoba kelmasdan burun,
Yoshliging qadrini bilgil, to tark etmasdan burun.[3]

Mazkur o‘gitlari orqali shoir odamlarga qarata bu dunyoning o‘tkinchiligini, Alloh bergan qisqagina umrni savob amallarga sarf etish lozimligini, keyin afsus qilish yaramasligini tushuntirmoqchi bo‘ladi. Buyuk boylik bo‘lgan sog‘liqni, uni yo‘qotmasdan oldin asrash, yoshlikni keksaymasdan avval qadriga yetish zarurligini uqtiradi. Inson fe’li, odatda, ko‘p narsalarning qadr-qimmatini ulardan ajralgandagina anglashida. Shu bois mazkur pand-nasihatlar odamlarda hayotning, sog‘liqning, yoshlikning, boringki, barcha narsaning qadriga yetishni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mutafakkir odamlarda uchraydigan sabrsizlik, qanoatsizlik kabi illatlar xususida fikr yuritib, bularning nojoiz ekanligini, sabr-u qanoat insonni ulug‘ manzillarga yetaklashini uqdiradi:

Maxtumquli, shukr etgil Xudoga,
O‘lim barobardir shoh-u gadoga.
Besar qul tez yo‘liqar baloga,
Sabrli qul bora bora shod bo‘lar.[4]

Yoki:

Maxtumquli, shu kuningga shukr qil,
Ollohning qudratin ko‘rib, fikr qil,
Rizq uchun g‘am yema, Haqqa zikr qil,
Taqdirdan o‘zgasi senga duch bo‘lmas.[5]

Bu pand-nasihatlar orqali mutafakkir insonlarni sabrli bo‘lishga, hayotning har qanday sinovlariga mardonavor bardosh berib, insoniylikni yo‘qotmaslikka chaqiradi. Alloh bergan rizqqa shukrona keltirib yashash lozimligini, taqdirni o‘zgartirib bo‘lmasligini ko‘plab asarlarida ta’kidlab o‘tgan. Insoniylikni ulug‘lagan shoirning hamisha ezgulik yo‘lida yashash, odamlarga yaxshilik, hayr-u saxovat amallarini qilish borasidagi fikr-mulohazalari bayon qilingan hikmatlari diqqatga sazovordir. Bugungi shiddatli zamonda bu kabi pand-nasihatlar insonlarni to‘g‘ri yashashga, o‘zgalarning qadr-qimmatini e’zozlash ruhida tarbiyalashga munosib hissa qo‘shishi, shubhasiz.

---

[1] Махтумқули. Дунё ўтиб борадир (Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Эргаш Очилов). Т., “Шарқ”, 2007, 22-бет.
[2] O‘sha asar. 25-бет.
[3] Махтумқули. Севмишам сени: шеърлар (тарж. Музаффар Аҳмад). Т., «DAVR PRESS» НМУ, 2016, 94-бет.
[4] Махтумқули шеърлари. Т., “BOOK MEDIA NASHR”, 2019, 30-бет.
[5] Махтумқули. Устозингдан айрилма (Таржимон ва сўз боши муаллифи Э.Очилов), “O‘zbekiston”, 2012, 56-бет.

Maxtumquli hayotda juda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelgan, yaxshi-yomon, boy-kambag‘al, vijdonli-vijdonsiz, aqlli-ahmoq odamlarni uchratgan. Mol-dunyoga xirs qo‘yib oxiratni unutish qanchalar ayanchli ekanligini tasvirlab yozgan misralar orqali mutafakkir insonlarni ogohlikka da’vat qiladi:

Oltin-kumush, shohi-ipak bo‘lar dom,
Oxiratning yo‘lin to‘sarlar mudom,
Bu bozorni qizdirdi charx tong-u shom,
Kim yutdiki unda, sen ham yutarsan?[1]

Bu yerda Maxtumquli mol-dunyo orttirish yo‘lida umrini o‘tkazayotgan odamlarga murojaat etib, boylikning dom (tuzoq) ekanligiga urg‘u beradi. Insonni oxirat haqida o‘ylashdan chalg‘itadigan bir g‘ov, to‘siq, deya ta’riflaydi. Muhimi, bu bozorga mengzalgan dunyoda shu kungacha hech kim yutmagan va yutmasligi tayin, degan xulosaga keladi. Odamzodning guldek umri hoy-havas, o‘yin-kulguga isrof bo‘-layotgani unga tinchlik bermaydi, qiynaydi, behalavot qiladi. Aynan mana shunday hikmatlar allomaning yetuk faylasuf darajasiga yetganligini ko‘rsatadi.

Umrimni sarf etdim hoy bilan voyga,
Qulluq-toat aylamadim Xudoyga,
Yigitlik chog‘imni o‘tkazdim zoya,
Endi na kuch-quvvat, na bir jo‘sh qoldi.[2]

Yoki:

Cho‘x bezdirsa qarilikning zahari,
Buzuq bo‘lar ko‘ngil-vujud shahari,
Qo‘ldan ketsa yigitlikning bahori,
Quvvat qochar, tiz egilar, bel qolmas.[3]

Yoshlikning o‘tkinchiligi, quvvatning tanaga mehmonligini ta’kidlar ekan, Maxtumquli insonlarni yaxshi amallarni yigitlik vaqtida ko‘proq qilishga chorlaydi, keksayganda faqat nasihat qilishga imkoni bo‘lishini, shu bois, yoshlikning qadriga yetib, ko‘proq ezgu amallarni ado etish lozimligini uqdiradi:

Qariga aylandi biz ko‘rgan yoshlar,
Tashlandi oyoqqa biz ko‘rgan boshlar,
Bemahal yuk bog‘lab endi qardoshlar,
Oxirat qasdiga ko‘cha boshladi.[4]

Umuman olganda, Maxtumqulining hayot haqidagi qarashlarida ko‘proq oxiratni o‘ylash, bu dunyo lazzatlariga uchmaslik, yoshlikning qadriga yetish kabi g‘oyalar ustuvorlik qiladi. Alloma o‘zi yashagan davr taloto‘plari iskanjasida hayot falsafasini shakllantirib bordi. Oxirat haqida ko‘p fikrlar yuritganligi uchun Maxtumqulini pessimist deb atash noo‘rin bo‘lardi. Aksincha, u insonlarni ogohlikka, xushyorlikka chorlab, ezgu amallarga da’vat etgan. O‘z elining baxtli kelajagiga chin ko‘ngildan ishongan, hayot zarbalariga mardonavor turib bergan optimist inson desak, to‘g‘ri bo‘lardi. Maxtumqulining ayanchli taqdir sinovlariga dosh berib, qanchadan qancha hikmatlar yaratishga o‘zida kuch topa bilganligi uning haqiqiy mardligidan dalolat beradi. Hayotning arzimas qiyinchiliklari oldida mag‘lub bo‘lib, esankirab, o‘zini yo‘qotib qo‘yadigan odamlarga aynan uning hayot yo‘li namuna bo‘la oladi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, Maxtumqulining hayot haqidagi falsafiy qarashlari necha zamonlardan beri o‘zining qimmatini insoniyatga ko‘z-ko‘z qilib kelmoqda. Uning hayotiy hikmatlari insonlarni to‘g‘ri yashashga, insofli, diyonatli bo‘lishga da’vat etib keladi. Bugungi shiddatli zamonda mutafakkir pand-nasihatlariga bo‘lgan ehtiyoj yanada ortgan. Shu bois, bizning fikrimizcha, mazkur ehtiyojdan kelib chiqib ayni paytda:

–alloma hikmatlarini keng omma e’tiboriga havola etish;

–uning hayot yo‘li to‘g‘risida badiiy-ommabop asarlar yaratish ishlarini keng ko‘lamda tashkillashtirish;

–bu boradagi ishlarga sohaning yetuk olimlari va mutaxassislarini jalb etish;

–mutafakkir faoliyatiga doir ilmiy tadqiqot ishlarini tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish va rag‘batlantirish;

---

[1] Махтумқули. Ҳикматлар (Таржимон ва тузувчи Э.Очилов). Т., “O‘zbekiston”, 2013, 61-бет.
[2] Махтумқули Фироғий. Сайланма (Таржимонлар: А.Жумаев, Ж.Зулпиев). Т., “O‘zbekiston”, 2008, 138-бет.
[3] O‘sha asar. 50-бет.
[4] Махтумқули. Дунё ўтиб борадир (Нашрга тайёрловчи, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Эргаш Очилов). Т., “Шарқ”, 2007, 59 – 60-бетлар.

–ta’lim tizimida mutafakkir ijod namunalarini o‘rganishga doir predmetlar, dars mashg‘ulotlarini kengaytirish;

–jarayonda xalqaro hamkorlik masalalariga jiddiy e’tibor berish maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Музаффаров Фируз Давронович (БухДУ Миллий ғоя, ҳуқуқ ва маънавият асослари кафедраси мудири, фалсафа доктори (PhD), доцент; e-mail: gazzali83@mail.ru)

ИМОМ ҒАЗЗОЛИЙ ГНОСТИЦИЗМИ – ИРФОНИЙ БИЛИШ НАЗАРИЯСИ

Аннотация. *Мақолада Имом Ғаззолийнинг билиш назарияси ва унинг комил инсон концепциясини ишлаб чиқишдаги аҳамияти кўриб чиқилган. Тарихий ва мафкуравий шарт-шароитларга мос келувчи сўфий орифлар ғоя, орзу-умидларини ўзида мужассам этган таълимотнинг янгитдан яратилганлиги асослаб берилган.*

Аннотация. *В данной статье раскрыто значение теории знания имама Газали в концепции совершенного человека. Дано обоснование нового учения включающего в себе идеи, чаяния суфиев соответствующих историческим и идеологическим условиям.*

Annotation*. In the following article, the significance of the theory of knowledge and the concept of perfect man as per imam Ghazali is processed. The substantuation of the newly incepted teaching on ideas, dreams of the Sufis corraborating the historical and ideological conditions is conducted.*

Калит сўзлар: *тавба, сабр, шукр, хавф, ижо, фақир, зуҳд, таваккул, муҳаббат.*

Ключевые слова: *раскаяние, терпение, благодарение, опасность, свобода, бедность, зухд, риск, любовь.*

Key words: *repentance, patience, gratitude, danger, liberty, powerty, zuhd, tawakkul, love.*

Имом Ғаззолийнинг ирфоний-фалсафий қарашлари “Иҳёу улумид-дин”нинг тўртинчи қисмида равон тилда баён этилган. У тариқатнинг асосий ғояларини, Аллоҳга яқинлашиш ғоясини, унга олиб борувчи тариқат йўлларини ва бу йўлда мукаммалликка эришув босқичларини қамраб олади.

Ғаззолий қарашларида ҳар бир манзил инсонда ўзликни англаш учун хизмат қилишини ва инсон ҳар бир манзилда алоҳида ахлоқий сифатларга эришишини кўрсатган. Бу манзилларни аллома тасаввуфий жиҳатдан қуйида-гича номлайди: тавба, сабр, шукр, хавф, ижо, фақир, зуҳд, таваккул, муҳаббат. Мутафаккирнинг билишга доир қарашлари бошқа тасаввуф вакилларидан фарқли ўлароқ, юқорида санаб ўтилган тўққиз асосий манзилдан ташқари, яна бу манзилларга йўлдош бўлувчи яккахудолик, садоқат, ғам, қувонч, қаноат, самимийлик каби сифатлар ҳам мавжуд.

Биринчи манзил тавба бўлиб, Ғаззолий ёзади: “Тавба қалб билан бўлади. Бу эса маъсиятдан итоатга, гуноҳдан ибодатга, ғафлатдан зикрга, ғойибдан ҳозирга қайтишдир. Тавба шариатдаги энг улуғ мақсад ва охират йўлига тушганларнинг аввалги мақомидир”.[1]Зоҳид бу манзилда ўз гуноҳларини англаб, тавба қилади ва кейинги ҳаётини фақат эзгулик ва хайрга бағишлайди, шунинг асносида, бир ҳаёт тарзини тарк этиб, иккинчи ҳаёт тарзига хулқини, ахлоқини ўзгартира бошлайди, ўзини англаш, билиш учун сафарга чиқади. Аллома тавбани истакка боғлиқ бўлиши кераклигига эътибор қаратади. Бу билан у, истак агар қалб билан боғланмаса, зоҳид учун бу тўсиқ бўлишини, агарда тавба истак ва қалбга боғланган бўлса, у зоҳидда Аллоҳга яқинлашиш лаззатини пайдо қилади. Умуман, аллома тавбани шифобахш дорига ўхшатади. Бу дори илмнинг ширинлиги билан сабрнинг аччиқлигига қоришиб тайёрланади.

Иккинчи манзил сабрдир. Ғаззолий эътирофича, сабр маърифат, ҳол ва амалдан иборатдир. Маърифат асл бир дарахт, ҳол эса дарахтнинг қисмлари, амаллар эса мевалардир.[2] Мутафаккир сабрни иймоннинг ярми, деб ҳисоблайди ва сабр ҳар қанча заҳматли ва зўр бўлмасин, у фақат илм ва амал қоришмасидан майдонга келади ҳамда қалбдаги барча хасталикларнинг иложи ҳам шу, деб кўрсатади. Ғаззолий ўз қарашларида инсоннинг тақдири Аллоҳнинг қўлида эканлигини, бахтсизлик унга имтиҳон учун юборилгани, ҳар қандай ҳолатда ҳам зоҳид ўз эътиқодига содиқ бўлиши зарур, деб ҳисоблайди.

Учинчи манзил шукр. Ғаззолий шукрни ҳам илм, ҳол ва амалдан майдонга келади,[3] деб кўрсатади. Унингча, илм асл бўлиб, ҳолатни яратади. Ҳол эса амални майдонга келтиради. Илм – неъ-

[1]Абу Ҳомид Муҳаммад Ғаззолий. Муҳаббат, шавқ, унс ва ризо китоби. Т., “Мовароуннаҳр”, 2005, 103-бет.
[2]Hüccetü’l-İslâm İmâm Gazâlî. Ihyâu ‘Ulûmi’d-Dîn. (Cilt-4). Rub‘u’l – Münciyat. İstanbul: Bedir Yayınları, 1974–1975, 119-бет.
[3]Шу манба. 157-бет.

мат бўлиб, бу неъматнинг Аллоҳдан келганини билмоқдир. Амал–неъматнинг берилган мақсадига ва орзусига кўра, ҳаракат этмоқдир. Бу ҳаракат қалб ва бошқа азолар билан бўлади. Умуман, мутафаккир ўз қарашларида, инсон ўзини худонинг унга қилган яхшилигига шукр қилишга ўргатиши лозим,[1] деб ҳисоблайди. Худо уни жонсиз тош эмас, балки тирик мавжудот инсон қилиб яратганига, ҳайвон қилиб эмас, балки инсон қилиб яратганига, уни чўлоқ, кўр ёки бир қўлли қилиб эмас, соғлом қилиб яратганига, ёвузлик қилиб эмас, балки яхши киши қилиб яратганига шукр қилиши лозимлиги таъкидлайди. Инсон азоларини батафсил таҳлил этиб, Аллоҳнинг неъматларини шарҳлаб, шундай ёзади: “Одамзод яратган барча тегирмон тошларининг пасткиси қимирлайди, собит туради ва устидаги тош қимирлайди. Аммо Аллоҳнинг санъати бўлган бу “тегирмон”нинг пастки қисми ҳаракатланади, юқориси собит, тек туради”,[2] дея ўз қарашларини давом эттиради. Аллома зоҳиднинг Аллоҳ неъматларига шукр этмаслигининг сабаби жаҳолат ва ғафлатдан, деб кўрсатади. Ушбу манзилда бахтсизлик тушунчасини ҳам алоҳида таҳлил этади. Унингча, инсон бахтсизликка ҳам яхшилик сифатида қараши лозим. Чунки жисмоний ва маънавий азобланиш қалбни тозалайди. Ғаззолий шукр этишда икки фойда, яъни, неъматнинг давомийлиги ва унинг ортишига сабаб бўлади, деб кўрсатади. Неъматларни дунёвий ва диний неъматларга, дунёвий неъматларни ҳам ўз ўрнида иккига фойдали ва зарарли неъматларга ажратади.

Тўртинчи манзил – худодан қўрқиш. Ғаззолий қўрқувни қувонч, ғам ва севгининг ҳосили,[3] деб кўрсатади. Аҳамиятли томони шундаки, кўпчилик сўфийларда севги тушунчаси муҳим ҳисобланади ва қўрқув тушунчасини истисно қилади. Аниқроғи, севги қўрқувга қарама-қарши қўйилади. Бироқ Ғаззолий қарашларида бу тушунча катта аҳамиятга эга. У ўз қарашларида нафсни итоатда сақлашнинг бирдан-бир йўли уни қўрқитиб, умидлантиришдир, дейди. Яъни, қўрқувни севгига бўйсундиради. Унингча, қўрқув аломати, тилда, қалбда, кўзда, меъдада, қўлда, оёқда, итоатда намоён бўлади. Мўмин бўлган одам қўрқув билан умид орасида турмоғи, Аллоҳнинг раҳматига суянмоғи, ундан, асло, умид узмаслиги лозим. Аллоҳдан қўрққан одам исён йўлида эмас, балки итоат йўлида одимлайди. Илм-маърифат ва яхши ахлоқ ўрганиш мақсадида олимлар ва солиҳ кишиларга эргашади.

Бешинчи манзил –умид. Аллома мулоҳазаларига кўра, умид – кўнгил севинчи. Инсон ишончсизлик ва ишонч йўли орасидаги қўрқув ва умид йўлида бўлиб, у Аллоҳдан қўрқиб, ҳам унинг раҳматига умид қилса, эранлар йўлига кирган ҳисобланади. Қўрқув ва умиднинг бирлашмасидан майдонга келган ўрта йўл, ҳар қандай ишда саломат ва қутулиш йўлидир. Шу ўринда Ғаззолий “умид солиҳлар мақоми ва толиблар аҳволи,”[4] дейди. Умиднинг моҳиятини аниқлаштириб, у ҳолат, билим ва ҳаракат орқали амалга ошишини кўрсатиб ўтади. Билим ҳолатга олиб борувчи йўл, ҳолат эса ҳаракатга шароит яратади. Улар биргаликда умид, деб аталади. Ғаззолий мулоҳазаларига кўра, умид билимга элтувчи зоҳиднинг ҳолати ҳисобланади.

Олтинчи манзил – фақирлик. Ғаззолий ўзининг қарашларида фақирлик ва бойликни маломатлаш каби тасаввуфий ғояларини кенг қўллайди.[5] Унинг фақирлик ғоясини тушунтириб, изоҳлаб бериши бутун бошли қарашларининг асосий йўналишини очиб беради. Унингча, Аллоҳдан бошқа ҳамма фақирдир. Чунки фақр – камбағалликнинг бир нарсага эҳтиёжи бўлса, шу нарсага муҳтож бўлади. Мутафаккир мутлақ фақирликдан нисбий фақирликни таҳлил қилишга ўтади. Мулк билан боғлиқ бўлган инсон фақирлигини беш ҳолатда кўриб чиқади.

Биринчи ҳолат – агар инсонга мол-дунё келса, у уни ёмон кўради ва ундан қочади. Бу ҳолат соҳибини Ғаззолий “зоҳид”, дейди.

Иккинчи ҳолат – инсон мол-дунёга рағбат кўрсатмайди. Унга эга бўлса, хурсанд бўлади. Мол-дунёдан нафратланмайди. Бу ҳолат соҳибини Ғаззолий “рози бўлувчи”, деб кўсатади.

Учинчи ҳолат – инсонга мол-дунёнинг борлиги-йўқлигидан севимли бўлади, бунинг сабаби мол-дунёга рағбати борлиги учун. Бу ҳолат эгасини Ғаззолий “қаноат қилувчи”, деб атайди.

---

[1] Имом Аҳмад ибн Қудома Мақдисий. Минҳож ул-қосидийн (Саодат изловчиларга қўлланма). Тошкент Ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2009, 405 – 408-бетлар.

[2] Ўша асар. 361-бет.

[3] Ўша асар. 377-бет.

[4] Имом Аҳмад ибн Қудома Мақдисий. Минҳож ул-қосидийн (Саодат изловчиларга қўлланма). Тошкент Ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси. 2009, 377-бет.

[5] Ўша асар. 405 – 408-бетлар.

Тўртинчи ҳолат – мол-дунё талабида ожиз бўлгани учун уни тарк этади. Агар қийинчилик билан уни топишга йўл топса, албатта, уни ахтаради. Бу ҳолат соҳибини аллома “ҳарис”, деб номлайди.

Бешинчи ҳолат – у мол-дунёни топишга, қасд қилишга мажбур бўлади. Бу ҳолат соҳибини мутафаккир “мажбур бўлган одам”,[1] деб номлайди.

Ғаззолийнинг фикрича, бу беш ҳолатдан энг олийси – биринчи ҳолат бўлиб, бу зуҳд-зоҳидлик ҳолати. Қуйидаги беш ҳолатдан ташқари, аллома наздида, яна бир, олий зоҳидлик мавжуд. Бу шундай ҳолатки, инсон мулкка эгами ёки йўқми, унга, барибир. Агар у мулкка эга бўлса, у хурсанд бўлмайди, хафа ҳам бўлмайди ва ўзгармайди ҳам. Оддий сўз билан айтганда, инсон хулқ-атворида мулкдан нафратланиш эмас, балки унга бефарқлик юқори ўринда туради.

Еттинчи манзил–зуҳд. Ғаззолий зоҳидликнинг турли кўринишларини таҳлил қилиб, кўрсатадики, гўёки мулкдан воз кечган киши зоҳид ҳисобланади. Аслида эса, у бундай эмас. Унинг эътирофича, инсонлардан бири дунёдан воз кечиб зоҳид бўлади ва унга талабгор бўлса ҳам, ўзини бундан тийишга ҳаракат қилади. Бу зоҳидликнинг бошланиши бўлиб, биринчи даражадир. Иккинчи даража ўз ихтиёри билан дунёдан воз кечишдир. Инсон бунга ўзини мажбур этмайди. Лекин ўзини зоҳид деб билади. Учинчиси олий даража бўлиб, бунда инсон ихтиёрий суратда дунёдан воз кечиб, зоҳид бўлади.[2]

Бундан кўринадики, Ғаззолий ўзи яшаган даврдаги кўпчилик сўфийларнинг аскетизмга обрў-эътибор ва шуҳрат талабида кирганлиги учун танқид қилади. Аллома эътирофича, бундай инсонлар таркидунёчиликка интилгани учун зоҳид бўлмайди, балки таркидунёчилик билан мақтаниш учун бунга интилади. Ғаззолий зоҳидлик ҳолатини таҳлил этиб, унда бойлик ва камбағалликни қарама-қарши ҳолатда таҳлил этади. Инсон ҳаёти учун зарур бўлган уч нарсани меъёрдан оширмасликка чақиради. Булар: емоқ-ичмоқ, кийим-бош ва маскан – турар жой.[3]

Саккизинчи манзил – таваккул. Аллома мулоҳазаларига кўра, таваккул ўз амаллари ва ишларида ёлғиз Аллоҳга суянишдир. Таваккул ҳолатига фақат Аллоҳга ишонч орқалигина эришиш мумкин. Шунинг учун бу босқичдаги зоҳид ризқни, инсон тақдирини ҳам у белгилашини, инсон амаллари ҳам унинг иродаси доирасида бўлишини, бой ва камбағаллик, очлик ва тўқлик ҳам ундан, деб Аллоҳга қаттиқ ишониши ва унинг ягоналигига, умуман, шубҳа қилмаслиги керак. Кимки ўз иродасидан воз кечиб, Аллоҳга умид қилса, унга фақатгина ягона Яратувчи борлиги ва барча яратилган нарсалар, мавжудотлар, фақатгина яратувчи томонидан фикр қилингани ва яратилгани, бошқа киши томонидан эмаслиги аён бўлади.

Тўққизинчи манзил – муҳаббат. Ғаззолий қарашига кўра, Худога бўлган кучли эҳтиросли муҳаббат банда эришадиган даражаларнинг олий чўққиси ва мақомларнинг энг юқорисидир.[4] Унинг фикрича, муҳаббат фақат ҳиссий эмас, балки ақлий тафаккурнинг ҳам маҳсули ҳисобланади. Аллома муҳаббатнинг беш тури мавжудлигини кўрсатади. 1. Инсоннинг ўз вужуди, нафсининг комиллиги ва боқийлигига бўлган муҳаббати. 2. Инсоннинг ўзига яхшилик қилган кишига муҳаббати. 3. Инсоннинг яхшилик қилувчиларга муҳаббати, гарчи унга яхшилик қилмаса ҳам. 4. Инсоннинг барча ташқи ва ички гўзалликка муҳаббати. 5. Инсоннинг ўзи билан яширин ўхшашлиги бор бўлган кишиларга муҳаббати.[5]

Инсоннинг ўз-ўзига муҳаббати, бу ҳар бир тирик инсоннинг табиий хусусияти. Инсон бу хусусиятдан ажралмайди. Мана шу ҳолатни Ғаззолий Аллоҳга бўлган муҳаббат деб қарайди. Сабаби, инсон ўз нафсини ўзидан эмас, балки Аллоҳдан берилганлигини билади. Буни аллома қуйидагича тушунтиради: “агар ориф ўз зотини яхши кўрар экан, зотининг вужуди ўзгадан олинганлигини билгач, албатта, вужудининг сабабчисини ва давом эттирувчисини яхши кўради”.[6]

Демак, инсоннинг ўзига бўлган севгиси зарурий ҳолат бўлгач, вужудининг сабабчиси ва уни давом эттирувчисига бўлган муҳаббати унинг аслига, сифатларига, яратган жисмларига ҳам бўлиши зарурийдир. Оддий қилиб айтганда, инсон ўзининг мавжудлиги ва ҳаётининг давомийлиги таъ-

[1]Имом Аҳмад ибн Қудома Мақдисий. 404-бет.
[2] Ўша асар. 415-бет.
[3] Ўша асар. 418-бет.
[4] Абу Ҳомид Муҳаммад Ғаззолий. Муҳаббат, шавқ, унс ва ризо китоби. Т., “Мовароуннаҳр”, 2005, 6-бет.
[5] Ўша асар. 24-бет.
[6] Ўша асар. 26-бет.

минланганлиги учун ҳам Худони севиши зарур. Бу ерда Ғаззолий инсоннинг табиатидан келиб чиққан ҳолда, илмий-мантиқий жиҳатдан фикр юритади.

Мутафаккир, инсоннинг ўзига яхшилик қилувчиларга муҳаббати ҳам Аллоҳга бўлган муҳаббатни тақозо қилади, дейди. Унинг қарашларига кўра, инсонларга яхшилик қилувчи ҳам, яхшилик қилишга бўйсундирган, яхшиликларни бажаришга ундовчи зот Аллоҳдир. Бу ҳолатда инсоннинг қўли бир восита бўлиб, у орқали унинг яхшилиги етиб боради. Бу восита, сув ўз оқимида оқишга мажбур бўлгани каби, яхшиликларни қилишга мажбур. Ҳақиқатдан, беғараз яхшилик қилиш жуда қийин нарса. Чунки инсон ўз яхшиликларини маълум бир мақсад учун сарф қилади. Яхшилик қилишда унга келажакда савоб бўлишини, ҳозир эса миннат, бошқаларнинг қалбини ўзига бўйсундириш, мақтаниш, олижаноблик билан шуҳрат орттириш, инсонларнинг муҳаббатини қозониш каби фойдаларга эришишини билади. Мақсадсиз молини бошқа инсоннинг қўлига топширмайди. Шу сабабли Ғаззолий “Аллоҳ ғараз-мақсад манфаатлардан олий, беҳожатдир”,[1] дейди.

Умуман инсонларга яхшилик қилувчиларга муҳаббат – бу яхшилик қилувчини, бирор инсонга яхшилиги етмаса ҳам яхши кўриши. Масалан, бирор мамлакатнинг ҳукмдори мамлакатни адолат билан бошқарса, инсонларга шафқатли, меҳрибон бўлса, ўша ҳукмдорга нисбатан инсонда мойиллик уйғонади. Бу ҳолат ўз-ўзидан муҳаббатни юзага келтиради. Бу эса яхшилик қилувчи ҳукмдорнинг яхшилиги инсонга етиб келмаса ҳам, яхши кўрилишидир. Ушбу ҳолат ҳам Аллоҳга муҳаббат қўйишни тақозо қилади. Сабаби ҳукмдорни аъзолари билан мукаммал қилиб, вужуди учун барча зарурий сабабларни пайдо қилган, турмуш шароитларини яхшилаган, ортиқча фазилат би-лан гўзаллаштирган ҳам у.[2]

Инсоннинг барча ички ва ташқи гўзаллик эгаларига муҳаббат. Бу ҳолатни Ғаззолий “ҳар бир гўзалликни уни ортидан эришиладиган улуш учун эмас, балки зотидаги гўзаллиги учун яхши кўриш”,[3] дейди. Мутафаккир қарашларидан шу нарса маълум бўладики, ҳеч бир инсон мукаммал эмас. Унда камчиликлар мавжуд. Унинг яратилганлиги, кучсизлиги, бўйсуниши унинг ожизлиги ва заифлигидан далолат. Унинг эътирофича, фақатгина комиллик ёлғиз Аллоҳга хос. Қолганлар эса у ато этган даражада мукаммалдирлар. Демак, муҳаббатни пайдо қилувчи сифат мукаммаллик ва гўзаллик ҳисобланар экан, унга фақат Аллоҳ эгалик қила олади. Ўзганинг комиллиги ва поклиги ўзига ўхшаган шахсга нисбатан бўлади.

Ғаззолий инсоннинг ўзи билан яширин ўхшашлиги бор бўлган кишилар ўртасидаги муҳаббат тўғрисида фикр юритар экан, ҳар бир инсон ўзига мос бўлган инсонга нисбатан мойиллик мавжудлигини, бу мойиллик эса, му-ҳаббат деб номланишини айтади. Шу сабабли у “бир-бирини танимоқ мувофиқ бўлмоқ, бир-бирини инкор қилиш қарама-қарши, зид келмоқдир. Бу сабаб ҳам Аллоҳнинг муҳаббатини тақозо қилади”,[4] деб ёзади. Ҳақиқатдан ҳам, болани бола билан, каттаникатта билан дўст бўлганини кўриш мумкин. Қуш ҳам ўз тури билан дўст бўлиб, ўзгасидан қочади. Олимнинг олим билан дўстлашуви ҳунарманд билан дўстлашувидан кўпроқ. Дурадгор ҳам деҳқон билан эмас, балки дурадгор билан дўстлашиши ҳақиқатдир. Демак, Ғаззолий бу ерда таниш орқали мослик ва инкор орқали зидлик сифатини ҳам инсонларга Худо томонидан берилган сифат, деб қарайди ҳамда айнан шу сифат орқали инсонда муҳаббат намоён бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, Ғаззолийахлоқий нормаларга таян ҳолда зоҳидликни руҳни поклаш, руҳий ҳаётга тайёргарлик воситаси сифатида қарайди, инсонни комилликка элтувчи амаллар, жаҳолат ва ғофилликдан қутқарадиган руҳият манзиллари ҳақида ўз қарашларини илгари суради. Унингча, инсон ўзини англаши, билиши учун тўққизта манзил тавба, сабр, шукр, хавф, ражо (умид), фақир, зуҳд, таваккул, муҳаббат босқичлари мавжуд бўлиб, инсон ҳар бир манзилни босиб ўтгандан кейин, мукаммалашиб, такомиллашиб боради. Бу эса руҳий тараққиётнинг натижаси ҳисобланади. Ғаззолий тасаввуфий муҳаббатни инсоннинг табиатидан келиб чиқиб, табиий асосларга эга бўлган зарурий ҳодиса сифатида фикр юритган. Илоҳий муҳаббат инсоний муҳаббатнинг юксак даражадаги кўринишидир. Шундан келиб чиқиб хулоса қиладики, инсон ҳар қанча маънавий покланмасин, у ҳеч қачон идеал ва юксак ахлоққа айлана олмайди.

[1]Абу Ҳомид Муҳаммад Ғаззолий. Муҳаббат, шавқ, унс ва ризо китоби. Тошкент, “Мовароуннаҳр”, 30-бет.
[2]Ўша асар. 31-бет.
[3]Ўша асар. 32-бет.
[4]Ўша асар. 40-бет.

Zoyirov Erkin Xalilovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti dotsenti, falsafa fanlari nomzodi; zoiroverkin76@mail.ru)

YA'QUBI CHARXIYNING ASARLARIDA ONTALOGIK MASALALAR QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Ya'qubi Charxiyning borliqqa oid qarashlari "Risolayi qudsiya", "Risolayi huroiyya", "Sharhi Asmoul husna" asarlari asosida ochib berilgan. Mutasavvifning vahdat ul-vujud ta'limoti Bahouddin Naqshband g'oyalarini davom ettirib, Ibn Arabiy qarashlari bilan umumiylikka tahlil etilgan.*

Аннотация. *В данной статье раскрываются взгляды Якуби Чархи на существование на основе произведений "Рисалай Кудсия", "Рисалай Хуроийя", "Шархи Асмоул Хусна". Учение мистики о вахдат уль-вуджуд нашло продолжение в трудах Бахауддина Накшбанды и Ибн Араби.*

Annotation. *This article reveals the views of Yakubi Charkhi on existence on the basis of the works "Risolai Qudsiya", "Risolai Huroiya", "Sharkhi Asmoul Husna". The teaching of the mystic about vahdat ul wujud continued the ideas of Bahauddin Naqshband and was analyzed together with the views of Ibn Arabi.*

Kalit so'zlar*: borliq, vahdat ul-vujud, boqiy va foniy, abadiy va o'tkinchi, vaqt, tajalliy, tavhid.*

Ключевые слова: *онтология, вахдат ул-вуджуд, постоянное и преходящее, временное и вечное, время, таджалли, тавхид.*

Key words: *ontology, vahdat ul-vujud, constant and transient temporary and eternal, consealed and evidend, time, tagallia, tawheed.*

Faylasuflar borliq haqida turli g'oyalarni ilgari surishgan. Tasavvufda borliq, vujud tushunchasi sifatida keladi va uni izohlashda vahdati vujud, vahdati shuhud va vahdati mavjud nazariyasi sifatida yoritilgan. Mazkur nazariyalar ham falsafiy, ham irfoniy asoslarga tayanadi.

Tasavvufda birinchi bo'lib ushbu nazariyani, o'z falsafiy qarashlari bilan keng ko'lamda tarqatgan Ibn Arabiy (1165–1240)dir. Mutasavvif borliq to'g'risidagi ta'limotini aynan "vahdat ul-vujud" ("borliqning yagonaligi") deb nomlamagan bo'lsa-da, asarlarida shu g'oya aks etgan. Ibn Arabiy bevosita borliq muammosiga oid "Risolayi vujudiya" (Vujud haqida risola) asarini yozgan.[1] Risolaning to'liq nomi Payg'ambar alayhissalomning "Kim o'zini tanisa, Robbisini taniydi" hadisining ma'nosini ochib beruvchi "vujud" to'g'risida risola" bo'lib, barcha ilm ahli, jumladan, so'fiylar va faylasuflar uchun ham juda qimmatli manba hisoblanadi.

Naqshbandiya tariqatining mashhur namoyandasi Ya'qubi Charxiy risolalarini tahlil qilganimizda, ayniqsa, vahdat ul-vujud falsafiy nazariyasini o'zining xos uslubi asosida izohlaydi. Mutasavvifning risolalarining tasnifi ko'rsatadiki, u borliqqa umumiy ta'rif berish bilan birga, uning ko'rinishlari bo'lgan tabiat, inson, jamiyat va ma'naviy borliqni ham tahlil etgan.

Tadqiqotchi M.Razzoqova Ya'qubi Charxiyning "Risolayi qudsiya" ("Ilohiy dargohga oid haqida risola") asari mavjudligi, risola ilohiyot, tasavvuf, uni tarixini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, "faqara" (maqola yoki fasl) bilan boshlanganligini keltiradi.[2]"Faqara" so'zining ko'pligi "faqarot" bo'lib ko'pincha shu turdagi asarlarga "Faqarot" deb nom qo'yilgan. Ya'qubi Charxiyning muridi Xoja Ahror ham o'z piri ilmiy faoliyatini davom ettirib "Faqara" yozadi. Risolaning nomi "Faqarot ul-orifiyn"(Ma'rifat ahli hayotidan lavhalar) deb ataladi.[3]

"Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi" mualliflari ham mutasavvifning "Risolayi qudsiya" asari 980/II raqam bilan saqlanayotganligi haqida ma'lumotni beradi.[4]Ya'qubi Charxiy risolada Alloh ta'oloning Yer va Osmondagi mavjudotlarni yaratishdagi ilohiy hikmatlari, ularning tartibi va o'rinlari haqidagi bo'lib, olam, borliq, yo'qlik kabi falsafiy tushunchalarni tasavvufiy nuqtai nazardan tahlil etgan.

M.Razzoqova fikricha, Ya'qubi Charxiyning "Risolayi qudsiya"si Xoja Muhammad Porsoning "Risolayi qudsiya"siga hamohang tarzda yozilgan. Ularning mazmun jihatidan bir-biridan farqi shundaki, Ya'qubi Charxiy o'z asarida tasavvufga oid nozik hikmatlarini o'z fikriga suyangan holda sharhlab bersa, Muhammad Porso esa o'z piri Bahouddin Naqshbandning qudsiy kalimalarni kengaytirib, tushuntirib beradi.

---

[1] Muhyiddin Ibn Arabiy. Ar-Risolat ul-vujudiyya, Bayrut. Dorul kutubil ilmiyya (tarjimon A.Boltayev), 2004.

[2] Razzoqova M. Mavlono Ya'qubi Charxiy. T., "Muharrir", 2013, 37-bet.

[3] Xoja Ubaydulloh Ahror. Faqarot ul-orifiyn. O'zRFA SHI xazinasi, inn. № 507/II, 130 v.

[4]Shamsuddin Boboxonov, Abdulaziz Mansur. Naqshbandiya tariqatiga oid qo'lyozmalar fihristi. T., "Movarounnahr", 1993, 17-bet.

Tavhid tushunchasi Xudoning borligi va birligi haqidagi ta'limot bo‘lib, jahon diniy e'tiqodlari tarixida xristianlik va yahudiylik dinlaridan ham uzoqroq davrlarga borib taqaladi. Insoniyatning inson va Xudo o‘rtasidagi munosabat, borliqning Xudo tomonidan yaratilganligi yoki Xudo – borliq ekanligi haqidagi qarashlari qadimgi davrlarda shakllangan turli falsafiy maktablarda ham o‘z ifodasini topgan.

Ya'qubi Charxiy tavhid masalasiga ham alohida e'tibor berib, ustozi Bahouddin Naqshband qarashlari bilan umumiylik mavjud. Mutasavvif: “Agar sendan tavhid nima?” deb so‘rasalar, dilni Haq subhonahudan boshqa narsalardan poklash va yagonalash deb aytgin, deganlar”.[1] Bahouddin Naqshbanddan tavhid so‘zining ma'nosi so‘ralganda: “Allohdan boshqa barcha narsani ko‘ngildan butunlay ketkazishdir”, deb javob beradi.[2]

Ibn Arabiy tavhid deb vahdat ul-vujudni tushunadi. Mutasavvif “Lo mavjuda illalloh” (Allohdan o‘zga mavjud yo‘q) va “Lo iloha illalloh” (Allohdan o‘zga iloh yo‘q) o‘rtasida farq yo‘qligini ta'kidlaydi.[3]

Ya'qubi Charxiy “Risolai havroiyya” (Hurlar risolasi)da “faqatgina Sening samadiyatingga muyassar bo‘laylik. Zero, hamma Sendandir. Bizning talabimizni botinlarimizga ber. “La ilaha illalloh”ning barakatidan nafsoniy istaklar va shaytoniy vasvasalarni bizdan uzoq qilki, barcha oriflarning istagi shudir”, deb, Hakim Sanoiy G‘aznaviyning quyidagi baytini keltiradi:

“Illalloh” ning maydonida “La ilaha” tig‘i bilan
Allohdan boshqa nima bo‘lsa, hammasini qurbon qildilar.[4]

Mutasavvif vujudga oid vahdat, ittihod, saodat, shaqovat, vasl kabi tushunchalarni quyidagicha tahlil qiladi: “Agar sendan, vahdat nima, deb so‘rasalar, dilni Haq subhonahuning borligiga g‘arq bo‘lishdir”, deydi. “Vahdat” so‘zi birlik va bir bo‘lish ma'nosini ifodalaydi. “Vujud” esa “borliq” ma'nosini anglatadi. Vahdat ul-vujud ta'limotida borliq jamodot (jonsiz va harakatsiz qattiq jismlar), o‘simliklar, hayvonlar, osmonlar va falakka bog‘liq bo‘lgan narsalargacha hammasi bir vujud hisoblanadi.

Ya'qubi Charxiy Al-Mu'id (Barcha yo‘q bo‘lib ketganlarni yo‘qlikdan qaytaruvchi), Al-Muhyi (tanaga jonni, qalbga iymonni solib tiriltiruvchi Zot), Al-Qayyum (hamisha bor bo‘lgan va cheksiz mulk egasi va hamma unga muhtoj bo‘lgan, u esa hech narsaga muhtoj bo‘lmaydigan zot) sifatlarni tasavvu-fiy tahlil qilib, orifning bu ismlardan shuni anglashi kerakki tirikliklikda qilib yurgan ishlaridan qayta tiriladigan kunda ahvoli qanday bo‘lishini solishtirsin, undan o‘zgadan yuz o‘girsin va butun vaqtini uning hazratiga to‘liq yuzlanishga sarflasin, uning yo‘liga qoyim bo‘lsin va bu yo‘ldan chetlashganlarni to‘g‘ri yo‘lga solsin.[5]

Bu haqda Ibn Arabiy Yaratuvchining yakkaligiga ishora qiluvchi zotiy sifatlari bilan Unga hamd aytib, yakka va bitta mazmunini ifoda etuvchi “vahdoniyat”, “fardoniyat” kabi ma'nosi bir-biriga yaqin so‘zlarni alohida tahlil qilgan: “Vahdoniyatidan oldin o‘zidan o‘zga hech bir oldinlik bo‘lmagan, har qanday oldinlik o‘zi bo‘lgan va fardoniyatidan keyin o‘zidan o‘zga hech bir keyinlik bo‘lmagan, har qanday keyinlik o‘zi bo‘lgan Allohga hamdlar bo‘lsin”.[6]

Ya'qubi Charxiy fikricha, “agar sendan, ittihod nima, deb so‘rasalar Haq subhonahuning boshqa narsani bilimidan xolos qilishdir”, degan xulosani beradi. Ittihod (arab. –birlashish) bo‘lib, sufiyning jazabada tushish holatida Xudo bilan ruhan “qo‘shilib ketishi” tushuniladi. Sufiylar Xudo bilan muhabbat (ishq)ni ittihodning zaruriy qismi deb qaraydi. Ittihod turli davrlarda turlicha talqin qilingan. Sunniy tasavvuda ittihod qat'iy rad qilingan.

Mutasavvif “agar sendan, saodat nima, deb so‘rasalar, Haqni ko‘rish va o‘zidan xalos bo‘lish”, degan fikrni beradi.

Naqshbandiya tariqati nazariyotchisi Maxdumi A'zam yozadiki, “Bidan ey tolibi sodiq, ki hama saodatho va davlatho dar maqomi fanovu nesti hast. Rafitorihovu besaodatho dar vujudi hasti ast”.[7]

Mazmuni: “Ey sodiq tolib, bilgilki, barcha saodat va davlatlar fano, ya'ni yo‘qlik maqomidadir. Sargardonlik va saodatsizlik, ya'ni badbaxtlik borliq vujudidadir”. Bu yerda oraziy, majoziy, o‘tkinchi

[1] Ya'qubi Charxiy. Risolayi qudsiya. 74-bet.
[2] Hasaniy M. Bahouddin balogardon. T., “Yozuvchi”, 1995, 44-bet.
[3] Ya'qubi Charxiy. Risolayi havroiyya. Muhammad Nazir Ranjxo. Kandiyon, 2009, 185-bet.
[4] Ya'qubi Charxiy. Sharhi Asmul husna. 173-bet.
[5] Xojagiy Ahmad Kosoniy. Risola-ye vujudiya. 3 v.
[6] Xoja Yusuf Hamadoniy. Hayot mezoni (Rutbat ul-hayot). Tarjimon Sayfiddin Sayfulloh, Nodirxon Hasan. T., “Movarounnahr”, 2018, 27-bet.
[7] Ya'qubi Charxiy. Risolayi abdoliya. 20-bet.

vujud asl vujud, haqiqiy, boqiy, sarmadoniy vujudda g‘arq bo‘lib, yo‘q bo‘lgan bo‘lsa, fano maqomiga yetsa, ikki olam saodatiga yetadi, degan fikr yotadi.

1. Haqiqiy, boqiy, sarmadiy vujud. Sarmadiy – doimiy, abadiy ma’nosini anglatadi. Haqiqiy, boqiy, abadiy, doimiy vujud Haq subhana va taolo vujudidir.

2. Oraziy, majoziy, foniy vujud. Oraz – arab so‘zi bo‘lib, ko‘rinish, namoyon bo‘lish ma’nolarini anglatadi. Falsafada aksidensiya ma’nosini anglatadi. Majoziy – haqiqatning aksi. Foniy – o‘tkinchi deganidir. Oraziy, majoziy, foniy vujud – ko‘rinadigan, yuzada bor, lekin haqiqiy bo‘lmagan, o‘tkinchi vujud deganidir. Bunday vujud xalq qilingan maxluqotlar vujudidir. Har bir yaratilgan, xalq qilinganning o‘z haqiqati bor.

Ya’qubi Charxiy “agar sendan, shaqovat (badbaxtlik) nima, deb so‘rasalar, Allohni unutish va o‘zi bilan ovora bo‘lib qolish”, deydi. Shaqovat bu shumlikdir. Yusuf Hamadoniy fikricha, “badbaxtlikning urug‘i ilohiy ilmga zid bo‘lgan g‘aybiy narsalarni taftish qilishdir”, deydi.

Allohni tanishlik, vahdoniyat (yakkalik, yagonalik)ni anglash, unga ibodat qilish, xulqlanish, ilm olish, halol rizq topish, halol mehnat qilish, halol taom bilan taomlanish, yaxshilik talabi bilan yashash, yomonlikdan saqlanish, o‘zi, oilasi va jamiyat manfaatlari uchun kurashish, insoniy ruh talabi bilan bo‘lsa, Allohni unutish, unga shirk keltirish, axloqsizlik, ilmni manfaat uchun olish, shariat harom qilgan taomni ist’emol qilish, destruktiv g‘oyaga ergashish, farzandlari, oilasi nafaqasini unutish, jamiyatga ziyon keltirish hayvoniy ruh talabi bilan bo‘ladi.

Mutasavvif “agar sendan vasl nima, deb so‘rasalar, Haqning vujud nuriga ko‘milish bilan o‘zini unutish”, degan tasavvufiy xulosani beradi.

Tasavvuf ta’limotida fano maqomidan keyingi martaba vasl hisoblanadi. “Fano” maqomiga erishgan solik Allohning haqligi, ulug‘ligi to‘g‘risidagi fikrga g‘arq bo‘lib, foniy dunyodagi borliq narsalarni unutib yuborgan bo‘lsa, “vasl” maqomiga yetgan solik esa Allohdan o‘zga borliqdan ajralib unga yetishgan bo‘ladi. Vasl solik Allohdan boshqa hech narsani ko‘rmaydi, faqat U bilangina ko‘ngildagi sirlarni baham ko‘radi. Shuningdek, vasl deganda, banda sifatlarining Haq sifatlarida fano (yo‘q) bo‘lib ketishiga ham aytiladi.

Ya’qubi Charxiy vujud haqidagi ta’limotini “Risolayi abdoliya” (“Haq yo‘lining abdollari”) risolasida ham maxsus to‘xtaladi.

Mutasavvif risolani “dunyo osmonini chiroq – yulduzlar bilan bezagan va ularni shaytonlarga otiluvchi toshlar qilgan, yerni esa rasullar, nabiylar, valiylar va ulamolar bezab, ular hujjat-u burhon qilish orqali yer yuzini zulmat va turli shubha-gumonlardan tozalagan Allohga hamd-u sano” aytish bilan boshlab, Allohni yaratuvchanligi haqida quyidagi baytni keltiradi:

Seli jo‘yho bar murodi o‘ ravad,
Axtaron zi on son ki xohad u shaved.

Mazmuni:

Daryolarning suvlari u istagan tomonga oqadi,
Yulduzlarning soni u nechta desa, shuncha bo‘ladi.

Demak, mutasavvif fikricha, Haqning olamga o‘z sifatlari bilan tajalliy etishi (ya’ni, borliqni yaratishi)dan maqsad, o‘zini o‘ziga ko‘rsatish irodasidir. Bu bilan quyidagi mashhur hadisi qudsiy mazmuniga ishora qiladi: “Men yashirin xazina edim, tanilishni xohladim”.

Tasavvuf ta’limotida Inson “Haqning nusxasi” sanaladi. Kayhon “Olami kabir” (yirik olam), inson esa “Olami sag‘ir” (kichik olam) deb ataladi. Inson va Kayhon o‘rtasida uzviy va doimiy robita mavjud. Yirik olam kichik olamni o‘z tarkibiga olsa-da, kichik olam yirik olamning ruhidir. Inson ham jismoniy va ham ruhoniy jihatdan olamga o‘xshash.

Ya’qubi Charxiy risolada azaliy va o‘tkinchi olamni tahlil qilar ekan, shaklga, o‘tkinchi olamga berilmaslik va aldanmaslikka, boqiy olam haqida ko‘proq o‘ylashga chaqirib, Mavlono Jaloliddin Rumiyning quyidagi baytini keltiradi:

Ey baso, kasro ki surat roh zad,
Qasdi surat kardu barrulloh zad
Toki nafribad shumoro shakli o‘,
Naqli o‘ shoyad ba pesh az naqli o‘.

Mazmuni: kimki suratga aldansa, o‘yldan adashadi, suratni maqsad qilsa, Allohdan chetlanadi. Ularning bechora ko‘rinishi va shakl-u shamoyili sizlarni aldab qo‘ymasin, Ularni uchratishdan oldin ular to‘g‘risida naql qilingan gaplarni bilgin.

Demak, “vahdat ul-vujud” deganda moddiylikdan, shakl-u shamoyildan xoli, munazzah, ammo ana shu O‘zi xalq etgan olamlar bilan doimiy birga bo‘lgan, bu olamlar mohiyatini qamrab olgan, ularga muhit bo‘lgan zoti pokning yagona vujudi anglashiladi.

To‘rayev Shavkat Nishonovich (Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Ijtimoiy ma’naviyat tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, f.f.n., dotsent; turayev.64@mail.ru)

YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOT STARTEGIYASIDA MA’NAVIY RIVOJLANISH TAMOYILLARI

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ma’naviy rivojlanish tamoyillar va uning amaliyoti bilan bog‘liq faoliyatni amalga oshirishda ma’naviy sohadagi islohotlar ustuvor vazifalardan biri qilib belgilangani, ma’naviyat – jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevor ekani atroflicha yoritilgan.*

Аннотация. *В статье подробно освещается, что в стратегии развития нового Узбекистана духовное развитие определено как одна из приоритетных задач при осуществлении деятельности, связанной с принципами и практикой духовного развития, духовность - основа, определяющая содержание и качество всех политико-социальных отношений в обществе.*

Annotation. *The article covers in detail the principles of spiritual development in the development strategy of New Uzbekistan and the fact that reforms in the spiritual sphere in carrying out activities related to its practice are defined as one of the priorities, spirituality is the foundation that determines the content and quality of all political-social relations in society.*

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, ustuvor vazifa, huquq va erkinlik, jamiyat, ma’naviy islohot, xalq, davlat, renessans, strategiya, mas’uliyat qadriyat, ma’naviy muhit, daxldorlik, imkoniyat, ma’naviy yangilanish, bag‘rikenglik.*

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, приоритет, право и свобода, общество, духовная реформа, народ, государство, возрождение, стратегия, ответственность, ценность, духовная среда, принадлежность, возможность, духовное обновление, толерантность.*

Key words: *New Uzbekistan, priority, law and freedom, society, spiritual reform, people, state, renaissance, strategy, responsibility value, spiritual environment, immunity, opportunity, spiritual renewal, tolerance.*

Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarida ulkan tarixiy o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda respublikamizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati qurish bilan bog‘liq ustuvor vazifalarimiz, boradigan manzilimiz va bu manzilga eltuvchi yo‘l belgilab olindi. Biz tanlagan yo‘l xalqimiz ko‘zlagan ezgu maqsadlarga erishishga, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan davlat, insonning huquq va erkinliklari eng oliy qadriyat bo‘lgan, qonun ustuvorligini ta’minlaydigan jamiyat barpo etishga olib kelishi muqarrar.

Darhaqiqat, jamiyat hayotida kechayotgan ma’naviy islohotlar mamlakatimizning jadal sur’atlar bilan rivojlanishida, bunyodkorlik ishlarini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’kidlab o‘tganidek, “Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritkichi – ma’naviyat chirog‘i bor. Bu chiroqning boshqalaridan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg‘otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi. O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat shu’lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas’uliyat tuyg‘usi bilan yashashga da’vat etib turishi zarur. Biz Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi rivojlanish bosqichida ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham muhim ahamiyatga ega ekanligini anglashimiz kerak”.[1]

Shuni alohida ta’kidlash joizki, bugungi kunda fuqarolarimizning ijtimoiy ongi, ma’naviy qiyofasi, hayotga munosabati tobora o‘zgarmoqda hamda ularning siyosiy yetukligi, yurtimizda va dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarga nisbatan fuqarolik mas’uliyati, daxldorlik hissi oshib bormoqda. Aynan shu-larning barchasi mamlakatimizning taraqqiyot va farovonlik yo‘lidan izchil rivojlanishini, ma’naviy-ma’rifiy olamining yuksalib borishi hamda yangi muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishimizni ta’minlayotgan qudratli harakatlantiruvchi kuch bo‘lib xizmat qilmoqda.

[1]Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston”, 2021, 266–267-betlar.

Bu olib borilayotgan islohotlar yillar davomida shakllangan ma’naviy rivojlanish tamoyillari asosida amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas. Binobarin, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot startegiyasida ma’naviy rivojlanish tamoyillari va uning amaliyotining ustivor yo‘nalishlari quyidagicha tahliliy asosda yoritib o‘tilgan:

♦birinchidan, ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar sari;

♦ikkinchidan, yangi ma’naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar;

♦uchinchidan, ma’rifiy islohotlar va barkamol insonni tarbiyalash imkoniyatlari;

♦to‘rtinchidan, Yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanish sari;

♦beshinchidan, ma’rifatli jamiyat sari;

♦oltinchidan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi.

Har qanday davlat o‘z jamiyatining tarixiy-madaniy va ma’naviy-ahloqiy merosi negizlari hamda umume’tirof etilgan demokratik prinsiplar asosida rivojlanadi. Bunday uyg‘unlik xalqning rivojlanishini yangi bosqichlarga ko‘taradi. Uning istiqbol omillarini kengaytiradi. Ana shunday istiqbolli rejalar haqida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi ma’ruzasida mamlakatimiz va xalqimiz hayotini tubdan yangilash, jamiyatimizning yangi, demokratik qiyofasini yaratishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda “Inson manfatlari hamma narsadan ustun” degan oddiy va aniq-ravshan tamoyilni amalga oshirish va ustuvor ahamiyatga ega bulgan demokratik davlat hamda adolatli jamiyat barpo etishdan iborat[1] bo‘lgan maqsadlarni ko‘zlaganimiz haqida gapirilgandan keyin “Yangi O‘zbekiston” nimani anglatadi?”, “Jamiyatning yangi qiyofasi”, “Taraqqiyotning yangi bosqichi qanday xususiyatlarga ega” deganda nimalar nazarda tutilmoqda?” kabi savollar paydo bo‘lganini, bugungi kunga kelib esa “Uchinchi renessans poydevorini yaratish g‘oyasi qanday maqsad muddaolarni ifodalaydi?”[2] degan savol ham ko‘pchilikni qiziqtirayotganini ta’kidlab o‘tadi.

Aynan mazkur savollarga javoblar Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida atroflicha yoritib berilgan. Jumladan, “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi:

–muayyan xalqning asrlar davomida shakllangan umumijtimoiy orzularini ifodalaydigan, nihoyatda teran ma’no-mazmun mujassam bo‘lgan yangicha farovon turmush bilan bog‘liq maqsadlar majmuini anglatadigan makon.

–shu jihatdan, Yangi O‘zbekiston – uzoq o‘tmishdan bugungi kungacha milliy tafakkurimiz negizida shakllanib kelgan mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi, qolaversa, barchamizning ezgu orzuimiz!

“Jamiyatning yangi qiyofasi” deganda Yangi O‘zbekiston uchun asos bo‘ladigan muhim jihatlar va amaliy mezonlarni o‘zida aks ettiradi:

–mamlakatimizning barqaror taraqqiyotini ta’minlash bilan bog‘liq zamonaviy qarashlarni ilgari sura oladigan yangi jamiyatni barpo etish;

–Yangi O‘zbekistonni erkin va baxtiyor odamlar yashaydigan hur va ozod Vatan, qudratli va salohiyatli davlatga aylantirish;

–bir so‘z bilan aytganda, inson manfaatlari ustuvor bo‘lgan erkin va farovon hayotni barpo etish istagi bilan doimiy amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoni jamiyatimizning yangi qiyofasini o‘zida aks ettiradi.

“Taraqqiyotning yangi bosqichi qanday xususiyatlarga ega”ligi – Yangi O‘zbekistonning tayanchi va suyanchi bo‘la oladigan tarixiy-ma’naviy omilning borligi, xalqimizning ulkan moddiy va madaniy merosi, intellektual salohiyati mavjudligida namoyon bo‘ladi. Binobarin, bizning madaniyatimiz, solohiyatimiz kecha yoki bugun paydo bo‘lgani yo‘q. Ular asrlar davomida dunyo tamadduniga tamal toshini qo‘yib kelmoqda. Darhaqiqat, bizning mintaqamiz Buyuk ipak yo‘li va buyuk Hind savdo yo‘llarida joylashgan va ko‘plab mamlakatlarni bog‘laydigan ko‘prik vazifasini o‘tagan, bu holat bizda o‘ziga xos tajribaning mavjudligini ko‘rsatadi.

♦U zaminda dunyo sivilizatsiyasiga hissa qo‘shgan olimlar, mutafakkirlar yashab ijod qilgan.

♦Ana shunday tajribalarga ega bo‘lgan davlatimizning hozirgi zamonaviy rivojlanish jarayonida BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va bag‘rikenglik” rezolutsiyasi va Yoshlar huquqlari bo‘yicha

[1] Mirziyoyev Sh.M.. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. T., “O‘zbekiston”, 2-jild, 2021, 244-bet.

[2] Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T., “O‘zbekiston” 2021, 8 – 9-betlar.

konvensiyaning qabul qilinishi yo‘lidagi tashabbuslar taraqqiyotning yangi bosqichini boshlab beruvchi harakat sifatida namoyon bo‘ladi.

Umuman, insoniyat taraqiyoti rivojida shunday tajriba va yuksak ilmiy-ma’naviy salohiyatga ega bo‘lgan yurtimizda taraqqiy etish huquqi va imkoniga egaligimizning o‘zi bizni yuksak marralarni orzu qilishga chorlaydi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Demak, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi bizning orzularimizning mujassamidir. Unda biz quradigan jamiyat O‘zbekiston xalqining munosib turmushini, xuquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi, insonning farovon hayotining asosiy mezoni sifatida uning ma’naviy-axloqiy barkamolligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Shu ma’noda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot stragesiyasining ma’naviy-axloqiy barkamollikni ta’minlashga xizmat qiladigan “Ma’naviy taraqqiyot” deb nomlanuvchi beshinchi bo‘limida ma’naviy rivojlanishning tamoyillari va uning amaliyotining ustuvor yo‘nalishlari belgilab berilgan:

1. Ma’naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar sari tamoyilida nazarda tutilgan masalalar:

–bugungi kunda mamlakatimiz fuqarolarining erkin va farovon yashaydigan ma’naviy makon, ma’rifatli jamiyat qurish, har qanday qiyinchiliklarga duch kelishimizdan qat’iy nazar, mamlakatni rivojlantirish uchun qabul qilingan dasturlarimizni izchil davom ettirish;

–globallashgan dunyoda ma’naviy-ma’rifiy sohada turli tahdidlarning kuchayib borayotganligi, axborot xurujlari, turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’sirida milliy o‘zlikni va ma’naviy qadriyatlarimizga qarshi tahdid va xatarlarning oldini olish va ularga qarshi immunitetni shakllantirish.

Jumladan,

–chetda nima yaltiroq bo‘lib ko‘rinsa, o‘shaning orqasidan chopish, xorijniki ekan, deb unga qulluq qilish, boshqalarga ko‘r-ko‘rona ergashish, chetning ta’sirining kuchayishi, eksportdan ko‘ra import hajmining oshib borishi;

–korrupsiya, ta’magirlik, byurokratiyaning mamlakat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy sohalarda ko‘p tomonlama oyog‘imizga bolta urayotganligi bilan bog‘liq xatarlarning oldini olishga qaratilgan ishlarni tashkil qilish.

Bu borada:

–ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, ma’naviyatsizlik va g‘oyasizlikning oldini olish, mamlakatimizning keng rivojlanish dasturlari, ya’ni, taraqqiyot strategiyalarida, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarni birinchi o‘ringa ko‘tarish;

–Yangi O‘zbekistonni qurishda yangi ma’naviy muhit va makonni yarata olish, fuqarolarning ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini rivojlanishga mos ravishda o‘zgartirish bilan bog‘liq harakatlarni jadallashtirish.

Binobarin, dunyo yil sayin, oy sayin, kun sayin emas, soat sayin o‘zgarib bormoqda. Biz qiladigan ishlarimizni jadallashtirishga erishmasak, ular bizdan oldinga o‘tib ketishlari va bizni g‘aflatda qoldirishlari tayin.

2. Odamlar qalbi va ongida millatparvarlik, vatanparvarlik ruhini mustahkamlab, jamiyatni yuksak taraqqiyot yo‘liga boshlaydigan ma’naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar sifatida belgilangan tamoyillar:

–turli buzg‘unchi, vayronkor g‘oya va tahdidlar, vayronkor xatti-harakatlar va xurujlarning oldini olish, yoshlarning ularga nisbatan ma’naviy immunitetini shakllantirish;

–umumiy ma’naviy saviyaning pastligi sabab, buzg‘unchi g‘oyalarga ishonish va ularga ergashish kuchayib bormoqda, buning oldini olish va uni bartaraf etish uchun ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani izchil amalga oshirish va ta’limda, zamonaviy ilm-fan yutuklarini keng ko‘llash;

–ma’naviy-ma’rifiy tarbiya borasida o‘quv va amaliy dasturlar ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish.

3. Ma’rifiy islohotlar va barkamol insonni tarbiyalash imkoniyatlari:

–yosh avlodni ma’nan va jismonan yetuk shaxs sifatida shakllanishiga katta e’tibor qaratish;

–Yangi O‘zbekistonni yuksak ma’naviyatli jamiyat, baxtli va erkin insonlar yashaydigan diyorga aylantirish.

4. Yangi O‘zbekiston va ma’naviy yangilanish sari:

–avvalo, milliy g‘oya tizimini davr talablariga moslashtirish, boyitish va yuksaltirish, shu orqali mamlakatimiz ma’naviy muhitiga ta’sir ko‘rsatish;

–mamlakatimiz fuqarolarining ongi-tafakkuri, ijtimoiy hayot falsafasi, dunyoqarashi va maqsadlarini kengaytirish va boyitish.

5. Ma’rifatli jamiyat sari:

–har qanday xavf-xatarlarga qarshi ma’rifat bilan kurashish;

–yoshlarning ong-u tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash;

–atrofimizda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga beparvo bo‘lmasdan, aksincha, daxldorlik tuyg‘usi bilan yashash;

–Vatan taqdiriga mas’uliyat, ertangi kunga ishonch hissini shakllantirish.

6. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi:

–xalqimizga xos bo‘lgan mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma’nodagi bag‘rikenglik tamoyillariga sodiqlik;

–jonajon O‘zbekiston – umumiy uyimiz shiori asosida ma’naviy faoliyatimizni yanada jonlantirish;

–har birimizda ko‘pmillatli yagona oila tuyg‘usini mustahkamlash bilan bog‘liq faoliyatimizni tizimli yo‘lga qo‘yish.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar va tamoyillar mamlakat taraqqiyotining asosi bo‘li xizmat qila olishiga shak-shubha yo‘q. Binobarin, bu tamoyillar islohotlarning bugungi qizg‘in jarayonida jamiyatimizdagi ma’naviy uyg‘onishning bir ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu uyg‘onishning sababi faqat bugunning jadallashuvi emas. Bu yillar silsilasidagi harakatlarning mantiqiy davomi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot startegiyasidagi ma’naviy rivojlanish tamoyillari va uning amaliyotining ustivor yo‘nalishlari ro‘yobini uzoq shonli tariximizda ham ko‘rishimiz mumkin. “Yangi O‘zbekiston–Uchinchi renessrans sari” degan shiorni mazmun-mohiyati ham ayni shunda.

Ibaydullayev Temur Gaybullayevich (Jizzax Politexnika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti; timur-85@list.ru)

YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR RUHIDA TARBIYALASH – JAMIYAT TARAQQIYOTINING MUHIM OMILI

Annotatsiya*. Maqolada hozirgi davrda yuz berayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni jamiyatimiz hayotiga ta’siri va bu jarayonlarda yoshlarni an’anaviy-milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali jamiyat taraqqiyotiga erishishning muhim tomonlari falsafiy-madaniy jihatdan tadqiq qilinadi.*

Аннотация. *В статье исследуется философско-культурологическое влияние современных общественно-политических процессов на жизнь нашего общества, а также процессы, важные аспекты развития общества и пути воспитания молодежи в традиционно национальном духе.*

Annotation*. In the article, the impact of current socio-political processes on the life of our society and the important aspects of achieving the development of society by educating young people in the spirit of traditional-national values in these processes are philosophically-culturally researched.*

Kalit so‘zlar: *qadriyat, milliy qadriyat, umuminsoniy qadriyat, madaniyat, yoshlar, jamiyat.*

Ключевые слова: *ценность, национальная ценность, общечеловеческая ценность, культура, молодежь, общество.*

Key words: *value, national value, universal value, culture, youth, society.*

Bugungi kunda hayot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuvi jamiyatimiz hayotiga “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida G‘arb madaniyatining shiddat bilan kirib kelayotganidan ham kuzatish mumkin. Bunday vaziyatda yosh avlodlarimizning ongi va dunyoqarashini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash orqali o‘zligimizni anglash, uni saqlash, shu asosda taraqqiyotga xizmat qiladigan, ma’naviyati yuksak, intellektual boy, har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishga qodir avlodni shakllantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada ko‘plab olimlarimiz o‘zlarining tadqiqotlarida yoshlarni qadriyatli yondashuv ruhida tarbiyalanishi ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qilishi, shuningdek, milliy qadriyatlarimizni millatning o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liqligi haqidagi nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan ilmiy izlanishlarini olib bormoqda**.**

Jumladan, respublikamiz olimlaridan U.Qoraboyev,[1] J.Tulenov, Q.Nazarov, D.Habibullayeva[2] va boshqalar qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni va ahamiyati, vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari, sharqona ildizlari, o‘ziga xos xususiyatlari, qadrlash va qadrsizlanish muammolari, qadriyatlarning milliy va umuminsoniy jihatlarini atroflicha o‘rganishgan. Bundan tashqari, O.Tohirov yoshlarda

[1] Usmon Hosil (Qoraboyev). Odatnoma. 2-kitob, T., “O‘zbekiston”, 2018, 288-bet.

[2] Habibullayeva D. O‘zbekistonda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning tiklanishi. Tar.fan.nomz.diss., T., 1995, 135-bet.

milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish asoslarini, F.Yo‘ldoshev,[1] S.Otamurodovlar[2] esa yoshlarni milliy meros ruhida tarbiyalash orqali milliy o‘zligini anglashi masalalarining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini tadqiq etishgan.

Qadriyatlar inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha tajribalari, yutuqlari, urf-odatlari va an’analari asosida tashkil topgan narsa va hodisalar yig‘indisi hisoblanib, uning tarkibiy qismlaridan bo‘lgan milliy qadriyatlar muayyan millatga xos bo‘lishi bilan ahamiyatlidir. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madaniyati, tarixi, urf-odatlari, an’analarini, jamiki moddiy va ma’naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi.[3]

Ma’lumki, insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g‘oyagina emas, balki tuyg‘u hamdir. Bu tuyg‘u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi holati va xususiyatini tushunish, his qilish shaklida mujassamlashgan bo‘ladi. Agar insonda milliy ong va g‘urur bo‘lmasa, u o‘zining qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarni anglashini tasavvur qilish qiyin.

Xususan, har bir ruhan sog‘lom kishida o‘z qadr-qimmatini saqlash, o‘zini hurmat qilish tuyg‘usi mavjud bo‘lib, buni millat mentalitetida ham xuddi shunday holatni ko‘rish mumkin. Buni millatlarning o‘z-o‘zini anglash jarayoni takomillashgan sari milliy manfaatlar ham, milliy qadriyatlar ham kuchayib, mustahkamlanib boraverishida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Barchamizga ma’lumki, istiqlolimizning dastlabki yillaridan milliy o‘zlikni anglash g‘oyasi mamlakatimiz ma’naviy va ma’rifiy hayotida milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an’analar, ajdodlar merosining qayta tiklanishi hamda tarixiy shaharlarimizning yubileylarining xalqaro miqyosda keng nishonlanishi bilan boshlandi. Jumladan, milliy qadriyatlarni tiklash, milliy o‘zlikni anglash, davlatimiz tomonidan olib borilayotgan barkamol avlodni tarbiyalash sohasidagi siyosatga bevosita o‘zining ijobiy ta’sirini ko‘rsatib berdi. Bu esa milliy qadriyatlarni tiklab, rivojlantirmasdan, shaxsda ijtimoiy taraqqiyotga mos keladigan fazilatlarni shakllantirib bo‘lmasligini isbotlab berdi.

Afsuski, bugungi kunda milliy madaniyatimizga zid bo‘lgan G‘arb va Sharq madaniyatining kirib kelishi nafaqat yosh avlodga, balki katta yoshdagilarning ham ongi va dunyoqarashini o‘zgartirish yoki ikkilantirishga sabab bo‘lmoqda. Jumladan, milliy madaniyatimizning tarkibiy qismi bo‘lgan libos madaniyati borasida o‘zini “o‘ta zamonaviy” hisoblagan shaxslar “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida milliy liboslarimizni eskilik sarqiti, madaniyasizlik, shaxs erkinligini bo‘g‘uvchi zanjir kabi noto‘g‘ri xulosa chiqarishga harakat qilayotganliklaridan ko‘rish mumkin.[4] Bunday chiqarilgan xulosalarning asl mohiyati millatimizning an’anaviy madaniyatini unutish orqali, uning o‘rniga o‘zga millatlarning madaniyatini singdirish orqali yoshlarni an’anaviy madaniyatimizdan unutishga urinish yo‘li bilan vatanparvarlik ruhi va milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashtirishdir.

Shu o‘rinda aytish joizki, unutilib ketilayotgan milliy qadriyatlarimizning tiklanishi hamda rivojlanishi xalqimizning jahon sivilizatsiyasi tarixiy taraqqiyotida tutgan o‘rnini, buyuk mutafakkirlarimiz tomonidan yaratilgan boy moddiy hamda ma’naviy madaniyat yodgorliklarini, urf-odat, an’ana va udumlarimizning insonparvarlik mohiyatini chuqur anglash, shu asosda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini yuksaltirib, ularning mafkuraviy immunitetini shakllantirish va yuksaltirishga xizmat qildi.

Bu esa, o‘z navbatida, yosh avlodlarimiz tomonidan milliy qadriyatlarimizning e’zozlanishi va e’tiborini kuchayishi milliy mahdudlik, milliy xudbinlik, manmanlik kabi salbiy omillar yuzaga kelishining oldini olishi bilan muhimdir. Shuning uchun ham bu masalada xushyorlik, nazokat, insof, diyonat, bag‘rikenglik, saxovat kabi omillar talab qilinadi.

Ta’kidlash joizki, milliy qadriyatlar tufayli yosh avlod o‘z-o‘zini anglab va qadrlab, chinakam insoniy fazilatlar mujassami sifatida o‘z «Meni»ga ega bo‘lsa, jamiyat taraqqiyayoti birinchi o‘ringa chiqadi hamda kelajak avlodlar uchun o‘zidan yaxshi nom qoldirib, rivojlangan, erkin fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini qurishga xizmat qiladi. Shuning uchun milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yoshlar ma’naviyatiga ta’siri orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilish yo‘llarini o‘rganishni davom ettirish muttasil va uzluksiz jarayonga aylanishi zarur.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, kelajakni kishilarning, ayniqsa, yoshlarning ma’naviy olamini

---

[1] Yo‘ldoshev F., Haydarov O. Ma’naviy meros va yoshlar tarbiyasi. “Guliston”, 1999, 5-son, 5 – 6-betlar.

[2] Otamurodov S. Talaba yoshlarining milliy o‘zlikni anglashi. “Ijtimoiy fikr”, 2000, 1 – 2-sonlar, 150 – 154-betlar.

[3] O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 10-jild, T., O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2005, 571-bet.

[4] Ibaydullayev T.G. Ethnic cloths as a main factor of national cultural development. Eurasia Science, 2019, p. 119–120.

shakllantirmasdan, ularni ijtimoiy jarayonlarning ijodkori hamda ishtirokchisiga aylantirmasdan tasavvur qilib bo‘lmaydi. Chunki jamiyat taraqqiyotining taqdirini ma’naviy yetuk insonlar hal qiladi. Buning uchun esa yosh avlodni milliy qadriyatlar, ya’ni, millat a’zolari tomonidan ming yillar davomida yaratilgan moddiy va ma’naviy madaniyat boyliklari, milliy tili, milliy adabiyoti, uning psixik ifodasi, xarakteri, ijtimoiy-siyosiy qarashlari, sharqona axloqiy prinsiplari, urf-odatlari, an’analari ruhida tarbiyalab, voyaga yetkazish jamiyatimiz taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Xoliqov Yunus Ortiqovich (Samarqand davlat Chet tillar instituti Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); xoliqov-yu@mail.ru)

YANGI O‘ZBEKISTONDA MILLATLARARO MADANIYATNI YUKSALTIRISHNING AXLOQIY VA DINIY KO‘RINISHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekistonda millatlararo madaniyatni rivojlantirishning falsafiy mohiyati ochib berilgan. O‘zbekistonda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishning axloqiy va diniy qadriyatlar bilan aloqadorligida hamda yurtimizda milliy ma’naviy qadriyatlar asosida millatlararo madaniyatini rivojlantirish, u asosida tinchlik va barqarorlikni ta’minlashi tahlil qilingan.*

Аннотация. *В данной статье раскрывается философская природа развития межэтнической культуры в Узбекистане. Были проанализированы взаимосвязь развития культуры межэтнической толерантности в Узбекистане с нравственными и религиозными ценностями и развитие межэтнической культуры на основе национальных духовных ценностей в нашей стране, обеспечение мира и стабильности .*

Annotation. *This article reveals the philosophical nature of the development of inter-ethnic culture in Uzbekistan. The relationship between the development of the culture of inter-ethnic tolerance in Uzbekistan with moral and religious values and the development of inter-ethnic culture on the basis of national spiritual values in our country and the provision of peace and stability on the basis of it, were analyzed.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, urf-odatlar, axloq, milliy, qadriyat, dunyoqarash, bag‘rikenglik, madaniyat, ma’rifat, mentalitet, milliy qadriyat, urf-odat, millat, elat, ong, kuch-qudrat.*

Ключевые слова: *духовность, традиции, нравственность, национальная, ценность, мировоззрение, толерантность, культура, просвещение, менталитет, национальная ценность, обычай, нация, народ, сознание, власть.*

Key words: *spirituality, traditions, morality, national, value, worldview, tolerance, culture, enlightenment, mentality, national value, custom, nation, people, consciousness, power.*

Dunyo hamjamiyatida millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi. Hozirgi kunda, turli xil sivilizatsiya, diniy, milliy va etnik qadriyatlar uchun zarur bo‘lgan millatlararo madaniyat bilan bog‘liq turli xalqlar madaniyatiga va qadriyatlariga ijobiy ta’sir etadigan tushuncha bo‘lib hisoblanadi.

Millatlararo madaniyat tushunchasi dunyoqarash, xatti-harakatlar va din, turmush tarsi, urf-odatlar, millat va etnik qadriyatlar uchun bag‘rikenglikni anglatadi. Xususan, insonning ma’naviy kamoloti va bag‘rikenglikning uyg‘un jihatlari, millatlararo madaniyatining rivojlanish tendensiyalari, millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik umuminsoniy qadriyat sifatida yoshlar faoliyatida namoyon bo‘lishiga oid tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yangi O‘zbekistonni barqarorligini ta’minlashda, tinchlik va birdamlikni mustahkamlashda millatlararo madaniyatni ta’minlash mexanizmlaridan bo‘lgan bag‘rikenglik va axloq kabi tushunchalarning ahamiyati muhimdir. Millatlararo madaniyatning mohiyati bo‘lgan din, bag‘rikenglik va axloq o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatlari ham bugungi globallashuvning integratsiyalashuv davrida o‘zgacha kasb etib bormoqda.

Millatlararo madaniyat bizning davlatchilik tariximizda har bir davrda yoki davlat boshqaruv sohasida ham qo‘llanib kelganini ko‘rishimiz mumkin. Millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik mamlakatimizda asosiy g‘oyalaridan bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qolmoqda, chunki O‘zbekiston ko‘p millatli mamlakat hisoblanadi, ma’lumotlariga ko‘ra bizning mamlakatimizda 130 dan ortiq turli millat va elat vakillari istiqomat qiladilar. Boshqa millat va elat dunyoqarashiga, turmush tarziga, boshqa odamlarning urf-odatlariga, diniy qarashlariga hurmat fazilatlarini har bir millat vakillarida millatlararo madaniyat va bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylanib bormoqda.

Millatlararo madaniyat va diniy bag‘rikenglik ular o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi millatlararo madaniyatning diniy bag‘rikenglikni ta’minlashdagi o‘rni, uning ko‘p asrlardan buyon tinchlik va barqarorlik vazifasini bajarib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, “Do‘stlik va hamkorlik ruhi – ijtimoiy munosabatlarning insonlararo, davlatlararo va tamaddunlararo aloqalarda namoyon bo‘ladigan, ularning uzviyligi va barqarorligini ta’minlaydigan ma’naviy omil bo‘lib xizmat qiladi. Dunyodagi ko‘plab xalqlarning millati, diniy e’tiqodi, dunyoqarashi, turmush tarzidagi tafovutlarga qaramay, ijtimoiy taraqqiyotga erishgani do‘stlik va hamkorlik ruhi bilan belgilanadi. Shu bois bugungi tahlikali va qarama-qarshiliklarga to‘la dunyoda ijtimoiy munosabatlarning barcha jabhalarida aynan shu azaliy omilning qaror topishiga jiddiy e’tibor qaratish zarur”.[1]

O‘zbekiston hududida, tarixdan bizga ma’lumki, turli xil etnik va madaniy guruhlarning vakillari asrlar davomida yashagan, ko‘plab madaniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mavjud bo‘lib kelganligini ko‘ramiz. O‘zbekistonda yashovchi xalqlarni etnik guruhlarning yagona tizimi sifatida, o‘ziga xos etnik ijtimoiy hodisa sifatida qarash mumkin. Ko‘p millatli, madaniyatli xalqlarning tarixiy taqdirlari, turmush tarzi va mentalitetidagi o‘xshashliklar, millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik bilan birga yashashning kuchli asoslarini yaratmoqda. Mamlakatimizda millatlararo madaniyatini rivojlantirish, turli xil millatlarning o‘sishiga olib keladi, jamiyatning axloqiy ong, axloqiy madaniyat, bag‘rikenglik ong, bag‘rikenglik madaniyatini millatlararo madaniyatni rivojlantirish sharoitida ijobiy oqibatlarga olib keladigan millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini kuchaytirish muhim ahamiyat kasib etadi. Do‘stlik, mehr-oqibat, mehmondo‘stlik, qalb saxovati, insonparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish asosida boshqa millatga farq tobora ortib borishiga yo‘l qo‘ymaslik, o‘z navbatida, mamlakatimizda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini rivojlanishiga olib keladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi yuksak ma’naviy qadriyat sifatida azaldan xalqimizning ongu shuurida shakllanib kelgani, u mamlakatimizda kuchli demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etilishining asosiy tamoyillaridan biri ekanligi va jamiyatimizda o‘ta muhim ahamiyat kasb etishi to‘g‘risida fikr bildirar ekanlar, “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘z isbotini topdi”,[2] deb ta’kidlaydilar.

Millatlararo bag‘rikenglik – umuminsoniy jarayon. U barcha insonlarga barobardir. Masalan, ezgulik insonparvarlik, mehr-oqibat, yoshi kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, mehmondo‘stlik, qalb saxovati kabi insoniy fazilatlar yanada erkin namoyon bo‘lmoqda O‘zbekistonda turli millat va elat vakillari farovon yashashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo‘lib, rus, tojik, turkman, qozoq, qoraqalpoq, arab va boshqa millat va elat vakillari bilan birgalikda ularning turli xil urf-odatlari, qadriyatlari, an’analarini hurmat qilgan holatda tinch, osoyishta va farovon hayot kechirib kelmoqda. Xuddi shuningdek, millatlararo madaniyat ham milliy va umuminsoniy bo‘ladi. Milliy bag‘rikenglik, millatlararo madaniyat tarixiy jarayon sifatida ko‘rishimiz mumkin millatlararo madaniyat bir kunda, yoki bir yilda shakllana olmaydi. O‘rta Osiyoda bag‘rikenglik madaniyatining shakllanishini biz asrlar qariga singib ketgan ma’naviyat va urf-odatlarimizda ko‘rishimiz mumkin bo‘lib, ularning bir necha ming yillik ma’naviy qadriyatlar pillapoyalarini bosib o‘tganligini aniqlash bugun uchun o‘ta muhim bo‘lib hisoblanadi. Faylasuf olim I. Jabborovning aytganidek, bu yerda o‘tmish va bugungi kun o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik amal qiladi. Binobarin, «o‘tmish xotirasi ma’naviy va madaniy taraqqiyot uchun muhim omillardan biri bo‘lsa, asrlar davomida to‘planib kelgan tajriba insonning kamol topishida, elat va xalqning tarixiy rivojida eng zarur zamin hisoblanadi». Darhaqiqat, milliylik, millatlararo madaniyati inson tarixiy tajribasining mahsuli, uning ijtimoiy xotirasining mazmunidir.

Millatlararo madaniyat mamlakatimizda istiqomat qilayotgan insonlar, millatlar dinlar, urf-odatlar, e’tiqodlar, elatlar turli ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlarning muvozanatini ta’minlashga xizmat qiladi. Millatlararo madaniyat jamiyatda diniy, ma’naviy, iqtisodiy, g‘oyaviy, mafkuraviy, umuminsoniy qadriyatlar tizimi asosida inson axloqiga qo‘yiladigan ma’lum ma’naviy-axloqiy qonun-qoidalar majmui ekkanligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston yoshlarining millatlararo munosabatlardagi hamjihatligi, jamiyatda tutgan o‘rni hamda ahamiyati hozirgi jahon hamjamiyatining markazida turibdi. Globallashuv zamonida insonning hayotga

[1] Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Ғафур Ғулом нашриёти, Т., 2010, 148 – 149-бетлар.

[2] Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд, Т., “Ўзбекистон”, 2018, 295-бет.

va jamiyatning insonga bo‘lgan munosabatlarida turli-tuman dialektik jarayonlar ko‘zga tashlanmoqda. Bu jarayon qanchalik axloq-odob, madaniyat va din bilan bog‘liq bo‘lsa insoniyat va jamiyat uchun foydali samara beradi.

“Mintaqaviy hamkorlik – bu obyektiv zaruriyat natijasida ma’lum bir davlatlarning tenglik, ixtiyoriylik, umummilliy manfaatlarning uyg‘unlashuvi asosida birgalikdagi faoliyati, deb ta’rif berish mumkin. Bunda mintaqaviy hamkorlik o‘zagini obyektiv zaruriyatdan boshlanib, ma’lum tamoyillar asosida mintaqaviy integratsiyani shakllantiruvchi yaxlit jarayon tashkil etadi”.

Bundan ko‘rinib turibdiki, turli dunyoqarashlar, madaniy urf-odatlar vakillarining ziddiyatsiz va uyg‘un hayot kechirish usullari va vositalarini izlash hamda qo‘llash mavzusi har doim faylasuflar, madaniyatshunoslar, sotsiologlar, dinshunoslar, psixologlar, siyosiy, jamoat va din arboblarining e’tiborini tortib kelgan. Millatlararo madaniyat ana shunday dolzarb masala hisoblanadi.

Millatlararo bag‘rikenglik insonparvarlik qadriyatlari, fanatizm va shovinizmning turli shakllari o‘rtasidagi qarama-qarshilik sifatida Yevropa falsafasi tarixida mavjud bo‘lgan. Jumladan, D.Lokk tolerantlikni talqin qilishda liberal yondashuvni ta’kidlagan. Uning “Bag‘rikenglik to‘g‘risida” risolasini, shuningdek, I.Kantning “Abadiy tinchlikka” asarini, L.N.Tolstoyning “Vatanparvarlik yoki tinchlik” asarini alohida qayd etish mumkin.

Bizning nuqtayi nazarimiz bo‘yicha, insonning har qanday xatti-harakati uning ongi bilan bog‘liqligi, shubhasiz, biroq inson u yoki bu narsani bilishi mumkin. Buni falsafiy nuqtayi nazardan biz huquqiy ong, huquqiy madaniyat, estetik ong, estetik madaniyat, axloqiy ong, axloqiy madaniyat va xuddi shunga o‘xshash, bag‘rikenglik ongi va bag‘rikenglik madaniyatiga ajratishimiz mumkin. Ularning asosiy farqi bag‘rikenglik ongida u bilan bog‘liq bilimlarga subyektning egaligi bo‘lsa, bag‘rikenglik madaniyatida ana shu bilimlarni amalda qo‘llashi tushuniladi. Shu jihatdan, bag‘rikenglik madaniyati ustuvorlik kasb etib, natijani namoyon qiladi. Bag‘rikenglik ongini, o‘zi shaxs uchun kifoya qilmaydi toki uni amalda qo‘llamasa yoki amal qilmasa, bag‘rikenglik madaniyati shakllanmaydi. Biri poydevor bo‘lsa, ikkinchisi uning ustqurmasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘sib kelayotgan yosh avlodning ongida shakllangan va rivojlangan millatlararo axloqiy bag‘rikenglik g‘oyalarini milliy mentalitetimiz bilan uyg‘un rivojlanib borishini ta’minlashimiz, ommaviy axborot vositalari yoki boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning ongiga singdirishga qaratilgan intolerant g‘oyalarning oldini olishimiz darkor.

XXI asrlar modernizatsiyasini yetaklovchi kuch globallashuv hisoblanadi. Globallashuv natijasida ko‘p madaniyatlilik, shu bilan birga, milliy madaniyatlarni saqlab qolishga urinishlar ham mavjud. Ushbu qarama-qarshilikning yechimi umumbashariy madaniyatning umumiy tendensiyalarida ham namoyon bo‘lmoqda. Tolerantlik esa bu tendensiyalarning zaruratidir. Bunday sharoitda jamiyatda bag‘rikenglik madaniyati oqilona tashkil etilgan jamoaviy madaniyat doirasida shakllanadi. Bag‘rikenglik madaniyatining zaruriyati bir makonda yashovchi turli xil ijtimoiy guruhlarga mansub shaxslarning tinch-totuvlik va hamkorlikda yashashini ta’minlash bilan bog‘liq.

Инагамова Феруза Хуршитовна (Маҳалла ва оила илмий тадқиқот институти таянч докторанти; feruzainagamova59@gmail.com)

ДИНИЙ МАНБАЛАРДА ОИЛА МУСТАҲКАМЛИГИ МАСАЛАСИНИНГ ТАВСИФИ

Аннотация. *Мазкур мақолада оила институтининг илмий, ижтимоий-фалсафий тушунчалари ва талқинлари тадқиқ этилади, унинг инсоният тарихидаги эволюцияси таҳлил қилинади.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются научные, социально-философские концепции и трактовки института семьи, анализируется его эволюция в истории человечества.*

Annotation. *This article discusses scientific, socio-philosophical concepts and interpretations of the family institution, analyzes its evolution in the history of mankind.*

Калит сўзлар: *шахс, оила, оила институти, оила мустаҳкамлиги, кадриятлар, миллий-маънавий қадриятлар, қадриятлар трансформацияси.*

Ключевые слова: *человек, семья, институт семьи, стабильность семьи, кадры, национально-духовные ценности, трансформация ценностей.*

Key words: *person, family, family institution, family stability, personnel, national and spiritual values, transformation of values.*

Жаҳон тараққиётнинг бугунги глобаллашув жараёни инсоният тарихий тафаккури ва ижтимоий ҳаётида ўзгаришларга олиб келди. Хусусан, тафаккурдаги бу ўзгариш ғарб олимларининг

“оила институти эскирди”, оилавий муносабатларини мустаҳкамлаш учун “мутлақ янги қадриятлар зарур” деган фикрларни билдиришга ундамоқда. Бу эса оила институтини мустаҳкамлашнинг концептуал асосларини излаб топиш лозимлигини долзарб вазифа сифатида кун тартибига қўйди. Бунда оилалар мустаҳкамлигига таъсир қилувчи асосий восита ҳисобланган қадриятлар мазмун ва моҳиятини ёшлар онги ва қалбига сингдириш ҳамда унинг трансформацияси масаласини илмий-назарий тадқиқ ва таҳлил этиш бугунги кун учун долзарб ҳисобланади.

Мустақиллик халқимиз, миллатимиз тараққиёти учун кенг уфқлар очиб берди. Бугун мамлакатимиз бор куч-қудрати ва имкониятини юксак демократик ҳуқуқий давлат, фуқаролик жамияти қуришга йўналтирган. Бунда биринчи галдаги вазифа жамият асосини ташкил қилувчи жамиятнинг энг кичик бўғини ҳисобланган оила институтини мустаҳкамлаш, унинг фаровонлигини таъминлашни ва ҳар томонлама қўллаб-қувватлашдан иборатдир.

Жамиятнинг ёвузлик ва бузғунчиликлардан холи, тинч ва обод бўлиши, аввало, оила тинчлигига боғлиқ. Оиладаги хотиржамлик ва унинг мустаҳкамлиги оила аъзоларининг ўз масъулиятини тўғри англаши ва виждонан бажариши билан белгиланади.

Жамият ижтимоий тараққиётининг барча босқичларида файласуф, ижодкорлар оила ва ундаги қадриятлар тўғрисида кўплаб фикрлар билдиришган. Шу сабабдан бизнинг тадқиқотимиз ёш оилалар мустаҳкамлигини, уларнинг жипслигини таъминлашда қадриятлар трансформациясининг ўрнини аниқлашга қаратилганлиги сабабли, биз айнан оила, қадриятлар, қадриятлар трансформацияси малаларига оид тадқиқотлар билан яқиндан танишишимиз, уларда илгари сурилган ғояларни таҳлил қилишимиз ва янгича қарашлар ва ғояларни амалиётга жорий қилишимиз лозим. Мавзу доирасини фалсафада, ижтимоий ҳаётда сезиларли из қолдирган таълимотлар мавжуд, аммо уларнинг турли идеологик тазйиқлар таъсирида бўлган файласуфларнинг, оилашуносларнинг тор субъектив ёндашувлари боис эътибордан чеккада қолиб келган шундай фикрлар, ғоялар мавжудки, уларни таҳлил қилиш, бир томондан, анъаналарга, қадриятларга, маънавий меросга объектив ёндашишни таъминласа, иккинчи томондан, мавзуга доир кенгроқ қарашни, нуқтаи назарларни шакллантиради.

Оила институтининг ижтимоий-тарихий, ҳуқуқий, социодемографик шаклланиши борасида кўплаб тадқиқотлар ўтказилган бўлса-да,[1] унинг этнологик, этносоциал, аксеологик нуқтаи назардан таҳлили ҳали амалга оширилмаган. Тўғри, бундай таҳлилга оид материаллар барча тадқиқотларда учрайди, аммо улар маълум бир илмий, фалсафий концепция нуқтаи назаридан жамланмаган ва таҳлил қилинмаган.

Диний таълимотларда азалдан оила муқаддас саналиб, оилавий муносабатларга алоҳида эътибор қаратилган. Оила қуриш масаласи қадимги даврлардан амал қилиб келинаётган амаллардан ҳисобланган. Буни тарихий диний манба ҳисобланган “Авесто” таълимотида кўришимиз мумкин. “Авесто” халқимизнинг антик даврлардаги оила ва никоҳга, оилавий муносабатларни йўлга қўйишга оид тасаввурлари ҳақида қимматли хабарлар беради. Унда аёлнинг оиладаги роли алоҳида ажратиб кўрсатилмаса-да, оила қуриш, соғлом фарзанд туғиш ва ўстиришда аёлнинг ўрни катта экани таъкидланади.

Мутахассисларнинг таъкидлашича, “Авесто”да ўсмирлар 15 ёшга тўлганда балоғатга етган ва турмуш қуриш ҳуқуқига эга ҳисобланганлар. Лекин ёшларнинг ўзбошимчалик қилиб оила қуришларига йўл қўйилмаган. Оила қуриш жамоа, ота-она измида бўлган. Шу сабабли жамоа ва ота-оналар бўлажак келин ва куёвларни танлашда обдон ўйлаб иш кўрганлар. Йигитга ҳар томонлама мос бўлган қиз танланади.

“Авесто”шунос Ҳомиджон Ҳомидовнинг таъкидлашича, агар эркак зурриёт қолдириш қобилиятига эга бўлса-ю, аммо уйланмаса, унга тамға босилган ёки у белига димо оғир темир камар боғлаб юришга мажбур этилган. Ер юзида инсон зурриётининг кўпайишига қарши чиқиб, турмуш қурмай юрган қиз қопга солиниб, 25 қамчин калтакланган”.[2]

---

[1] Havfland L.S. Womans Life Work Labors and Expriences, Chicago, Publishing Association of Friends. 1889; Gutman H. The Black Family in Slavery and Freedom. 1750 1925, N.Y. Pantheon Books, 1976; Семенов Ю.И. Происхождение брака и семьи. Москва, “Наука”, 1974; Мид М. Культура и мир детства. Избранные произведения. Москва, гл. ред. “Восточ. лит-ры”, 1988; Венингер О. Пол и характер. Ростов на-Дону, “Феникс”, 1998; Семья 1 2. Книга для чтения. Москва, “Политиздат”, 1991; Убайдуллаева Р.А. Семья в Узбекистане. Т., 2012 ва бошқалар.

[2] Бобоев Ҳ., Ҳасанов С. “Авесто” – маънавиятимиз сарчашмаси. Тошкент, “Адолат”, 2001, 102-бет.

«Авесто»нинг Вендидод қисмида оила бутунлигини сақлаш, никоҳ тузиш тартиблари, никоҳнинг бекор қилиниши сабаблари ва шартлари анча батафсил баён қилинган. Икки киши, хоҳ диндош, хоҳ биродар, хоҳ дўст бир-бирови билан нима хусусда паймон боғласалар – бири иккинчисининг хонадонидан ўзига хотин танласа, сўзсиз, унинг талаби қондирилиши лозим[1] ёки «Мен бу сўзларим билан куёв танламоқчи бўлган болаға қизларга ва сиз икки танга ҳам насиҳат қиламан. Менинг ўгитларимга қулоқ солинглар ва уни ҳақиқатда хотирангизга жо қилинг ва ўз динларингизни топингларда, уни амалда жорий этинглар».[2]

Ҳозирги кунда мамлакатимизда таълим ва соғлиқни сақлаш тизимида олиб борилаётган ислоҳотларнинг асосини ҳар томонлама етук, баркамол, соғлом шахсни тарбиялаш масаласи ташкил этар экан, аждодларимизнинг 3 минг йил илгари, бу аъмолга етишнинг йўллари, қоидаларини ишлаб чиқиб, давлат ва жамиятнинг пойдевори ҳисобланмиш оила негизига қўйганлари юксак таҳсинга сазовордир: «Менга баркамол ва диногоҳ ватансевар ва анжуманоро, аҳил, эзгу андишали, зулматдан, тангликдан қутқарувчи фарзандлар бағишла».[3] Қадимда яратилиб, асрлар оша сайқал топган бу ўгитлар кейинги замонларда янгича таълимот таъсирида муайян ўзгаришларга учраб, уларнинг мазмунан яқин вариантлари пайдо бўлганини кўриш мумкин. Жумладан, Кайковус Қобусномада: Хотин олсанг, улуғ салоғлиғ хонадондин хотин талаб қилғил... Хотин камолға етгон, оқила бўлғон...бўлсин,[4]деса, Буюк Соҳибқирон бобомиз Амир Темур ўз «Тузукларида: Ўғилларим, набираларим ва яқинларимни уйлантирмоқ ташвишида келин изламоққа эътибор бердим. Бу ишни давлат юмушлари билан тенг кўрдим. Келин бўлмишнинг насл-насабини, етти пуштини суриштирдим»,[5] дея ибратли мулоҳазаларини баён этган.

Оила қуриш исломдан олдин ҳам бўлган, лекин оилада эрнинг ва аёлнинг ҳуқуқлари ва масъулиятларини, оиланинг мустаҳкамлигини таъминлайдиган омил сифатида қадриятлар том маънода ислом динида кўрсатиб берилади. Пайғамбаримиз Муҳаммад (алайҳиссалом) аёл номини улуғлаш, унинг шаънини кўтариш, хотин-қизларнинг ҳуқуқини белгилаб беришда фақат ислом умматигагина эмас, балки кишилик жамиятига ибрат ва намуна бўлиб келмоқдалар.

Ислом дини пайдо бўлганидан кейин ҳам аёл билан эркак тенг ҳуқуқли деб жар солган айрим тузумлар аёлларни эркаклар билан баб-баравар жисмоний меҳнат қилишга чорлаганлар. Натижада, эркак билан нафақат ҳуқуқда, балки жисмоний меҳнатда ҳам тенглаштирилган аёлларни, ҳатто ҳомиладорлик пайтида ҳам қурилиш, йўлсозлик, конларда турли оғир жисмоний ишларга мажбурлаш яқин тарихимизда оддий таомил бўлган эди. Мамлакатимиз истиқлолга эришгандан кейин аёл қадри ва шаъни тикланди. Аёллар жамиятда ўз ўрни, мавқеи ва сўзига эга бўлди. Бу асосий қонун – Конституциямизда кафолатлаб қўйилди. «Оила жамиятнинг асосий бўғинидир ҳамда жамият ва давлат муҳофазасида бўлиш ҳуқуқига эга».[6]

Диний манбаларда оиланинг ташкил этилиши, унинг мустаҳкамлиги, ҳалоллик, поклик, фарзанд тарбияси каби кўплаб масалалар хусусида фикр юритилади. Хусусан, ислом динида оиланинг ташкил қилинишидан кўзланган асосий мақсад ҳам ҳалолликни, покликни назарда тутади. Бандаларининг ҳалол ва пок яшашини кўзлаб, улар фойдасига «Аллоҳ сизлар учун ўзларингиздан жуфтлар яратиб, жуфтларингиздан сизлар учун ўғиллар ва набиралар пайдо қилди ва сизларни пок нарсалардан ризқлантиради...»,[7] деган ояти каримани нозил қилган.

Оиланинг институционал шаклланишида эркак ва аёл, улар ўртасидаги жинсий, маънавий-ахлоқий ва мулкий муносабатлар ҳал қилувчи роль ўйнайди. Мазкур муносабатлар эса маълум бир маданий этник ва ижтимоий муҳитда шаклланади, кечади. Шу нуқтаи назардан оиланинг институт сифатида шаклланиши мазкур муносабатларнинг тадрижий маҳсули ҳисобланади. Этнологик хусусиятлар унга миллийлик, локал ёки умуммиллийлик, умуминсонийлик бахш этади, халқларга хос белгилар тарихий-маданий ривожланишнинг ажралмас атрибути сифатида миллий қадриятларга айланади.

---

[1] «Avesto». A.Mahkam tarjimasi. T., “Sharq”, 2001.
[2] Ўша манба.
[3] Homidov H. “Avesto” fayzlari. T., 2001, 59-bet.
[4] Kaykovus. Qobusnoma. T., «O‘qituvchi», 1988, 82-bet
[5] Safarov O., Mahmudov M. Oila ma’naviyati. T., “Ma’naviyat», 1998.
[6] Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. 2020, 14-боб, 63-модда.
[7] Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржимаси. Тошкент Ислом университети нашриёти, 2009 (Наҳл сураси, 72-оят).

Оилашунослар фикрича, оила ҳақидаги илмий, фалсафий ва этнологик қарашларнинг барчаси оиланинг икки жинс, эркак ва аёл бирлиги, иттифоқи, уларнинг биргаликда хўжалик юритиши сифатида тан олади. Демак, оила институтининг ядросини эркак ва аёл, улар ўртасидаги хўжалик муносабатлари ташкил этади. Мазкур аксиома савол уйғотмайди.

Тарихий манбаларда оилавий муносабатлар мустаҳкамлиги, эр-хотин муносабатларда бир-бирига садоқатли бўлиши, фарзандлар тарбияси масалаларида, айниқса, ёш оилаларда оила мустаҳкамлигини таъминлашда қадриятларга содиқлик, уларга оғишмай амал қилишнинг ўрни ниҳоятда юксак баҳоланади. Масалан, Хитой манбаларида Хитой оиласи “бир хотинга бир эр” тамойили асосида ташкил топади дейилади. Оилавий муносабатларда хотиннинг эрга нисбатан садоқатли бўлиши, унга, сўзсиз, бўйсуниши шарт эди. Эр эса ижтимоий ҳолатига қараб, “иккинчи даражали” хотинларга (хотини туғмайдиган бўлса) эга бўлиши мумкин эди. Хитой анъанавий ҳуқуқида никоҳни бекор қилиш учун жиддий чеклашлар кўзда тутилмаган. “Эр хотинлик бурчини бузганлиги ҳақоратлаш, тан жароҳати етказиш никоҳни бекор қилиши мумкин эди”. Хотин “ишончни оқламаса”, яъни, қайнона ва қайнотага итоат этмаса, бепушт, енгил табиат, ҳасадгўй, вайсақи, бемор бўлса ёки оила мулкидан берухсат фойдаланса, эри никоҳни бекор қилиш ҳуқуқига эга бўлган”.[1]

Оилага бўлган муносабат ҳинд халқи ҳаётида, хусусан, диний манбаларида ҳам алоҳида ўрин эгаллаб, ўзига хос хусусият касб этади. Ҳиндистон цивилизациясида оила институтининг шаклланиши ва талқинларига оид турли, гоҳо зиддиятли фикрлар кўплаб учрайди.[2] Ижтимоий-фалсафий ва этнологик нуқтаи назардан улар ҳинд халқининг тарихий-маданий ҳаёти, аёлларга муносабатлари ва келажак авлодлар, айниқса, маънавий тараққиёт масалаларига оид меросини ифода этади. Будда (эрамиздан аввалги VI–V асрлар) ва буддавийлик таъсирида аёлга нисбатан салбий фикрлар[3] ёйилган бўлса-да, ҳинд халқи оила институтини инкор қилган эмас. Будданинг ўзи ҳам, “кишиларни, худди она ўз фарзандини севганидек, севинг”, деб ўргатади.[4]

Шунингдек, Миср цивилизацияси синфий муносабатларга қурилган. Матриархат тузумига хос одатий нормалар ва анъаналар оила институтига, никоҳ ва авлодлараро муносабатларга таъсир этган. Эркаклар ролининг ошиши билан оила институтини бошқариш, ундаги анъаналарни йўлга қўйиш патриархал хусусият касб этади.“Ҳаммурапи қонунлари”да эса 117–212-моддалар оила, оилавий муносабатлар, эр-хотин ўртасидаги алоқаларга бағишланган. Уларда кишининг ўз онаси, синглиси, қизи билан жинсий алоқа қилиши тақиқланади.[5] Аммо унда оиланинг бошлиғи эркак экани назарда тутилади, бу патриархал ёндашув қонунлардаги моддаларда кўзга ташланади. Эркакнинг хотин олиши, қул аёлга, чўрига эга бўлиши, истаган пайтида улардан ажралиши мумкинлиги кўрсатилади. Ушбу қоида ислом дини қоидалари зид характер касб этади.

Юқорида келтирилган манбалардан кўринадики, ислом динида оила масаласида бошқа манбалардан кўра кўплаб асосли фикрлар келтирилади. Жумладан, шу ўринда мавзуга доир Қуръони каримдан яна бир қанча далиллар келтириш ўринлидир. Нисо сурасининг 3-оятида: “Бас, ўзингиз хуш кўрган аёллардан икки, уч, тўртини никоҳлаб олинг. Агар адолат қила олмасликдан қўрқсангиз, биттани”,[6] деган. Бундан кўринадики, никоҳ, оилавий муносабатлар ҳам адолат меъзонига асосланиши лозим.

Яна шунингдек, “Ўзингиздан оиласизларни, қўл ва чўриларингиздан солиҳларини никоҳлаб қўйинг, агар фақир бўлсалар, Аллоҳ ўз фазлидан бой қилур. Аллоҳ кенг ва билимдон зотдир”.[7] Аллоҳ ушбу оятда мўъмин бандаларга пок йўл билан никоҳда бўлишни амр этмақда. Ушбу оят никоҳга бўлган кучли тарғибдир.

Ва батаҳқиқ: “Сендан олдин ҳам расуллар юборганмиз ва уларга жуфту ҳалоллар, зурриётлар берганмиз”,[8] деган. Пайғамбаримизга хитоб қилинаётган ушбу оятда Аллоҳ оилали бўлиш

---

[1] Бўриев О., Усмонов М. Ўзбек оиласи. Тошкент, “O‘zbekiston”, 2012, 16 – 17-бетлар.
[2] Дхаммапада. Санкт-Петербург, изд. Чернишёва, 1993, с. 121.
[3] Будда. Минск, “Современное слово”, 1998, с. 3.
[4] Ўша асар. С. 21.
[5]Қадимий ҳуқуқий ёдгорликлар. Хаммурапи қонунлари. Доро I нинг Беҳистун қояларидаги ёзувлари. Таржима асар. Тошкент, “Адолат” нашриёти, 2016, 46 –52-бетлар.
[6]Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржимаси. Тошкент Ислом университети нашриёти, 2009, “Нисо сураси, 3-оят.
[7] Шу манба. Шўро сураси, 32-оят.
[8] Шу манба. Раъд сураси, 38-оят.

уйланиш ва зурриётли бўлиш барча Пайғамбар (а.с)нинг суннатлари эканлигини баён этмоқда. Бу оятда ҳам никоҳга қаттиқ тарғиб борлиги кўриниб турибди.

Термизий (р.а) ривоятида Набий (с.а.в): “Тўрт нарса Расулларнинг суннатларидан: “Ҳаё, хушбуй сепмоқлик, мисвок ва никоҳ”, дедилар. Ушбу тўрт нарса Одам а.с.дан тортиб, Муҳаммад а.с.гача бўлган барча пайғамбарларнинг суннатидир.

Набий (с.а.в): “Менга, дунёда аёллар, хушбуй нарсалар маҳбуб қилинди. Кўзимнинг қорачиғи намозда қилинди”, дедилар. Расулуллоҳ а.с.нинг “Эй, ёшлар жамоаси сиздан ким никоҳга қодир бўлса, уйлансин. Албатта, у кўзни тўсувчи ва фаржни сақловчидур. Ким қодир бўлмаса, рўзани лозим тутсин, бу унинг учун бичилишдир”, деганларини эшитдим. Энди шу ўринда муътабар китобларда келтирилган, оила қуришга имконияти йўқлар учун, рўзадан бошқа йўлларини ҳам келтириб ўтамиз. Булар: кўзни бегона аёллардан сақлаш, Қуръон ўқиш, бузуқ киноларни кўрмаслик ва жинслар ҳақидаги китобларни ўқимаслик, каби ишлар. Расулуллоҳ (с.а.в) бошқа бир ҳадиси шарифларида: “Никоҳ менинг суннатимдир. Бас, ким менинг суннатимдан юз ўгирса, мендан эмас”, дедилар. Расулуллоҳснинг (с.а.в) ушбу сўзлари имкони бўла туриб, оила қурмаслик, никоҳланмаслик мусулмон кишининг иши эмаслигини англатмоқда.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, оилалар мустаҳкамлиги, уларнинг риожланиши, миллий анъана ва миллий қадриятларни қай даражада ўзлаштирилганлиги ва амал қилинаётганлигига боғликдир.

Xudayberganov Ravshonbek Xudaybergan o‘g‘li (International school of finance technology and science institute, professor v.b., f.f.d. (DSc)

MENTAL TILNING FALSAFIY-METODOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada falsafa va fanning fundamental muammolaridan hisoblangan mental til va uning falsafiy-metodologik jihatlari tahlil qilingan. Shuningdek, mental tilning asosiysi vazifasi gaplarning ma’nolari o‘rtasidagi tizimli munosabatlar (o‘zlik, farq, mantiqiy oqibat va boshqalar) “fikr tili” (lingua) maqomi berilgan metallingvistik iboralar o‘rtasidagi bir xil tizimli munosabatlarda namoyon bo‘lashi tahlil qilingan. Hozirda mental til lingvistik falsafasning metatili sifatida, ayniqsa, faol rivojlanayotganligi yoritilgan.*

Аннотация. *В статье анализируется ментальный язык и его философско-методологические аспекты, считающиеся одной из фундаментальных проблем философии и науки. Также анализируется, что основной функцией ментального языка являются систематические отношения между значениями предложений (тождество, различие, логическое следствие и т.д.) и такие же систематические отношения между металингвистическими выражениями, наделенными статусом «языка мысли» (лингуа). В настоящее время особенно активно развивается ментальный язык как метаязык лингвистической философии.*

Annotation*. The article analyzes the mental language and its philosophical-methodological aspects, considered to be one of the fundamental problems of philosophy and science. It is also analyzed that the main function of mental language is the systematic relations between the meanings of sentences (identity, difference, logical consequence, etc.) and the same systematic relations between metalinguistic expressions given the status of “language of thought” (lingua). Currently, mental language is particularly actively developing as a metalanguage of linguistic philosophy.*

Kalit so‘zlar: *til, mental til, matematik til, mental va mantiqiy, mental arifmetika, mental til semantikasi, mantiq tili, fikr tili, semantik til, sun’iy til.*

Ключевые слова: *язык, ментальный язык, математический язык, ментальный и логический, ментальная арифметика, семантика ментального языка, язык логики, язык мысли, семантический язык, искусственный язык.*

Key words. *language, mental language, mathematical language, mental and logical, mental arithmetic, mental language semantics, logic language, thought language, semantic language, artificial language.*

Bugungi fanning rivojlanishi bir qancha yangi sohalarning vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa har bir sohani birinchi navbatda ilmiy yo‘l bilan hal qilish kerakligini taqozo etadi. Ammo, tilni subyekt sifatida ko‘rib chiqish uchun til haqida gapiradigan tilga, ya’ni, mentall tilga ehtiyoj bor va mentall til bilan obyekt tili o‘rtasida aniq farq bo‘lishi kerak. Bu muammo, dastlab, Varshava mantiq maktabi tomonidan birinchi marta ilgari surilgan. Ya’ni, gapiriladigan til obyekt tili, obyekt tili haqida gapiradigan

til mental til deb ataladi. Shunday qilib, asta-sekin tillar iyerarxiyasi yaratiladi. Mantiqiy pozitivizm doirasida turli xil ilmiy nazariyalar aspektlariga asoslangan ko‘plab ilmiy va falsafiy mental tillar yaratildi. Bu esa mental tillar o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlash uchun metadialektika haqida fikr yuritish to‘g‘ri bo‘ladi. Tilning tarixiy rivojlanishi, ya’ni, diaxronik tarzda shug‘ullanish tilshunoslikning ikkinchi darajali vazifasidir. Bunga ko‘ra, til tarixiy o‘lchov bilan bir qatorda matematik, mental yoki mantiqiy tizimga ega. Bu xususda S.Sossyur shunday degan: “Tilning xususiyatlari va munosabatlari, mohiyatiga ko‘ra, mental matematik formulalar yordamida ifodalanishi tan olinadigan kun keladi”,[1] deya mental tilning tafakkurni rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlarini targ‘ib qiladi.

Ma’lumki, til shaxslar o‘rtasidagi o‘zaro kelishuv vositasidir. Til bu kishilarni tabiat, atrof-muhit va boshqalar bilan o‘rnatgan munosabatlaridan va ularning turli ehiyojlaridan shu munosabatlar doirasida paydo bo‘ladigan kommunikatsiya (muloqot) vositasi hisoblanadi. Bunday muloqot jarayonlarida til ham ijtimoiy, ham madaniy ahamiyatga ega bo‘ladi. Til – bu o‘z rivojlanish qonunlariga ega bo‘lgan va faqat shu qonunlar doirasida rivojlanayotgan odamlar o‘rtasidagi kelishuv tizimi. Tilning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: a) til – rivojlangan aloqa vositasi; b) til – tovushlardan tashkil topgan kelishuv tizimi; d) til o‘z fikrlarini to‘liq ifoda qilish va o‘zaro kelishuv vositasi; e) til bu tovushlardan tashkil topgan muayyan qoidalar to‘plami, f) til nutq va tafakkurning o‘zaro bog‘lovchi vositasi; g) til – inson tirikligini namoyon etuvchi va ijtimoiy jarayonlardagi munosabatlarini o‘zida mujassam etadi.

Til va muloqot ijtimoiy munosabatlarda milliy mentalitetni rivojlantiruvchi muhim elementlardan hisoblanadi: Chunki, birinchidan, til birligi millatni tashkil etuvchi xususiyatlardan biri bo‘lib, u millatning tarixi, dini va madaniyati bilan chambarchas bog‘liq hodisa hisoblansa, ikkinchidan, millat uchun zarur bo‘lgan barcha narsa tilda namoyon bo‘ladi. Til o‘zida muayyan millatning ma’naviy va madaniy qadriyatlarini va o‘ziga xos mavjudlik shakllarini ifoda etadi. Uchinchidan, til millatlarni o‘zaro birlashtiruvchi va shaxslar o‘rtasida umumiy insoniyllik tuyg‘u va fikrlarni o‘zida mujassam etadi. Shuning uchun til ijtimoiy munosabatlarda millatning birligi va yaxlitligini ta’minlaydigan eng muhim omil hisoblanadi.

Fan tarixida til va kommunikatsiya shaxslararo munosabatlarning takomillashuvi va inson ijtimoiylashuvining bosh omili sifatida muhim ahamiyat kasb etgan. Til jamiyatda odamlarning tabaqalanishi, kommunikatsiya muloqot vositasi sifatida amal qilgan. Hozirgi davrning global muammolaridan biri tilning kommunikatsiya vositasi, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish, shaxslararo aloqalarni tashkil etish va begonalashuvni bartaraf etishdagi ahamiyatini aniqlash va uning milliy o‘z-o‘zini anglashdagi rolini asoslashdan iborat. Shu bois til va kommunikatsiyaning rivojlanish mexanizmlarini o‘rganish, tilning leksik, grammatik jihatlarini, yozuv madaniyatining millat tilining barqarorligini saqlash omili sifatidagi ahamiyatini aniqlashga barcha davrlarda alohida e’tibor qaratilgan. Til nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bo‘rttirish, zamonaviy postklassik falsafada inson mavjudligini anglash, umuminsoniy qadriyatlarning kundalik «hayot dunyosi»ni o‘rganish, muloqot jarayonida lingvistik bayonotlarni tushunish, subyektlararo aloqalarini tashkil etishda shaxslarning kommunikatsiya mahsuli hisoblanadi.

Hozirgi kunda keng tarqalib borayotgan metodlaridan biri mental til yoki mental arifmetikadir. Tabiiy savol tug‘iladi, xo‘sh, mental til arifmetikasi o‘zi nima? U bolaning aqliy rivojlanishiga chindan ham yordam beradimi yoki bu shunchaki oddiy ta’lim metodlaridan birimi? Bu kabi savollar ko‘pgina olimlarni o‘ylantirishi, tabiiy. Fan sifatida mental til arifmetikasi bundan ikki ming yil ilgari Yaponiyada paydo bo‘lgan. Bu usul miyaning har ikkala yarim sharini rivojlantirish maqsadida o‘ylab topilgan. Bir qarashda, xayolotga yaqindek tuyulishi mumkin, ammo ushbu ta’limning rivojlanishi fantastika emasligini isbotladi. Bolalarning aniq bir metodika bilan shug‘ullanishlari natijasida ularning xotirasi mustahkamlanib, diqqatining oshgani, ongdagi turli xil matematik hisob-kitoblarni ishlab chiqarish qobiliyatining tez sur’atlarda amalga oshirilishi, hatto olimlarning ham hayratiga sabab bo‘ldi.

Mental til – bu konseptual tizimning birliklari ko‘rsatilgan yoki tabiiy til ifodalarining ma’nosi uchun aqliy tasavvurlar tasvirlangan metatil. Mental til semantikasini shakllanishining o‘ziga xos qoidalar mavjud bo‘lib, unga ko‘ra, obyekt tilining har bir jumlasiga (masalan, ingliz tiliga) ba’zi bir metatilda (masalan, ingliz va birinchi darajali mantiq tili yoki maxsus tilda bo‘lishi mumkin) ifoda beriladi. Shu maqsadda mental til ixtiro qilingan. Mental tilning asosiysi vazifasi gaplarning ma’nolari o‘rtasidagi tizimli munosabatlar (o‘zlik, farq, mantiqiy oqibat va boshqalar) “fikr tili” (lingua) maqomi berilgan metallingvistik iboralar o‘rtasidagi bir xil tizimli munosabatlarda namoyon bo‘ladi. Mental tilni dastlab Leybnits muomalaga kiritib uni tafakkurni rivojlanishidagi mantiqiy-falsafiy metatil sifatida qo‘llaydi. Hozirda mental til lingvistik falsafasning metatili sifatida, ayniqsa, faol rivojlandi.

[1] Ф.Соссюр. Курс общей лингвистики. “Юрайт”, 2020, с. 303.

Mentil til yoki fikrlash tili, J.D.Fodor fikriga ko‘ra, “O‘z muhitining psixologik ahamiyatli va aniqlangan tomonlarini ichki tasvirlash vositasidir. Bu ma’lumotni shunday tilda “ifoda qilish” mumkin bo‘lgan darajadagina uni organizmning kognitiv repertuariga kiritilgan protseduralar orqali qayta ishlashi mumkin: bu protseduralar ichki tilda ham qayd etiladi. Fikrlash tilining ba’zi xususiyatlari ham xuddi shu tilda ko‘rsatilishi kerak, chunki tasvirlarni ifodalash qobiliyati ularni oqilona manipulasiya qilish uchun zaruriy shartdir”.[1]

Tabiiy til – bu fikrlarni (ya’ni aqliy tasvirlarni) lingvistik shakllar (ya’ni, yakuniy jismonan tovushlar sifatida ifodalanadigan tasvirlar) bilan bog‘laydigan mexanizm. Demak, gapning (sintaktik va fonologik) yuzaki tuzilishi, kognitiv tuzilishi (gap so‘zlovchining ongida, odatda, tinglovchining talqinida ifodalanishi kerak bo‘lgan fikrni ifodalaydi) va birinchi ikkisi o‘rtasida oraliq bo‘ladi va lingvistik ma’lumotlarni ifodalovchi ma’no darajasiga ega bo‘ladi. Shu ma’noda J.D.Fodor, “Kognitiv tuzilmalar lingvistik tasvirlar emas, ular hech qanday tabiiy tilga tegishli emas, balki ma’noda fikrlash tiliga ishora qiladi”.[2] Ularning mavjudligi har qanday tabiiy til tizimi tomonidan aks ettirilganligiga bog‘liq emas. Ular bevosita insonning idrok etish tizimi, masalan, ko‘rish apparati tomonidan ham yaratilishi mumkin. Bu borada, Stassen, “Ularda tabiiy til iboralari mavjud bo‘lgan kognitiv tuzilmalar va chiziqlilik yo‘q. Aksincha, kognitiv tuzilmalarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ketma-ketligi kuzatuvchining strategiyalariga mos keladi”.[3]

Mental tilda “tafakkur tili”ning ifoda kuchini tavsiflovchi shakllanish qoidalari majmuyi oddiy tilda sintaktik tuzilmalarni shakllantirishning tegishli qoidalariga o‘xshaydi. Bu qoidalar tabiiy til jumlalarining konseptual tuzilishini tavsiflash uchun zarur bo‘lgan darajada semantik nazariyaning obyekti hisoblanadi. Tafakkur tili gipotezasiga ko‘ra, ruhiy holatlar qasddan qilingan obyektlarga ega, ularning ikkalasi ham murakkab mavjudotlardir. Xususan, takliflar murakkab iboralar sifatida tahlil qilinadi. Ruhiy holatlar sababiy rol o‘ynaydi, bu esa ushbu holatlarni funksional ravishda aniqlash, bir holatni boshqasidan funksiyasi bilan farqlash imkonini beradi. Bularning barchasi ma’lum bir tilni tashkil qiladi. Bunday psixik holatlarning sintaktik tuzilishi ularning predmetlari orasidagi semantik munosabatlarni aks ettiradi. Bundan tashqari, kognitiv holatlar – ularning maqsadli obyektlaridan ko‘ra, odatda, oddiy tillar kabi bevosita tarkibiy qismlarning tuzilishiga ega bo‘ladi.

Mental tilning rivojlanishida quyidagi qiyinchiliklar mavjud:

1. Mental tilning xossalarini sintaktik va amaliy jihatdan tashkil etish. Masalan, mantiqiy metatilda kvantlashtiruvchi elementlar o‘zgaruvchan belgilarga ega bo‘lgan prefikslar maqomiga ega bo‘lib, bu butun mantiqiy ifodada kvantlar doirasini vizual ravishda belgilash imkonini beradi. Ammo faylasuflar bunday qurilmani taklif qilgan Fregedan ancha oldin, bu notativ jism haqida juda uzoq vaqt o‘ylashlari kerak edi. Chunki mental tilning tafsilotlarini ishlab chiqish hech qachon tugamaydigan faoliyatga aylanishi mumkin.

2. Ma’lumot tushunchasining nazariy ta’rifida mental tilni imkonsiz bo‘lgan narsalar dunyosi (real, mavhum, xayoliy) kabi to‘liq bo‘lishi yoki oddiy til kabi noaniq, bu ham qiyinchiliklarga to‘la bo‘lishi kerak.

3. Odamlar o‘rtasidagi aqlning individual farqlari fikrlash xususiyatlari bilan bog‘liq va intellektual rivojlanish mexanizmlar xususiyati bo‘lib, ular o‘z-o‘zidan fikrlamaydi. Semantik nisbiylik “fikr tili” nazariyalariga, ya’ni, qandaydir ichki til mavjudligini yoki fundamentalni ifodalashning ichki usulini targ‘ib qiladigan nazariyalarga qarshi qaratilgan.

Lekin ushbu holatlar o‘ziga xos dastur bo‘lib, u insonning intellektual hamda ijodiy faoliyatini rivojlantirishga imkon yaratadi. Bu orqali maxsus hisoblarni miyada bajarish osonlashadi. Ushbu metodda ta’lim olish yoshi 4 yoshdan 16 yoshgacha etib belgilangan.

Xullas, bugungi kunda miyaning har ikkala yarim sharini rivojlantiruvchi ushbu usul dunyoning 52 davlatida qo‘llaniladi. Mental tafakkurni rivojlantrish orqali nimaga erishish mumkin? Ushbu arifmetikani o‘zlashtirish orqali ijodiy fikrlash rivojlanadi, bola nostandart bo‘lmagan vaziyatlarda yagona haqiqiy yechimni topishni o‘rganadi. Fikrlash jarayonlari ongli bo‘lib, rivojlangan xotiraga tayanadi. Bolalarning ijodiy qobiliyati oldinga chiqadi (bu faqat matematik ma’lumotlarga tegishli bo‘lmay, boshqa sohalarda ham namoyon bo‘ladi). O‘quv xonasida o‘tishga mo‘ljallangan bu kabi mashg‘ulotlar hamma vaqt ham

[1] Fodor J.A. Why there STILL has to be a language of thought. Computers, brains and minds: Essays in cognitive science. D. etc.: Kluwer Acad. Publishers, 1989, p. 23 – 46.

[2] Fodor J.A. The language of thought. N.Y., Crowell, 1975; Hassox (Essex, England): Harvester, 1976, 214 p.

[3] Stassen L. Comparison and universal grammar. O., N.Y., Blackwell, 1985, 373 p.

mental hisob-kitobga asoslanmaydi. Bunda bolalar bir-biri bilan o‘zaro muloqot qilish, raqs tushish va qo‘shiq aytishga o‘rgatiladi. Bolalar uchun aqliy arifmetikaning asoslarini o‘rgatish ularning fikrlashlariga o‘zining ijobiy samarasini ko‘rsatadi. Biroq, shuni unutmaslik kerakki, bu kabi mashg‘ulotlar mutaxassis tomonidan amalga oshirilishi lozim.

Muradov Sanjar Aslonovich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti)

FARIDUDDIN ATTORNING BORLIQ TO‘G‘RISIDAGI ASARI

Annotatsiya. *Ushbu maqola mashhur mutasavvif shoir, tabib, shayx Fariduddin Attorning tasavvufiy ijod namunalaridan biri “Musibatnoma” tahliliga bag‘ishlangan. Muallif fikricha, shayx asarlarida tahlil qilingan antropologik qarashlar bugungi yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Аннотация. *Данная статья посвящена анализу «Мусибатнаме», одного из образцов мистического творчества известного суфийского поэта, врача, шейха Фаридуддина Аттора. По мнению автора, антропологические воззрения, проанализированные в трудах шейха, играют важную роль в воспитании современного молодого поколения.*

Annotation. *This article is dedicated to the analysis of “Musibatname”, one of the examples of mystical creativity of the famous Sufi poet, doctor, Sheikh Fariduddin Attor. According to the author, the anthropological views analyzed in the works of the sheikh play an important role in the education of the modern young generation.*

Kalit so‘zlar: *ilm, bilim, ma’rifat, antropologiya, kitobiy bilim, bag‘rikenglik, pir, murid.*

Ключевые слова: *наука, знание, просвещение, антропология, книжное знание, терпимость, пир, мюрид.*

Key words: *science, knowledge, enlightenment, anthropology, book knowledge, tolerance, feast, murid.*

Sharqning buyuk mutasavvifi Fariduddin Attorning shoh asarlaridan biri “Musibatnoma” hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Fariduddin Attorga tegishli bo‘lgan 16 nomdagi 52 ta qo‘lyozma manba mavjud bo‘lib, shulardan 2 tasi “Musibatnoma” asarining qo‘lyozmasi hisoblanadi. Ushbu fondda bizning e’tiborimizni tortgan yana bir manba 813-raqam bilan ro‘yxatga olingan “Sitta Fariduddin Attar” bo‘lib, ushbu to‘plamga Fariduddin Attorning 6 ta dostoni o‘rin olgan. Bu asarlar quyidagilar: “Ilohiynoma” (1b–75b), “Mantiq ut-tayr” (1b–79a), “Musibatnoma” (76b–153a), “G‘azallar devoni” (79b–158a), “Ushturnoma” (154b–182a), “Asrornoma” (158b–196b). Qo‘lyozma 1423–1424-yillar davomida ko‘chirilgan. Afsuski, nusxa ko‘chirgan kishining ismi noma’lum. E’tiborli jihati, bu to‘plamda ham biz tahlil qilmoqchi bo‘lgan asarning nomi zikr etilgan.

Fariduddin Attorning “Musibatnoma” asari shakl, tuzilish va mazmuni jihatidan Hakim Sanoiyning (1080–1131) “Hadikat ul-haqiqat” (Haqiqat bog‘lari) asariga o‘xshaydi. Ushbu ikki asar irfoniy va diniy g‘oyalarni qamrab olgan hikoya, masal, rivoyatlardan iborat. Fariduddin Attorning “Musibatnoma” asari kirish, 40 bob (maqola) va yakuniy qismdan tashkil topgan.

Asarning kirish qismi 65 sahifadan iborat bo‘lib, Allohni madh etish, payg‘ambar, to‘rt xalifa, payg‘ambar nabiralari: Hasan va Husan haqida fikrlar keltirilib, 9 hikoyadan tashkil topgan. Asar “She’riyat haqida” nomli bo‘lim bilan tugaydi. Ushbu qismda Fariduddin Attor tasavvuf vakili sifatida asarining diniy, irfoniy hamda didaktik tomonlarini yorqinroq va to‘laroq ifoda etadi.

Attor fikricha, insonning botinida mutlaq ruhning siri bor, ammo bu yerda unga yo‘l ko‘rsatuvchi bo‘lmaydi. E’tibor dunyo ne’matlariga qaratilsa, oxir-oqibat yo‘qotgan narsa insonning o‘zligi bo‘ladi. Shu sababli zohiriy narsalarga giriftor bo‘lmaslik kerakligini ta’kidlaydi.

Shayx “Xusravnoma”da “Musibatnoma” asarini quyidagicha ta’riflaydi:

“Musibatnoma” k-ando‘he chahon ast,
“Ilohiynoma”, k-asrori nihon ast,
Ba doruxona kardam g‘ar du og‘oz,
Chi guyam zud rastam z-inu on boz.

Mazmuni:

“*Musibatnoma” jahon qayg‘usidir,*
“Ilohiynoma” yashiringan sirlardir,
Ikkovini ham dorixonada yozishni boshladim,
Nima deysan, ikki sohada tez maqsadimga yetdim.

Kirish qismidan keyin “Kitob boshlanishi” nomli bo‘lim boshlanadi. Fariduddin Attor muridni haqiqat yo‘liga yo‘naltirishda yo‘l ko‘rsatuvchi (murshid)ning o‘rni haqida to‘xtaladi. Tariqat vakili o‘z sayohatini Haqiqatni qidirishdan boshlaydi. Bu yo‘lda u farishtalar, jannat, do‘zax, quyosh, oy, suv, tog‘, daryolardan yordam so‘raydi. Biroq ular bu yo‘lda hech qanday yordam bera olmasliklarini aytishadi. Ammo yo‘lchi (solik) o‘z yo‘lidan to‘xtamaydi. 21-bobdan boshlab u o‘z sayohatini payg‘ambarlar orasida davom ettiradi. Muhammad (s.a.v.) yo‘lchini ilohiy sir-sinoatni anglashning besh zinasiga yo‘naltiradi. Bu bosqichlar quyidagilardan iborat: his-tuyg‘u, tasavvur, aql, qalb va ruh. Bu bosqichlarni o‘tib bo‘lgandan so‘ng yo‘lchi yaratilgan narsalar ichida sayohatni yakunlab, Haq tomonga olib boruvchi yo‘lning boshiga kelib qoladi.

Fariduddin Attor “Mantiq ut-tayr” asarida borliqning yagonaligi to‘g‘risida fikr bildiradi. Bu fikrlar, keyinchalik, Ibn Arabiy (1165–1240) qarashlarida ham o‘z ifodasini topadi.

Fariduddin Attor davrida Olloh va Olam o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar quyidagi tamoyillarga asoslangan:

1. Dastlabki mavjudlik olamga nisbatan transsendent.
2. Dastlabki mavjudlik mutlaqo yagona.
3. Dastlabki mavjudlik barcha narsalar uchun asos.
4. Barcha narsalar dastlabki mavjudlikka nisbatan qat’iy iyerarxik tartibda joylashgan.

Fariduddin Attor qarashlariga muvofiq qalb barcha kichik zarralarni qamrab oldi, uning porlashi natijasida samo paydo bo‘ldi. Samo porlashi natijasida osmon va yulduzlar yuzaga keldi. Osmon va yulduzlar yorqin porlashi natijasida olov, tuproq, suv va havo paydo bo‘lganidan so‘ng porlash to‘xtab qoladi hamda ular bir-biri bilan aralashib, qushlar, hayvonlar va o‘simliklar dunyosini paydo qiladi.

Borliqning faolligi undagi harakatlar bilan belgilanadi. Agar harakat bo‘lmasa, borliqning borligini aniqlab bo‘lmas edi. Shu sababli Fariduddin Attor harakat orqali voqea va hodisalar yuzaga keladi va harakat doimiydir, deb hisoblaydi.

Fariduddin Attor Olloh yagonaligini madh etar ekan, Uning porlashi natijasida yuzaga kelgan moddiy olam narsalarini ta’kidlab o‘tadi.

Yak partav afkanda jahon gashta pur charog‘,
Yak tuxm kishta, in hama bar bor omada.
Dar bog‘i ishq yak ahadiyat, ki tofta ast
Shoxu daraxtu bargu gulu xor omada.[1]

(Mazmuni: bir porlash natijasida butun olam nurga to‘lib ketdi. Bir urug‘ni ekdi, hamma yer hosildor bo‘ldi. Ishq bog‘ida shunday bir birlikni bog‘ladiki, bu birlikning ichiga daraxt, barg, gul va tikanlar hammasi yuzaga keldi).

Olamdagi voqea va hodisalar doimo takrorlanib turadi. Hech bir narsa bordan yo‘q, yo‘qdan bor bo‘lib ketmaydi. Masalan, o‘simliklar quyosh ta’siri ostida o‘sadi, hosil beradi, so‘lib qoladi, uning urug‘i yana o‘sha jarayonni takrorlaydi.

Falsafaning yana bir muhim kategoriyasi substansiya hisoblanadi. Fariduddin Attor ta’limotida ushbu falsafiy kategoriya tadqiq etilganiga guvoh bo‘lamiz.

Umuman olganda, “Musibatnoma”da[2] keltirilgan hikoyalar ketma-ketligi hech qaysi tasavvufiy asarda takrorlanmagan. Attor asarida farishtalar va payg‘ambarlar darajasini ramzlar orqali ifodalagan. Masalan, Jabroil farishta–amr qilish ramzi, Iso – tozalik ramzi va h.k. Bunday o‘xshatish Ibn Arabiyning (1165–1240) “Fusus al-hikam” (Hikmat javohirlari) asarida keltiriladi. Biroq Ibn Arabiyning asari faqat farishta va payg‘ambarlar ta’rifini bersa, “Musibatnoma” mavzusi kengroq bo‘lib, barcha yuqori va quyi, ko‘rinadigan va ko‘rinmas narsalarni qamrab oladi. Har bir bobda yo‘lchi va borliqning muayyan vakili bilan suhbat keltirilib, keyin hikoyalar keltiriladi. Boblarda hikoyalar turlicha, masalan, “Yo‘lchining Jabroil farishta tomon yurishi” deb nomlangan bobida 6 ta hikoya keltirilgan bo‘lsa, ikkinchi bobda 8 ta hikoya keltirilgan. Eng kichik hikoya 2 baytdan iborat bo‘lsa, eng uzun hikoya 95 baytdan tashkil topgan. Mantiqiy bog‘liqlik bo‘lishi uchun Fariduddin Attor ushbu asarida “Ilohiynoma”ga o‘xshab umumlashtiruvchi baytlar kiritmagan.

Ushbu asarning asosiy g‘oyasi yo‘lchining o‘zligini anglash masalasi, qalbning pokligi, nafsni jilovlashga qaratilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

[1] Devoni g‘azaliyot va qasoidi Attor. Tehron, 1962, s. 336.
[2] Attor Fariduddin. Xusravnoma. Dushanba, “Irfon”, 1990, 220-bet.

Fariduddin Attor inson tafakkurining ikki holati to‘g‘risida hayotiy tajribasidan kelib chiqqan holda quyidagi fikrni beradi:

Yake do‘zax agar pindora zisht ast,
Digar pindora nekuro bixisht ast.

Mazmuni:

Yomon fikrlar bu sening do‘zaxing,
Yaxshi fikrlar esa jannatingdir.

Irratsional bilish Fariduddin Attor ta’limotida muhabbat tushunchasi orqali namoyon bo‘lgan. Fariduddin Attor ilohiy muhabbat, “fano” va “baqo” ta’limoti haqida gap borganda, yaratuvchining mohiyatini anglash uchun, birinchi navbatda, qalbga asoslanadi. Bilishning eng to‘g‘ri yo‘li bu Allohga muhabbat yo‘lidir.

“Musibatnoma” asarida Attor Allohni Koinotdan izlab, oxiri o‘z qalbidan topgani haqidagi tasavvufiy g‘oyani boshqacha bir tarzda ifodalagan. “Musibatnoma” asarining bosh qahramoni yo‘lchi moddiy va ruhiy olamning turli sohalariga xayoliy sayohatlarni amalga oshirib, yana oxirida o‘z qalbi tomon qaytadi va o‘zini anglaydi.

Bundan tashqari, ushbu asarda tarixiy ma’lumotlarga qam duch kelish mumkin. “Musibatnoma”da shunday yozadi:

On yake devonae yak girda xost,
Guft man bebargam in kori xudost.
Mardi majnun guftash: “Ey sho‘ridahol,
Man xudoro ozmudam, qaxtsol.
Bud vaqti g‘uriy zi har so‘ murdae.
V-o‘nadod az beniyozi girdae”

Mazmuni:

Bir devona bir kishidan non bo‘lagini so‘raydi. U kishi javob beradi: “Men kasalman, senga Alloh yordam bersin”. Devona e’tiroz bildirdi: “Sen xato qilayapsan, g‘uriylar hukmronligi paytida barcha yer murdalar bilan to‘lgan hamda qahatchilik bo‘lgan vaqt Allohdan so‘radim, u beniyoz bo‘lganligi uchun bir bo‘lak ham bermadi”.

Xulosa qilib aytganda, Fariduddin Attor o‘z asarlarida komil inson tushunchasiga alohida urg‘u beradi. Antropologik mohiyat kasb etadigan inson taqdiri masalasi Attor asarlarida ramziy atamalar orqali go‘zal ifodalab berilgan. “Musibatnoma” asarida inson yashashidan maqsad nima, hayotning mazmuni nimadan iborat, inson o‘zligini anglab biladimi, degan falsafiy savollarga javob topish mumkin. Fariduddin Attor ta’limotida hissiy, ratsional va irratsional bilish usullaridan foydalangan holda, insonning o‘zligini anglash ochib berilgan. Ma’rifat orqali olam, muhabbat orqali esa qalb sir-asrorlarini tushunish mumkinligiga urg‘u berilgan.

TILSHUNOSLIK

Saloydinova Nargiza Shuhratovna (Toshkent Arxitektura-qurilish instituti Xorijiy tillar kafedrasi dotsenti; nargiza.shuhratovna@gmail.com)

TILSHUNOSLIKDA OTERMIN: YONDASHUV, TAHLIL VA TADQIQ

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikda terminga oid tahlil va tadqiqlar haqida yoritib berilgan. Xorij olimlari bilan birga mahalliy olimlarimizmning tadqiqotlari haqida ayrim ma'lumotlar berib o'tilgan.Terminlarning paradigmatik munosabatlari tahlilari ham mavjud.*

Аннотация. *В статье описывается анализ и исследование терминов в языкознании, приводятся сведения об исследованиях как зарубежных, так и отечественных ученых, анализ парадигматических отношений терминов.*

Annotation. *The article describes the analysis and study of terms in linguistics, provides information about the research of both foreign and national scientists, the analysis of the paradigmatic relations of terms.*

Kalit so'zlar: *termin, paradigmatik, sintaktik birikma, shakl, semantik belgi, strukturaviy vazifa, funksional vazifa, sintagmatik belgi, grammatik shakl, iste'mol maydoni.*

Ключевые слова: *термин, парадигма, синтаксическое сочетание, форма, семантический признак, структурная задача, функциональная задача, синтагматический признак, грамматическая форма, область употребления.*

Key words: *term, paradigm, syntactic combination, form, semantic attribute, structural task, functional task, syntagmatic attribute, grammatical form, area of use*.

Ko'plab dunyo tilshunoslari termin va so'zlar o'rtasidagi bog'liqlik va uyg'unliklarni turlicha fikrlari bilan bayon qilib kelgan. Jumladan, G.O.Vinokur: "Terminlar – bu alohida so'zlar emas, balki faqat alohida vazifani bajaruvchi so'zlardir", degan xulosaga keladi. U yana: "Har qanday so'z, u qanchalik trivial (ahamiyatsiz, o'z kuchini yo'qotgan) bo'lmasin, termin vazifasida kela oladi", degan fikrni ilgari suradi. Biz olimning fikrlariga qo'shilib, ayrim so'zlar jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar, sohaning taraqqiy etishi yoki dominant tilning ta'siri ostida triviallik hodisasiga uchrashi (ma'no berish jihatidan o'z kuchini yo'qotadi), tabiiy. Ammo, ma'lum vaqt o'tib umumiste'molda o'z kuchini yo'qotgan so'zlar yana nutq tarkibiga termin shaklida qaytishini inkor etib bo'lmaydi.

Umumiy tilshunoslik sohasida so'z va terminlar semasiologik tamoyilga ko'ra tadqiq qilingan holda, leksik-grammatik xususiyatlari o'rganilib, unda asosiy e'tibor omonimik, sinonimik, antonomik hodisalariga, atamalarning grammatik jihatlarigagina qaratilgan.[1]

Har qanday leksik birlikning ma'nosi va grammatik shakli uning paradigmadagi, shuningdek, leksik-semantik maydondagi holatiga qarab aniqlanadi. Paradigmatik munosabat "sintaktik birikmalarning zamon va makonga bog'liq bo'lmagan o'zaro assotsiativ munosabati" hisoblanadi va "Muayyan sintaktik birlikning boshqa sintaktik birlik bilan ketma-ket munosabati sintagmatik munosabatni hosil qiladi." Qolaversa, paradigmatik va sintagmatik munosabatlar poydevorida asosiy munosabat bo'lgan denotativlik munosabati bo'lishi lozim, albatta. Sababi, denotativ munosabat, bir umumiy ma'noga ega bo'lgan, til birliklarini tildan tashqari, obyektlar bilan bog'lasa, paradigmatik va sintagmatik munosabatlar leksik birliklarning ma'no mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Ushbu lisoniy jarayon terminlarda kuzatilsa-da, paradigmatik va sintagmatik munosabatlarga kirishganda so'zlar kabi keng maydonni emas, balki o'zlari erkin bo'lgan ma'lum terminologik maydonga chiqishi ta'minlanadi.[2] Bundan xulosa qilish lozimki, muayyan soha terminlari so'zlar kabi umumiy munosabatga kirisha olmaydi, ular muayyan soha doirasidagina paradigmatik va sintagmatik munosabatlarga kirisha oladi, xolos.

Paradigmatik munosabatlarga ko'ra, arxitektura-qurilish terminlarini quyidagi paradigmalarga ajratish va tahlil qilish mumkin:

1. Formal paradigma (leksik belgisiga ko'ra, o'xshashlik munosabati).
2. Semik paradigma (ma'no belgisiga ko'ra, uyadoshlik munosabati).
3. Funksional-vazifaviy paradigma (funksional bajarishiga ko'ra, vazifadoshlik munosabati).
4. Struktural paradigma (strukturaviy-qurilish belgisiga ko'ra, struktural munosabat).

[1] G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "O'qituvchi", 1987, 256-bet.
[2] Hojiyev A. O'zbek tilida so'z yasalish tizimi. Toshkent, "O'qituvchi", 2007, 168-bet.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek tillarida ham leksik birliklar yuqoridagi munosabalarga kirisha oladi. Arxitektura-qurilish terminlari strukturaviy belgisiga ko‘ra struktural paradigmaga birlashadi va ular struktural munosabatda bo‘ladi. Misol uchun, *kapa, chayla, chodir, o‘tov, boshpana, kulba, yomg‘irpo‘sh* kabi so‘zlarni bitta birlashtiruvchi umumiy ma’no (vaqtinchalik) imorat bo‘lib, ularning barchasi muayyan semantik qurshovga ega bo‘lgan, shu turga kiruvchi terminlardir.

Bu kabi misollar badiiy asarlarda ham ko‘plab uchraydi. Jumladan, yozuvchi G‘ayratiy asaridan keltirilgan parchada ko‘rishimiz mumkinki, “…quyoshning aksida ko‘rinar yaqqol Ma’rifat uyiga tashlangan qadam” (G‘ayratiy. Yashash taronalari). Bundan tashqari, ko‘plab asarlarda, Mehribonlik uyi, Dam olish uyi, maskani, Madaniyat uyi kabi terminlar uchraydi va ushbu leksemalar paradigmatik munosabatiga ko‘ra, uy umumiy ma’nosi ostida birlashadi, xususiy ma’nosiga ko‘ra farqlanishi, ma’rifat, mehribonlik, dam olish, madaniyat kabi leksemalar bilan anglashiladi.

A.Sobirov va uning izdoshi S.A’zamov kabi olimlar o‘z tadqiqotlarida semantik munosabatlarning bir nechta tasnifini qayd etadi. Mazkur tasnif so‘z va terminlarning o‘zaro korrelatsion munosabatida muhim omil sifatida qayd etiladi. Xususan, semantik maydondagi paradigma a’zolari o‘rtasida keng tarqalgan munosabat turlarini quyidagi guruhlarga bo‘lib tasniflash to‘g‘ri bo‘ladi:

1. Sinonimik (ma’nodoshlik) munosabat.
2. Giper-giponimik (jins-tur) munosabat.
3. Xolo-meronimik (butun-bo‘lak) munosabat.
4. Graduonimik (darajalanish) munosabat.
5. Funksionimik (vazifadoshlik) munosabat.
6. Zidlik munosabati.

Tahlilarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, terminologiya bu ilmiy termin tizimi sifatida tilning umumiy leksik tizimidagi quyi, ya’ni tag tizimdir. Terminologiya va umumiy adabiy til o‘rtasida doimiy uzviy aloqa mavjudligi esa inkor qilib bo‘lmaydigan aksiomadir.

Muhim lisoniy jarayonlardan yana biri – bu terminlar maxsus bo‘lmagan til sohasiga kirganda, termin to‘liq (determinologizatsiya) umumiylashtiruvchi so‘zga olib keladigan konnotatsiyaga uchraydi. Ushbu jarayon tilshunoslikda determinologizatsiya jarayoni hisoblanadi. Ya’ni, terminologik xususiyatini yo‘qotish, terminning ilmiy tushuncha bilan aloqasini yuqolishi va umumiylashtiruvchi so‘zga aylanishi. Bundan tashqari, so‘z va iboralarni ma’lum bir terminologik tizimdan olish va badiiy adabiyot tilida ularni to‘liq egallash holatlari tushuniladi. Ushbu jarayonni “boshdan o‘tkazgan” terminlar umumiste’moldagi so‘zlarga aylanishadi.

Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan arxitektura va qurilish sohasiga qaratilayotgan ulkan e’tibor, olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar mazkur soha terminologiyasining muttasil tarzda jadal rivojlanib, tadrijiy takomillashuviga turtki bo‘lmoqda. Zamonaviy inshootlarning bunyod etilishi yangidan-yangi leksik birliklarni “iste’mol maydoni”ga chiqib kelishiga xizmat qilmoqda. Chunonchi, tilda har bir obyekt, hodisa, biror-bir faktni ifodalash zaruriyati ularni nutq yoki til birligi orqali nomlash ehtiyojining mavjudligi hamisha kun tartibidan muhim o‘rin egallab kelgan. Shu tufayli o‘zbek tilining arxitektura-qurilish sohasiga doir terminologik tizim birliklarini, xususan, tilimizga kirib kelayotgan ko‘plab termin va neologizmlarni tadqiq etish tilshunoslar oldida turgan dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

Ayni paytga qadar terminologiyaga oid tadqiqotlarni tubdan o‘rganish mamlakatimiz va xorijiy tilshunoslikda o‘ziga xos o‘rinni egallab kelmoqda. Shuningdek, inson hayotini yaxshilash va uning uchun qulay infrastruktura yaratish asosida arxitektura va qurilish sohasi muhim o‘rin tutadi. Mazkur soha rivoji fan va texnika, ijtimoiy-iqtisodiy sohalar bilan chambarchas bog‘liqligi sababli uning ko‘lami kengayishi, ya’ni, unga bog‘liq axborot hajmining ortishi natijasida terminologik leksikaning tobora kengayib borish jarayoni bilan izohlanadi va bu nafaqat sohaga oid terminlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, balki terminga bo‘lgan munosabat, sohaga oid leksik birliklarni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash ehtiyojini ham yuzaga keltirdi.

Miloddan oldingi II ming yillikning oxirlari va I ming yillikning boshlari O‘rta Osiyoda Amudaryoning quyi etaklarida, Farg‘ona vodiysi va Zarafshon vohasida chorvachilik bilan shug‘ullangan qabilalarning qarorgohlari va qabrgohlarini mavjudligi ma’lum. Miloddan avvalgi I asrda yashagan yunon geografi Strabon arablar istilosiga qadar bu mintaqani “minglab shaharlar maskani” deb yozgan edi.

Tarixdan ma’lumki, mo‘tabar zaminimizda dunyo sivilizatsiyaga ulkan hissa qo‘shgan buyuk mutafakkir va donishmandlar yetishib chiqqan. VIII–IX asrlardayoq Xorazm hududida “Bayt ul-hikma” (Donishmandlar uyi) deb atalmish Fanlar akademiyasi, oradan biroz vaqt o‘tib, 1010-yilda Ma’mun Akademiyasi tashkil etilgan. Ushbu ta’lim markazida butun dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk kashfiyotlar qilingan. Lekin, o‘tmishimizdan qolgan nodir ma’naviy va madaniy-me’moriy meroslar, yurtimizga qilingan

ayovsiz bosqinlar sababli, barchasini to‘liq va asl holda saqlab qolishning imkoni bo‘lmadi. Shu tufayli aksariyat sohalarning ilmiy-nazariy bilimlari, Arab, Fors, Yevropa olimlari nomlari bilan bog‘lab kelindi. Hozirgi kunga kelib ilmning barcha sohasiga bo‘lgan e’tibor, arxitektura va qurilish terminlarining ham shakllanishi va tarkib topish tarixini, ularning mazmun-mohiyati, o‘tmishda qanday leksik birliklar bilan nomlanganligini ilmiy manbalar asosida o‘rganish, ilmiy jihatdan tadqiq etishning muhimligini talab etmoqda.

Ozodova Vasila Ikrom qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili magistranti; e-mail:vasilaozodova14@gmail.com);
Qodirova Mukaddas Tog‘ayevna (TerDPI, Phd)

TILSHUNOSLIKDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TADQIQIGA PRAGMATIK YONDASHUV

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tilshunoslikning frazeologiya bo‘limi muammolari hamda uning predmeti sanalmish frazeologik birliklarning o‘ziga xos xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, frazeologik birliklarning tadqiq qilinishida pragmatik yondashuvning ahamiyati borasida ilmiy-nazariy qarashlar ustida fikr yuritish bilan birgalikda, ularnimn ommaviy muloqotda qo‘llanilishi tahlil qilingan. Tahlilni amalga oshirish uchun ingliz tili frazeologik qatlamidan olingan misollar tahlilga tortilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются проблемы фразеологического отдела языкознания и характеристики фразеологизмов, составляющих его предмет. Также анализируется значение прагматического подхода при изучении фразеологических единиц наряду с пониманием научно-теоретических взглядов и их использованием в общественной коммуникации. Для анализа были приведены примеры из фразеологического пласта английского языка.*

Annotatiton. *In this article, problems of phraseology section of linguistics and typical features of phraseological units were observed. In addition, scientific and theoretical views about the importance of pragmatic approach to the research of these phraseological units and usage of them in public speech are analysed. In order to analyse, examples of English phraseology are given.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazeologik birlik, frazema, pragmatika, ommaviy muloqot.*

Ключевые слова: *фразеология, фразеологическая единица, фразовый глагол, прагматика, общественное общение.*

Key words: *phraseology, phraseological unit, phrasal verb, pragmatics, public speech.*

Kirish. Ma’lumki, tilshunoslik bir qancha bo‘limlarni – fonetika, grafika, leksikologiya, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, shuningdek, frazeologiyani o‘z ichiga oladi. Har bir tilning lug’at boyligini tahlil qilar ekanmiz, unda nafaqat so‘z yasalishi orqali vujudga kelgan yangi so‘zlarni, balki frazeologik birliklar, ya’ni turg’un birikmalar, iboralar va frazemalarni ko‘rishimiz mumkin. Ushbu birliklardan foydalanish orqali biz nutqimizning chiroyli va ta’sirchan bo‘lishiga erisha olamiz. Bu frazeologik birliklar tilshunoslikdagi frazeologiya bo‘limining o‘rganilish sohasi hisoblanadi.

Frazeologiya atamasi grekcha *phrasis – ibora, logos – bilim, tushuncha* degan ma’nolarni anglatadi. Frazeologiya – tilshunoslikning muayyan tilgagina xos bo‘lgan frazeologizm (frazema)larni o‘rganadigan sohasi.[1] Frazeologiyani tadqiq qilish doimo tilshunoslikning dolzarb masalasi bo‘lib kelgan. Bu sohaning ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanadi. U frazeologiya terminini ilk bora o‘zining «Precis de stylistique» asarida qo‘llagan.[2]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Frazeologiya alohida fan sifatida bir necha asrlar davomida o‘rganilgan. Xususan, XVIII asrdan frazeologiya muammolari rus tilshunoslari tomonidan tadqiq qilina boshlangan. M.V.Lomonosov o‘zining rus adabiy tili haqidagi lug‘atini tuzayotganda so‘zlar bilan bir qatorda, “Xalq maqollari”, “idiomalar” va frazeologik birliklar ham o‘z ifodasini topgan bo‘lishi lozimligini ta’kidlab o‘tgan. Y.D.Polivanov uning ishini davom ettirgan holda, frazeologiyani ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil bo‘limi sifatida tahlil qilgan va “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini, siktaksis esa so‘z birikmalarining grammatik ma’nolarini o‘rganadi. Ammo alohida olingan, ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarining o‘rganadigan tilshunoslik bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda”, deb uqdirgan.[3]

[1]O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild, T., O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 364-bet.
[2]Mukaramxodjayeva T.Y. Ingliz tilida so‘zlashuv frazeologiyasi (semantik-funksional xususiyatlari). Filologiya magistri darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Samarqand, 2014, 10-bet.
[3] Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. VI, Л., 1928, с. 60.

Frazeologik birlik deganda tuzilishiga ko‘ra, so‘z birikmasi, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma’no anglatadigan lug‘aviy birlik tushuniladi.[1] Frazeologik birikmalar o‘zi tegishli bo‘lgan tilning boyligi sanaladi. Ular nutqda tayyor til birligi tarzida qo‘llaniladi hamda ko‘chiriladi. Ma’lum bir obraz asosida yuzaga kelgan ustama ko‘chma frazeologik ma’no deyiladi. Masalan: *til tegizmoq* iborasi “sha’niga nomunosib, nohaq gap aytmoq” ma’nosini anglatadi.[2] Frazeologik birlik terminini V.V. Vinogradov tilshunoslikka olib kirgan, u bu birlikning tarkibi ham, tuzilishi ham o‘zgarmas, alohida leksik birlik vazifasini bajaradigan, leksik jihatdan bo‘linib, tarjima qilinmaydigan so‘z birikmasidir, deb izohlagan.[3]

Frazeologik birliklarning bir qancha turlari mavjud. Eng asosiy va ko‘p qo‘llaniladigan birliklar: frazema va idiomalar. Professor Sh.Rahmatullayev frazemani quyidagicha sharhlagan: “Frazema til qurilishining lug‘at bosqichiga mansub bo‘lib, bittadan ortiq leksemaning o‘zaro semantik-sintaktik birlashuvi bilan tarkib topgan bo‘ladi, shunga ko‘ra, tuzma segment birlik deyiladi; sintaktik tuzilishi jihatidan birikmaga, gapshaklga teng bo‘lib, odatda, nominativ va signifikativ vazifa bajaradi, lekin leksemadan ifoda jihati bilangina emas, mazmun jihati bilan ham farq qiladi”.[4]

Demak, ma’lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, frazeologik birliklarning xususiyatlari quyidagilardan iborat:

a) ular nutq jarayonida yasalmaydi, nutqqa tayyor holda olib kiriladi, doimiy tuzilishga ega;

b) uning tarkibiy qismlarining bir butunligi, strukturasi va semantikasi doimiydir;

d) frazeologik birliklarning tarkibiy qismlari ikki yoki undan ortiq asosiy urg‘uga ega bo‘lishi mumkin;

e) ular so‘zlovchi tomonidan so‘z sifatida anglanishi mumkin bo‘lgan alohida bo‘laklardan tashkil topgan turg‘un birikmalar;

f) har birining ma’nosi uning tarkibidagi so‘zlarning ma’nolariga qo‘shilmaydi, shuning uchun ular yunoncha “o‘ziga xos” degan ma’noni anglatuvchi “idioma” atamasi bilan belgilanadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, frazeologik birliklar doimo tadqiqot markazida, jumladan, frazeologiyaning, frazeologik birliklarning pragmatik xususiyatlari ham tilshunos olimlarni juda qiziqtirib qo‘ygan mavzulardan biri sanaladi. Pragmatika tushunchasiga keladigan bo‘lsak, u yunoncha *pragma*, *pragmatos – ish, harakat* degan ma’noni anglatadi. Pragmatika haqidagi asosiy g‘oya amerikalik olim Ch.Pirs tomonidan o‘rtaga tashlangan va yana bir amerikalik olim Ch.Morris ushbu g‘oyani rivojlantirgan, shu bilan birga, *pragmatika* terminini semiotika bo‘limlaridan birining nomi sifatida amaliyotga kiritgan.[5]

Pragmatika tilshunoslikning nisbatan yangidan shakllangan, insonning nutq faoliyatini o‘rganishga bunday faoliyatning maqsadi, mazmuni, bunday maqsad va mazmunning og‘zaki va yozma matnda verbal va noverbal ifodalanish vositalarini, ularning nutq aktidagi o‘rnini, kommunikativ ta’sirini, so‘zlovchi va tinglovchi nutqidagi turlicha munosabatlarni lisoniy belgilarda ifodalanishni o‘rganuvchi fan tarmog‘idir.[6]

Pragmatika shaxslarning ijtimoiy faoliyatini o‘z ichiga oluvchi nutq jarayoni va muayyan muloqotida namoyon bo‘ladi. Lingvistikadagi pragmatikaning barqaror shakli va tashqi ko‘rinishi mavjud emas. Uning tarkibiga so‘zlovchi, ya’ni, subyekt va tinglovchi – adresatning aloqa-aralashuvi, nutq jarayonidagi masalalari kiradi. Misol uchun, nutq subyekti bilan bog‘liq holda quyidagilar o‘rganiladi:

a) xabarning oshkora va yashirin maqsadlari – so‘roq, buyruq, iltimos, maslahat, va’da berish, uzr so‘rash, tabriklash, shikoyat va boshqalar;

b) nutq odobi, suhbat qoidalari haqida;

d) so‘zlovchi tomonidan tinglovchining umumiy bilimlari, dunyoqarashlari va qiziqishlari;

e) so‘zlovchining o‘zi bayon qilayotgan fikrga munosabati.

Muhokama va natijalar. XXI asrda radio, televideniya va internet kabi ommaviy axborot vositalarining kuchli taraqqiyotiga qaramasdan, gazetalar ham zamonaviy jamiyatimizda asosiy rol o‘ynaydi. Gazetalar muntazam nashr qilinadigan va ayni vaqtdagi turli xil voqea-hodisalarni o‘z ichiga qamrab ol-

[1] Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T., O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002, 124-bet.

[2] Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1995, 80-bet.

[3] https://internauka.org/journal/science/internauka/190.

[4] Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, “Universitet”, 2006, 420-bet.

[5] https://uz.m.wikipedia.org

[6] Eshtayeva.D.K. Pragmatika tushunchasi va uning tarjimadagi talqinini o‘rganish. Science and education3(1), 2022, 705–709-betlar.

gan axborot vositasidir. Savdo birlashmasi, diniy guruhlar, korporatsiyalar yoki klublar ham o‘z gazetasiga ega bo‘lishi mumkin, biroq gazeta atamasi ko‘proq ma’lum bir hududdagi aholiga qiziqarli yangiliklarni tashuvchi axborot manbayiga nisbatan ishlatiladi. Gazeta uslubi barcha yozma uslublardan keyin shakllangan va 17-asrga borib taqaladi. Bu uslub keng ommaga mo‘ljallangan hamda muhim siyosiy hodisalar va muammolarga bag‘ishlanadi. Gazetalarning asosiy maqsadi jamiyat fikriga ta’sir o‘tkazish, o‘quvchi yoki tinglovchini faqatgina muallifning fikri to‘g‘ri va ishonchli ekanligiga ishontirish, nutq, esse yoki maqoladagi mulohazalarni qabul qildirishdan iborat. Bu maqsadga erishishda frazeologik birliklarning pragmalingvistik xususiyatlari katta ahamiyatga ega. Chunki frazeologik birliklar insonlar va hodisalarni baholaydi, diqqatni o‘ziga jalb qiladi, faktlarga misollar keltiradi, jumlalarni tashkil qiladi, kulgu uyg‘otadi. Qisqa qilib aytganda, ular nutqimizning go‘zal, ta’sirchan va ravon bo‘lishida xizmat qiladi. Shu sababli ham ularni faol ravishda ommaviy muloqotda, shuningdek, gazeta hamda jurnallardagi maqolalarda qo‘llash ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklar yordamida muallif maqsadni aniqlashtirib oladi yoki o‘quvchi (tinglovchi)ga ta’sir qiladi. Sintaktik frazeologik birliklar komponentlar o‘rtasidagi ma’lum bir xarakter orqali turg‘unlik, mahsuldorlik, mukammallik singari xususiyatlarga ega bo‘lgan sintaktik birliklar hisoblanadi va tilda kommunikativ va ekspressiv vazifalarni ham bajaradi.

His-hayajon frazeologik birliklarning ta’siri juda kuchli. Ular ichki ruhiy kechinmalarni ifodalaydi. Gazeta maqolalarida rangi va sifatlari o‘rtamiyona bo‘lgan sintaktik frazeologik birliklarni uchratish qiyin. Chunki maqola muallifi o‘quvchining diqqatini ma’lum bir mavzuga qaratishi va o‘z ijobiy yoki salbiy fikrini bildirishini xohlaydi, neytral frazeologik birliklar qo‘llanilganda bu maqsadga erishish mushkul.[1] Quyida ingliz gazetalarida qo‘llanilgan frazeologik birliklardan olingan misollarni ko‘rib chiqamiz.

“Daily star”: “The irreverent Daily Star splashes on “wet lettuce” Liz Truss’s phone being hacked by Russian spies. “Is it just the tip of the iceberg?” *Just the tip of the iceberg – dengizdan bir tomchi.*

“Royals in de spare” says the front page of Metro – referencing Prince Harry’s upcoming autobiography. Sources tell the paper that the Royal Family is “very concerned” as its “saddest secrets will be pored over in public”. *Saddest secrets will be pored over in public – yomon xabar tez tarqaladi.*

“The Guardian” calls it “Boris v Rishi” “The bitter end” saying she presided over “one of the most politically turbulent and economically damaging periods in modern history”. *The bitter end–baxtsiz yakun.*

“The Guardian” lets the striking picture of the newly-crowned monarch stand alone – other than her name and dates of her reign – while the Times adds the words : “A life in service”. *A life in service – butun umrini vazifasiga bag’ishlagan.*

Ushbu gazeta materiallarida qo‘llanilgan frazeologik birliklar o‘quvchiga voqeani kuchli ta’sir qilish bilan birgalikda, uning nutqiy madaniyatini oshirishga ham xizmat qilishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, frazeologik birliklar nafaqat tadqiqot uchun qiziqarli mavzu, balki gazeta va jurnalning har qanday yoshdagi o‘quvchisining yaratuvchanligini, mulohaza bn fikrlashini rag‘batlantiruvchi birliklardir. Bu birliklarni tadqiq qilish va til o‘rganuvchisiga tavsiya etish ularning nutqiy boyligini oshirishga ham o‘z hissasini qo‘shadi.

Jurayev Ziyodbek (Andijon davlat Chet tillari instituti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti Ingliz tili nazariy aspektlari kafedrasi katta o‘qituvchisi; e-mail: boss.ziedbek@mail.ru)

JAHON TILSHUNOSLIGIDA FRAZEOLOGIZMLARNING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tilshunoslikdagi dolzarb muammolardan biri frazeoligizmlar va ularning o‘rganilishi haqida fikr yuritilgan. Frazeologik birliklar so‘zlar qatlami bo‘lib, ko‘plab olimlar va yosh tadqiqotchilar tomonidan turli rakursda o‘rganilgan. Frazeologik birliklarni nazariy jihatdan ko‘rib chiqiladigan asosiy masalalardan ularning parametrlarini (idiomatiklik va barqarorligini), ularning tipologiyasini, turli tipdagi frazeologik birliklarning semantic jihatlarini o‘rganishdan iboratdir. Chunki frazeologik birliklarning ko‘p jihatlari o‘zbek tilida hali to‘liq va tugallangan shaklda mavjud emas. Ushbu maqolada muallif frazeologik birliklarni jahonga mashhur tilshunoslar tomonidan o‘rganilganligi e’tirof etilib, ularning qarshlaridagi mushtaraklik jihatlariga alohida to‘htaladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается одна из актуальных проблем языкознания, фразеологизмы и их изучение с разных позиций. Фразеологизмы представляют собой пласт лексики и с разных позиций изучались многими учеными и молодыми исследователями. К числу основ-*

[1] https://allbest.ru

ных вопросов, которые теоретически рассматривают фразеологизмы, относятся их параметры (идиоматичность и устойчивость), типология фразеологизмов; состоит из изучения семантических аспектов разных типов фразеологизмов. Потому что многие виды фразеологизмов не существуют в узбекском языке в полноценном виде. В данной статье автор утверждает, что фразеологизмы изучались всемирно известными лингвистами, и акцентирует внимание на общих аспектах их взглядов.

Annotation. *Phraseological units of words have been studied by many scientists and young researchers from different positions. Among the main issues that theoretically consider phraseological units are their parameters (idiomaticity and stability), typology of phraseological units; consists of studying the semantic aspects of different types of phraseological units. Because many types of phraseological units do not exist in the Uzbek language in a full form. In this article, the author describes how phraseological units were studied by world-famous linguists, and focuses on the general aspects of their views.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, tasnif, birlik, birikma, taraqqiyot, semantik, tur, vazifa, tarkib, ma’no, komponent.*

Ключевые слова: *фразеология, классификация, единство, сочетание, развитие, семантика, тип, задача, содержание, значение, компонент.*

Key words: *phraseology, classification, unity, combination, development, semantics, type, task, content, meaning, component.*

Frazeologizm muayyan tilga xos turg‘un ibora bo‘lib, uning ma’nosi uni tashkil qiluvchi alohida so‘zlarning ma’nosi bilan belgilanmaydi.[1]XX asr oxiridan boshlab tilshunoslikda frazeologiyani o‘rganish lingvokulturologik, kommunikativ-pragmatik va kognitiv kabi turli paradigmalar doirasida faollashdi. Frazeologik birliklar tilni boyitish uchun xizmat qilib, uning taraqqiyoti va unda so‘zlashuvchi xalq mentalitetini aks ettiradi. Frazeologik birliklar xalq tarixini, madaniyati va turmush tarzining o‘ziga xosligini ham aks ettiradi.

Frazeologik birlik murakkab hodisa bo‘lib, uni xarakterlovchi xilma-xil belgilarga ega bo‘lganligi sababli, uni turli rakursda ko‘rib chiqish mumkin. Shuning uchun ham olimlar tomonidan frazeologik birliklarning bir qancha tasniflari mavjud bo‘lib, ularning tamoyillari ishlab chiqilgan.

Frazeologik birliklar ko‘plab tadqiqotlar obyekti bo‘lib, bu ularni har tomonlama tahlil qilish imkoniyati bilan bog‘liq. Frazeologik birliklarning grammatik jihatlari Vinogradov (1977), Jukov (1986), Molotkov (1977), Shanskiy (1996)lar tomonidan, sintaktik jihatlari Larin (1954), Shanskyn (1954)lar tomonidan, semantik jihatlari Bally (2011), Vinogradov (1986), Shansky (1996)lar tomonidan tahlil etilgan.[2] “Frazeologiya” atamasini birinchi marta shveysariyalik tilshunos S.Balli kiritgan bo‘lib, frazeologiyani alohida tilshunoslik fani sifatida ko‘rib, uni stilistika doirasida cheklab, tizimni shakllantirishga yordam beruvchi nutq faktlarining o‘zaro ta’siri sifatida belgilagan.

Rus olimi Aleksandr Vladimirovich Kunin ingliz tilining frazeologik tuzilishini o‘rganar ekan, frazeologik birliklarning alohida shakllanishi, ularning barqarorligi kabi umumiy jihatlarini o‘rganishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi va frazeologik birliklarning semantikasini o‘rgandi (Kunin. 1999). A.V.Kunin ingliz tilidagi frazeologizmlarni o‘sha xalq tarixi, madaniyati va turmush tarzining o‘ziga xosligini aks ettiruvchi xazinasi bilan hamohang ravishda deb bilib, “frazeologik birliklar, ko‘pincha, aniq milliy xususiyatga ega, ammo ingliz frazeologiyasida sof milliy frazeologik birliklar bilan bir qatorda ko‘plab xalqaro frazeologik birliklardir mavjuddir”,[3]deya e’tirof etadi. Shuningdek A.V.Kunin o‘zining “Zamonaviy ingliz tilining frazeologiyasi” kitobida frazeologik birliklarning bir nechta turlarini aniqlaydi. Uning tasnifi frazeologik birliklarning tildagi vazifasiga asoslanadi va bu ularning tarkibiy va semantik xususiyatlari bilan belgilanadi. Ular nominativ, nominativ-kommunikativ, kommunikativ, modal kesimli frazeologik birliklar.[4] Frazeologiyaning muhim muammosi – frazeologik birliklarning to‘liqligi, jumla kontekstida ularning semantikasini o‘rganish, shuningdek, so‘z va frazeologik birlik o‘rtasidagi chegara muam-mosidir (Smirnitskiy. 1998).

---

[1] https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A4%D1%80%D0%B0%D0%B7%D0%B5%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%

[2] Э.А.Черникова Особенности процесса фразеологизации на базе семантического компонента «природа» во французском языке. Дис-я на соис.учен степ канд фил наук, Воронеж, 2018, с. 5.

[3] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз., 2-е изд., перераб, М., “Высш. шк.”, Дубна, изд. центр «Феникс», 1996, 381 с.

[4] Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. М., 1972, с. 6 – 8.

Ingliz tilidagi frazeologik birliklarini ko‘plab xorijiy va rus olimlari o‘rganishgan. Ulardan V.V. Vinogradov A.V.Kunin, N.M.Shanskiy, N.N.Amosova, A.I.Smirnitskiy, L.P.Smit, V.N.Telia, S.Ballining ilmiy tadqiqotlari, ayniqsa, o‘rinlidir.

Rus tilshunosligida V.V.Vinogradov, A.V.Molotkova N.M.Shanskiyning tasniflari diqqatga sazovordir. Shuningdek, ingliz frazeoligizmlarini ishlashgan Smirnitskiy va A.V.Kunin ilmiy tadqiqotlari, qiyosiy aspektda E.F.Arsenteva va M.N.Azimova tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

V.V.Vinogradov tomonidan taklif qilingan, keyinchalik, boshqa tillarga ham tatbiq etilgan rus tilining frazeologik birliklarining tasnifi komponentlar orasidagi yaqinlik darajasini pasaytirish tartibida erkin birikmalardan tashqari, frazeologik birliklarning uchta asosiy turini e’tirof etadi:

1) frazeologik birikmalar;

2) frazeologik birliklar;

3) frazeologik (erkin bo‘lmagan, boshqa turg‘un) birikmalar.

Frazeologizmlar majoziy ma’noda qo‘llangan so‘zlarning erkin birikmasidan kelib chiqadi. Borabora ko‘chma ma’no unutiladi, o‘chiriladi, birikma barqaror bo‘ladi,[1] deya ta’kitlaydi T.Patayeva.

A.I.Smirnitskiy ingliz frazeologik birliklarini quyidagicha tasniflaydi:

1) bitta semantik ma’no elementiga ega bo‘lgan va shartli ravishda bir butun bo‘lgan frazeologik birliklar (to give up – tark etish, rad etish); 2) kamida ikkita to‘liq qiymatli komponentga ega bo‘lgan (every other day–har ikki kunda), shuningdek, qo‘shma so‘zlarning tarkibiy qismlari mavjud bo‘lgan (one-hundred-horsepower-engine – yuz ot kuchiga ega mashina). Bunday frazeologik birliklarni shartli ravishda ikki uchli bimodal frazeologik birliklar deb atash mumkin.[2]

I.V.Arnold ingliz frazeologik birliklarini ifodali birliklar, ko‘p ma’noli hamda erkin iboralar deya ataladi . Umuman olganda, bu xususiyat V.V.Vinogradov tasnifiga ham mos keladi.

Frazeologik birliklarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish katta qiyinchiliklar tug‘diradi.[3] Buning sababi shundaki, ularning ko‘pchiligi yorqinlik, ifodalilik, obrazlilik, ixchamlik, noaniqlik xususiyatlariga ega. Tarjimada frazeologik birlikning ma’nosini ifodalashgina emas, balki uning obrazliligi, uslubiy vazifasi, kontekst xususiyatlarini ham namoyon etish zarur.

Frazeologik birliklarni tarjima qilish muammosini o‘rganib chiqqan Y.I.Retskerning ta’kidlashicha, tarjimon frazeologik birliklarning turli ma’nolarini ko‘rib chiqish, ularning emotsional va ekspressiv funksiyalarini yetkazish va qo‘shimcha ravishda frazeologiyaning asosiy nazariy masalalarini tushunishi kerak. Har bir so‘z tilda allaqachon mavjud bo‘lgan va tilni aloqa vositasi sifatida o‘zlashtirganda inson ongida mustahkamlangandir bu so‘z va iboralar nutq jarayonida shakllanadi. Ularning yaratilishi, shakshubhasiz, grammatikaning qat’iy qonuniyatlari va tamoyillariga bo‘ysunishi bilan bir qatorda so‘zlovchining nutq shart va qoliplariga, niyat va harakatlariga bog‘liq.

So‘zlarning bog‘lanishiga xos xususiyat shundan iboratki, bu bog‘lanish hech qachon mutlaq bo‘lmasdan nisbiy bo‘ladi. Biroq, boshqa tomondan, til nutqida shakllanmagan, ammo unda allaqachon tayyor og‘zaki iboralar sifatida ishlatilgan juda ko‘p iboralar mavjud. Bular barqaror iboralar yoki frazeologik birliklar, birikmalar yoki oddiygina frazeologizmlar deb ataladi. Qiyoslanayotgan tillarning frazeologiyasini o‘rganuvchilar ularning tarkibi haqida turli fikrlarini bildiradilar. Shuningdek, har bir tilning tarkibi bunday birliklar soni bilan qanchalik boyitilganligi haqida turli xil fikrlar mavjud.

Nikolay Maksimovich Shanskiyning fikriga ko‘ra, “frazeologizm – bu yagona, yaxlit ma’noga ega, tarkibiy barqaror bo‘lgan til birligi. Yuqorida ko‘p tilshunoslarning frazeologik birliklar haqidagi qarashlarini ko‘rib chiqdik. Yana bir us olimi V.A.Maslova frazeologiznmlarni “millat o‘ziga xosligi hayratlanarli tarzda ifodalangan har qanday milliy tilning ruhi”,[4] deb ataydi.

Frazeologiya tilshunoslikning o‘ta murakkab sohasi bo‘lib, uni o‘rganish muayyan tadqiqot usullarini talab qiladi. Frazeologiyani kompleks tahlil qilishda grammatika, semantika, stilistika, fonetika, til tarixi, tarix, falsafa, mantiq va mamlakatshunoslik kabi boshqa fanlar bilan bog‘lab o‘rganiladi. Bu bog‘liqlik frazeologizmlarni har jihatdan ilmiy o‘rganishni taqozo etadi.

---

[1] Патаева Т.Г. Семантические типы фразеологизмов в бурятском и английском языках. “Вестник Бурятского государственного университета”, 2009, № 10, с. 23 – 26.

[2] Смирницкий А. И. Лексикология английского языка. М., 1956, 260 с.

[3] https://eduherald.ru/ru/article/view?id=19288

[4] Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений, М., 2001.

ADABIYOTSHUNOSLIK

G‘ayipov Dilshod (Urganch davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.d. (DSc); e-mail:dilshod_gayipov@mail.ru), Xudayarova Dilnoza (tadqiqotchi)

KOMIL G‘AZALIYOTIDA ISHQIY MAVZU

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Komil Xorazmiyning g‘azalnavislik mahorati, bu janrdagi she’rlarida qalamga olingan ishq mavzusi xususida so‘z boradi. Bu azaliy va abadiy mavzuning Komil tomonidan o‘ziga xos tarzda davom ettirilgani tadqiq etiladi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается мастерство одного из ярких представителей узбекской литературы, Камиля Хорезми, по созданию произведений в жанре газель, в частности газелей, посвященных теме любви. Исследуется проблема уникального продолжения поэтом данной вечной темы.*

Annotation. *This article talks about the gazelle writing skills of one of the mature representatives of Uzbek literature, Kamil Khorazmi and the topic of love in this genre. Kamil’s unique continuation of this age-old and timeless theme is explored.*

Kalit so‘zlar: *Komil, g‘azal, mavzu, ishq, obraz, tasvir, ifoda, an’ana, o‘ziga xoslik, mahorat.*

Ключевые слова: *Камиль, газель, тема, любовь, образ, картина, выражение, традиция, своеобразие, мастерство.*

Key words: *Kamil, gazelle, theme, love, image, expression, tradition, originality, skill.*

Ma’lumki, mumtoz adabiyotimizning xazinasini boyitib kelgan va bu xazinaning noyob gavhari sifatida talqin etiladigan ishq mavzusi har bir ijodkordan takrorlanmas o‘ziga xos ifoda uslubini talab qiladi. Ishq azaliy va abadiy mavzudir. Bu mavzu har bir ijodkor badiiy olamida o‘ziga xos tasvir etilgan. Shoirlar ishqqa turlicha ta’rif berishgan. Jumladan, Feruz yozadi:

Ishq bir o‘tdurur, nechukkim barq,
Aylamas shoh bila gadoni farq.[1]

Karimbek Kamiy esa ishqqa shunday ta’rif beradi:

Ishqdir olamda bir rohatfizoy komil asar,
Mabdayi ayni sirishk-u mazhari ohi sharar.[2]

Mumtoz adabiyotimizda qalamga olinadigan ishq xuddi bir sirli xazina. Xazinani topish uchun esa yo‘lni tanlash kerak. Yo‘lni tanlash ijodkorning qobiliyati va iste’dodiga bog‘liq. Bu yo‘lda u o‘ziga xos uslubni tanlasagina xazinadagi “nazmi gavhar”ning shahanshohiga aylanadi.

Komil (1825–1899) ham bu yo‘nalishda o‘ziga xos yo‘lni tanladi. Ishq-muhabbatni, oshiqning kechinmalarini, ma’shuqaning husnini xalqona ohang va ravon tilda she’rga soldi. Komil ilohiy tuyg‘u – muhabbat tasvirini berishda go‘zal tashbehlar qo‘llaydi, lirik qahramon kechinmalariga mos qofiyalar, radiflar tanlaydi. Natijada Komil she’riyatda o‘ziga xos obrazlar yaratdi. Jumladan, uning “Ko‘zgu”, “Soat”, “Lola”, “Kog‘az” radifli g‘azallarida sodda va xalqona tasvir orqali ma’shuqaning husn-u jamolini ifodalashi kitobxonga o‘ziga xos zavq beradi. Shoir yozadi:

Xabar topmish bu maxfilda jamolingdan magar ko‘zgu,
Kamoli hayrat ila o‘zdin o‘lmish bexabar ko‘zgu.[3]

Komil “Ko‘zgu” radifli g‘azalining mat’lasida go‘zal tasvir yaratgan. Shoir ma’shuqaga murojaat qilarkan, sening jamolingdan bu majlisda ko‘zgu xabar topibdi va behad cheksiz hayratdan o‘zidan ketib qolibdi, deya betakror fikr ayta olgan.

“Lola” radifli g‘azalida esa tabiat manzarasi orqali yorning go‘zalligini o‘ziga xos tarzda ko‘rsatib bergan:

Xijolatmandi xol-u orazing ermas esa, nechun,
Qo‘yub gulshanni dasht-u tog‘ aro tutmish makon lola. (23-bet)

Go‘yo lolaning dasht-u tog‘da makon tutishiga ma’shuqaning orazidan xijolat bo‘lishi, deya tabiat qonunlariga badiiy bezak beradi. Lirik qahramon kechinmasini ifodalashda qog‘oz eng muhim vosita

[1] Feruz. Elga shoh-u ishqqa qul. Toshkent, Adabiyot va san’at nashiryoti. 1994, 124-bet.
[2] Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. Karimbek Kamiy. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2004, 195-bet.
[3] Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1961, 20-bet (Bundan keyingi she’riy parchalar shu kitobdan olinadi va qavs ichida sahifasi ko‘rsatiladi).

bo‘lgan. Kundalik hayotda biz uchun oddiydek tuyulgan qog‘ozdan yangi poetik obraz yaratadi. Bu obraz, shoir fikricha, bir o‘rinda “savodi nuqtani ayon” qiluvchi bo‘lsa, yana bir o‘rinda esa ma’shuqaning vasfini ta’riflashda qog‘ozning mavqeyini xuddi osmondek deya tasvirlaydi.

Maqta’da esa oshiq holatining xalqona tasvirini beradi:

Yozibmu ul pari Komilga gulgun safhaga noma,
O‘qurda yo ko‘zi xunobidin bo‘lmishmu qon kog‘az? (20-bet)

Shoir misralarda uchta obrazning ruhiy holati tasvirini bergan. Birinchi, ma’shuqaning oshiqqa noma yo‘llashi (yozibmu ul pari Komilga gulgun safhaga noma). Ikkinchi, oshiqning nomani o‘qish holati (O‘qurda yo ko‘zi xunobidin bo‘lmish). Uchinchi, qog‘azning holati (qon kog‘az). Demak, shoir radiflar izlashda ham shaklga emas, uning ma’ni yukiga e’tibor bergan.

Komil ishqiy mavzudagi g‘azallarida oshiq va ma’shuqaning kechinmalari nozik ifodasini “Oshiq bo‘lmisham” radifli g‘azalida yaqqol tasvirlab bergan. Baytlarda qo‘llanilgan radifning o‘zi g‘azalning musiqiyligini, o‘ynoqiligini ta’minlagan. Agar qofiyadosh so‘zlar bilan radifning o‘zi o‘qilsa ham lirik qahramon holatini ma’lum darajada anglash imkonini beradi:

Gulruxsora oshiq bo‘lmisham
Xunxora oshiq bo‘lmisham
Makkora oshiq bo‘lmisham
Shakarguftora oshiq bo‘lmisham
Xushraftora oshiq bo‘lmisham
Bemora oshiq bo‘lmisham
Gulnora oshiq bo‘lmisham
Puranvora oshiq bo‘lmisham
Diydora oshiq bo‘lmisham

Qofiya va radifning takrorlanmas, jarangdor bo‘lishi nafaqat g‘azalning musiqiyligini, balki baytlarda ifodalangan lirik qahramon holatini chizishga ham yordam bergan. Matla’da bir oshiqning “sarvi gulruxsora oshiq” bo‘lishi bilan boshlangan bo‘lsa, keyingi misralarda tasvir oshiqning hajrida azob chekishi natijasida “xastahol” bo‘lib qolish darajasiga yetganligini ham ko‘rishimiz mumkin.

Do‘stlar, gah behuda, gah xastahol o‘lsam ne ayb,
Ko‘zlari ham mast-u, ham bemora oshiq bo‘lmisham. (22-bet)

Komil lirikasini bir so‘z bilan aytganda, “ko‘ngil” lirikasi sifatida talqin qilish mumkin. Zero, shoir yaratgan har bir timsolning “ko‘ngil koshonasi” orqali inson taqdiri, ruhiyatining o‘ziga xos ifodasini ko‘rishimiz mumkin.

Komil ishq mavzusida qalam tebratar ekan, so‘z qo‘llashda ham o‘ziga xos yuksak mahoratga erisha oldi. U g‘azallarida xalq tilida ishlatiladigan iboralarni, jonli tilga yaqin so‘zlarni qo‘llaydi. G‘azallarda keltirilgan “bir oyoqda tik turib”, “yohud ul o‘qlarga qopularmudur”, “ko‘chada har kecha it uvlarmudur?” kabi xalqona iboralar shoir she’riyati oddiy kitobxonlar diliga yaqinligini ko‘rsatsa, shu bilan bir qatorda shoir she’riyatining samimiyatini ko‘rsatuvchi omillardandir.

“Adabiy tilning shakllanishi, baland maqomi, sheva xazinasidagi so‘zlarning iste’molga olib kirilishi va esdan chiqqan so‘zlarning qayta qo‘llanishida adiblarning benazir badiiy tafakkuri vositachilik qiladi. Xalq ichidan olingan jonli so‘zlar ularning ijod xumdonida toblanadi, pishadi, qayralib sayqal topadi. Shu zaylda xalqning tuganmas xazinasiga, muomala-munosabatlarida ma’naviy mulkiga aylanadi”.[1] Darhaqiqat, Komil Xorazmiy mahbubaning go‘zal husn-u jamoli ta’rifiga bag‘ishlangan juda ko‘plab g‘azallarida xalq ichidan olingan jonli so‘zlardan yangicha tasvirlar, obrazlar yaratadi. Bu xalq tilidan olingan so‘zlar, iboralarni shunchaki qo‘llamaydi. Ular shoir badiiy tafakkuri qozonida qaynaydi, sayqal topadi. Natijada jonli so‘zlashuv tilida ishlatilgan so‘zlarga o‘zgacha ruh bag‘ishlaydi:

G‘amzang xadangin har taraf otsang tegar man zoringa,
Jon-u ko‘ngulmu yohud ul o‘qlarga qopularmudur? (15-bet)

Ma’lumki, Xorazm shevasida qopu, qopi so‘zlari o‘zbek adabiy tilidagi darvoza, eshik ma’nolarida qo‘llaniladi. Agar ma’shuqa ishva va noz ila boqsa, xuddi yoy o‘qlari kabi oshiqqa tegadi, oshiq esa bu o‘qlarga jon-u ko‘nglini qopu misol tutadi. Jon-u ko‘nglini yohud ul o‘qlarga qopularmudur ifodasi esa tajohuli orifona san’atini yuzaga keltirgan.

[1] So‘z xiyoboni (Adiblar so‘z ta’rifida). G‘oya muallifi va to‘plab nashrga tayyorlovchi Bahodir Karimov. Qodiriy so‘zining qadri. Toshkent, “Fan”, 2020, 98-bet.

Navoiy ta'kidlaganidek, olamni harakatga keltiruvchi kuch ishqdir. Komil she'riyatida majoziy ishq haqiqiy ishqdan ayricha, unga zid tarzda qo'yilmaydi. Aksincha, majoziy ishq ishqi haqiqiy yo'lida ko'prik vazifasini bajaradi.

Jamoling vasfi tahririn tamom etmak emas mumkin,
Qalam ashjor esa, daryo siyohi, osmon kog'az.

Odatda, yorning go'zalligini, vasfini ta'riflashda qog'oz muhim vosita. Yaratgan mutlaq go'zallik sohibi, husn iqlimining sultoni. Agar qalam – daraxt, siyoh – daryo, qog'oz osmon qadar bo'lsa ham, yor jamolin vasfini tahrir etmak mumkin bo'lmaydi. Demak, yor shu darajada husn-u malohatda yaktoki, uning ta'rifining adosi yo'q.

Komil she'riyatida ishqiy mavzuda yozilgan g'azallarni shoir badiiy tafakkurining yuksakligi ila dunyoga kelgan o'ziga xos san'atkorona topilmalar deyish mumkin. Jumladan, "Oshiq bo'lmisham", "Lola", "Qilmading", "Ko'ngul", "Gul", "Aylamish" radifli g'azallaridagi tasvir va ifoda badiiy go'zallikning namunasidir.

Mumtoz g'azaliyotda ma'shuqaning husn-u jamoli ta'rifiga bag'ishlangan g'azallar bisyor. Komil ham an'anaviylikdan xoli bo'lmagan holda, ma'shuqa obraziga murojaat qiladi. Shoir qalamida tasvir etilgan bu obraz esa yangicha talqinda namoyon bo'ladi. Shoir nazdida yor husnda tengsiz, go'zallikda yakto.[1] Ijodkor ba'zan bu go'zallikni baytma-bayt ta'rif qilar ekan, har bir misrada ma'shuqaning husn-u latofatini, malohatini chizishda har bir a'zolariga o'ziga xos tashbehlar topadi:

Jonbaxsh la'ling ustida ul holi hindularmudur,
Yo chashmayi hayvon uza zog'i siyohmo'larmudur?

G'azal o'n bir baytli bo'lib, oltinchi baytigacha yorning holi, ko'zi, sochi, iyagi, kiprigi, qoshiga borliqdagi hindu, ohu, sumbul, rayhon, mo'ndu, kamon kabi o'xshatmalarni mahorat bilan qo'llaydi. Bu ketma-ketlik uzib qo'yib o'qilsa, yo bayt tushib qolsa, xuddi ma'shuqaning go'zalligida nuqsoni bordek tuyuladi. Qofiyadosh so'zlar esa nafaqat shakl va mazmun yukini olgan, shu bilan bir qatorda g'azalning musiqiyligini, o'ynoqiligini ta'minlashga xizmat qilgan.

Oshiq lirik qahramon sifatida ma'shuqa hajrida iztirob chekuvchi, uning g'amida parishon, ko'ngli doimo mahzun qiyofada tasvirlanadi. Komil ham mumtoz salaflari izidan borib, oshiqning ruhiy iztiroblarini ko'z yoshi – ashk orqali tasvirlagan.

Yig'lamakdin gul yuzing hajrida qonlig' ashkidir,
Fosh etar xuni jigar gul, didayi xunbor gul! (17-bet)

Yoki:

Ul labi xandon ruxi gulgun g'amidin ohkim,
Bo'lmadi hargiz ko'zum ashk-u, ko'ngul qondin xolos. (5-bet)

Komil she'rlarida "Pari ishqida majnun bo'lgan" oshiq ko'ngil iztiroblari va manzaralarini kuzatish ham maroqli.

Bir o'rinda oshiq yor hajrida tun-u kun g'am-u kulfatda bo'lsa, bir o'rinda "Ko'ngulda sirri ishq" ini yashiruvchi sifatida tasvirlanadi. Biroq ishq o'ti shunday narsaki, uni ko'ngulda pinhon saqlagani bilan oshiqning sariq chehrasi sirning ochilishiga sabab bo'ladi.

Sariq chehramdurur ishqini qilg'on fosh olamga,
Nechukkim lafz ruxsorigadur oyinason kog'az. (20-bet)

Quyidagi baytda esa tasvir yana ham chuqurlashadi. G'ami ishqimning elga oshkor bo'lishiga sariq yuzim uza oqqan ko'zimning qonlari sababdir, deydi shoir.

G'ami ishqim ulusg'a fosh o'lurg'a, ey gulira'no,
Sariq ruxsor uza oqg'on ko'zimdan qon erur bois. (18-bet)

Komil oshiqning ruhiy holati manzaralarini tasvirlashda hayotiy, real voqealiklardan qiyos topadi, qiyos vositasida manzara yanada aniqlashadi, tasvir yanada go'zallashadi. Ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan holat, ya'ni mezbon uyini mehmon kelishi munosabati bilan bezatishidan Komil betakror tasvir yaratgan. Shoir deydiki, yorning xayoli hamisha ko'ngul koshonasini musaffo qiladi. Bu komilona go'zal topilmadir.

Musaffodur ko'ngul koshonasi doim hayolingdin,
Bezarga kulbasini mezbon, mehmon erur bois.

Shoir yozadi:

Bordur chu xo'blar aro mumtoz, go'yo,

[1] Komil Xorazmiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, 1961, 24-bet.

Husn avjining najumi alar, bu mahi erur.

Bu o‘rinda shoir o‘z ma’shuqasini xo‘blar aro, ya’ni go‘zallar aro mumtoz, deya ataydi. Boshqa go‘zallarni yulduzga, o‘z yorini esa oyga qiyos etadi. Komil she’riyatda shu darajada mahoratga erishganki, betakror ma’ni va ifodaga boy g‘azallar bitgan. Ma’shuqani “xo‘blar aro mumtoz”, o‘zga go‘zallarni yulduz, o‘z suyuklisini oy sifatida tasvirlashi ham yangilikdir.

Xullas, Komil Xorazmiy ishq mavzusini yangicha ohang va obrazli ifodalar bilan boyitdi. Shoir o‘z g‘azallarida lirik qahramonning ruhiy olami, holatini ifodalashda real hayotiy tashbehlardan unumli foydalandi va o‘ziga xos ifoda uslubini yarata oldi.

Komilning ishqiy she’riyati xalq tiliga yaqinligi, tasvir vositalarining hayotiyligi, musiqiyligi bilan adabiyotimiz tarixida muhim o‘rinni egallaydi.

Kam so‘z qo‘llab, ko‘p ma’no berish Komil nazmining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Odatda, yorning husn-u malohatini tasvirlashda ba’zan shoirlar ko‘plab istioralar, tashbehlar topishadi. Komil esa ba’zan o‘z mahbubasi jamolini uzundan-uzun tashbehlarsiz sodda tarzda qalamga oldi va badiiy topilmalar yaratdi.

Norov Otajon (f.f.f.d. (PhD) dotsent, QarDU tadqiqotchisi)

ISLOMIY LIRIKADA BADIIY TAFAKKUR UYG‘UNLIGI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada islomiy she’riyatning shakliy-uslubiy, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi. Jumladan, XX asr intihosi va yangi asr ostonasida yuzaga kelgan badiiy tafakkurdagi misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar falsafiy qamrov darajasini tubdan isloh qilish imkonini berdi. Natijada she’r va shoirlik ulkan masala, mas’uliyat ekanligi borasida atroflicha mushohada yuritildi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются формально-методологические, идейно-художественные особенности исламской поэзии. В частности, беспрецедентные изменения в художественном мышлении, произошедшие в конце XX века и накануне нового века, позволили коренным образом реформировать уровень философского освещения. В результате было подробно отмечено, что поэзия и быть поэтом – это огромная проблема, ответственность.*

Annotation*. This article deals with the formal-methodological, ideological-literary features of Islamic poetry. In particular, the unprecedented changes in artistic thinking that took place at the end of the twentieth century and on the eve of the new century made it possible to radically reform the level of philosophical coverage. As a result, it was observed in detail that poetry and being poet is a huge issue and a responsibility.*

Kalit so‘zlar: *so‘z, ruh, poetika, moddiyat, falsafa, struktura, axloq, kompozitsiya, kechinma.*

Ключевые слова: *слово, дух, поэтика, материальность, философия, структура, этика, композиция, чувство.*

Key words: *word, spirit, poetry, materialism, philosophy, structure, ethics, composition, experience.*

Hozirgi o‘zbek she’riyatida islomiy g‘oyalar anglash, o‘tmish adabiy an’analarni bilish, yangi mohiyatga evrilgan aqidalarga ergashish ko‘zga tashlanadi. Jumladan, hayot va unda yashayotgan insoniy muammolar hech bir zamonda o‘z yechimini topgan emas. She’riyat ana shu ikki oraliqda o‘z taqdiri bilan yashovchi lirik materiyadir. Har bir ijod jarayoni doimiy yangilanib, shakllanib boruvchi o‘ziga xos poetik yaxlitlikdan iborat. Unda olam va odam muammolari badiiy uyg‘unlik kasb etib, jamiyat taqdiri bilan uzviy tutashgan adabiy kontakt vazifasini bajaradi. Shu ma’noda, she’rning shakl va so‘z o‘yini ekanligi inobatga olinsa, masala mohiyati yanada oydinlashadi. Shoirlarning badiiy izlanishlarida islomiy tafakur yangilangani, azaliy va abadiy muhabbat borasidagi faqatgina o‘ziga xos ijodiy niyat ko‘lami o‘sib borayotganligini e’tirof etish joiz. Demak, she’rdagi voqelik bilan unda aks ettirilgan poetik fokus mudomi inson tabiatidagi uzil-kesil o‘zgarishlarni tadrijiy namoyon etganligi fikrimiz yorqin dalilidir.

“Inson oliy mavjudot sifatida shunday mo‘jizaki, u butun olamni o‘z fikriga sig‘dirish va qalbi bilan qamrab olish qudratiga ega. Uning aqli – ulug‘, qalbi – cheksiz. Bu ulug‘lik va cheksizlikning uyg‘unligi undagi ruh ulug‘vorligini ta’minlaydi. Insonning ulug‘vor ruhi esa uning o‘zini bir bosh yuksaltirgani holda, jonsiz olamni ham jonlantirish xususiyatiga ega: tabiat ulug‘lashadi, insonga hayrat hissini ulashadigan estetik manbaga aylanadi. Ana shu ruhning o‘zini namoyon etish doirasini biz ulug‘vorlik deb ataymiz.

Ulug‘vorlik qamrovlilik jihatidan nafosat falsafasida go‘zallikdan keyingi eng yirik xususiyat va tushuncha hisoblanadi. U estetik xususiyat sifatida ulkan qudrat hamda miqyosga ega narsa-hodisalarning

bir qarashda ilg‘ab olishb bo‘lmaydigan botiniy jihatlaridir. Tushuncha sifatida esa u voqelikdagi ana shu ulkan qudrat va miqyosning falsafiy-estetik mohiyatini ta’riflashga, tushuntirishga xizmat qiladi”.[1] Ko‘rib o‘tganimizdek, islomiy g‘oyalar tarannum etilgan she’rda – go‘zallik va qalb nafosatini. Iymon qudratini, taqvo nurliligini inkishof qilish ko‘zga tashlanadi. Bu tariqa, makon chekziligi namoyishida quyidagi jihatlarni yodda tutmoq joiz:

1. G‘oya o‘z-o‘zidan g‘oya bo‘lib shakllanmaydi, uning shoir botinida ehtiyoj va ixlos sabab she’rga, kechinmaga, lirizmga aylanadi.

2. Islomiy g‘oyalar tarannum qilingan she’rlarda hamisha bezovta ruhni, iymon sofligini ko‘ramiz.

3. Har qanday islomiy aqidalar she’rga fusun bag‘ishlagani bilan u shoirning orifona tuyg‘ulari qatidan ilhom bilan chiqmasa, o‘quvchini zeriktiradi.

4. Islomiy g‘oyalar makon va zamon belgilarini teran anglashda qo‘l keladi.

5. Davr ruhi she’rdda aks ettirilganda – taqvo va amal ham o‘ziga xos o‘rin tutadi.

6. Shoir o‘z aqidalariga yuqoridan kelib chiqqan holda amal qilmasa, uning ta’sir doirasi ham nursiz va befusun bo‘lib qolishi hech gap emas.

Mana shularning barchasida she’r va shoir shaxsiyatining uzviyligini anglatish lozim. Masalan, ayrim makoniy fragmentlar ifodalangan she’rlar tabiatida hech bir mutanosiblik bo‘lmasligi mumkin. Biroq unda shoirning Olamni va Odamni teran bilish manerasi katta rol o‘ynashi muhim. Chunonchi, davrning o‘z oldiga qo‘ygan yolg‘on shiorlari XX asr she’riyatini ruhan o‘ldirdi. Qalblarni larzaga keltiradigan asarlar kam yaratildi. Ulardan olingan vaqtinchalik zavq va shavq ham o‘sha davr uchun xizmat qilishdan boshqasiga yaramadi. Eslang, katta to‘mliklar nashr qildirgan shoirlarning bugun kim va qaysi olim tomonidan mutolaa qilinishini. Makon va zamon chegarasini kesib o‘tib, har qanday erada ham yashovchanlik kasb etishi Navoiy kabi betakror shoirlargagina nasib etayotgani zamonning o‘zi isbotlab turibdi. Bunday baholash va qarash ham qaysidir ma’noda ishonchni oqlaydi. Ertangi kunga umid bilan borishga o‘rgatadi. Shun tariqa, ularni saralab, tahlillab, talqin qilib aniqlashtirish eng muhim vazifalardan biri ekanligi ayonlashadi:

Har kimga haromdir hamisha qismat,
Kimdir boshin egar, kim ko‘ksin kergay.
Rasululloh demish: – Allohdan faqat,
Kim nima so‘rasa, o‘shani bergay.

Katta bir hadisni she’rga aylantirish modusi Abdulla Oripovda ko‘p kuzatiladi. Shoir bu she’rida insonning umid va itoatda umr kechirishiga katta falsafa joylamoqda. Negaki, umid va ishonch hamisha insonni yuksaltiradi. Kim qanday va qaysi niyatda Allohdan nimadir so‘rasa – o‘shani beradi demoqda. Bu o‘rinda zumlkorlar ham nazarda tutiladi. Ular yomonlikni sog‘indimi, demak, o‘zlariga oxiratda bo‘lsin, tirikligida bo‘lsin, albatta, bir yomonlik qaytishini isbotlaydi. Abdulla Oripov makonda va zamonda katta ijtimoiy hayotni ham uyg‘unlashtirib yuboradi. Uning talqinlarida makon va zamon o‘ziga yaqin bir masofada turishini bildiradi. Buni shunday asosli yoritish muhimki, shoir dunyoni teran bilganlaridan keyin islomiy g‘oyalarni unga muqoyasa qilib she’rlar bita boshladi. Buning natijasida har bir she’r va uning ruhiyatiga katta falsafiy umumlashmani birlashtira oldi. Bu jarayonda qator din olimlaridan o‘rgangan hayot aqidasiga mos nazariy ilmlarni ham sintezlaydi. Ko‘rib o‘tganimizdek, Abdulla Oripov hadisu she’r-u shuur deya islomiy g‘oyalarni odamlarga oddiy va sodda yo‘sinda, yodida muqim o‘rnashib qolgudek shaklda idrokladi:

Oyoq qo‘lin bog‘lab Laylini bir kun
Olib kelishdilar Ka’baga tomon.
Layli xitob qildi: –Tavba ne uchun,
Majnunim bo‘lmasa tiyradir jahon.

Qarabsizki, “Xamsa” dostonining muhtasham ishqiy sarguzashtga boy dostonida Laylining vafodori Majnun vaslini so‘rashi, yuqorid aytganimizdek, Alloh kim nimani so‘rasa, o‘shani berish falsafasi ilgari surilgan. Ikkinchi bandda, ko‘rib o‘tganimizdek, Laylining pokiza qalbiga Majnunga bo‘lgan ulkan ishqni jo qilgan Alloh uning istagini bajo keltirmoqda. Yaratgan naqadar rahmdil va mehribon zot! U bandasining istaklarini rad qilishdan yiroqdir. Shoir shuni go‘zal bir hikmatnoma she’rga aylantirib qo‘yibdi. Birgina epizodik lavhada – haqiqiy oshiqlargina talingan ideal hayot Allohning iznisiz bo‘lmasligini tushuntirish mavjud. Buni qaysi davrda ham o‘qisangiz Layli va Majnun taqdiri o‘z o‘quvchisini, as-

[1] Abdulla Sher. Go‘zallik yog‘dusi. T., “Faylasuflar”, 2017, 17-bet.

lo, befarq qoldirmagay. Mana shu makon va zamon konstruksiyasida Abdulla Oripov to‘g‘ri usulni qo‘llay olgan:

Ibodat Majnunni navbati edi,
U ham oshkor etdi ko‘ngul maylini.
Ka’baga bosh urib turarkan dedi:
– Men Sendan so‘rayman faqat Laylini.[1]

Ibodat Majnunning navbati bo‘lganida uning istagini qarang: u ham Laylini vaslini Allohdan so‘ramoqda. Bir vujud va bir ruhga uyg‘unlik makondagi bir-biriga monand tuyg‘ular realizmi Abdulla Oripovni ana shunday o‘lmas she’rlar bitishga yetaklagan. Buning natijasida shoir o‘zining ijodiy manerasini yorqin ranglarda namoyon qila olgan. Mana shu qismat Layli va Majnun haqidagi tasavvurlarimizni tartiblashtiradi. Allohdan nimani xohlasak, chindan va pok niyatdan so‘raganimizda berishini anglashga olib keladi.

“She’r – harakatdagi hissiyot, hissiyotdagi fikr yoki aksincha, harakatdagi fikr, fikrdagi hissiyot. Alisher Navoiy buni xos ma’ni, xos hol deb ataydi. Ana shu narsa she’rga joziba bag‘ishlaydi. Ba’zi she’rlarda go‘yo hamma narsa bordek, qofiya, turoq, vazn joyida. Lekin joziba yo‘q. Shoir uchun iste’dod kerak. Iste’dodning uch belgisi bor: so‘z tuyg‘usi, haqiqat tuyg‘usi, go‘zallik (nafosat) tuyg‘usi. Ana shu tuyg‘u birlashgan joyda chinakam she’r tug‘iladi. Boshqacha aytganda, haqiqat – she’rning otasi, go‘zallik – onasi. So‘z – uning libosi. She’rdan haqiqat ruhi gurkirab, nafosat atri taralib turmog‘i darkor”[2]. Ko‘rib o‘tishimiz mumkinki, she’r agarda islomiy g‘oyani tarannum qilsa, uning mohiyatida fikr – hissiyot o‘zaro qorishib, bir butunlikni yaxlitlashtirsa, undan bo‘lak boshqa muammo bo‘lishi mumkin emas. Chunonchi, she’r materiya tig‘izligini makonda ko‘rsatuvchi ko‘zgudir. Uning hozirjavobligi ham shunda.

Demak, bir-biriga payvandlangan she’riy manzumalar kompozitsiyada maromiga yetadi. Uning talqin va tasvir qorishmasida plastik o‘zgaruvchanlik kuzatiladi. Natijada hayot haqidagi murakkab tushunchalar o‘zaro chatishadi. Bir-birini taqozolaydi. Bir-birini to‘ldiruvchi makonda yanada ranginlashadi. Har bir shoir ana shu mezondan chekkaga chiqolmaydi. Olam-olam tasavvur, hayot haqidagi nisbiy haqiqatlar haqqoniy mehvarga tutashadi. Yagona Alloh uchun yashashlikka chorlaydi. Qalbni ozoda va pok qilishga rag‘batlantiradi. Sh.Rahmon ana shunday mezonda so‘z aytishga o‘zida kuch va g‘ayrat topa olgan ijodkordir. U o‘lim to‘shagida yotarkan, makoni qayerligini juda yaxshi biladi:

Nodirajon, Shoirajon
tanam qimir etmaydi,
olis-olis vohalardan
tog‘larimni chaqiring,
osmon to‘la havolar
faqat menga yetmaydi.

O‘lim bilan tinimsiz olishayotgan, kasallik faqat ruhinigina buka olmagan shoirning botinida katta iztirob yashirin. U o‘limi oldidan begunoh hali voyaga yetmagan qizlariga shunday iztiroblarini vasiyat qilmoqda. Havo yetmagani va uning bag‘ridagi ulkan ayriliq, yashagisi kelsa ham, noiloj taqdir hukmiga ko‘nikish uchun katta sabr-u bardosh kerak. Shoir ana shu balandlikka – makonga chiqayotgan bu dunyoning mehmoni. U Allohni sevadi. Qizlaridan buni so‘raydi:

Nodirajon, Shoirajon,
tanam qimir etmaydi,
peshonamning sho‘ridan
bino bo‘lgan bu daryo...
osmon to‘la havolar
faqat menga yetmaydi.

Peshonaning taqdirga ko‘nikishi, baxtning yarmida bolalarini chorasiz tashlab ketishi hech bir ota, insonga yoqmaydi. Daryolar ham yuvsa ketmaydigan dardni Allohdan boshqa kim ham najot beradi deysiz? She’rda antiteza usuli ko‘p qo‘llanilgan bo‘lib, tabiatning oddiy bir mo‘jizasiga ham olam-olam ma’no yuklaydi shoir. Negaki, ana shu jarayonni qalamga olish uchun shoirning qimir etmayotgan tanasidan faqat bir mayin ovoz chiqadi.

Nodirajon, Shoirajon,

[1] Abdulla Oripov. Ishq kemasi. ”Hilol-nashr”, 2021, 59-bet.
[2] Jamol Kamol. She’r san’ati. T., “Yangi asr avlodi”, 2018, 53-bet.

tanam qimir etmaydi,
boring, qorli tog‘larga:
bir shoir yotibdi deng,
Xudoning hovlisida...
Osmon to‘la havolar
faqat menga yetmaydi.[1]

She’rning uchinchi yirik xotimaviy bandida o‘ziga xos tashbeh qo‘llaydi. Bu olam – Allohning yaratig‘i. Shoir nima deyapti: Xudoning hovlisida yotgan shoir menman. Qorli tog‘larga ayting. Havolaridan yuborsin... Bunday iztirobga muhbam shoirning hayotiy aqidasi atrofdan ko‘rgan jabr-zulmlari, qiynoqlari deb ko‘rishimiz mumkin. Shu maqsadda qaraganda, shoir katta bir falsafiy-psixologik tarang kayfiyatini she’r bag‘rida jaranglatadi. Ana shu mezon shoirni ruhan u dunyoga tayyor ekanligini yaqqol isbotlab turibdi.

Qo‘chqorova Mahina (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti; makhina.kuchkarova.1971@mail.ru)

XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV ASARLARIDA BOLALAR OBRAZI BADIIYATI

Annotatsiya. *O‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanishida o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan Xudoyberdi To‘xtaboyev serqirra ijodkordir. Uning asarlai orqali o‘zbek bolalarining beg‘ubor bolaligi bilan bir qatorda, o‘zbek urf-odatlari, milliy qadriyatlar namoyon bo‘ladi. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarining yumorga boyligi, o‘zbek bolalarining ruhiy kechinmalari mahorat bilan tasvir etilgani bilan ajralib turadi. Haqiqatdan ham, ushbu adib o‘zbek bolalar adabiyotinini jahon miqyosiga olib chiqqan ijodkor hisoblanadi. Ularda ta’lim-tarbiya ham o‘z aksini topgan.*

Аннотация. *Худойберди Тохтабоев, внесший значительный вклад в развитие узбекской детской литературы, является плодовитым автором. В его произведениях показаны узбекские традиции и национальные ценности, невинное детство узбекских детей. Произведения Худойберди Тохтабоева отличаются богатством юмора и умелым изображением душевных переживаний узбекских детей. Действительно, этот писатель считается творцом, выведшим узбекскую детскую литературу на мировой уровень. В его произведениях находит отражение и тема воспитания.*

Annotation. *Khudoiberdi Tokhtaboev is a prolific creator who made a significant contribution to the development of Uzbek children's literature. His products show Uzbek traditions and national values, innocent Uzbek children. The works of Khudoyberdi Tokhtaboev are distinguished by the richness of humor and the skillful depiction of the emotional experiences of Uzbek children. Indeed, this writer is considered as the creator who brought Uzbek children's literature to the world level. His works also reflect the education.*

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, bola obrazi, ruhiyat, bosh qahramon, xarakter, mahorat, tabiat.*

Ключевые слова: *детская литература, образ ребенка, психика, герой, персонаж, мастерство, характер.*

Key words: *children's literature, image of a child, spirit, hero, character, skill, naturality.*

Bolalar adabiyoti o‘n olti yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun maxsus yaratilgan va bolalarni badiiy obrazlar tilida tarbiyalash va o‘qitish vazifalarini o‘z ichiga olgan adabiyot janri hisoblanadi.[2]

O‘rta asrlarda bolalar adabiyotiga kattalarnikidan farqli ravishda, yozilgan adabiyotlar deb qarashgan, ammo ba’zilar bolalar adabiyotini kitob rasmlaridagi pedagogikaga oid adabiyot deb, boshqalarida esa mavzu va maxsus tilda yaratilgan adabiyotlar deb qo‘llanilgan. Zamonaviy adabiyotshunoslar yo bolalar adabiyotini alohida ajratmaslikni, barcha kitoblarni yaxshi va yomonga bo‘lishni afzal ko‘radilar. Ba’zan bolalar adabiyoti adabiyotning alohida bir turi sifatida ko‘rsatilgan. Ko‘p tanqidchilarning fikricha, u yuqori badiiy darajaga ega emas edi.

Bolalar adabiyoti soddalik va ixchamlik mezonlari asosiga qurilib, yozuvchiga uz kitobxoniga yo‘naltirilgan maktubni sinchkovlik bilan qayta-qayta o‘ylab, bolalar ongiga salbiy ta’sir qilmaydigan ma’lumotni yetkazish majburiyatini yuklaydi. Bolalar adabiyoti deganda yozuvchi va shoirlar tomonidan bolalarga mo‘ljallab yozilgan asarlarni tushunish barobarida kattalarga atalgan, ammo bolalar ma’naviyatini

[1] Shavkat Rahmon. Saylanma. T., “Sharq”, 1997, 356-bet.

[2] Антонина Петровна Бабушкина. История русской детской литературы. М., Гос. учеб.-педагог. изд-во, 1948, с. 9.

boyitib, ruhiyatiga estetik zavq beradigan asarlar ham tushuniladi. Demak, soddalik va ixchamlikka erishish uchuy asarning badiiy o‘ziga xosligini pasaytirib emas, aksincha, chinakam badiiy mahorat yordamida erishish mumkin.

Bolalar adabiyoti o‘z o‘rnida bolalikning davriy uzgarishlarini inobatga olgan holda, shartli ravishda, uch guruhga bo‘linadi:

1) maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar (2 yoshdan 7 yoshgacha);

2) maktab yoshidagi kichik bolalar yoki boshlangich sinf o‘quvchilari (7 yoshdan 10–11 yoshgacha);

3) o‘rta va katta yoshdagi bolalar yoki yuqori sinf o‘quhvchilari (12–14 yoshdan15–17 yoshgacha).

Bolalar adabiyotida bola obrazi alohida ahamiyatga ega, chunki asosiy voqealar bola obrazi atrofida sodir bo‘ladi.

Rus adabiyotida bola obrazi masalasiga M.Y.Lermontov tomonidan chuqur ahamiyat berilgan. U bolalik hayotini dengiz o‘rtasidagi titroq gulli orolga o‘xshaydi, degan fikrni ifodalaydi. Pushkin, o‘z navbatida, bolalikni ham, keksalikni ham, shunchaki vaqt siklidagi bir lahzaga tenglashtiradi.[1]

Bolalik mavzusi rus adabiyotiga shaxsning, umuman, jamiyatning o‘zini o‘zi anglash belgisi sifatida kirdi. Tolstoy, qoida tariqasida, o‘zining barqaror, shakllangan shaxsiyati bilan kattalar adabiyotini boshqargan. Adabiyot rivojlanishining ushbu davrida birinchi bo‘lib Tolstoy e’tiborini bolalikka qaratdi. Bolaning qiyofasi haqidagi fikrlari L.N.Tolstoy “Bolalik” asarida aks ettirilgan. U his-tuyg‘ularning ichki harakatchanligini, inkordan tasdiqlashga, butundan xususiyga keskin o‘tishlarini ko‘rsatadi, bu uning ongida bolaning tipik xususiyatidir. Bolalik va undan keyin bolaning o‘zi ma’lum qoidalarga va bitta chiziqqa bo‘ysunmaydi, u ko‘p qirrali, turli yo‘nalishlarda yashaydi, u bilan aloqa qiladigan hamma narsani tishlaydi. Bolalik va bolalik – bu “kattalar ongi orollari yuzasida suzib yuradigan ocean”.

XVII asrda bola obrazi kambag‘al, qashshoq, uydan mahrum, oila, ayniqsa, maktab zulmi qurbonlari tasvirlari paydo bo‘ladi, lekin bolalarning o‘zlari bir tomonlama sodda va begunoh bo‘lib, qoladilar. Keyin, oilaviy “uya” badiiy izlanishlarga duchor bo‘ladi va ma’lum bo‘ladiki, bolani nogiron qilib qo‘yadigan shafqatsiz qullik, zulm va ikkiyuzlamachilik, ko‘pincha, issiq qobiq ostida yashiringan. Psixologik tahlil chuqurlashgani sari bolalar obrazlarining o‘zi ham avvalgi tiniqligini, bir o‘lchovliligini yo‘qotadi.[2] Oliver Tvist kichkina, ayanchli obraz sifatida tasvirlanadi va kattalar tomonidan har tomondan urilib ketgan, jismoniy va ma’naviy jarohatlardan edi. Kichkina odam, ko‘plab begonalar, mahalliy bo‘lmagan odamlar tomonidan siqib chiqarilgan va ular orasida u yo‘qolgan. U davr bolasi to‘liq burjua farovonligida yashaydi, u real dunyoda qo‘llab-quvvatlashdan mahrum, hamma narsa uning uchun boshqalar tomonidan amalga oshiriladi, u haqiqatdan sun’iy ravishda o‘rab olingan. Bizning oldimizda ikki xil tasvir bor: biri baxtsiz va taqibga uchragan, ikkinchisi xavfsiz va doimo g‘amxo‘rlikda yashaydigan bolalar obrzidir. Bir vaqtning o‘zida, ikkalasi ham har biri o‘ziga xos tarzda himoyasiz obraz hisoblanadi.

Amerika adabiyotida Mark Tven sayohat va sarguzasht romantikasini, uysizlik quvonchini sevadigan bolani ko‘rsatadi. Ingliz yozuvchisi Dikkens, bola o‘z uyini sevmasa, hatto undan nafratlanadi, chunki u qarindoshlik iliqligini yo‘qotgan bo‘lsa, u holda Geklberri Fin o‘z uyidan nafratlanadi, chunki bu cheklangan makon va unga kenglik va makon kerak deya ta’kidlaydi. Agar Oliver onasini ko‘z yoshlarsiz eslay olmasa, Finn otasidan qattiq nafratlanadi.

Xeminguey, Folker, T.Vulf, Selinjer asarlarida bola timsoli bolaning tabiiyligi, yolg‘onga toqat qilmaslik, konformizmni rad etish asosida qurilgan.

S.Tsvayg shunday deb yozgan edi: “...Bizning ma’naviy dunyomiz go‘yo millionlab monadlardan, individual taassurotlardan iborat bo‘lib, ularning eng kichik qismi shaxsan ko‘rib, boshdan kechiriladi, qolgan hamma narsa – asosiy qismi – biz kitoblarga qarzdormiz. o‘qigan, idrok etgan, o‘rganadi.”

O‘zbek adabiyotshunosligida, ayni paytda, zamonaviy o‘zbek nasrida bola obrazi yetakchi bo‘lgan asarlar misolida voqelikni badiiy ifodalash masalalarini zamonaviy yondashuvlar asosida ilmiy-nazariy jihatdan to‘g‘ri baholash muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, hozirgi zamonda butun bashariyat oldida paydo bo‘layotgan biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab muammolar, global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo‘lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda, dunyo aholisini qariyib uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z san’atning o‘rni va mas’uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

[1] https://psy.su/feed/5299/

[2] Фельдштейн Д.И. Феномен детства и его место в развитии современного общества. “Мир психологии”, 2002, № 1, с. 9 – 20.

Ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalar inson ruhiyatida in'koslanib, unda evrilish yuz berishi, bolalar ruhiyatida yaqqol namoyon bo'lishi, shubhasiz. Bu hol jamiyatdagi illatlar in'kosini ham chetlab o'tmaydi. Ko'p hollarda yozuvchi ijtimoiy, ma'naviy muammolarni aks ettirishda aynan bola obraziga murojaat etadi. Biz yashayotgan dunyoni teran anglash uchun inson hayotnng muhim qismi bo'lgan bolalikka ilmiy-falsafiy nuqtayi nazaridan yangicha yondashuv talab etadi.

O'zbek adabiyotining zamonaviy bolalar yozuvchisi. O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar adabiyotida o'rni beqiyosdir. X.To'xtaboyev butun ijodiy salohiyatini bolalar, o'smirlar dunyosini sharh etishga, ularning ma'naviy olamini boyitishga xizmat qiladigan asarlar yaratishga baxsh etdi. Shu bois yoshlar nashriyoti, "Gulxan", "Yosh kuch" jurnallari, "Iste'dod" jamg'armasi boshqaruvida rahbar lavozimlarida ishlab, bola va o'smir ruhiyatidagi go'zallikni himoyalashga, boyitishga e'tibor qaratdi. E'lon qilingan hikoya va to'plamlari: "Shoshqaloq" (1961), "So'qmoqlar" (1966), "Muhabbat qo'shig'i" (1967), "Jonginam, shartingni ayt" (1969), qissalari: "Sir ochildi" (1961), "Omonboy bilan Davronboy sarguzashti" (1974), romanlari: "Sariq devni minib" (1968), "Sariq devning o'limi" (1973), "Besh bolali yigitcha" (1976), "Qasoskorning oltin boshi" (1981), "Yillar va yo'llar" (1983), "Shirin qovunlar mamlkati" (1986), "Mungli ko'zlar" (1988), "Jannati odamlar" (1966), "Qiz talashgan o'smirlar", "Quyonlar saltanati", "Qiz bolaga tosh otmang"– barcha-barchasi, uning qizg'in ijodiy faoliyatining samarasi bo'ldi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning asarlari tojik, qirg'iz, turkman, ozarbayjon, arman, rus, ukrain, belorus, moldovan, eston, latish, litva, fin, bolgar, venger, nemis, chex, italyan – jami 24 tilga tarjima bo'lgan.[1]

Ijtimoiy muhitning bola ruhiyatiga ta'siri masalasi X.To'xtaboevning "Mungli ko'zlar" romanida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu asar qahramonlari adibning barcha qahramonlaridan tubdan farq qiladi. Sababi, adib yaratgan bolalar obrazlarining ko'pchiligi go'lroq, ko'pincha, yo ochlikdan qiynalgan, yo maktab direktori va o'qituvchilaridan dakki eshitib yuruvchi, sodda qishloq bolalari edi. Ammo "Mungli ko'zlar"dagi bolalar hech qanday muhtojlik bilmagan, erka va arzanda bolalar, roman qahramonlari katta shaharda, dang'illama koshonada yashaydilar. Ular boy ota-onalarining erkalari. Bu uyda hamma narsa muhayyo, ota-onaning qo'li uzun, maktab direktoridan tortib, barcha tanish-bilishlarigacha ularga qulluq qiladi. Bolalar tabiatiga ham bu holat ta'sir etmay qolmagan. Psixologlarning aytishicha, dastlab, bolaning ongi toza oq qog'oz singari bo'ladi va unga qanday chiziq tortsangiz, o'sha chiziqlar saqlanib qoladi. Shuning uchun ham bola tarbiyasi haqida Sharqda bejiz oila birlamchi, deb ko'rsatilmagan. Qizig'i shundaki, hamma narsa muhayyo bo'lgan bu oilada nimadir yetishmasdi. Sababi bu xonadonda o'yin-kulgi, hazil-huzul, erkinlik, tabiiyligu samimiylik tanqis. Kattalar o'z olamida yashaydi. Zafar, uning ukalari ota-ona-ga erkalanishni, ular bilan samimiy munosabatda bo'lishni istaydilar. Lekin boyvachcha ota, boyvuchcha ona bola oldidagi burchini yedirib-ichirishda, kiyintirishda deb anglaydilar.

Asarda aks ettirilgan g'oyalar tizimi, haqiqatan ham, dunyo qiyofasini ham, bolaning qiyofasini ham faol shakllantiradi. Asardagi tasvirning o'zi ikkinchi haqiqatga aylanadi, ba'zan haqiqatning o'zidan ko'ra haqiqiyroq. Voqea ijtimoiy harakat subyektining dunyo bilan aloqalarining cheksiz kengayishi bo'lganligi sababli, asar shaxs uchun qanchalik keng ochilgan bo'lsa, uning dunyo haqidagi shaxsiy qiyofasi boyib boradi.

Bolalar bir ota-onaning farzandi bo'lsa-da, ikki xil dunyoqarash, ikki xil tushunchalar asosida tarbiya topadi. Ularning qarashlarida o'zini haq deb hisoblashlari ko'rinib turibdi. Aka ham, uka ham o'zicha ota-onasini yaxshi ko'radi. Lekin bu muhabbat orasida farqni keltirib chiqargan muhit ularning tez-tez ziddiyatli bahslashuviga olib keladi. Zafar – boy ota-ona muhitida ulg'aydi, ularning tarbiyasini oldi va dunyoning mazmuni boylikda, degan tushuncha miyasiga singib bora boshladi. U ota-onasini sevadi, ammo, ota-onasini qanday bo'lsa, shundayligicha, poraxo'rmi, chayqovchimi, bundan qat'iy nazar ularni haq deb biladi va ayni shu masalada akasi bilan kelisha olmaydi. Akaning fikrlari unda g'azab uyg'otadi. Akani oqibatsiz, ota-ona qadrini bilmaydigan, yoki kitob o'qiyverib, "sal g'alatiroq" bo'lib qolgan, deb hisoblaydi.

Ko'rininb turibdiki, Xudoyberdi To'xtaboyev o'z asarlarida nafaqat o'zbek bolalar adabiyotini, balki jamiyatda bolaning o'rni, uning ulg'aishida oilaning ta'siri maslalarini ko'tarib chiqishga harakat qilgan. Uning asarlari o'zbek bolalar adabiyotini yuqori cho'qqilarga ko'tarub bergan. Shuning uchun bola obrazi yoki o'zbek bolalar adabiyoti deganimizda eng birinchi o'rinda Xudoyberdi To'xtaboyev ismi jaranglaydi.

[1] https://saviya.uz/hayot/tarjimai-hol/xudoyberdi-toxtaboyev-1932/

PEDAGOGIKA

Babashev Farxad Aytmuratovich (O‘zbekiston Milliy universiteti O‘zbek-Qozon qo‘shma ta’lim dasturi dekani, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent)

O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM TIZIMIDA PR-FAOLIYAT XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimida PR-faoliyat shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan omillar hamda ushbu sohaning dastlabki bosqichlari xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Shuningdek, muallif tomonidan mazkur yo‘nalishdagi faoliyatni rivojlantirish yuzasidan tavsiyalar ham bayon qilinadi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются факторы, повлиявшие на формирование PR-деятельности в системе высшего образования Узбекистана и особенности начальных этапов этой сферы. Также автором даны рекомендации по развитию деятельности в данном направлении.*

Annotation. *The article discusses the factors that influenced the formation of PR activities in the system of higher education in Uzbekistan and the features of the initial stages of this sphere. The author also gives recommendations for the development of this activity.*

Kalit so‘zlar: *PR-texnologiya, PR-strategiya, PR-faoliyat, PR-xizmat, PR-byuro, imij, brend, axborot xizmati, matbuot kotibi.*

Ключевые слова: *PR-технология, PR-стратегия, PR-деятельность, PR-служба, PR-бюро, имидж, бренд, нформационная служба, пресс-секретарь.*

Key words: *PR technology, PR strategy, PR activity, PR service, PR bureau, image, brand, information service, press secretary*

O‘zbekistonga PR-texnologiyalarning paydo bo‘lishi ko‘p jihatdan respublikamizga xorijiy kompaniyalarning kirib kelishi, iqtisodiy islohotlar natijasi sifatida chet ellik hamkorlar ishtirokida qo‘shma (davlat ishtirokidagi va xususiy) korxonalarning tashkil etilishi bilan bog‘liq. Raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida yashayotgan xorijiy mamlakatlarda o‘ziga xos targ‘ibot siyosatiga – PR-strategiyasiga ega bo‘lmagan kompaniyalar, firmalar va boshqa tuzilmalarni uchratmaysiz. Daromadining katta qismini targ‘ibot tadbirlariga sarflaganidagina tijoratda ijobiy natijaga erishishini anglagan har qanday tadbirkor asosiy e’tiborini PR-siyosatiga qaratishi, tabiiy holdir. Shu boisdan ham bozorda o‘z o‘rni va nufuziga ega bo‘lgan kompaniyalar, shu jumladan, yirik universitetlar har qanday tadbirni rejalashtirar ekan, birinchi navbatda, qanday qilib undan samarali PR vositasi sifatida foydalanishni mo‘ljallaydi.

O‘zbekiston PR bozorini tadqiq qilar ekan, qozog‘istonlik tadqiqotchi O.Kolesnichenko bu bozor yuzaga kelganining o‘ziga 10–12 yil bo‘lgani va u hali rivojlanish bosqichida ekanligini to‘g‘ri qayd qiladi. O.Kolesnichenko, dastlab, telekommunikatsiyalar sohasida o‘zini namoyon qilgan PR-texnologiyalarning 2016-yildan boshlab davlat boshqaruvi sohasida ham keng qo‘llanila boshlanganini qayd etadi. Umuman, Markaziy Osiyo to‘g‘risida so‘z yuritilar ekan, muallif bu hudud kattalarga hurmat ruhi singdirilgan sharqona yumshoq mentalitetga ega mamlakatlardan biri ekanini alohida ta’kidlaydi.[1]

PR-faoliyatining ta’lim sohasiga kirib kelishi ham ayni o‘sha davrga to‘g‘ri keladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlari to‘g‘risida»gi 2018-yil 5-iyundagi 3775-sonli qarori bilan Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tuzilmasida O‘zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan qo‘shimcha 2 ta shtat birligini ajratgan holda, axborot xizmatining tashkil etilishi oliy ta’lim tizimida ushbu yo‘nalishdagi dastlabki qadam edi. Ammo bu qadam oliy ta’lim tizimida yangi sahifani ochib beradigan o‘ta muhim yangilik ekani tezda anglab yetilmadi. Zero, 2005–2006-o‘quv yilidan boshlab faqat qabul parametrlari to‘g‘risida e’lon berayotgan oliy ta’lim tashkilotlari bundan buyog‘iga o‘zining imiji va e’tirofi uchun ham axborot makonida o‘z o‘rnini qidira boshladi. To‘g‘risi, o‘sha davrda qabul to‘g‘risida e’lonning chop etilishi ham qattiq nazorat ostida (majburiy-ixtiyoriy ravishda) amalga oshirilgan.

Ammo oliy ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga, respublikamizning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan modernizatsiya jarayonlarida oliy ta’lim tashkilotlarining faol ishtiroki yo‘lida jiddiy to‘siq bo‘layotgan bir qator muammolar bugungi kunda, ya’ni, XXI asrning birinchi choragida ham, afsuski, saqlanib qolmoqda. Afsuski, bu muammolarga, bir tomondan, o‘tmishdan qolgan tizim

[1] Колесниченко Олеся. PR по-азиатски. Честно о коммуникации в Центральной Азии. СПб., “Питер”, 2022, с. 46 – 57.

asorati deb qaralsa, ikkinchi tomondan, ular ayrim rahbarlarning zamonaviy boshqaruvchi sifatidagi kompetensiyasiga bog‘liq desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Tizimda nimadan tejash imkoni bo‘lsa, birinchi navbatda, PR -faoliyatni tanlaydigan rahbarlar talaygina. Bunga oliy ta’lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari dizayniga ko‘z yugurtirib yoki axborot (PR) xizmati xodimlariga berilayotgan ish haqini hisoblashning o‘zi kifoya.

Xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim tizimidagi PR-faoliyat uzoq tarixga borib taqaladi. Masalan, Garvard universiteti tomonidan 1641-yildayoq Angliya aholisidan mablag‘ yig‘ish maqsadida «New England’s First Fruits» deb nomlangan pamflet chop etilgan bo‘lsa, AQSHning Michigan universitetida 1897-yildayoq PR bo‘limi tashkil etilgan.[1]

PR-faoliyatning rivojlanishini, ayniqsa, XX asr boshida AQSHda yuz bergan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy yangilanishlar hamda ta’lim taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq. 1900-yilda Bostonda «Oshkoralik byurosi» nomi bilan dastlabki PR agentligiga asos solinib, Garvard kolleji uning birinchi va doimiy mijoziga aylangan bo‘lsa, 1919-yil Nyu-Yorkda PRning fan sifatida maydonga chiqishi va ilmiy asoslanishida katta rol o‘ynagan Edvard Berneys tomonidan xususiy «PR-byuro»si ochiladi. Bir vaqtning o‘zida, Nyu-York universitetida «Pablik rileyshnz» kafedrasi ham tashkil etiladi.

Demak, PR-faoliyatning jahon miqyosida ta’lim tizimiga kirib kelganiga yuz yildan ortiqroq vaqt bo‘lgan ekan, bugungi kunda ham PR-faoliyatda sustkashlik qilish oliy ta’lim tashkilotiga qimmatga tushishi aniq. Zero, tizimda o‘z o‘rniga, nufuziga ega bo‘lmagan har qanday tashkilot o‘z mijozlaridan ayrilib, bozordagi raqobatda yutqazadi. O.Sidelnikova qayd etganidek, ta’lim xizmatlari bozoridagi o‘rin uchun kurashda axborot siyosatida faol, muloqotda ochiqligi bilan ajralib turadigan oliy ta’lim tashkilotining qo‘li baland kelishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Bozor iqtisodiyotining talab va tamoyillari kuchayib borishi natijasida raqobatning keskinlashuvi ta’lim muassasasi raqobatbardoshligini oshirishning yangi vosita va mexanizmlarini qidirib topishni taqozo qiladi. Bu masalani esa jamoatchilikda oliy ta’lim tashkiloti to‘g‘risida ijobiy fikrni shakllantirishga qaratilgan marketingga asoslangan yondashuv orqaligina hal qilish mumkin.[2]

2000-yil Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tgan BMTning Mingyillik Sammitida 2015-yilga qadar sakkizta Mingyillik rivojlanish Maqsadlari qabul qilingan bo‘lsa, 2015-yil 25-sentabr kuni BMTning 193 ta mamlakati tomonidan o‘n yettita barqaror taraqqiyot Maqsadlarini o‘zida mujassam etgan «Dunyomizning o‘zgarishi: 2030-yilgacha barqaror taraqqiyot sohasidagi kun tartibidagi masalalar» deb nomlangan rezolutsiya qabul qilindi. O‘n yettita barqaror taraqqiyot Maqsadlaridan biri «Sifatli ta’lim barcha uchun!» deb nomlanishining o‘ziyoq jahon miqyosida ta’lim masalalarining naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. So‘nggi yillarda respublikamiz oliy ta’lim tizimida kuchli raqobat muhiti vujudga kelishining asosiy sabablaridan biri – yangi oliy ta’lim tashkilotlarining tashkil etilishi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi qabul qilingan 2019-yilda mamlakatimizda 114 ta oliy ta’lim tashkiloti mavjud bo‘lsa, bugungi kunda ularning soni 198 taga etdi. Shunday sharoitda jozibadorligini oshirish, o‘z brendini shakllantirish maqsadida mediamahsulotlardan samarali foydalanish, axborot siyosatida to‘g‘ri yo‘lni tanlay bilish muvaffaqiyat garovidir. Ammo bu masalada hali maqtansa arzigulik natijalarga erishilmoqda deya olmaymiz.

Yuqorida keltirilgan misollarimiz shundan dalolat beradiki, PR-xizmatning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ta’lim tashkilotlari faoliyati bilan yaqindan bog‘langan edi. O‘quvchi va talabalarni o‘ziga jalb qilish, homiylar topish, sohadagi boshqa muassasalar bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlashga bo‘lgan ehtiyoj mazkur faoliyatni tez sur’atlarda rivojlantirishni talab qilar edi. Asosan, tadbirkorlik faoliyati qonuniyatlari va tamoyillari asosida tashkil qilinayotgan xususiy oliy ta’lim tashkilotlari klassik davlat tasarrufidagi institut va universitetlarga nisbatan qator ustunliklarga ega. Bularning ayrimlari quyidagilar:

–o‘qishga qabul qilishdagi yengillik, kirish sinovlari, qabul kvotasining mustaqil ravishda belgilanishi;

–tadbirkorlar, odatda, PR-siyosat bo‘yicha amaliy tajribaga ega piar-menejerlar jamoasiga ega bo‘ladi (yoki muntazam ravishda ularni jalb qilishadi);

–vaziyat taqozosidan kelib chiqib, tezkor qaror qabul qilish imkoniyati mavjudligi;

---

[1] Мустафина Б.С. PR-коммуникации в формировании имиджа ВУЗа. Журнал Знак: проблемное поле медиаобразования. 2016. https://cyberleninka.ru/article/n/pr-kommunikatsii-v-formirovanii-imidzha-vuza/viewer

[2] Сидельникова О.В. Медиарилейшнз в системе PR-технологий (на примере высшего профессионального образования России). Специальность 10 01.10-журналистика. Автореферат на соискание ученой степени кандидата филологических наук, Воронеж, 2008.

–moliyaviy resurslarni tasarruf qilishda talabalar va professor-o‘qituvchilarga imtiyozlar berish, ish haqi, stipendiya, to‘lov narxlarini belgilashda harakat erkinligi;

– budjet asosida tahsil olgan bitiruvchilarga ishlab berish shartining mavjud emasligi va h.k.

Bu oliy ta’lim muassasalari mavjud moliyaviy-iqtisodiy resurslar yordamida keng miqyosdagi PR-faoliyatni kuchaytirmoqdaki, buni ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan reklamalar hajmidan ham anglash mumkin. Birgina misol keltiramiz. 2022-yil oktabr oyida https://t.me/xushnudbek telegram kanalida oliy ta’lim tashkilotlariga qabul bo‘yicha 26 ta e’lon joy olgan bo‘lsa, shulardan bittasigina davlat oliy ta’lim muassasasi hisoblangan Toshkent shahridagi Belarus-O‘zbekiston qo‘shma tarmoqlararo amaliy texnik kvalifikatsiyalar institutidir. Ushbu misol asosida ham xususiy va davlat tasarrufidagi ta’lim muassasalarining targ‘ibot-tashviqot ishlariga bo‘lgan munosabati to‘g‘risida aniq tasavvur hosil qilish mumkin.

Xo‘sh, oliy ta’lim tashkilotida PR-faoliyatining asosiy vazifalari nimalardan iborat? Bu, albatta, oliy ta’lim tashkilotining nufuzini oshirish va uning o‘ziga xos brendini shakllantirib, boshqa ta’lim muassasalaridan ustuvor jihatlarini namoyon qilishdir. Ammo bu masalada turli tadqiqotchilarning yondashuvlari turlicha bo‘lib, ayniqsa faoliyat mazmuni va yo‘nalishlari bo‘yicha fikrlar serqirraligi bilan ajralib turadi. Mazkur masalaga ushbu sohada ancha tajribaga ega bo‘lgan xorijlik mutaxassislar fikriga to‘xtalamiz. PR sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan Buyuk Britaniyalik olimlar Y.Olgermann (E.Ogiermann), S.R.Riyeger (C.Rieger)lar fikriga ko‘ra, bular quyidagilardan iborat:

– ta’lim xizmatlarini bor bo‘y-basti bilan ko‘rsatish;

– barqaror ijobiy imijni yaratish va uni qo‘llab-quvvatlash;

– korporativ madaniyatni yaratish va qo‘llab-quvvatlash;

– fandreyzing;[1]

– OAV bilan hamkorlik qilish;

– ta’lim xizmati iste’molchilari qiziqishlari va ular tomonidan qaror qabul qilinishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar monitoringini olib borish;

– ichki PRga oid vazifalar majmuyi;

– universitetlar manfaatlarini himoya qilish;

– raqobatchilardan xalos bo‘lish va krizisli vaziyatlarda ishlash.[2]

Rossiyalik tadqiqotchi V.L.Sidorova oliy ta’lim tashkiloti faoliyatini quyidagi ma’lumotlar asosida baholash mumkin, deb hisoblaydi:

1. OTT tarixi, uning an’analari, nufuzi haqida: «ko‘p vaqtdan buyon mavjud», «bu yerda taniqli shaxslar tahsil olgan», «bu universitet – hayotga yo‘llanma», «xorijiy universitetlar bilan hamkorlik qiladi».

2. Rektor shaxsiyati haqida: «obro‘li, aqlli va yangilikka intiluvchan inson rahbarlik qiladi».

3. Pablisiti – reklama bo‘yicha mashhurlik xususiyatlari haqida: «yaxshi fikrlar», «u haqida ko‘p eshitganman», «viloyatda eng mashhur».

4. Ijtimoiy faoliyati haqida: «nogironlar va yetimlar uchun bepul o‘qish», «armiyaga chaqiruvni kechiktirish», «ijtimoiy loyihalar tashkil etilishi».

5. Betakror uslub: «chiroyli timsol», «yorqin shior», «jozibali madhiya», «chiroyli bino».

6. Axloq me’yorlaridagi faoliyat va munosabatlar: «sessiyani o‘zim topshira olaman, pora olishmaydi», «kelishim shartlariga rioya qilinadi».

Bu fikrlarga xulosa qilib shuni qayd etish joizki, odamlar ongida saqlangan universitet to‘g‘risidagi timsollar, tasavvurlar yig‘indisi – OTT imiji shakllanishi uchun qimmatli material bo‘lib xizmat qiladi.[3]

O‘zbekiston oliy ta’lim tashkilotlari tarkibidagi axborot xizmatlari faoliyatidagi ayrim jihatlarga jiddiy e’tibor qaratilishi maqsadga muvofiq. Eng muhimi, ta’lim muassasasi axborot xizmatini haqiqiy PR -xizmatga aylantirish vaqti keldi. Ishni ushbu xizmatning nomlanishidan boshlasak to‘g‘ri bo‘ladi. Zero, har qanday bo‘linma zimmasidaga vazifalar uning nomida o‘z aksini topishi kerak. Respublika oliy ta’lim tashkilotlari (asosan, yirik universitetlar) rasmiy veb-saytlarini o‘rganish jarayonida faqat Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida axborot xizmati «PR-strategik rivojlanish va qo‘shma ta’lim dasturi

[1]Fandrayzing (inglizcha fund – «vosita» i raising – «yig‘moq») – ijtimoiy va biznes loyihalari uchun mablag‘larni izlash va jalb qilish. U, ko‘pincha, xayriya ishlarida qo‘llaniladi va tashkilotchilardan ideal obro‘ga ega bo‘lishni talab qiladi.

[2] Ogiermann E. Politeness and in-directness across cultures. A comparison of English, German, Polish requests. Journal of Politeness Research. Language, Behaviour, Cultur., 2009, V. 5, Issue 2. p. 189 – 216.

[3] Сидорова В.Л. Формирование эффективного имиджа вуза. Вестник ВолГУ. Серия 6. Вып. 11, 2008–2009, с. 13 – 14.

bo‘limi» deb qisman to‘g‘ri nomlangani aniqlandi. Ammo bo‘lim nomining ikkinchi qismidan bo‘lim boshlig‘i zimmasiga qo‘shimcha vazifa ham yuklatilganini anglash mumkin.

Mazkur masalalarga Toshkent davlat Iqtisodiyot universiteti rahbariyati tomonidan mas’uliyat bilan yondashilganini qayd etish joiz. Ya’ni, axborot xizmati uchun 4 ta shtat ajratilib, unda rahbar, media-fayllar bilan ishlash bo‘yicha bosh mutaxassis hamda ikki nafar fotoreporterlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Universitetda PR-faoliyatga jiddiy e’tibor bilan qaralishiga o‘rganishlar davomida ko‘p bor guvoh bo‘lganmiz va bu holatni barcha mutaxassislar ham tasdiqlashi mumkin. Ta’lim muassasasidagi an’anaga ko‘ra har bir imkoniyat, har bir tadbir keng qamrovli PR-kampaniyaga aylanadi. Shu boisdan universitet rahbariyatiga mazkur xizmatning nomini ham an’anaviy mavjud bo‘lgan samarali PR-siyosatga moslashtirishni tavsiya qilgan bo‘lar edik.

Mazkur masalada e’tirofga loyiq bo‘lgan yana bir oliy ta’lim tashkiloti – bu Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti. Universitetda 1 ta shtatdan iborat matbuot kotibidan tashqari, tegishli texnik vositalari bilan to‘liq jihozlangan o‘quv-media markazi faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Bu yerda turli formatlarda videofoto tasvirga olish, intervyularni yozib olish, montaj va namoyish qilish kabi ishlar bajariladi. Markazdagi mavjud sharoitlar bu yerda davra suhbatlari, diskussiyalar, turli tanlovlar tashkil qilish, tasvirga olish va efirga uzatish imkonini beradi.

Keltirilgan misollardan ko‘rinib turibdiki, oliy ta’lim tashkilotlaridagi PR-faoliyat bilan shug‘ullanadigan va bugungi kunda eng muhim hisoblangan bo‘linma turlicha nomlanadi. Afsuski, onlayn o‘rganishlar jarayonida ayrim oliy ta’lim tashkilotlarining rasmiy veb-saytlari «qulflangan» holatda ekanligi ham aniqlandi. Mantiqan o‘ylab qaraganda, ta’lim muassasasining ochiqligi ramzi bo‘lgan rasmiy veb-saytga kirish uchun login va parol so‘ralmoqda. Bu holat mazkur ta’lim tashkilotlari rahbarlarining XXI asrning birinchi choragi yakunlanayotgan bir vaqtda ham keng jamoatchilikdan ajralgan holda, «yopiq» rejimda ish ko‘rishni afzal bilishidan dalolat beradi. Veb-saytlarning bunday «himoyalanishi» bugungi kun nuqtayi nazaridan tushunib bo‘lmaydigan holatdir.

Biz nima uchun oliy ta’lim tashkiloti ochiqligini ta’minlash, uning imijini shakllantirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladigan bo‘linmaning tashkiliy tuzilmasi va nomiga o‘z e’tiborimizni qaratdik? Chunki rivojlangan xorijiy mamlakatlarni qo‘yib turaylik, qo‘shni davlatlardagi oliy ta’lim tashkilotlari faoliyatida media sohasiga qaratilayotgan e’tiborga to‘xtalganimizda, bu borada katta ishlar qilingani hamda (tan olish kerak) mazkur masalada bizdan ancha ilgarilab ketganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, O‘zbekiston Milliy universiteti bilan yaqin hamkorlik qilib kelayotgan Qozon Federal universiteti (bundan keyingi joylarda QFU)da PR-faoliyat bilan shug‘ullanadigan bo‘linma–QFU axborot siyosati Departamenti faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

Departament QFUning serqirra faoliyatini: fan, ta’lim-tarbiya, madaniyat va sport sohasidagi yutuqlari, ijtimoiy faolligi to‘g‘risida keng jamoatchilikni xabardor qiladi, QFU ijobiy imijini shakllantiradi va uni mediamakonida targ‘ib qiladi, ommaviy axborot vositalari va maqsadli auditoriyalarda QFUning ta’lim va tadqiqot xizmatlari hamda mahsulotlari targ‘ibotini olib boradi.

Departament quyidagi bo‘limlarni o‘z ichiga olgan:

1. QFU rektori matbuot xizmati.
2. Reklama va brendni rivojlantirish markazi va uning tarkibidagi quyidagi bo‘limlar:

a) imijni oshirishga qaratilgan tadbirlar bo‘limi (3 ta shtat birligi);

b) reklama va brendni rivojlantirish bo‘limi (5 ta shtat birligi).

Departament o‘zining nomi tushirilgan, QFUga taalluqliligini tasdiqlovchi gerbsiz muhr, shtamp, blank va boshqa maxsus jihozlarga ega.

Zarurat tug‘ilganida, departament direktori fakultet dekanlari, institut, oliy o‘quv yurtlari, filiallar direktorlari, bo‘lim boshliqlari, kafedra mudirlari va boshqa toifadagi ilmiy-pedagogik xodimlar bilan loyihalarni ilgari surishning yagona konsepsiyasini ishlab chiqib, samarali natijaga erishish hamda ushbu faoliyatning axborot va PR-qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish yuzasidan yig‘ilishlar o‘tkazadi.[1]

Bu vakolatlar hamda kuchaytirilgan tarkibiy tuzilma mazkur departament faoliyati qamrovi naqadar keng va QFU uchun ahamiyatli ekanidan dalolat beradi. Bulardan tashqari, Tatarstan Respublikasida Qozon Federal universitetining kecha-yu kunduz uzluksiz ishlaydigan o‘z telekanali UNIVER TV ham bor. Bu kanalning ham asosiy e’tibori universitet faoliyatiga qaratiladi. Asosiy yo‘nalishi: ta’lim, bilim olish, talabalar sporti, talabalar hayoti va universitet yangiliklari. Shuningdek, UNIVER NEWS – kundalik yangiliklar, «QFU: hafta yakunlari» axborot-tahlil dasturi efirga uzatiladi. Qisqacha aytganda, QFU

[1] Департамент по информационной политике.https://media.kpfu.ru/departament-po-informacionnoy-politike

Axborot siyosati departamenti o‘z telestudiyasiga, rejissorlar, boshlovchi va operatorlar jamoasi, o‘z ssenaristlariga ega katta tuzilmadir.

Bu misol respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan oliy ta’lim tashkilotlari PR-xizmatlar nufuzi va salohiyatini oshirish uchun oldimizda hali ancha ish qilishimiz kerakligidan dalolat beradi. O‘zbekiston Respublikasi singari prezidentlik respublikasi bo‘lgan AQSHda 30-50 kishidan iborat shtabi bo‘lganidek, Oliy Majlis deputatlariga ham chet elda o‘qib kelgan biri moliyachi, biri iqtisodchi, uchinchisi huquqshunos bo‘lgan besh nafar yordamchi qilib qo‘yish va ularni ham kuchaytirish taklifi berilgan edi.[1]

Bugungi kunda barcha oliy ta’lim tashkilotlaridagi aynan shunday jiddiy qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan zaif bo‘g‘in bu PR-xizmatdir. Yuqoridagi fikr-mulohazalarga yakun yasab, quyidagi tavsiyalarimizni bayon etishni lozim topdik:

1. Asosan, PR bilan shug‘ullanadigan axborot xizmati (matbuot xizmati yoki matbuot kotibi)ning nizomini (yetuk mutaxassislarini jalb qilgan holda) qayta ko‘rib chiqish, uning vakolatlarini kengaytirish, eng asosiysi, PR-xizmat faqat birinchi rahbarga bo‘ysunishini nazarda tutuvchi tartib joriy qilish va uning nomini «PR-faoliyatni rivojlantirish bo‘limi (boshqarmasi yoki departamenti)» deb o‘zgartirish vaqti keldi.

2. Bo‘limga rahbarlik qiladigan yetuk mutaxassisni jalb qilish (buning uchun https://tashkent.hh.uz/resumes/pr_menedzher sayti yordamida mutaxassis topish mumkin), jamoani eng zamonaviy asbob-uskuna va jihozlar bilan to‘liq ta'minlash, xodimlar shtatini kamida 3 – 4 taga yetkazish zarur.

3. Har o‘quv yili yakunida mazkur bo‘linmaning kengaytirilgan hisobotini kengash muhokamasiga qo‘yish hamda oliy ta’lim tashkilotining zamonaviy ijobiy imijini yaratish, uning jozibador brendini shakllantirish, strategik maqsadlarga yo‘naltirilgan faol PR-kampaniyani amalga oshirishda jonbozlik ko‘rsatgan xodimlarni moddiy rag‘batlantirib borish an’anasini joriy qilish yaxshi samara beradi. Bu ishlarga, albatta, bitiruvchilarni ham homiy sifatida jalb qilish maqsadga muvofiq.

Shuni alohida ta’kidlamoqchimizki, oliy ta’lim tashkiloti kuchli PR-siyosatiga, betakror imijga ega bo‘lmasdan, bugungi raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali faoliyat ko‘rsatishi mushkul bo‘lib, zamonaviy bilim va kasbiy fazilatlarga ega bo‘lgan yetuk mutaxassislarni tayyorlay olmaydi.

Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich (O‘zbekiston davlat Jismoniy tarbiya va sport universiteti Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrasi mudiri (PhD); email: fazliddin.yaqubov.89@mail.ru)

JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUTAXASSISLARINING FIKRLASH TARZINI STRUKTURAVIY TAHLIL QILISH ASOSIDA KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining fikrlash tarzini strukturaviy tahlil qilish orqali kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы развития профессиональной компетентности специалистов физической культуры и спорта посредством структурного анализа их мышления.*

Annotation. *The article deals with the development of professional competence of physical culture and sports specialists through a structural analysis of their thinking.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tarbiya, sport, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari, tafakkur, fikrlash tarzi, sportda fikrlash, sport tafakkuri, tushunish, tahlil qilish, tushuntirish, qiyoslash, umumlashtirish, izchillik, mantiqiylik, oqilonalik.*

Ключевые слова: *физическая культура, спорт, специалисты по физической культуре и спорту, мышление, образ мышления, мышление в спорте, спортивное мышление, понимание, анализ, объяснение, сравнение, обобщение, непротиворечивость, логика, рациональность.*

Key words: *physical education, sports, physical education and sports professionals, thinking, way of thinking, thinking in sports, sports thinking, understanding, analysis, explanation, comparison, generalization, consistency, logic, rationality.*

Fikrlash tarzi – inson faoliyatini tashkil qiluvchi asoslarning yig‘indisi hisoblanar ekan, u ma’lum tuzilishga va strukturaviy xususiyatlarga ega. Aynan mana shunga e’tibor qaratgan holda, fikrlash tarzining strukturasini tahlil qilib, uning asoslarini o‘rganishimiz asosida jismoniy tarbiya va sport mutaxas-

[1] https://www.gazeta.uz/ru/2022/12/15/budget-2023/

sislarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishimiz lozim. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari fikrlash tarzining strukturasini tushunish, tahlil qilish, tushuntirish kabi amaliy-mantiqiy jarayonlar tashkil qiladi. Zero, har bir sport mutaxassisi o‘z faoliyatida tushunish, tahlil qilish va tushuntirish malakasini namoyon etadi. Sportdagi muvafaqqiyat jismoniy imkoniyatning yuqoriligidan kelib chiqadi. Lekin, shu bilan birga, aqliy-tafakkuriy rivojlanish ham asosiy vazifani bajarishini unutmaslik kerak. Tushunish – bu mavjud vaziyatni o‘zlashtirish jarayonida shaxsiy tajribaning universal yo‘nalishidir. Tushunish insonning individual ong imkoniyatlaridan kelib chiqadi, ya’ni ongsiz tushunish mumkin emas. Tushunishda insonning diqqat-e’tibori obyektga qaratilgan bo‘ladi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari fikrlash tarzida tushunishning ahamiyati beqiyos.[1] Chunki tushunish jismoniy tarbiya va sport mutaxassislariga o‘zini namoyon qilish imkoniyatini yaratadi. Ya’ni, yuqori natijali faoliyat yaxshi tushunishdan boshlanadi. Tushunishning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri shundaki, u jismoniy tarbiya va sport mutaxassisining faoliyatini tartibga soladi, uni kelajakka yo‘naltiradi hamda nazariy bilimlarini amaliyotga ko‘chirtiradi. Tushunish tafakkursiz mavjud bo‘la olmaydi. Zero, tushunmaslik tafakkur vujudga kelishining asosiy manbayi bo‘lib hisoblanadi. Shuningdek, tushunish tafakkurning mahsuldorligi, muvaffaqiyatining asosiy shartidir. Inson harakatining majmui ong orqali hal qilinadi. Ya’ni, sport mashg‘ulotlarida bajariladigan eng oddiy harakatlardan boshlab, to o‘ta murakkab mashqlargacha bajariladigan faoliyatlarni har bir sportchi talaba ongli ravishda his qiladi, ya’ni, barcha harakatlarni ongida, tafakkurida avval bajaradi. Bevosita mashg‘ulotlar yoki musobaqalarda o‘rgangan va o‘zlashtirgan barcha mashqlar majmuini takrorlaydi. Demak, mashg‘ulotlardagi barcha harakatlar, faoliyatlarni anglagan holda tushunish sport mutaxassislari uchun eng zarur jarayon hisoblanadi. Tushunish jarayoni bevosita his-kechinmalar bilan bog‘langan holda yuz beradi. Ya’ni, tushunish idrok va his qilish orqali mukammallashadi. Inson sezgi analizatorlari uning faoliyatini tashkillashtiradi. Ayniqsa, ko‘rish analizatorining bajaradigan vazifasi yuqori hisoblanadi. Ko‘rish tushunishning amaliy ko‘rinishidir. Ko‘rish yordamida harakat haqidagi ma’lumot olinadi.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tushunish jarayonidagi o‘ziga xos yo‘nalish “amaliy tushunish” birinchi va eng muhim vazifa – bu ko‘z orqali jonli his qilish hisoblanadi.[2] Masalan, suzuvchilar va eshkak eshuvchilar uchun “suv”, bokschilar uchun “masofa”, futbolchilar uchun “to‘p”, chang‘ichilar uchun “qor”, gimnastikachilar uchun “snaryad” ko‘rish orqali anglanib, keyin tushuniladi. Ya’ni, tushunish tafakkurdagi davomiy jarayon bo‘lib, unda anglash tushunishning birinchi bosqichini tashkil etadi. Ko‘rish orqali sportchi o‘z harakatlarining fazo va vaqtdagi o‘rnini tushuna oladi. Jismoniy tarbiya va sport faoliyatida bu ko‘rsatmalilik tamoyiliga mos keladi. Ko‘rsatmalilik ko‘rish, eshitish va harakat shakllarida amalga oshirilib, u, asosan, harakatlarning fazoviy hamda fazo-vaqt tavsiflarini aniqlab olishga yordam beradi. Yangi harakatlarni o‘rganishning dastlabki bosqichida ko‘rgazmalilikning ko‘rish shakli katta ahamiyatga ega. Shuningdek, harakatlarni juda aniq tabaqalashtirish sport-texnik mahoratni takomillashtirishda ham juda qimmatlidir.[3]

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining fikrlash tarzida tushunish quyidagicha namoyon bo‘ladi:

1) individual tushunish; 2) ijtimoiy (jamoaviy) tushunish.

Har bir jismoniy tarbiya va sport mutaxassisi alohida individual xususiyatlarga ega. Uning individualligi ijtimoiy hayot sohalarida va sport faoliyatida birday namoyon bo‘ladi. Individuallik – biologik jihatdan inson organizmga xos irsiy yoki, keyinchalik, paydo bo‘lgan xususiyatlarning o‘ziga xosligi bo‘lsa, psixologik jihatdan shaxsning fikrlashi, sezgisi, irodasi, istak va intilishi, ehtiyoji, qiziqishi, kayfiyati, hissiyoti, ahvoli, xatti-harakati, odati, mayli, qobiliyati va boshqa sifatlarining o‘ziga xosligini anglatadi. Individual tushunish – sport faoliyatida sport mutaxassisining shaxsiy tajribasiga tayanib, mavjud vaziyatni qabul qilish ko‘nikmasini anglatadi. Individual tushunishda bajarilayotgan harakatlar va bajarilishi kerak bo‘lgan harakatlar o‘zaro taqqoslanadi, qiyoslanadi hamda umumlashtirilib yakuniy xulosa qabul qilinadi. Ya’ni, sportchining avval ongli ravishda bajarilib, keyin avtomatlashgan tarzdagi harakatlari yuzaga chiqadi.

Ijtimoiy yoki jamoaviy tushunish – jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari tafakkur tarzidagi eng murakkab jarayon. Zero, barcha jamoaviy sport o‘yinlaridagi g‘alabaning asosiy sharti ishtirokchilarning bir-birini o‘zaro tushuna olishlariga bog‘liq. Bunda sportchilar qanday vazifani bajarishdan qat’iy nazar,

[1] Бабушкина Г.Д. Психология соревновательной деятельности спортсмена. Монография, Омск, 2010, 108 с.
[2] Керимов Ф.А. Спорт кураши назарияси ва усулияти. Дарслик, Т., 2005, 50-бет.
[3] Саломов Р.С. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Дарслик, Т., «ИТА-ПРЕСС», 2014, 83-бет.

o‘z jamoasi uchun samarali faoliyat ko‘rsatishga intilishi darkor. Shuningdek, har bir sportchi jamoali o‘yinni tushunishi, sheriklar va raqiblarni ko‘ra bilishi, o‘yin vaziyatining rivojini seza olishi lozim. Bunda individual harakatlarning ommaviy harakatlarga aylanish yo‘llarini topish va individual tushunishni ijtimoiy tushunish bilan bog‘lash muhim vazifadir. Shuningdek, ijtimoiy tushunishni shakllantirish, uni rivojlantirish hamda takomillashtirish sportchi talabalar fikrlash tarzining muhim qismini tashkil qiladi.

Tushuntirish jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari fikrlash tarzi strukturasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Sport faoliyatida tushuntirish – bu biror harakat, jismoniy mashqning fazo va vaqt rejimida implementatsiya qilinishidir. Ya’ni, real vaziyatda amalga oshirish, ijro qilishdir. Tushuntirish – individlarning ongli faoliyati orqali biror-bir predmet yoki voqea-hodisalar haqidagi bilim, tajriba va ma’lumotlarni bir-birlariga uzatishi hamda mustahkamlash jarayonidir.

Tushuntirish sport texnikasining takomillashishida muhimdir. Biror jismoniy mashqni qilish va uni qanday bajarilishini ko‘rsatib tushuntirish bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida sport texnikasining rivojlanishiga olib keladi.[1] Tushuntirishni jismoniy tarbiya va sportda foydalaniladigan umumpedagogik metod sifatida ham tushunishimiz mumkin. Bunda u, bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashda yuqori natija beradi. Albatta, bu jarayonda murabbiyning malakasini e’tirof etish lozim. Sababi, har qanday jismoniy mashq yoki harakatning mohiyatini o‘quvchilarga o‘rgatishda murabbiy o‘zining tushuntirish metodikasidan kelib chiqib yondashadi.

Sport faoliyati turlarida tushuntirishning muhim bo‘lgan quyidagi usullari mavjud:

1) so‘z orqali tushuntirish; 2) imo-ishoralar orqali tushuntirish.

So‘z eng keng foydalaniladigan va samarasi yuqori bo‘lgan hamda tushunilishi oson bo‘lgan tushuntirishning usulidir. Barcha sohalarda so‘zning tushuntiruvchanlik xususiyati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Xususan, sportchi talabalarni tayyorlashda so‘zdan umummetodologik tushuntiruvchi sifatida foydalanishga ko‘p e’tibor beriladi. Bunda kerakli maqsadga erishish uchun so‘zga ma’no yuklanadi. Ya’ni, shunchaki so‘zni aytish bilan maqsadga erishilmaydi. Albatta, unga vazifani yuklash kerak. Shundagina ko‘zlangan natijaga etishish mumkin.

Jismoniy tarbiya va sport faoliyati turlari o‘zining rivojlanish tarixidan to hozirgi kungacha bo‘lgan muddati davomidagi taraqqiyoti ma’lum qoida va qonunlarni tushuntiruvchi xatti-harakatlar bilan chambarchas bog‘liq. Ya’ni, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining tanlagan sport turlarida ma’lum mazmunni ifodalovchi imo-ishora “jest”lar mavjud. Biz odatiy kundalik hayotimizda bunga e’tibor bermaymiz. Lekin, imo-ishoralar noverbal muloqot usullaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotlarga ko‘ra, imo-ishoralar insonning og‘zaki nutqidan ham ko‘proq ma’lumotlarni tushuntirar ekan. O‘rganishlarimiz natijalariga ko‘ra, jismoniy tarbiya nazariyasi va sport faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda tushuntirishning imo-ishoralar bilan bog‘liq masalalari, umuman, aks ettirilmagan. Vaholanki, deyarli barcha jismoniy tarbiya jarayonlari va sport turlarida imo-ishora va jestlar mavjud. Ularni bilish, tushunish, albatta, g‘alabaga ta’sir qiladi. Bu xoh yakkakurash sport turlari bo‘lsin, xoh jamoaviy sport turlari bo‘lsin, bizningcha, bu masala ilmiy tadqiqot manbasi bo‘la oladi.

Ilmiy nuqtayi nazardan qaraganda, “imo-ishora – bosh, qo‘l, tana orqali bajariladigan, biror ma’lumot beruvchi yoki his-tuyg‘u, ichki kechinmani ifodalovchi har qanday belgidir”. Shu jihatdan, sportchi talabalar o‘zi o‘ylagan va tafakkur operatsiyalari orqali o‘tgan ma’lumotlarini tushuntirishda tana tilidan foydalanadi. Bunda tana harakati orqali ifodalangan xatti-harakatlar o‘ziga xos kod vazifasini bajaradi. Masalan, voleybolda imo-ishoralar 8%ni, basketbolda 33%ni, gandbolda esa barcha murojaatlarning 10,6 %ni tashkil etadi.

Imo-ishoralar orqali tushuntirishning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, birinchidan, tushunish oson bo‘ladi, ikkinchidan, vaqt tejaladi, uchinchidan, kodlangan axborot barchaga ko‘rinadi, to‘rtinchidan, taktik harakatlar rejalashtiriladi. Tushuntirishning muvaffaqiyati, birinchi navbatda, mukammal tushunishdan kelib chiqadi. Tushunishning mukammal bo‘lishi esa o‘z-o‘zidan tushuntiruvchining qobiliyatiga bog‘liq. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, tushunish va tushuntirish bir-birini taqozo etadigan hamda bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydigan fikrlash tarzining tarkibiy qismlaridir.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari fikrlash tarzining navbatdagi tarkibiy qismi bu tahlil qilishdir. Tahlil qilish tushunilgan va tushuntirish natijasida olingan ma’lumotlarni tafakkurda qismlarga ajratib, o‘rganib, oldingi shaxsiy tajriba ma’lumotlari bilan qiyoslab yangi xulosalarga kelish va amaliyotga tatbiq qilishdir.

[1] Абдуллаев А., Ханкелдиев Ш.Х. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти. Т., ЎзДЖТИ нашриёти. Дарслик, 2005, 87-бет.

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari o‘z faoliyatlarida tahlil qilishga har doim murojaat qiladi. Chunki tahlilsiz ma’lum jismoniy mashqni bajarish o‘zish dinamikasini pasaytiradi. Ya’ni, har qanday jismoniy vazifaning mohiyatini anglash, tushunish va harakat natijalarini tahlil qilish sport mutaxassisi uchun muhimdir.

Jismoniy tarbiya jarayoni samaradorligi ko‘p jihatdan shug‘ullanuvchilarning o‘z harakatlarini tahlil qilishga hamda ularni yaxshilash yo‘llarini ijodiy izlashga qanchalik o‘rganganliklariga bog‘liq.

Bugungi kun ilmiy tadqiqotlariga murojaat qilganimizda, tahlilni ko‘proq pedagogik tadqiqot usuli sifatida tushunish kuzatildi. To‘g‘ri, tahlil qilish metodologik yondashuv hisoblanadi. Lekin, faqat shu bilan tahlilning vazifasini cheklash mumkin emas. Bizningcha, tahlil qilish sportchi talabalarning o‘z shaxsiy tajribasiga, egallagan bilim-ko‘nikma-malakasiga tayanib hamda mavjud vaziyat holatidan kelib chiqib, faoliyatini oqilona tashkil qilishidir. Zero, jismoniy tarbiya va sport sohasidagi yuqori malakali mutaxassis o‘z kasb darajasini muntazam oshirib borishi kerak. Buning uchun u ilmiy-usuliy ish olib borish malakasiga ega bo‘lishi, tadqiqot vazifalarini oldinga qo‘yishni bilishi, tegishli tadqiqot usullari hamda uslublarini tanlay olishi, olingan ma’lumotlarni tahlil qila olishi lozim. Bu uning professsional ish uslubini ko‘rsatadi. Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida tahlil qilish individul xususiyatga ega bo‘lib, u quyidagi tarkibiy elementlardan tashkil topadi:

–kuzatish. Har qanday tahlil jarayoni kuzatishdan boshlanadi. Kuzatish asosida, birinchi navbatda, bajarilayotgan jismoniy mashqlar, texnik-taktik harakatlar, yo‘l qo‘yilayotgan xato va kamchiliklar baholanadi. Kuzatish bilvosita ham bo‘lishi mumkin, ya’ni maxsus asbob-uskunalardan foydalaniladi;

–qiyoslash. Bunda sport mutaxassisi kuzatish asosida olingan natijalarni va o‘zining shaxsiy tajribaviy yondashuvini o‘zaro solishtirgan holda qiyoslaydi. Farqlarni topishga intiladi;

–umumlashtirish. Kuzatish va qiyoslash natijasida to‘plangan ma’lumotlar barchasi umumlashtirilib jamlanadi. Ushbu jarayon fikriy va amaliy vositalar bilan amalga oshiriladi;

–xulosa chiqarish. Har qanday tahlil qilishning oxiri yangi xulosaga kelish bilan yakunlanadi. Xulosa tahlilning natijasidir. Xususan, sportchi talabalar o‘zlarining sport faoliyatlari davomida tahlilsiz samaradorlikka erisha olmaydilar.

Sportchi talabalar tahlil qilishda quyidagi prinsiplarga amal qilsa, uning natijadorligi oshadi:

–mantiqiylik. Tahlil qilish jarayonida mantiqiy amallarga tayanish lozim. Zero, mantiqiylik tahlilning to‘g‘riligini ta’minlaydi. Mantiqiylikning buzilishi esa yakuniy natijaning salbiy sifatiga ta’sir o‘tkazadi;

–izchillik. Har bir sport mutaxassisi o‘z faoliyatida tahlilni izchillik bilan amalga oshirib borishi kerak. Sababi, izchillik davomiy xususiyatga ega bo‘lib, u tahlilda muhim o‘rinni egallaydi;

–oqilonalik. Bu tamoyil tahlilning ratsional o‘tkazilishiga olib keladi. Bu sportchi talabalar uchun juda muhim prinsip. Chunki oqilonalik turli emotsional his-kechinmalarga chalg‘imaslik vazifasini bajaradi;

–metodologik. Tahlil bir vaqtning o‘zida ham tafakkuriy amal va metoddir. Metod sifatida tahlil har bir mutaxassis faoliyatini tartibga soladi.

Xulosa qilib aytganda, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining fikrlash tarzi mustaqil, ijodiy va unumli fikrlash qobiliyati orqali yuzaga chiqadigan faoliyatdir. Bu shuni anglatadiki, ijodiy tafakkurga tayanib, kuchli fikrlash operatsiyalarini o‘tkazib hosil qilingan jismoniy faoliyat jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining haqiqiy fikrlash tarzini tashkil etadi.

Qo‘ldasheva Maxmuda Nurmatjonovna (Namangan davlat universiteti Boshlang‘ich ta’limda aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi kafedrasi katta o‘qituvchisi (PhD); e-mail-kuldasheva80@bk.ru)

DARS JARAYONIDA UNIVERSAL KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH TALABALARNING BILIMGA QIZIQISHINI RIVOJLANTIRISH VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. *Mazkur maqolada mamlakatimizda ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarishda muhim bo‘lgan masalalar ko‘rilgan. Shiningdek, jahon standarti doirasida oliy ta’lim tizimida universal kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar hamda fikr-mulohazalar yoritilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассмотрены вопросы, имеющие важное значение для определения приоритетных направлений системной реформы образования в нашей стране, поднятия духовно-нравственного и интеллектуального развития подрастающего поколения на качественно*

новый уровень. Также освещены рекомендации и отзывы по формированию и развитию универсальной компетенции в системе высшего образования в рамках мирового стандарта.

Annotation. *In this article, the issues that are important in establishing priorities for the systematic reform of education in our country, raising the spiritual, moral and intellectual development of the growing younger generation to a qualitatively new level were considered. As well as recommendations and feedback on the formation and development of universal competence in the system of higher education within the framework of the world standard are covered.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim, ilm-fan, universal ta’lim, kompetensiya, universal kompetensiya, innovatsiya, savodxonlik, milliy qadriyat.*

Ключевые слова: *образование, наука, универсальное образование, компетентность, универсальная компетентность, инновации, грамотность, национальная ценность.*

Key words: *education, science, universal education, competence, universal competence, innovation, literacy, national value.*

Mamlakatimizda ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish, shuningdek, ularni ilm-fan sirlarini puxta egallashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda.

Hozirgi davr talablaridan kelib chiqib, oliy ta’lim tizimida talabalarda universal (umumjahon) kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor vazifalardan biri. Universal kompetensiya bu har bir inson shaxsiy rivojlanishi va o‘zini namoyon qilishi, muvaffaqiyat qozonishi uchun zarur bo‘lgan kompetensiya hisoblanadi.[1]

Yuqoridagi fikrlar asosida iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani misolida ko‘rib chiqiladigan bo‘lsa, fanning birinchi tarkibiy qismi iqtisodiy geografiya hisoblanadi. Ushbu fan ishlab chiqaruvchi kuchlarning hududiy (fazoviy) tashkil etilishi, hududiy – sanoat va tarmoqlararo komplekslarning shakllanishi va rivojlanishining shakllari va xususiyatlarini o‘rganadi. U tabiiy resurslarning hududiy kombinatsiyalarini, odamlar hayotini va ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil yetish shakllarini, birinchi navbatda, mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish nuqtayi nazaridan o‘rganadi. Iqtisodiy rayonlashtirish metodologiyasi va amaliyoti, iqtisodiy sohalar va energiya ishlab chiqarish sikllari doktrinasi xalqaro miqyosda tan olindi. Iqtisodiy geografiyaning bir qismi sifatida sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, qurilish va boshqalar geografiyasi. muvaffaqiyatli rivojlanmoqda. Ushbu tushunchalarni talabalarda shakllantirishda ta’lim tizimida universal kompetensiyani shakllantirish orqali talabalarda:

–mehnat bozorida, ijtimoiy inkluziy va faol fuqarolikni shakllantirish;

–ular butun umri davomida uzluksiz ta’lim jarayonida rivojlanishi;

– kundalik hayot, shu jumladan, rasmiy, norasmiy ta’lim va o‘z-o‘zidan 2 ta yo‘nalishda shakllanish ro‘y beradi.[2]

Yuqoridagi barcha universal kompetensiyalar bir xil darajada qimmatli. Ularning har biri insonning jamiyatdagi to‘laqonli va muvaffaqiyatli hayotiga hissa qo‘shadi. Kompetensiyalar turli xil kontekst (bog‘lanish, muloqot)larda va kombinatsiyalarda qo‘llanilishi mumkin, ular ma’lum bir muammoni hal qilishda bir-biriga mos keladi va birlashadi.

Biz dastlabki ikkita qadamni bajarganimizda, umumiy yondashuvga kiritilmagan muhim tushunchalar bilan shug‘ullanishga harakat qildik: muammolarni hal qilish qobiliyati, qaror qabul qilish va o‘rganish qobiliyati. Ularni maxsus kompetensiya turlariga ajratish kerakmi? Bizning javob: yo‘q.

Ikkinchi va uchinchi bosqichlarni boshlash uchun siz kompetensiyaning ishchi ta’rifini berishingiz kerak (“XXI asr”ni aniqlamasdan), uni savodxonlikdan ajratib qo‘yishingiz kerak. Ko‘pincha, kasbiy kompetensiyalarni (ish uchun zarur) va kundalik hayot uchun kengroq kompetensiyalarni baham ko‘rish muhim.

Pedagogika nuqtayi nazaridan, bunday farq muhim emas. Kompetensiyalar bilim, ko‘nikma va faoliyat munosabatlarini qamrab oladi. Shuning uchun ushbu atamalarni bir-birining o‘rnida ko‘rib chiqishda kompetensiya (malaka) va vakolat o‘rtasida farq qilmaymiz

Ko‘plab kompetensiya tushunchalari ishlab chiqilgan. Ularda uchta asosiylari ajratilgan:

–yondashuv: xulq-atvor (faoliyatga e’tibor);

[1] М.С.Добряковой, И.Д.Фрумина. Универсальные компетентности и новая грамотность: от лозунгов к реальности. Издательский дом Высшей школы экономики, Москва, 2020.

[2]Komilova N., Jumaxonov Sh. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi. Darslik, “Universitet”, 2020, 46-bet.

– umumiy (faoliyatdagi farqlarni tushuntirish uchun umumiy qobiliyatlarga e'tibor);

– kognitiv (diqqat natijaga erishish uchun aqliy resurslar. Ammo nuqtayi nazarga ko'ra, turli xil tushunchalar va ta'riflarni aniqlash mumkin bo'lgan umumiy fikrga ko'ra, kompetensiya – bu ma'lum bir natijaga erishish orqali tegishli bilim va ko'nikmalar bo'yicha ma'lum bir tarzda harakat qilish qobiliyati tushuniladi. Shuningdek, jahon ta'lim tizimida global o'lchash va baholash tizimi mavjud.

Bunda kompetensiyalar global vakolatlari doirasini tashkil etuvchi o'qituvchilar va talabalarning ish amaliyotini jiddiy ravishda o'zgartirishga qodir oltita component ajratilgan. Bunda nafaqat niyatni ifoda etish, balki kuzatilgan jihatlarga tayanish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari, XXI asrning o'zgaruvchan mehnat bozori uchun kompetensiyalarda asosiy ko'nikmalar, o'z-o'zini tashkil qilish va jamoada ishlash qobiliyatlari aniqlanadi.

Ular qobiliyatlarni quyidagicha taklif qilishadi:

– muloqot qilish;

– axborotni boshqarish;

– raqamlardan foydalanish;

– muammolarni o'ylash va hal qilish;

– ijobiy munosabat va xatti-harakatlarni namoyish etish;

– javobgar bo'lish;

– moslashish osonligi;

– doimiy o'rganish;

– xavfsiz ishlash;

– boshqalar bilan ishlash;

– loyihalar va topshiriqlarda ishtirok etish va boshqalar.

Universal kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta'limda talabalardagi asosiy g'oyalarga ham e'tibor qaratilishi kerak. Ya'ni, "har tomonlama rivojlangan inson" va ta'limdan uzoqlashgan shaxsiyatni qo'llab-quvvatlash uchun hamma uchun bir xil munosabat.

Universal kompetensiyalar modeli quyidagilarga qaratilgan bo'ladi:

–ijtimoiy mas'uliyat hissini rag'batlantirish;


–talabalarning innovatsionligi va amaliy ko'nikmalari;

–universal kompetensiyalar birlashtiriladi;

–ta'lim muassasasidagi asosiy fan kurslarida norasmiy ta'lim qo'llab-quvvatlanadi;

Universal ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun kompetensiyalar o'quv dasturi va rejasini o'zgartirishi mumkin;

–talabalarni baholash nafaqat ular erishgan natijalarni o'z ichiga oladi, balki akademik natijalar, shuningdek, jismoniy xususiyatlar va ruhiy salomatlik, ijtimoiy xulq-atvor va boshqalar hisobga olinadi (1-rasm).



1-rasm. Talabalarning universal kompetensiyalari doirasi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda universal (umumjahon) kompetensiyalarni shakllantirish bu qanday har qanday vaziyatda hamma uchun umumiy bo'lgan hal qilinmagan muammolarni amaliyotchilar bilan ular ustida ishlash va o'rganish kerak bo'lgan yangilanish muvaffaqiyatini ba-

holashning obyektiv ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish zarur. Universal elementlarning individual elementlarini diagnostika qilish va baholash shaklida kognitiv va turli xil nazariyalarga asoslangan kompetensiyalar orqali rivojlantirish samarali natija hisoblanadi.

Ismoilova Gulbaxor Azamovna (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi dotsenti v.b.),
Muxammedova Mohichexra Baxodir qizi (Qo‘qon davlat Pedagogika instituti Xorijiy tillar fakulteti talabasi)

TADQIQOT QILISH USULI EKOLOGIK MADANIYATNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARIDAN BIRI SIFATIDA

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning ekologik madaniyatini yuksaltirishda O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha berilgan bilimlar ularning tarixiy va ekologik ongini boyitishga xizmat qilishi haqida so‘z yuritilgan.*

Аннотация. *В статье речь идёт о том, что данные знания по новейшей истории Узбекистана служат обогащению историко-экологического сознания учащихся в повышении экологической культуры учащихся.*

Annotation. *In the article, it is spoken about that the knowledge given on the latest history of Uzbekistan serves to enrich the historical and ecological consciousness of students in improving the ecological culture of students.*

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘qitish texnologiyalari, internet tizimi, ekologiya, madaniyat, ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali yo‘llari.*

Ключевые слова: *современные технологии обучения, интернет-система, «экология», «культура», эффективные способы воспитания экологической культуры.*

Key words: *modern teaching technologies, internet system, ecology, culture, effective ways of developing ecological culture.*

Bugun fan va texnika sohasidagi yangiliklarni o‘quv dasturlari mazmuniga tez moslashtirish talab etiladi, bu orqali zamonaviy bilimlarni shakllantirishga zamin hozirlanadi. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining o‘qitilishida, ayniqsa, oliy ta’limda ta’lim oluvchilarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda taraqqiyot natijasida qo‘lga kiritilayotgan fan-texnika yutuqlaridan ijodiy foydalanish zamon talabi bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, hozirgi davr talabalari ijtimoiy tarmoqlar orqali so‘nggi axborotlardan, hatto dars beruvchi professor-o‘qituvchilardan oldinroq ham xabardor bo‘lmoqda. Bu holat ta’lim beruvchidan internet tarmog‘i orqali kunlik yangiliklarni muntazam ravishda kuzatib borish mas’uliyatini yuklamoqda. Chunki ta’lim beruvchini davrning so‘nggi yangiliklaridan bexabarligi ta’lim oluvchining uning faniga qiziqishini susayishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, zamonaviy o‘qitish texnologiyalari shu qadar rang-barang ko‘rinishga kelmoqda. Bunga mutanosib ravishda ta’lim beruvchida ulardan foydalanish uchun tanlov imkoniyatlari ortib bormoqda. Davrning o‘zi professor-o‘qituvchilarning ishlarini yengillashtirishga xizmat qilmoqda.

Talabalarning ekologik madaniyatini yuksaltirishda O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha berilgan bilimlar ularning tarixiy va ekologik ongini boyitishga xizmat qiladi. Ta’lim beruvchi professor-o‘qituvchi talabalarga tarixning ekologiyaga oid materiallarini yetkazishda avvaldan darsning loyihalashtirilishiga jiddiy e’tibor qaratishi zarur. Chunki pedagog dars davomida o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga samarali erishishi pedagogikaning muhim talablaridan biridir. Buning uchun ekologiya va madaniyat tushunchalarining asl mohiyatini ochib berish, so‘ng mazkur tushunchalarning xalqlar hayotida tutgan o‘rniga diqqatni qaratish lozim.

Oliy ta’lim talabalari bevosita qatnashadigan xilma-xil ijtimoiy munosabatlar ularning dunyoqarashi va ma’naviyati yuksalib, boyib borishiga olib keladi.[1] Ijtimoiy munosabatlar inson hayoti davomida jamiyat a’zolari bilan o‘zaro aloqalarga kirishuvida aks etib, unda yangi qarashlar, tahlil va xulosalarni yaratadi. Falsafiy zaminda shakllangan fikr-mulohazalar voqelikni to‘g‘ri tasavvur etish, aniq xulosalar chiqarish, jumladan, atrof-muhit haqida pragmatik malaka va ko‘nikmalarni yuzaga keltiradi.

Pedagogik ta’limda tadqiqot qilish usuli ekologik madaniyatni rivojlantirishning samarali yo‘llaridan biridir. Shu bois konferensiyalar, seminar-treninglar va turli uchrashuvlarda talabalarga maqola va tezislar tayyorlash va o‘z ijodiy ishlarini taqdim etish imkonini berish lozim.

[1] Азимова С.Т. Талабаларда экологик маданиятни шакллантиришнинг муҳим хусусиятлари. “Замонавий таълим”, 2014, 11-сон, 34-бет.

Tadqiqot O‘zbekiston tarixi fanining o‘quv kursi mavzulari ichiga kiritilmagan muammolar bo‘yicha tashkil etilishi ayni muddaodir. Zero, talabalarga berilgan kurs ishlari va bitiruv malakaviy ishlari tariximizning uncha yaxshi o‘rganilmagan tomonlarini o‘rganishga yo‘l ochib beradi. Bunda professor-o‘qituvchilar tomonidan talabalarga ekologik madaniyatni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mavzular taqdim etilishi talab etiladi. Ekologiya haqidagi ma’lumotlar talabalarning tasavvurlarini kengaytiradi. O‘zbekiston tarixida ekologik madaniyatga aloqador mavzular qadim tariximizdan boshlanadi. Xususan, o‘zbek xalqi qadimdan ekologiyani asrashga e’tibor qaratib kelgan. Oilada farzand tarbiyalashda ekologik tarbiya hadislar, hikmatli so‘zlar orqali yosh avlodga singdirib borilgan. Bizni o‘rab turgan olam, uning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanib rivojlanib boruvchi tushuncha va nazariy qarashlar bizning eng qadimiy yozma manbamiz “Avesto”da hamda Sparq Uyg‘onish davrida yashab ijod etgan mutafakkirlarimizning asarlarida o‘z ifodasini topgan. Mutafakkirlarning ekologiya haqidagi qarashlarini o‘rganish ham O‘zbekiston tarixiga oid bilimlarning boyishiga xizmat qiladi.

O‘zbekiston xalqlari tarixida tabiiy atrof-muhitni muhofaza qilish hamda bizni o‘rab turgan borliqni avaylab-asrashga da’vat qiluvchi misollar ham istagancha topiladi. G‘arbdan farqli ravishda, SHarq mutafakkirlarining asarlarida halollik, poklik, atrof-muhitning tozaligi va tabiatni sevish xislatlariga ahamiyat berilgan.[1] Qadimgi tariximizga nazar tashlasak, bunday g‘oya va qarashlar zardushtiylik dinidan bizga ma’lumdir. Zardushtiylik diniga binoan har bir zardushtiy kuniga besh marta yuvinib, poklanib, quyoshga qarab, uni olqishlab, sig‘inishi shart bo‘lgan. Bu an’ana besh vaqt namoz shaklida islomga zardushtiylikdan o‘tgan.[2] Zardushtiylik dinida to‘rt unsur muqaddas hisoblanib, “Avesto”da yerdan unumli foydalanish, uni ifloslanishdan saqlash haqidagi qoidalar, ularga rioya qilmaslikning huquqiy oqibatlariga alohida o‘rin ajratilgan. Shuningdek, qushlar, hayvonlar hamda parrandalar orqali turli kasalliklarning tarqalishi va ularning zarari qayd etilgan. «Avesto»da kasallik tarqatadigan hayvon va hasharotlarni yo‘qotishga da’vat etilgani holda, uy hayvonlarini ehtiyot qilishga murojaat etiladi. Jumladan, «Inson butun umri davomida suv, tuproq, olov, umuman, dunyodagi jamiki yaxshi narsalarni pok va bus-butun asrashga burchlidir», degan namuna diqqatga sazovordir. Atrof-muhit masalasiga qiziqish, unga nisbatan mas’uliyatli munosabatda bo‘lish masalasi Markaziy Osiyo mutafakkirlari va boshqa allomalarning tabiiy-ilmiy asarlarining bosh g‘oyasi bo‘lgan. Atrof tabiiy muhitni asrash g‘oyalari Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy singari mutafakkirlarning badiiy va ilmiy ijodidan keng o‘rin egallagan. Ularning ma’naviy merosida tirik mavjudot bilan birga, o‘simlik dunyosi, yer, suv, havo singari unsurlarni ham ehtiyotlash g‘oyalari aks etadi. Mazkur g‘oya va qarashlar talabalarning ekologik madaniyatini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadi.

Talabalar ekologik madaniyat tushunchasi to‘g‘risida chuqur tasavvurlarga ega emasliklari tadqiqotlarimiz davomida ko‘zga tashlandi. Tajribalar davomida vaziyatning asl sabablarini o‘rganishga harakat qilindi. Oliy ta’lim tizimidagi o‘quv rejalari, fan dasturlari, talabalar bilan o‘tkazilgan muloqotlar mazkur muammo yuzasidan xulosalar chiqarishga yordam berdi. Bizningcha, O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining o‘qitilishida quyidagi bir qator jihatlarni e’tiborga olish oliy ta’lim oluvchilarning ekologik madaniyati rivojlanishiga katta yordam beradi:

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini o‘qitilishida talabalar ongida o‘tmishda ekologiyaga taalluqli tushuncha va qarashlar haqidagi ma’lumotlarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish.

Insoniyatning tabiiy atrof-muhitga nisbatan ta’sirining kuchayib borayotganligi evaziga ekologik mummolarni kelib chiqishiga qarshi kurashish, bunday muammolar kelib chiqishining oldini olish choralarini ko‘rish hozirgi davrda har bir davlatning oldiga katta vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda ta’limda o‘qitilayotgan fanlar tizimida ekologik muammolar bilan tanishtirishdan tashqari, ularning oldini olish uchun inson faoliyatini qanday asosda yo‘lga qo‘yish kerakligi xususida ma’lumotlar berilishi davlatning vazifalarini birmuncha yengillashtiradi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining o‘qitilishida o‘rganilayotgan davrdagi siyosiy vaziyat bilan birga, aholining tabiiy atrof-muhit bilan aloqadorligiga oid bilimlarni berish maqsadga muvofiqdir. Bunda O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanini boshqa tabiiy va gumanitar fanlar bilan aloqadorligidan foydalanish yaxshi samara beradi.

2. Oliy ta’lim muassasasida tashkil etiladigan ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlar rejasida ekologiya bo‘yicha tadbirlarni tashkil etish masalasiga jiddiy e’tibor berish.

Oliy ta’limning ma’naviyat va ma’rifat bo‘limlari tomonidan o‘tkaziladigan tadbirlar, darslar, uchrashuvlar tarkibiga talabalar ekologik madaniyatining yuksalishiga xizmat qiluvchi mavzularning kiritili-

[1] Shu manba.
[2] Сулаймонова Ф. Шарқ ва Ғарб. Т., “Ўзбекистон”, 1997, 28-бет.

shi bajariladigan vazifalarni yengillashuvini ta’minlaydi. Buning uchun o‘tmish madaniy merosidan “Avesto”, Turk bitiklari, “Devonu lug‘otit turk”, “Siyosatnoma”, “Temur tuzuklari”, “Boburnoma” kabi manbalarga murojaat qilgan holda, ulardagi atrof tabiiy muhitni avaylab-asrashga bog‘liq jihatlarni ijodiy ravishda o‘rganishni tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

3. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fani o‘qituvchilarining ekologiyaga doir nazariy bilimlarini yuksaltirish orqali ularning ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarining sifat va samaradorligini oshirish.

4. Talabalarning ekologik madaniyatini yuksaltirishga yo‘naltirilgan tashkiliy-uslubiy, ma’naviy axloqiy va madaniy tadbirlarda faol ishtirok etishini ta’minlash.

5. Ekologik madaniyatni yuksaltirish uchun O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqadorlik tomonlaridan foydalagan holda, ekologik ta’limni yo‘lga qo‘yish.

6. Ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari va elektron ta’lim resurslari imkoniyatlaridan foydalanishni kengaytirish.

XX asr axborot kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davr bo‘lib, uning vositalari yil sayin optimallashib, raqamli texnologiyalarning imkoniyatlari esa borgan sari oshib bormoqda. Hozirgi kun yoshlarini loqaydlik va voqelikka nisbatan befarqlik kabi xulq-atvori uchun ayblashdan ko‘ra ularning qiziqish doirasini hamda bunday salbiy holatlarning kelib chiqish sabablarini aniqlash choralarini ko‘rish ahamiyatlidir. Bugungi kun yoshlari ijtimoiy tarmoqlar vositalaridan foydalanishni yaxshi o‘zlashtirgan. Ularni qiziqish doirasi va ma’naviy ehtiyojlarini internet yordamida qondirish mumkin bo‘lmoqda. Aynan shuning uchun ular jamiyatda qaror topgan ma’naviy-axloqiy me’yorlarga amal qilish chegaralaridan uzoqlashib ketmoqda. Buning oldini olish uchun yoshlarni qiziqtirayotgan saytlarda ekologik madaniyatni yuksaltirishga mo‘ljallangan fayllar, suratlar, gif va videoko‘rinishidagi ma’lumotlarni joylashtirish mexanizmlarini yaratish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish zarur deb o‘ylaymiz. Spuningdek, Moodle, Hemis dasturlari asosida ishlovchi ta’lim saytlarining estetik bezatilishida ham bu masalalar inobatga olinishi kerak.

Abdullayeva Nafisa Anvarovna (ADU o‘qituvchisi: n.a.abdullayeva@mail.ru)

O‘RTA MAKTABNING BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA MATEMATIKA KURSLARIDA O‘QUVCHILARDA GEOMETRIK TASAVVURLARNI TARKIB TOPTIRISHDA UZVIYLIK

Annotatsiya. *Maqolada boshlang‘ich matematika kursida va yuqori sinf matematika kurslarida o‘quvchilarda geometrik tasavvurlarni tarkib toptirishda uzviylikni amalga oshirish usullari yoritilgan. Boshlang‘ich sinflarda olingan bilimlarning mukammalligi yuqori sinf o‘quvchilarning bilim samaradorligini rivojlantirishni maksimal darajasini kafolatlashi haqida so‘z yoritilgan.*

Аннотация. *В статье освещены способы реализации когерентности в композиции геометрических представлений учащихся на курсах начальной математики и курсах математики средней школы. Объясняется, что совершенство знаний, полученных в начальных классах, гарантирует максимальный уровень развития эффективности знаний старшеклассников..*

Annotation. *In the article, the methods of implementation of coherence in the composition of geometric imaginations of students in elementary mathematics courses and high school mathematics courses are highlighted. It is explained that the perfection of the knowledge acquired in the primary classes guarantees the maximum level of the development of the knowledge efficiency of the students of the upper class.*

Kalit so‘zlar: *geometrik materiallar, deduksiya, aksiomalar tizimi, fazoviy tasavvurlar, mantiqiy tafakkur, matematik nutq, geometrik figuralar, mantiqiy fikrlash, geometrik yasashlar, tizimlashtirish, umumlashtirish.*

Ключевые слова: *геометрические материалы, дедукция, система аксиом, пространственные представления, логическое мышление, математический дискурс, геометрические фигуры, логическое мышление, геометрические построения, систематизация, обобщение.*

Key words: *geometric materials, deduction, system of axioms, spatial representations, logical thinking, mathematical discourse, geometric figures, logical thinking, geometric constructions, systematization, generalization.*

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, boshlang‘ich ta’lim nihoyasida o‘quvchilar matematikadan egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarining minimal darajasi belgilab berilgan. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturida har bir o‘quv yili ohirida matematika-

dan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan talablar, 4-sinflarda esa 5-sinf matematika kursi bilan uzviylikni ta’minlash uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari darajasi belgilab berilgan.

Ma’lumki, bugungi kunda uzluksiz ta’lim tizimida boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning tarkibiy qismi bo‘lib hisoblanadi. 1–4-sinflarda o‘rganilishi lozim bo‘lgan geometrik materiallar, shuningdek, geometriya tizimli kursini o‘rganish uchun asos yaratishi lozim bo‘lganligidan, uning mazmuni umumta’lim maqsadlar amalga oshirish bilan bir qatorda, yuqori sinflarda o‘quvchilar tomonidan geometrik materialni ongli va puxta o‘zlashtirish uchun zaruriy shart-sharoit yaratadigan geometrik tasavvurlar zahirasini hosil qilishga ularning fazoviy tasavvurlarini tarkib toptirish va rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgandir.

Boshlang‘ich sinflar uchun davlat ta’lim standarti talabiga asosan, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar tevarak-atrofdagi geometrik shakllarni tanish, topa olish ko‘nikma va malakalarini egallashlari talab etiladi. Demak, o‘quvchilar atrof-muhitda geometrik figuralarni tanishga doir mashqlar bilan bir qatorda, murakkab geometrik figuralarda tanish figuralarni topishga doir mashqlar, umumiy elementga ega bo‘lgan figuralarni izlashga doir mashqlar va murakkab geometrik figuralarda bir nechta figuralarning umumiy qismidan iborat bo‘lgan figuralarni topishga doir mashqlar beriladi.[1]

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda burchak to‘g‘risida tasavvurni tarkib toptirishning murakkabligi sababi shundan iboratki, ular birinchi marta chegaralanmagan figurani o‘rganishga kirishadilar. Chegaralanmagan figuralar haqida o‘quvchilarda tasavvur hosil qilish o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, uni faqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagina emas, balki 5-sinf o‘quvchilarida tarkib toptirish ham murakkab jarayondir.

5-sinflarda geometrik materialni o‘rgatishning maqsadi o‘quvchilarda asosiy geometrik tushunchalarni va chizg‘ich, chizma uchburchagi va transportir yordamida geometrik yasashlarning dastlabki malakalarini tarkib toptirishdan iboratdir. Ushbu materiallarni yoritish o‘quvchilarning yosh va psixologik rivojlanishiga mos kelishi muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bu yoshdagi o‘quvchilarda aniq geometrik tasavvurlar zahirasi shakllangan bo‘lib, uni, o‘z navbatida, tizimlashtirish va umumlashtirish talab etiladi. Shuning uchun ham 5-sinfda geometrik materialni o‘rganishda o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflardan quyidagi geometrik figuralar: nuqta, to‘g‘ri chiziq, kesma, egri chiziq, siniq chiziq, siniq chiziq uzunligi, ko‘pburchaklar, aylana, doira, markaz, radius, diametr haqida tasavvurga ega ekanligini hisobga olishga to‘g‘ri keladi.

5–6-sinflarda geometrik materialni o‘rganishda o‘quvchilarda “geometrik figura” tushunchasi haqida tasavvur qilish muhim rol o‘ynaydi. Bu tushunchaning rasmiy – mantiqiy ta’rifi berilmaydi, balki o‘quvchilarning tajribalariga tayangan holda abstraksiyadan foydalanib, tasavvur hosil qilinadi. Geometrik figura tushunchasi tekis figuralar uchungina emas, balki fazoviy figuralar uchun ham qo‘llaniladi. Shuning uchun ham 5-sinflar darsliklarida “geometrik jism” termini qo‘llanilmaydi.

5–6-sinflar matematika kursida geometrik materialni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan geometrik asoslar hajmini ortishi emas, balki ularni chuqurlashtirish, aniqlashtirish va boyitishdan iboratligidadir. Bu sinfda boshlang‘ich sinflarda tarkib toptirilgan geometrik figuralar va ularning xossalari haqida tasavvurlar aniqlashtiriladi va chuqurlashtiriladi. Yangi geometrik figuralar o‘rganilishi bilan bir qatorda, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarda tarkib toptirilgan geometrik figuralar haqidagi tasavvurlar kengaytiriladi. [2]

5–6-sinflarda geometrik materialni o‘rganish sof geometrik vazifasiyani bajarishi bilan xarakterlanib, bu sinflarda geometrik materialga didaktik vosita sifatida qaralmaydi. Bu sinflarda geometriyadan o‘quv materiallari, imkoni boricha, darsda o‘quvchilarga yangi ma’lumot berish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilar tomonidan o‘rganilgan geometrik materiallar tizimlashtirilib, ushbu materialni o‘rganish jarayoni yangi, yuqoriroq bosqichda amalga oshiriladi. Masalan, 5-sinfda kesma tushunchasini o‘rganishdan kuzatilgan asosiy maqsad o‘quvchilarda boshlang‘ich sinflarda kesma haqida hosil qilingan tasavvurlarga tayangan holda ularga kesma va kesma uzunligi tushunchalari o‘rtasidagi


[1] Abdullayeva Nafisa Anvarovna Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga geometriya elementlarini integratsion yondashuv asosida o‘rgatish. Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2|issn: 2181-3337 1760-1766b.

[2] Абдуллаева А.Н. Основы развития продуктивного мышления учащихся. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого. Ленинградский государственный университет имени АС Пушкина. Том 12, № 1, 2014, с. 326 – 327.

farqni ko‘rsatib berishdan iboratdir. Bunda o‘quvchilarning e’tibori kesma – geometrik figura ekanligi, kesmaning uzunligi esa miqdor ekanligiga qaraladi. Xuddi shu bo‘limda o‘quvchilar kesma va siniq chiziqning yangi hossasi haqida ma’lumotga, ya’ni, siniq chiziqning yangi xossasi haqida ma’lumotga, ya’ni siniq chiziq uchlarini tutashtiruvchi kesma siniq chiziq uzunligidan kichik ekanligi bilan tanishadilar.


Masalan:

1. 3-sinf matematika darsligidagi 45-bet 229-masalani ko‘rib chiqaylik.[1] Masala sharti quyidagicha: 1-rasmda tasvirlangan nuqta, kesma va burchaklarni ayting.




1-rasm.

2. 4-sinf matematika darsligidagi 8-bet 32-masalani ko‘rib chiqaylik. Masala sharti quyidagicha: 2-rasmda ko‘rsatilgan nuqtalar, kesmalar va boshqa shakllarning nomini aytib bering.



2-rasm.

3. 5-sinf matematika darsligidagi 21-bet 65-masalani ko‘rib chiqaylik. Masala sharti quyidagicha: 3-rasmda tasvirlangan hamma kesmalarni, to‘g‘ri chiziq va nurlarni yozing.



3-rasm.

Sinflar bo‘yicha ko‘rilgan masalalar geometrik materialni bir-biriga qay darajada bog‘liqligini amaliy isbotlaydi. Geometrik material bosqichma-bosqich oldingi bilimlarga asoslangan holda rivojlanib boradi. Boshlang‘ich sinflarda olingan bilimlarning mukammalligi yuqori sinf o‘quvchilarning bilim sa-maradorligini rivojlantirishni maksimal darajasini kafolatlaydi.[2]

5-sinflarda geometrik materialni bayon qilish ko‘proq induktiv (xususiydan umumiyga qarab borish) xarakterga ega bo‘lib, sekin-asta deduktiv xarakterga o‘tiladi. Dastur talabi bo‘yicha o‘rganiladigan geometrik asoslar ko‘rgazmali asosda tajriba orqali asoslanishi talab etiladi.

5–6-sinfda geometrik materialni o‘rganish o‘quvchilarning boshlang‘ich sinf matematika kursida olgan asosiy bilimlari va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda amalga oshirilib, bunda induktiv holda umumlashtirish muhim rol o‘ynaydi.

Xuddi mana shu induktiv umumlashtirish jarayonida o‘quvchilarda o‘rganilayotgan asoslarni aksiomatik asoslashga ehtiyoj tug‘iladi. Bu esa o‘quvchilar tomonidan 7-sinfda aksiomalar tizimini ongli o‘rganish asos yaratadi. Masalan, biz yuqorida ko‘rsatib o‘tgan materiallar (tekislikning ikkita turli nuqtasi orqali to‘g‘ri chiziq o‘tkazish mumkin va h.k.), 7-sinfdan boshlab geometriya tizimli kursida to‘g‘ri chiziq cheksiz ko‘p nuqtalarga ega ekan, tartib, uzluksizlik aksiomasini o‘quvchilar tomonidan ongli o‘zlashtirishlik uchun asos yaratadi.

---

[1] Bikbayeva N.U., Yangibayeva E., Matematika 3-sinfi uchun darslik. Toshkent, “O‘qituvchi”, 2018.

[2] Abdulalayeva Nafisa. Fundamentals of development of learners’ productive thinking. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого. «Ленинградский государственный университет имени А.С.Пушкина». Том, 12, № 1 (eng), 2014, с. 293 – 294

Demak, amaldagi davlat ta’lim standartini talablarga binoan, boshlang‘ich sinflar matematika kursida o‘rganiladigan geometrik material mazmuni va joylashuvi “geometrik rivojlanish jarayoni uzluksiz, ya’ni, tekis va xilma-xil bo‘lishi kerak” tamoyillariga mos kelishligini ko‘rsatadi, ya’ni boshlang‘ich sinflar bilan 5-sinfdagi geometrik materialni o‘rganishda tushirib qoldirish – harakatsizlik davriga yo‘l qo‘ymaslik, bir bosqichda ortiqcha yukka yo‘l qo‘ymaslik va fazoviy munosabatlarni o‘rganishda ko‘p tomonlama qarash juda muhimdir.

Davlat ta’lim standarti o‘quv dasturi hamda darsliklar tahlili 5-sinf matematika kursiga kiritilgan geometrik material o‘quvchilarning geometrik tasavvurlarini rivojlantirish vazifasini to‘la amalga oshirish uchun yetarlicha sharoit yaratmoqda deb aytishga asos bermaydi. Shuning uchun bu sinflar matematika kursiga kiritilgan geometrik material hajmi va mazmunini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Raximov Sarvar Ibragimovich (Urganch davlat universiteti
Texnika fakulteti Transport tizimlari kafedrasi o‘qituvchisi)

MA’NAVIY TARBIYA ORQALI PEDAGOGIK VA TEXNIK BILIMLARNI INTEGRATSIYALASH

Annotatsiya. *Maqolada yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni jamiyat hayoti bilan uyg‘unlashtirish, ma’naviy tarbiya orqali pedagogik va texnik bilimlarni integratsiyalash yo‘nalishidagi ishlarni yanada kuchaytirish, ta’lim-tarbiya jarayonida qulay pedagogik muhit yaratish borasida so‘z yuritiladi.*

Аннотация. *В статье говорится о повышении духовности молодежи, гармонизации ее с жизнью общества, усилении работы в направлении интеграции педагогических и технических знаний через духовно-просветительское образование, создании комфортной педагогической среды в ходе образовательного процесса.*

Annotation. *The article talks about raising the spirituality of young people, harmonizing them with the life of society, strengthening work in the directoin of integrating pedagogical and technical knowledge through spiritual education, and creating a camfortable pedagogical environment in the process of education.*

Kalit so‘zlar: *umummadaniy kompetensiya, ta’lim-tarbiya, barkamol shaxs, axloq, ijodkor, ma’naviyat, madaniyat.*

Ключевые слова*: общечеловеческая компетентность, образование, всесторонне развитая личность, этика, творчество, духовность, культура.*

Key words*: universal competence, education, well-rounded person, ethics, creativity, spirituality, culture.*

Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ularni jamiyat hayoti bilan integratsiyalash yo‘nalishidagi ishlarni yanada kuchaytirish taqozo qilinmoqda. Bugungi yoshlar mustaqil O‘zbekistonning haqiqiy fuqarolariga aylanishlari uchun ta’lim-tarbiya jarayonida qulay pedagogik muhit yaratilishi kerak. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy rivojlantirish, ular ongiga o‘zbek xalqining ko‘p asrlik madaniy boyliklarini singdirish ta’lim-tarbiya jarayonining kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalari sirasiga kiradi.

Texnik yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida pedagogik bilimlarni chuqur o‘rgatish, pedagogik va texnik bilimlar integratsiyasi asosida talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlash ushbu soha ta’lim tizimi oldiga qo‘yilgan vazifalardan biri bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy, madaniy jihatdan rivojlantirishni nazarda tutadi. Mamlakatning tarixiy rivojlanish davrida madaniyat millatning ma’naviy tajribasini saqlab, to‘plab va avlodlarga yetkazib kelganligi, xalqimizning birdamligini, vatanparvarlik va milliy g‘urur hissi tarbiyalaganligini e’tirof etgan holda, madaniyatning ustuvorligiga urg‘u berish, jamiyat hayoti sifatining yanada yuqori darajasini ta’minlash, unda fuqarolarning hamjihat bo‘lishiga erishish, ma’naviyatli, mas’uliyatli, mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni shakllantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori qabul qilindi.[1] Unga ko‘ra, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini yaratish va yoshlarda umummadaniy kompetensiyalarni shakllantirish masalasi ustuvor qilib qo‘yilgan. Zamonaviy ta’lim-tarbiya barkamol shaxs sifatida yuksak axloqqa ega bo‘lgan, ijodkor, zarur kom-

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlanttirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-sonli qarori.https://lex.uz

peteniyalarni egallagan, vatan va xalq taqdiriga daxldor, ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqining ma’naviy-madaniy boyliklari, asriy an’analarini o‘zlashtirgan shaxsni tarbiyalashni nazarda tutadi.

Yuksak axloqiy sifatlarga ega bo‘lgan, ijodkor, tashabbuskor, kompetentli O‘zbekiston fuqarosini tarbiyalash, uni pedagogik jihatdan uzluksiz qo‘llab-quvvatlash, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimiga tayanadi. Bu tizim:

– fidoyilik – o‘zbek xalqi va vataniga muhabbat, xalqqa xizmat qilish;

– ijtimoiy daxldorlik – shaxsiy va milliy mustaqillik, o‘zaro ishonch, davlat va fuqarolar manfaatlari yo‘lida xizmat qilish, haqgo‘ylik, rahmdillik, faxrlanish va yetuklik;

– fuqarolik – Vatanga xizmat qilish, huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati, huquq va qonunchilik asoslari, ko‘pmadaniyatlilik, vijdon erkinligi va e’tiqodlilik;

– oila – sevgi va ishonch, salomatlik, farovonlik, ota-onaga hurmat, kattalar va kichiklarga g‘amxo‘rlik, hayot davomiyligi haqida qayg‘urish;

– mehnat va ijod – mehnatsevarlik, ijodkorlik va yaratuvchilik, maqsadga intilish va qat’iyatlilik;

– fan – bilimni qadrlash, tabiiylikka intilish, olamning ilmiy manzarasi;

– diniy qadriyatlar – e’tiqod haqidagi tasavvurlar, ma’naviyatlilik, diniy dunyoqarash, tolerantlik hamda dinlararo muloqotning shakllanishi;

– san’at va adabiyot – go‘zallik, uyg‘unlik, insonning ma’naviy olami, axloqiy tanlov, estetik, axloqiy rivojlanish,

– tabiat – ona zamin, tabiatni asrab-avaylash, ekologikong;

– insoniylik – olam ichidagi olam, xalqlar va madaniyatlarning rang-barangligi, insoniyatning taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik kabilarni o‘z ichiga oladi.

Texnik bilimlar bilan ma’naviy tarbiyani integratsiyalash asosida talabalarni muhandislik faoliyatiga tayyorlash talabalarni insonparvarlik, hamkorlik, ko‘pchilik haqida g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalariga tayanadi. Bunda muayyan tarbiyaviy maqsadlar nazarda tutiladi:

1) talabalarning ma’naviy-axloqiy sog‘lomligini saqlash, ularni o‘zbek xalqining ma’naviy-axloqiy qadriyatlari bilan yaqindan tanishtirish;

2) o‘zbek xalqining madaniyati, tarixi, respublikamizning tabiiy-ekologik o‘ziga xosligini talabalar ongiga singdirish;

3) oilaviy tarbiyaning imkoniyatlarini kengaytirish.

Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayonida birqator vazifalarni hal qilishni ham nazarda tutish kerak:

– talabalarni ezgulik va yovuzlikni farqlash, ezgu amallarni bajarishga intilish hissini shakllantirish;

– talabalarning xatti-harakatlari va intilishlarida axloqsizlik, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlariga moyillik kuzatilganda unga qarshi kurashish metodlarini qo‘llash;

– o‘zbek xalqining milliy madaniy an’analarini qadriyatlarini o‘rgatish asosida talabalarda vatanga muhabbat, xalqparvarlik, ezgulikka intilish kabi sifatlarni shakllantirish;

– o‘zbek xalqining ko‘p asrlik oilaviy qadriyatlari negizida ota-onalarni bola tarbiyasiga oid pedagogik-psixologik bilimlar bilan qurollantirish.

Qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun dars jarayonida tashxislovchi, o‘quv-bilish, mehnat, estetik, ijtimoiy foydali, qadriyatlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan, badiiy-ijodiy, jismoniy sog‘lomlashtiruvchi faoliyat turlaridan foydalanish mumkin. Bunda bir qator tamoyillarga tayanish mumkin:

– talabalarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda, dialektik bilish va shaxsning shakllanishi qonuniyatlariga asoslanib, tarbiyaning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash tamoyili;

– tarbiyaning tabiiyligi va tabiatshunoslikka asoslanganligi prinsipi;

– pedagogning o‘quvchilarga ishonch bilan yondashishi tamoyili.

Tarbiyaviy faoliyat jarayoniga ta’lim muassasasi pedagogik jamoasining barcha a’zolari ishtirok etadilar. Ma’naviy-ahloqiy tarbiya yuksak qadriyatlar va ajdodlarimiz merosi negizida amalga oshadi. Shundan kelib chiqqan holda, ma’naviy-axloqiy tarbiyaning mazmuni quyidagilarni o‘zichiga olishi kerak:

– o‘z vatani va xulq-atvoriga nisbatan burch va mas’uliyat hissining paydo bo‘lishi;

– mehnat qilish ehtiyojining vujudga kelishi;

– atrofdagilarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish;

– tabiatga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish;

– qonunlarga itoat etish;

– oilaviy hayotga nisbatan ijtimoiy jihatdan ma’qullangan nuqtayi nazar va munosabatlarning shakllanishi;

– muloqot madaniyatiga oid kommunikativ ko‘nikmalarning shakllanganligi;
– o‘z-o‘zini anglash va tarbiyalash ehtiyojining vujudga kelganligi.

Tangriyev Alisher Jumanazarovich (O‘zDJTSU Ko‘pkurash sport turlari fakulteti dekani, padagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent; gmail: alishertangriyev2021@gmail.com)

14-15 YOSHLI ERKIN KURASHCHILARNING PSIXOFIZOLOGIK TAYYORGARLIK DINAMIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada yosh erkin kurashchilarning mashg‘ulot davomida jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari hamda psixofiziologik jarayonlari tadqiq etiladi. Yosh kurashchilarning psixofiziologik tayyorgarlik davrining umumtayyorlov bosqichida asosiy e’tibor 14–15 yoshli erkin kurashchilarning har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rishlariга hamda psixofiziologik holatlariga qaratiladi.*

Аннотация. *В данной статье изучены показатели физической подготовленности и психофизиологических процессов юных борцов вольного стиля в процессе тренировок. На общеподготовительном этапе психофизиологического периода подготовки юных борцов основное внимание уделяется показателям всесторонней общефизической подготовки и психофизиологическому состоянию борцов вольного стиля 14–15 лет.*

Annotation. *In this article, the indicators of physical fitness and psychophysiological processes of young freestyle wrestlers in the process of training have been studied. In the general preparation stage of the psychophysiological training period of young wrestlers, the main attention is paid to the general physical training and psychophysiological conditions of 14-15-year-old freestyle wrestlers.*

Kalit so‘zlar: *jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifat, psixologik holatlar, 14–15 yoshli kurashchilar, erkin kurash.*

Ключевые слова: *физическая подготовка, физические качества, психологическое состояние, борцы 14–15 лет, вольная борьба.*

Key words: *physical training, physical qualities, psychological state, wrestlers aged 14-15, freestyle wrestling.*

Dolzarbligi. 14–15 yoshli erkin kurashchilarning psixofiziologik ko‘rsatkichlarini aniqlash hamda jahon arenalarida yuqori natijalarni qo‘lga kiritishlari maqsadida maskur yoshdagi sportchilardan turlihil nazorat sinov amaliyotlari olindi. Yosh erkin kurashchilarning nazariyasi va metodologiyasida eng kam rivojlangan masalalardan biri uzoq muddatli texnik tayyorgarlikdagi harakatlari hamda yosh erkin kurashchilarning psixofiziologik jarayonlari bo‘lib qolmoqda.[1] O‘rganilayotgan muammoning nazariy asoslarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, 14–15 yoshli erkin kurashchilar texnikasining psixofiziologik jixatlarini inobatga olgan holda bir qator amaliyotlar tadqiq etilmagan. Erkin kurash sport turi yuzasidan bir qator ilmiy darajaga egan bo‘lgan olimlar, jumladan: A.A.Ruziyev (2001), A.N.Abdiyev (2004) F.A.Kerimov (2004), X.A.Sanosyan, S.L.Musayelyan, M.G.Agamyan (2002), A.A.Karelin (2002), N.A.Kerimov (1999), B.I. Tarakanov (2000), A.S.Todorov (1992), Y.A.Shaxmuradov (1999), M.Ersegan (1990), Y.A.Shaxmuradov (1997) kabilar o‘z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Shu o‘rinda aytib o‘tish joizki, ikki tomonlama simmetrik texnikada uzoq muddatli tayyorgarlikka ega bo‘lgan erkin kurashchilarda texnik tayyorgarlikning fundamental usullari ham deyarli o‘rganilmagan.[2] Bolalar va o‘smirlar sport maktabi erkin kurashchilar o‘quv dasturlarining tahlili va mutaxassislarning so‘rovi zamonaviy mashg‘ulotlarda lateral imtiyozlarning to‘liq yo‘qligini ko‘rsatadi, bu uzoq muddatli texnik tayyorgarlik samaradorligini yanada oshirishni cheklovchi omillardan biri sifatida qaralishi mumkin. Shu o‘rinda, kurash sport turlarida bajariladigan texnik-taktik harakatlarga bajarilishi va turli yo‘nalishlarga harakat faoliyatlari ko‘p bora e’tirof etiladi. Jumladan, erkin kurash ham alohida harakatlanish faoliyatlari va texnik usullar, kombinatsiyalar yetarlicha keng variatsiyalanadigan majmualar bo‘lib, ularning tarkibiy qismlari konkret musobaqani o‘tkazish taktikasi bilan shartlanadi”.

Tadqiqotning maqsadi. 14–15 yoshli kurashchilarning jismoniy rivojlanganlik darajalari dinamikasini tadqiq qilish.

Tadqiqotning vazifalari:

[1] Abdullayev Sh.A. Erkin kurash. Toshkent, “Axborot press”, 2017, 14-bet.

[2] Спортда педагогик тадқиқот натижаларини интерпретация қилиш усулларини солиштириш. А.Акбаров. “Фан–спортга”, 2021, 6-сон, 12-бет.

–14 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy rivojlanish darajalari dinamikasini aniqlash;

–15 yoshli erkin kurashchilarning jismoniy rivojlanish darajalari dinamikasini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti. 14–15 yoshli erkin kurashchilarning mashg‘ulot jarayoni.

Tadqiqotning predmeti. 14–15 yoshli erkin kurashchilarning umumjismoniy tayyorgarligi dinamikasini tadqiq qilish.

Tadqiqot usullari. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, matematik-statistik tahlil.

Tadqiqotni tashkillashtirish. Toshkent shahri Sergeli tumanidagi bolalar va o‘smirlar sport maktabida shug‘ullanuvchi yosh kurashchilarning o‘quv-mashg‘ulotlari jarayonlari davomida o‘tkazildi. Tajribalarimizda 14–15 yoshli erkin kurashchilar ishtirok etishdi (n=88). Olingan natijalarga matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanib ishlov berildi.[1]

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari va muhokamasi. Barchamizga ma’lumki, bugungi kunda o‘quv-mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14–15 yoshli erkin kurashchilarning psixofizologik tayyorgarligi holatini aniqlash asosida psixofizologik tayyorgarlikni rivojlantirish bo‘yicha yetarli darajada tadqiqotlar ishlari o‘tkazilmagani aniqlandi va yosh erkin kurashchilar o‘rtasida psixofiziologik ko‘rsatkichlari qay darajada rivojlanganligi o‘rganildi.

O‘quv-mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14–15 yoshli erkin kurashchilarning jismony tayyorgarligi xolatini takomillashtirishda to‘g‘ri rejalashtirilgan mikrotsikl mashg‘ulot rejalarini tuzish orqali yuqori kompleks tayyorgarlik holatiga erishish mumkin va shu o‘rinda o‘quv-mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi yosh erkin kurashchilarning yuqori kompleks tayyorgarligiga erishishda anaerob, aerob va glikolitik turdagi mashqlarning mashg‘ulot jarayoniga keng tatbiq qilish kutilgan samarani ko‘rsatishi maqsadga muvofiqdir.[2]

Toshkent shahar Sergeli tumanidagi 1-bolalar va o‘smirlar sport maktabi tarbiyalanuvchilari orasida o‘tkazilgan Garvard testi indeksi orqali o‘quv-mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14–15 yoshli erkin kurashchlarning mashg‘ulot jarayonidan so‘ng yurak faoliyatining tiklanishi o‘rganildi (1-jadvalga qarang). 14 yoshli erkin kurashchilarimizda garvard qadam testi bo‘yicha dastlabki qayt etgan natijalari 60.2 ni tashkil qilgan bo‘lsa, 15 yoshli erkin kurashchilarning mazkur test ko‘rsatkichlari bo‘yicha natijalari 57 ni tashkil etdi.

O‘quv-mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14–15 yoshli erkin kurashchilarning mashg‘ulot jarayonlari yakunidan so‘ng, yurak tiklanishi bilan bir qatorda, mashg‘ulot davomida yurak urishi ham o‘rganildi, aniqlangan natijalar esa quydagicha bo‘ldi. 14 yoshli erkin kurashchilarda 13,4 natija tashkil qilingan bo‘lsa, 15 yoshli erkin kurashchilarimizda ish faoliyatidagi yurak urish ko‘rsatkichi 12,2 natijani tashkil qildi va o‘rtacha natijalar qayd etildi (1-jadval).

1-jadval

	14–15 yoshli erkin kurashchilarning Garvard va Rufe testi ko‘rsatkichlari			
Ko‘rsatkich	Garvard (testi)		Rufe (testi)	
Yosh	14	15	14	15
$\overline{X} \pm \sigma$	60,24±3,34	57,43±3,21	13,42±0,82	12,91±0,76
t / P	4,02 / <0,001		3,03 / <0,01	
	14–15 yoshli erkin kurashchilarning Tepping va psixomotor testi ko‘rsatkichlari			
Ko‘rsatkich	Tepping testi		Psixomotor testi	
Yosh	14	15	14	15
$\overline{X} \pm \sigma$	56,12±3,88	58,94±3,96	121,36±8,83	126,17±8,94
t / P	3,37 / <0,01		2,54 / <0,05	

O‘quv-mashg‘ulot guruhlarida shug‘ullanib kelayotgan yosh erkin kurashchilarining jismoniy tayyorgarlik jarayonlari davomida psixifiziologik ko‘rsatkichlarini samarali rejalashtirish, undagi maqsad va vazifalarini to‘g‘ri qo‘yish, tayyorgarlikni turli bosqich va davrlarida vosita va usullarni eng samarali va ishonchlilarini qo‘llash ijobiy, yakuniy natijaga erishishdagi eng asosiy omillar hisoblanadi.[3]

[1]Акбаров Ахматжон. Спортда математик таҳлил усуллари. Ўқув қўлланма, http://library.uzdjtsu.uz/files/pdf/Sportda matematik tahlil.pdf УзДЖТСУ, 2020, с. 7.

[2]O.E.Toshmurodov, B.B.Kipchakov, A.T.Umarov. Kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi. S., 2021, 12-bet.

[3] Shu manba. 15-bet.

14–15 yoshli erkin kurashchilarning psixofizologik tayyorgarlik samaradorligini oshirishda mashg‘ulot yuklamalarini taqsimlash va rejalashtirish, mashg‘ulot jaryonida maxsus mashqlarni bajarish harakatini boshqarish va uni biomexanik tahlil qilish bo‘yicha tadqiqot ishlari ham olib borilgan. Ammo, o‘quv-mashg‘ulot guruhida shg‘ullanuvchi erkin kurashchilarda maxsus bir tizim orqali psixofizologik tayyorgarlik samaradorligini yanada yaxshilash yuzasidan ilmiy-uslubiy izlanishlar olib borish tadqiqotchilar nazaridan chetda qolganligi maskur tadqiqot ishimizni olib borishimizga turtki bo‘lib xizmat qiladi.[1]

Yosh erkin kurashchilarning sport mashg‘ulotlari jarayonidagi reaksiyasini aniqlashda “Tepping-tect” 15 dan foydalandik. Aniqlangan test natijalari yuzasidan quyidagicha natijalar qayd etildi (2-rasm). 14 yoshli erkin kurashchilarning ushbu test orqali qayd etgan ko‘rsatkichlari 56,1 bo‘lgan bo‘lsa, 15 yoshli boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi erkin kurashchilarning test natijalari 58,9 ni tashkil etib, 14 yoshli erkin kurashchilar qayd etgan natijadan unchalik katta bo‘lmagan farq bilan ushbu test sinovini yakunlashdi (1-jadval).

Yosh kurashchilarning psixofiziologik tayyorgarlik davrining umum tayyorlov bosqichida amalga oshiriladigan umumiy tayyorgarlik bosqichida asosiy e’tibor 14–15 yoshli erkin kurashchilarning har tomonlama umumiy jismoniy tayyorgarlik ko‘rishlari hamda psixofiziologik holatlariga qaratiladi. Bu bosqichda mashg‘ulotning asosiy formalari xilma-xil yo‘nalishdagi maxsus guruhli va individual mashg‘ulotlardan iborat bo‘lib, bunda jismoniy tayyorgarlik texnik-taktik tayyorgarlik bilan hamjihatlikda olib boriladi.[2]

Psixomotor ko‘rsatkichlarni aniqlash bo‘yicha yosh kurashchilar orasida nisbatan soddaroq bolgan test sinovi tanlab olindi (3-rasm). Mazkur tanlab olingan mashqni bajargan 14 yoshli erkin kurashchilar hamda 15 yoshli erkin kurashchilarning psixomotor ko‘rsatkichlari aniqlab olindi. Qayd etilgan natijalar shuni ko‘rsatmoqdaki 14 yoshli boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi sportchilarimizning ko‘rsatkichlari 122.6 ms.ni tashkil qilgan bo‘lsa, 15 yoshli erkin kurashchilarimiz qayd etgan natijalari unchalik katta bo‘lmagan farq bilan 124,1 ni ko‘rsatdi (1-jadval).

Erkin kurashchilarning psixofiziologik tayyorgarlik davrining umum tayyorlov va maxsus tayyorlov bosqichlarida haftalik mikrosikllarni rejalashtirishda maxsus va nomaxsus mashqlarni mikrosikllarga mos ravishda to‘g‘ri rejalashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Dastlabki kuzatishlardan ma’lum bo‘ldiki, 14–15 yoshli erkin kurashchilarning mashg‘ulot jarayonlarida o‘rta va uzoq masofalarda ishlash, raqib bilan olishish jarayonlarida aldamchi harakatlarni qo‘llashda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yishmoqda. Mashg‘ulot davomida qisqa masofada bellashish vaqtida ma’lum bir usullarni qo‘llashda xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘yishmadi.

Psixofiziologik jarayonlari oxirlariga kelib, erkin kurashchilarning oldinda turgan musobaqalarga har tomonlama tayyorligi tugallanadi. Zarur texnik malakalar va taktik harakatlarni batamom tiklanishiga, sportchining maxsus tayyorgarlik jarayonlari va jismoniy holati ham inobatga olinadi. Maxsus jismoniy tayyorgarlik hajmi sezilarli darajada oshiriladi.[3]

Xulosa. Mavzu bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot ishlari yuzasidan xulosa qiladigan bo‘lsak o‘quv-mashg‘ulot guruhida shug‘ullanuvchi 14–15 yoshli erkin kurashchilarning kompleks tayyorgarligining mikrosikllarda tuzilgan mashg‘ulot jarayonlari ketma-ketligi hamda yosh erkin kurashchilarning psixofiziologik jihatdan rivojlantiruvchi vositalar yetarli darajada emas. 14–15 yoshli erkin kurashchilarning psixofiziologik harakatlarini takomillashtirish va optimallashtirish uchun asosiy tayyorgarlik vositalari bu mashg‘ulotlar jarayonini oqilona rejalashtirishga, muayyan harakatlarning bajarilishini murakkablashtiradigan sharoit va jihozlardan foydalanishga, intervallarni tanlashga, mashqlar tezligiga hissa qo‘shadigan vositalar hisoblanadi va ushbu jarayonlarni mashg‘ulot jarayonlaridan takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Yuqoridagilar ko‘zda tutilganlarning barchasi samarali tarbiyaviy ishlar doirasida umumiy rivojlantiruvchi gimnastika mashqlari bilan birlashtirilishi ham ayni muddaodir. Mashg‘ulotlar jarayonini modernizatsiya qilish, shuningdek, yosh erkin kurashchilarning psixofiziologik tayyorlash jarayonini optimallashtirish har qanday moddiy-texnika resurslaridan (texnologiya, jihozlar) samarali foydalanishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Bu esa butun jarayonni aniqlash hamda tahlil qilish imkonini beradi. Tajriba oxirida o‘tkazilgan tekshirishlar shuni ham ko‘rsatdiki, qisqa masofalarda murakkab kordinatsion

[1] Shu manba. 11-bet.
[2] Shu manba. 14-bet.
[3] А.Акбаров. Спортда педагогик тадқиқот натижаларини интерпретация қилиш усулларини солиштириш. “Фан – спортга”, 2021, 6-сон, 10-бет.

harakatlarni bajarish jarayonida qayd etilgan ko‘rsatkichlari nazorat va tadqiqot guruh kurashchilaridagi natijani nisbatan yaxshilashga erishilgan. Bugungi kunda zamonaviy erkin kurash sport turi bilan mashg’ulot olib borayotgan yosh kurashchilardan tezkor harakatlanish va fikrlash jarayonlari talab qilinmoqda. Zamonaviy erkin kurashning tezlashishi zamonga xos sportchilarni tayyorlashda nazariy mashg‘ulotlarda taktik bilimlarni o‘zlashtirish va taktik fikrlashlarni baholab borish maqsadga muvofiqdir. Yosh erkin kurashchilarning taktik tayyorgarligini o‘rganishda “Erkin kurashchilarning taktik fikrlash qobliyatini aniqlash” kompyuter dasturidan foydalanish murabbiylarga jamoa haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi:

– 14 yoshli erkin kurashchilarning psixofiziologik davridagi taktik tayyorgarligini qanday holatda ekanligini ko‘rsatadi;

– 15 yoshli erkin kurashchilarning psixofiziologik faoliyatidagi taktik fikrlash qobiliyati baholanadi;

– dastur orqali nazariy mashg‘ulotlarni samarali tashkil etish imkoniyati yaratiladi.

Murabbiy tomonidan tashkil etiladigan mashg‘ulot jarayonlari sportchilarning sportdan bezish holatlari, zerikish va shunga o‘xshash ruhiy holatlarini yuzaga keltirmasligi uchun mashg‘ulot jarayonining xilma-xilligiga jiddiy e’tibor qaratishi ayni muddao hisoblanadi va bunday ko‘rsatmalar murabbiy hamda sportchilar uchun uyg‘unlikda bajariladidan mashg‘ulot jarayonlarini takomillashtiradi.

Eshquvvatov Ulug‘bek Abdulla o‘g‘li (Termiz Muhandislik-texnologiya instituti Yo‘l muhandisligi kafedrasi o‘qituvchisi; e-mail:eshkuvvatov.ulugbek@mail.ru.)

TALABALARNI INNOVATSION MUHANDISLIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH

Annotatsiya. *Maqolada talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda, ularning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *В статье даны предложения и рекомендации по формированию творческих способностей учащихся с учетом их интересов.*

Annotation. *The article provides suggestions and recommendations for the formation of their creative abilities, taking into account the interests of students.*

Kalit so‘zlar: *talaba, muhandis, kreativ, kasbiy, faoliyat, texnologiya, innovatsiya, qobiliyat, shakllantirish, o‘qitish, ta’lim natija, samarodorlik.*

Ключевые слова: *студент, инженер,творческий, профессиональный, деятельностный, технологический, инновационный, способный, формирующий, обучающий, воспитывающий результат, результативность.*

Key words*: student, engineer, creative, professional, activity, technology, innovation, ability, formation, teaching, educational result, efficiency.*

Bugungi kunda yer yuzida ro‘y berayotgan voqea va hodisalar insoniyat kelajagi uchun ma’lum darajadagi muammolarni keltirib chiqarmoda. Muhandislar uchun ushbu muammolarga ijodiy va innovatsion yechimlarni toppish va ishlab chiqish har qachongidan ham muhim. Kreativlik muhandislikning asosiy elementi bo‘lib, uni amalga oshirish orqali muammolarga samarali, yangi yechimlarni yaratishga erishish mumkin. Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalarga muhandislik kasbiga oid darslarni o‘qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali ularning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish haqida gap boradi.

Muhandislik kasbiga o‘qitishda kreativlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga sabab muhandislar oldida har doim bizda mavjud bo‘lgan narsalar, buyumlar va jihozlarni yangilash hamda ularni takomillashtirishga bo‘lgan qiziqish yuqori bo‘lgan. Bu esa har qanday innovatsion g‘oyalar ortida muhandislar turishini anglatadi. Pol Torrens tomonidan uzoq yillar davomida kreativlik bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.[1]Torrens kreativlikni “ma’lumotlardagi muammolar yoki bo‘shliqlarni sezish, gipotezalar g‘oyalarini shakllantirish, bu gipotezalarni sinab ko‘rish va o‘zgartirish va natijalarni yetkazish jarayoni” deb ta’riflagan.

Muhandislar muammolarni bartaraf etish uchun doimiy ravishda yangi g‘oyalar va tushunchalarni ishlab chiqadilar. Bu orqali esa bir yoki bir qancha muammoni hal etish uchun ham muhandislik sohasida ijodkorlik zarur hisoblanadi: “Muhandislik kasbi muhandislardan muammolarni mustaqil ravishda va jamoaviy ish orqali tan olish, tasdiqlash va hal etishni talab qiladi. Eng muhimi, ular o‘z uslublarida o‘ziga

[1]Torrance E. Paul and Michael F. Shaughnessy. An interview with E. Paul Torrance: about creativity. Educational Psychology Review (1998), p. 445.

xos va tanqidiy fikrlashni, ijodkorlik va innovatsionlikni namoyish etishlari kerak. Bir so‘z bilan aytganda, muhandislarga ijodiy aql kerak. Muhandislik kasbining ilg‘or maqsadiga erishish – insoniyat manfaati uchun yangi mahsulotlar yoki tizimlarni loyihalash va mavjudlarini yaxshilash”.[1]

Mazkur ishda «Yo‘l muhandisligi» ta’lim yo‘nalishi talabalarini innovasion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan. Bunda avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va jihozlash, yo‘lning turli bo‘laklarida yo‘l belgilari va yo‘l belgi chiziqlarini qo‘llash ishlarini bajarishni o‘rganish orqali ko‘rib chiqamiz.[2] Avtomobil yo‘llarini obodonlashtirish va jihozlash ishlarini bajarishdan maqsad harakatga xizmat ko‘rsatish turlari va inshootlari, avtomobil yo‘llarining arxitektura kompozitsiyalari, harakatga xizmat ko‘rsatish komplekslari, avtomobil yo‘llaridagi ko‘kalamzorlashtirilgan joylarning vazifasi, avtomobil yo‘llarini jihozlash, yo‘l belgilari, yo‘l to‘siqlari, yo‘l belgi chiziqlarining turlari, avtobus bekatlari, piyodalar aloqa yo‘llari, aloqa vositalari, atrof-muhitni muhofaza qilishdan iborat.

Avtomobil yo‘llaridagi yo‘l belgi jihozlari, yo‘l elementlarning jihozlarini ishlash jarayonida ularning umrboqiyligini kamaytiradigan, to‘satdan ishdan chiqishi, sinishi, ishlash muddatiga bog‘liq bo‘lmagan holda nosozliklar sabablardan biri ularda sodir bo‘ladigan rezonans hodisasidir.

Yo‘l belgi jihozlarining o‘rnatilishi va ularni ekspluatasiya qilish bo‘yicha amaliy mashg‘ulotini virtual seminar yordamida «visual thinking» (ko‘rgazmalilik) metodi yordamida tushuntirish metodikasini 1-jadvalda amaliy mashg‘ulotlarning texnologik xaritasi keltirilgan. O‘qituvchi talabalarga amaliy mashg‘ulotining mavzusini e’lon qiladi.

O‘qituvchi talabalarga yo‘l belgilari va yo‘l belgi chiziqlarini o‘rnatilish, oraliq masofalarini hamda yo‘l belgilarining shakli va tuzilishi haqida tushuntiradi va mavzuga oid ma’lumotlarni slaydda ko‘rsatadi. O‘qituvchi, bizga ma’lumki, yo‘l belgilari va yo‘l belgi chiziqlarining qo‘llanilishi, har xil sabablarga ko‘ra ularning xizmat muddati davomiyligining o‘zgarishi ularni ta’mirlash va saqlash ishlarining bajarilishiga olib keladi.

1-jadval

Amaliy mashg‘ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O‘qituvchi	Bo‘lajak muhandistalaba
1-bosqich. Kirish (10 min).	1.1. 1.1. Mavzu, uning maqsadi, o‘quv mashg‘ulotidan kutilayotgan natijalar ma’lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich. Asosiy (60 min).	2.1. Uy vazifasi uchun berilgan topshiriqlarni bajargan talabalar baholanadi.	2.1.Eshitadi, yozib oladi.
	2.2. O‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda laboratoriya mashg‘ulotini tushuntiradi: – mavzuni qisqacha tushuntiradi; –yaratilgan dasturiy mahsulotdan foydalanish metodikasini tushuntiradi; – dasturiy mahsulotni nazariy bilimlariga tayanib, ishga tushirish va rezonans hodisasini sodir eta olish, sabablarini aniq qiymatlar orqali asoslashni o‘rgatadi.	2.2.Yo‘l belgilari va yo‘l belgi chiziqlarini o‘rnatilish, oraliq masofalarini hamda yo‘l belgilarining shakli va tuzilishi haqidagi bilimlarini mustahkamlaydi.
	2.3.Talabalarga mavzuning asosiy tushunchalariga e’tibor qaratishni va dastur kodlarini kiritishga e’tibor berish ta’kidlanadi.	2.3.Dasturiy mahsulotdan foydalanishni o‘rganadi va unda tajriba sinov o‘tkazadi.
3-bosqich Yakuniy (10 min)	3.1.Mavzuni yakunlaydi va talabalar e’tiborini asosiy vazifaga qaratadi.	3.1.Eshitadi, o‘z fikrlariga aniqlik kiritadi.
	3.2.Faol ishtirok etgan talabalarni rag‘batlantiradi. Yaratilgan dasturiy mahsulot yordamida olingan natijalarni to‘plash va taqdimot qilishni tashkil etadi.	3.2.Topshiriqni yozib oladi.
	Faol talabalar baholanadi. Uyga vazifa beriladi.	

[1] Wei X., Weng D., Liu Y.&Wang Y. (2015). Teaching based on augmented reality for a technical creative design course. Computers & Education, 81, p. 227.

[2] Эшқувватов У.А. Талабаларда креатив қобилиятларни ривожлантиришнинг аҳамияти. “Таълим ва инновацион тадқиқотлар”, Махсус сон, Бухоро, 2021, 373-бет.

Yo‘l belgilari o‘rnatish o‘z navbatida avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida qo‘llaniladi. Bu orqali harkat oqimini tartibga solish va ularni yo‘naltiruvchi vasifasini bajaruvchi bo‘lib hisoblanadi.

Yo‘l belgilarini joylashtirishda haydovchiga harakat yo‘nalishi, bosib o‘tilgan yo‘l, aholi yashaydigan joylari, xizmat ko‘rsatish servis shaxobchalari haqida ma’lumotlar berib boriladi. Yo‘lning xarakterli bo‘lgan bo‘laklarini ajratib, bu bo‘laklarda bo‘layotgan kecha-kunduzdagi har xil noqulay sharoitlar borasida ma’lumot berib boriladi va kerak bo‘lganda ogohlantiruvchi, taqiqlovchi va buyuruvchi belgilari o‘rnatiladi. Yo‘l belgilari avtomobil yo‘lining butun bo‘laklarida va aholi yashaydigan joylarida yo‘l sharoitidan kelib chiqib qo‘llaniladi.

Yo‘l belgilari yo‘l sharoiti, harakat yo‘nalishlari va xizmat ko‘rsatish shaxobchalari haqida ma’lumot beradi. Yo‘l belgilari GOST 10807-78 ning tasnifi bo‘yicha 7 guruhga bo‘linadi:

1. Ogohlantiruvchi.
2. Imtiyoz.
3. Taqiqlovchi.
4. Buyuruvchi.
5. Axborot-ishora.
6. Servis.
7. Qo‘shimcha axborot.

Avtomobillarning harakatlanishi uchun noqulay bo‘lgan joylarda harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida imtiyozli belgilar o‘rnatiladi. Avtomobillar harakati uchun xavfli bo‘laklarda taqiqlovchi yo‘l belgilari o‘rnatiladi.

O‘qituvchi dasturdan foydalanish bo‘yicha yo‘riqnomani talabalarga tarqatma material sifatida beradi va dasturni ishga tushirish jarayonini kompyuterda birma-bir tushuntiradi.

Ishni bajarish bo‘yicha ma’lumotlar. Ogohlantiruvchi yo‘l belgilari yo‘l harakati qatnashchilariga yo‘lning harakatlanishda vaziyatga qarab chora ko‘rishni talab qiladigan xavfli qismlarining joylashuvi hamda ularning xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun qo‘llaniladi. Ogohlantiruvchi yo‘l belgilarini asosiy farqlanish xususiyati bu oq asosdagi qizil hoshiyali uchburchak shaklidir (1.3.1–1.3.2, 1.4.1–1.4.6 va 1.31.1–1.31.3 belgilari, bundan mustasno). Ogohlantiruvchi belgilar (1.3.1–1.4.6, 1.31.1–1.31.3 belgilaridan tashqari) aholi yashaydigan joylardan tashqarida yo‘lning xavfli joyidan 150–300 m masofada, aholi yashaydigan joylarda esa 50–100 m masofada o‘rnatilishi kerak.

1.1, 1.2, 1.3.1–1.3.2 va 1.4.1–1.4.6. yo‘l belgilari avtomobil yo‘lining temir yo‘llar bilan bir sathda kesishuvlarida o‘rnatiladi. 1.1, 1.2 yo‘l belgilari aholi yashaydigan joylardan tashqarida takroran o‘rnatiladi, ikkinchi belgi xavfli joydan kamida 50 m masofaga o‘rnatiladi. 1.4.1–1.4.6 yo‘l belgilari aholi yashaydigan joylaridan tashqarida xalqaro, davlat, viloyat ahamiyatidagi yo‘llarda, albatta, qolgan yo‘llarda ko‘rinish masofasi 300 m.dan kam bo‘lgan hollarda o‘rnatiladi. 1.4.1–1.4.6 yo‘l belgilarini aholi yashaydigan joylarda o‘rnatish tavsiya etilmaydi. 1.7 yo‘l belgisi aholi yashaydigan joylardan tashqarida 4.3 yo‘l belgisi o‘rnatilgan har bir halqali kesishuv oldidan o‘rnatiladi. 1.11.1–1.11.2 belgilari rejadagi egrilik radiusiga va burilish burchagiga bog‘liq ravishda 2-jadval asosida xavfli burilishlarda o‘rnatiladi.

2-jadval

Harakat tezligi, km/s	30	40	50	60	80	100	120
Ushbu tezlikda xavfsiz harakatlanishni ta’minlaydigan eng kam ko‘rinish masofasi, m	80	100	120	150	200	280	350

O‘qituvchi amaliy ishni bajarish jarayonini ketma-ket tartib bilan namoyish etadi. Talabalar har bir bajariladigan amallarini tushinib yozib oladilar. Undan so‘ng o‘qituvchi talabalarga mustaqil lobaratoriya ishini bajarib ko‘rishlariga ko‘rsatma beradi va ularni bajarish jarayonini nazorat qilib, kerakli maslahatlarni berib boradi. Talabalar yo‘l belgilari va yo‘l yo‘l belgi chiziqlarining shikastlanishi, ulardagi nuqsonlarning paydo bo‘lish sabablari, uning oqibatlari, bartaraf etish uchun ko‘riladigan chora-tadbirlarni o‘rganadi. Bu orqali talabalarda innovatsion kasbiy faoliyat yuritishlarida muhandislik paradigmalaridan:

♦tizimlar sinovlarini tashkil etish va o‘tkazish hamda sinov natijalarini tahlil qilish qobiliyati;

♦nazarda tutilmagan va ro‘y berishi mumkin bo‘lgan o‘zgarishlarni boshqara olish qobiliyati;

♦turli ko‘rinishdagi texnik malakalarning mavjud bo‘lishi asoslangan texnik yechimlarni qo‘llash qobiliyati;

♦yaxshi bo‘lishiga ishonish, biroq eng yomon variantga tayyor turishning o‘ziga xos ishonchi mavjudligi;

♦intellektual qiziquvchanlik – yengillikni o‘qib ko‘rib o‘rganishga qobiliyat va istak;

♦o‘zgarishlarga tayyor turish kabi qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlanishiga yordam beradi.

Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligini ta’minlashga xizmat ko‘rsatuvchi muhim muhandislik jihozlaridan biri yo‘l chiziqlaridir. Yo‘lning qatnov qismi yuzasiga va yo‘l inshootlari hamda jihozlari sirtiga chizilgan chiziqlar, ishoralar, yozuvlar va boshqa belgilarga yo‘l chiziqlari deyiladi. Yo‘l chiziqlari bilan belgilangan qatnov mintaqasining kengligi yo‘lning texnik toifasi talablariga mos kelishi lozim.

Harakatlanish tartibini belgilovchi yo‘lning qatnov qismi yuzasidagi chiziqlar, ishoralar, yozuvlar va boshqa belgilarga yotiq chiziqlar deyiladi. Yotiq chiziqlar aholi yashaydigan joylarda yuqori tezlikda harakatlanish uchun mo‘ljallangan va magistral yo‘llarda, shuningdek, jamoat yo‘lovchi transporti yuradigan yo‘llarda, aholi yashash joylaridan tashqarida esa harakat jadalligi 1000 avt.sut va undan ortiq bo‘lgan yo‘llarda qatnov uchun mo‘ljallangan mintaqaning kengligi 6 metr va undan ortadigan yo‘llarda qo‘llaniladi. Shuningdek, ayrim hollarda harakat xavfsizligini ta’minlash maqsadida yo‘lning boshqa bo‘laklarida ham qo‘llanilishi mumkin.

Yana shuni qo‘shimcha qilish mumkinki, yo‘l belgilari va yo‘l belgi chiziqlarida hosil bo‘ladigan nuqsonlar oqibatida yuzaga keladigan yo‘l harakati qoidalarining buzarlish holatlarini talabalarga o‘qitishda, amaliy mashg‘ulotlari jarayonida o‘qituvchining talabalardan hisobot qabul qilishida aniqlik va tezkorlik muhim ahamiyatga ega bo‘lib, hisobotlarni qabul qilish va baholash jarayonini bir necha marta tezlashtiradi.[1]

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarning innovatsion kasbiy kompetensiyalari (liderlik, texnologik, kasbiy kamolot) va muhandislik paradigmalari (tempaintellektual o‘zgarish va ekstrimal moslashuvchanlik)ni integrativ yondashuv asosida transformatsiyalash orqali mutaxassislik fanlarini o‘zlashtirish imkoniyatlari (tejamkorlik va ixchamlilik) kengaytiriladi. Muhandislik uslubiyatlari (agregiratsiya, dekompozisiya) asosida umumkasbiy fanlarini o‘qitishda interfaol ta’lim metodlarini («technical design», «visual thinking», «insident») qo‘llash va dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish orqali innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasi takomillashtirilgan muhandislik uslubiyatlari (agregiratsiya, dekompozitsiya) asosida umumkasbiy fanlarini o‘qitishda interfaol ta’lim metodlarini («technical design», «visual thinking», «insident») qo‘llash va dasturiy ta’lim vositalaridan foydalanish orqali innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlash metodikasi takomillashtirilgan hamda ularni mustahkamlashda ilg‘or ta’lim texnologiyalaridan (Veer, Blis so‘rov, tushunchalar tahlili, ha yoki yo‘q texnikasi) foydalanilgan vositalar (kompyuter va texnik vositalar, tarqatma materiallar, amaliy ishlanmalar) va shakllarni (ma’ruza, amaliy, laboratoriya mashg‘ulotlari, mustaqil ta’lim, to‘garak, kurs loyihasi, bitiruv malakaviy ishi) nazarda tutadi.

Aralov Muzaffar Muxammadiyevich (Qarshi Muhandislik-iqtisodiyot instituti)

TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA TOPOGRAFIK CHIZMACHILIK FANINI O‘QITISHDA BO‘LAJAK MUHANDISLARNING GRAFIK TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada oliy ta’lim tizimining bo‘lajak muhandislarga kartografiya fanini o‘qitishda rafik kompetentlik tegishli motivatsiyani yaratish, bilim mezoni orqali, grafik ko‘nikma (faoliyat) orqali amalga oshirish bayon etilgan.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается реализация графической компетентности в обучении картографии будущих инженеров системы высшего образования путем создания соответствующей мотивации через критерий знаний через графические умения (деятельность).*

Annotation. *This article describes the implementation of graphic competence in the teaching of cartography to future engineers of the higher education system by creating appropriate motivation, through the criterion of knowledge, through graphic skills (activity).*

Kalit so‘zlar: *kartografiya, pedagogik texnologiyalar, ta’lim-tarbiya metodlari, grafik ko‘nikma, yer yuzi, shartli belgilar.*

Ключевые слова: *картография, педагогические технологии, методика обучения, графические навыки, земная поверхность, условные знаки.*

[1] Улуғбек Эшқувватов. Талабаларнинг креатив қобилиятларини ривожлантириш методикаси. “Таълим, фан ва инновация”, Тошкент, 2022, 4-сон, 117-бет.

Key words: *cartography, pedagogical technologies, educational methods, graphic skills, the earth's surface, conventional signs.*

Talabalarning grafik tayyorgarligini takomillashtirishning asosiy vazifalaridan biri kartografiyaning rivojlanish darajasi va yutuqlarini yetarli darajada aks ettirish, zamonaviy fazoviy tasavvur va tushunchalarga e'tibor berish, ularni geografik tilda namoyish etishdir.

Xaritalar bilan ishlash va ulardan kerakli ma'lumotlarni olish qobiliyati shaxsni rivojlantiradigan ommaviy grafik savodxonlik va kommunikativ madaniyatning ajralmas qismiga aylanadi. Grafik tayyorgarlikning ahamiyati geografik xaritaning jamiyatning rivojlanish darajasini, uning madaniyati va dunyoni idrok etishni aks ettiruvchi aloqa hujjati sifatida rolini tobora ortib borishi bilan bog'liq. Xarita, boshqa aloqa vositalaridan farqli o'laroq, ketma-ket emas, balki integral grafik tasvirlar sifatida bir vaqtning o'zida qabul qilingan fazoviy grafik kombinatsiyalar shaklida ma'lumotlarni taqdim etadi. T.S.Komissarova ma'lumotlariga ko'ra, xarita ko'p o'lchovli geografik makonni o'zlashtirishga yordam beradigan odamlar madaniy jamoasining xalqaro tilidir. Geografik xaritani turli hududlarga xos bo'lgan holat va o'zgarishlar to'g'risida ma'lumot uzatishda eng yuqori sintez deb hisoblash mumkin.

Grafik fanlarni o'qitishning muhimligini ta'kidlovchi grafik bilimlarning ahamiyatini tasdiqlovchi olimlarning so'zlarini keltirishimiz mumkin:

Xaritalar bilan samarali ishlash uchun ularni qurish qonuniyatlarini va xaritalarni yaratishning asosiy usullarini, grafik tasvirlarni idrok etishning lingvistik tuzilishi va psixologik xususiyatlarini bilish muhimdir; umumlashtirish texnikasini o'zlashtirish, xaritadan kerakli ma'lumotlarni o'qiy olish va "olib tashlash", xaritalarni yaratish va "olib tashlash". Tabiat, iqtisodiyot, aholi va obyektlar xaritalash o'rtasidagi fazoviy munosabatlarda joydan joyga geografik farqlarni aniqlash.

A.M.Berlyant asarlarida grafik tayyorgarlikni va umuman grafik ta'limni takomillashtirishning ikkala jihati, shuningdek, kartografiyaning alohida masalalari ochib berilgan. Masalan, u kartografiya darslari va kartografiya bo'yicha ma'ruzalarni to'laqonli grafik qo'llab-quvvatlash zarurligini ta'kidlaydi va bu muammoni kompyuter grafik taqdimotlari orqali hal qilishni taklif qiladi.

Geografik tasvirlarning xususiyatlari, ularning fazoviy-vaqtinchalik diapazonlari, umumlashtirish turlari va o'zaro muvofiqligi ko'rib chiqiladi. OTMda grafik ta'limning asosiy tamoyili sifatida uchta asosiy fanlarni birlashtirish tamoyilini belgilaydi: kartografiya, geoinformatika va ayerokosmik zondlash, bu ta'lim tizimining asosiy modullarini tashkil etadi.

Innovatsion tizimning vositasi sifatida ko'rib chiqish taklif etiladi:

♦elektron darsliklar va videoma'ruzalar;

♦kompyuter amaliyotlari;

♦multimediyali taqdimotlar, slaydlar;

♦elektron o'quv-uslubiy ta'minot;

♦o'quv bazalari, o'quv-uslubiy majmualar;

♦lug'atlar, glossariylar, ma'lumotnomalar;

♦elektron ilmiy monografiyalar;

♦internet seminarlar.

U innovatsion konsepsiyani amalga oshirishning bir necha bosqichlarini belgilaydi: 1) OTMda grafik ta'limning innovatsion tizimi infratuzilmasini ishlab chiqish va aniqlash; 2) bakalavr darajasining innovatsion o'quv dasturlarini tayyorlash va ularga muvofiq o'quv kurslari va seminarlar o'tkazish; 3) asosiy modul va fanlar bo'yicha elektron darsliklar, o'quv qo'llanmalar va boshqa elektron materiallarni tayyorlash; 4) barcha o'quv materiallari va ruxsatsiz foydalanishdan ularni himoya qilish tizimlari, shu jumladan, elektron kutubxonalar yaratish; 5) innovatsion ta'lim moddiy-texnik bazasini doimiy modernizatsiya qilish; 6) marketing faoliyati va OTM grafik ta'lim innovatsion ishlanmalarni joriy etish.

U o'qituvchining grafik tayyorgarligining o'ziga xos didaktik maqsadini "grafik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, talabalarga grafik savodxonlikni o'rgatish uchun uning kasbiy mahoratini rivojlantirish" sifatida shakllantiradi.


OTMda talabaning shaxsiy va kasbiy ahamiyatli fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga hamda davlat ta'lim standartlarini (DTS) joriy etishga qaratilgan shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim paradigmasiga o'tish munosabati bilan OTM bitiruvchilarini tayyorlash uchun OTM darajasida kompetentli yondashuv shakllanmoqda.

T.S.Komissarova tadqiqotida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda grafik kompetensiya g'oyasiga o'tishni amalga oshiradi. Bundan xulosa chiqadiki, talaba kasbiy-uslubiy tayyorgarlik tizimini o'zlashtirib, kasbiy mahoratning turli darajalaridan o'tadi. Afsuski, u o'z ishida grafik kompeten-

siyaning aniq ta’rifini bermaydi, lekin quyidagi xususiyatlar kompetensiya g‘oyasiga mos keladi deb hisoblaydi: grafik materiallarni o‘rganish–birlamchi manbalar, ular bilan ishlash qobiliyati, asosiy omillar, umumiy va o‘ziga xos tushunchalar, qonunlar, ilmiy nazariyalarni bilish, tushunchalarni vizualizatsiya qilishning grafik tilini o‘zlashtirish. Kompetentlikning ushbu belgilari orasida, bizning fikrimizcha, yuqoridagi bilim va ko‘nikmalarni o‘quv va kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘llash qobiliyati va tayyorligi kabi muhim ahamiyatga ega.

U grafik tayyorgarlikning to‘liqlik darajasini grafik bilish usulini o‘zlashtirishda kasbiy grafik kompetentligi va didaktik grafik savodxonligiga mos keladigan uchinchi daraja deb hisoblaydi.

Uning tadqiqotlari bo‘lajak mutaxassisning kasbiy va metodologik grafik tayyorgarligining tarkibiy va funksional modelini taqdim etadi, natijada grafik kompetensiya rivojlanadi (1-rasm).



1-rasm. Bo‘lajak muhandislarni grafik kompetentligini rivojlantirishning tizimli-funksional modeli.

Kartografiya o‘qitish sohasidagi mavjud tadqiqotlarni ko‘rib chiqib, quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin. Masalan, bo‘lajak kartograflar ishining o‘ziga xos xususiyatlari ularning kasbiy faoliyatining keng doirasidadir. Uning sohasi: loyiha, tadqiqot, ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot institutlari, byurolar, firmalar, tabiatni muhofaza qilish va atrof-muhitni boshqarish organlari, ta’lim va maxsus ta’lim muassasalari. Shunga ko‘ra, ularni tayyorlashning grafik komponenti keng hajmli va ko‘p qirrali bo‘lishi kerak.

Professional ta’lim o‘qituvchisi ishining o‘ziga xos xususiyati o‘quvchilarning grafik kompetensiyasini, grafik asarlarni kognitiv maqsadlarda ishlatishda o‘rgatishdir. Binobarin, ularning grafik mashg‘ulotlarida e’tiborni xaritalari va atlaslariga hamda tadqiqotning grafik usuliga qaratish lozim.

Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlari tahlili asosida sanab o‘tilgan mutaxassisliklarning har biri uchun grafik komponent aniqlandi.

Kompetentlik – bu subyektlarning shaxsiy faoliyatining semantik, xulq-atvor, motivatsion, hissiy-irodaviy, kognitiv natijalarini yaratishga hissa qo‘shadigan yangi shakllanishlar, bilimlar, qadriyatli tizimlari va munosabatlari to‘plamidir.

Grafik kompetentlik tegishli motivatsiya (tayyorlik)ni yaratish orqali, bilim mezoni orqali, grafik ko‘nikma (faoliyat) orqali amalga oshiriladi.

Shunday qilib, “Geodeziya, kartografiya va kadastr” ta’lim yo‘nalishi talabalarining grafik kompetentligi shakllantirishning pedagogik nazariyasi va amaliyotini tahlil qilish va DTSni tahlil qilish orqali grafik kompetentligini aniqlash kompetentli yondashuvga asoslangan. Ushbu ta’rifga muvofiq, ularning ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi mezonlarni va talabalarning shakllangan grafik kompetentligi darajasini hisobga olish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aralov M.M. Muhandislik yo‘nalishi talabalariga kartografik chizmachilik va kartografiya fanlarini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning uslubiy jihatlari. “Mug‘allim həm үzliksiz bilimlendirio‘”, Nukis, 2022, 2-son.

2. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonova, Z.Xoliqova. Interfaol metodlar. Mohiyati va qo‘llanilishi (metodik qo‘llanma), T., 2013, 4-bet.

3. Aralov M.M. Bo‘lajak muhandislarga kartografik chizmachilik fanini o‘qitishda kengaytirilgan didaktik birliklarning uslubiy xususiyatlari va usullari. “Ilm sarchashmalari” ilmiy-nazariy, metodik jurnal. Urganch, 2022, 8-son.

4. https://scholar.google.com/scholar?cluster=10331415000153413 26&hl=en&oi=scholar

Abdumannatova Aziza (SamDU tadqiqotchisi)

MUSIQA TURIZMI VOSITASIDA TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Annotatsiya. *Maqolada musiqa, musiqa turizmining tarixi va rivojlanish bosqichlari, Sharq musiqa san’atining tarixi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida toleriantlik sifatlarni takomillashtirishda musiqa turizmining o‘rni yoritilgan.*

Аннотация. *В статье описаны история и этапы развития музыкального туризма, история восточного музыкального искусства, роль музыкального туризма в совершенствовании качеств толерантности у будущих учителей музыки.*

Annotation. *The article describes the history and stages of development of musical tourism, the history of oriental musical art, the role of musical tourism in improving the qualities of tolerance among future music teachers.*

Kalit so‘zlar*: musiqa, turizm, talaba, vosita, tolerantlik, rivojlantirish, pedagogik, imkoniyat.*

Ключевые слова: *музыка, туризм, студент, инструмент, толерантность, развитие, педагогика, возможность.*

Key words: *music, tourism, student, instrument, tolerance, development, pedagogy, opportunity*.

Uchinchi Renesans poydevorini yaratishning muhim omillaridan biri – bu turizm. Turizm bugungi kunda nafaqat iqtisodiy daromad manbayi, balki barkamol avlodni tarbiyalashning hayotiy omillaridan biriga aylandi. 2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirishning taraqqiyot strategiyasida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish vazifasi qo‘yilgan. Ushbu vazifalar bugungi kunda respublikamizda tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Turizm infratuzilmasidagi mavjud muammolarni hal etish, taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini oshirish va jahon bozorlarida milliy turizm mahsulotlarini faol targ‘ib qilish, turizm tarmog‘ining kadrlar salohiyatini kuchaytirish orqali turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda mamlakatga kirib kelayotgan xorijiy fuqarolar sonini keskin ko‘paytirish maqsadida kelajakda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha chora-tadbirlarni faol amalga oshirish belgilab olindi:

– turistik faoliyat sohasiga oid normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan xalqaro me’yor va standartlarni joriy etish;

– turistlarning ehtiyojlari va talablarini inobatga olgan holda mamlakatning barcha hududlarida turizm infratuzilmasi va yondash infratuzilmani rivojlantirish;

– O‘zbekiston Respublikasi turistik mahsulotni ichki va tashqi turizm bozorlarida ilgari surish, uning sayohat va dam olish uchun xavfsiz mamlakat sifatidagi imidjini mustahkamlash;

– yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash, xizmat ko‘rsatish xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirish va boshqalar.[1]

Turizm shakli va mazmuni jihatdan bir necha turlarga bo‘linadi. Ulardan biri musiqa turizmidir. Musiqa turizmidan oldin musiqaning o‘ziga qisqacha to‘xtalsak.

Musiqa (yunon. mousiche–muzalar san’ati) inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tassavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag‘ma)lar izchilligi yoki majmuyi vositasida aks ettiruvchi san’at turi. Uning mazmuni o‘zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatlari (masalan, ko‘tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g‘amginlik, xavf-qo‘rquv va boshqalar)ni o‘zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (qat’iyatlik, intiluvchanlik, o‘ychanlik, vazminlik va boshqa)ni uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. “Musiqa insonning axloqiy va estetik didini shakllantirishi hissiy tuyg‘ularini rivojlantirishi ijodiy qobilyatlarini rag‘batlantirishi vositasi sifatidagi roli juda muhimdir”.

Musiqaning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq ilmiy farazlar mavjud. Hissiyotga to‘lgan nutq ohangi(G. Spener), qushlarning sayrashi va hayvonlarning o‘z juftlarini chaqirishi (Ch.Darvin), ibtidoiy odamlarning mehnat usullari (K.Byuxer), va ularning chaqiriq tovushlari (K.Shtumpf), jodu sehrlash marosimlari (J.Kombars) musiqaning ilk manbalari hisoblanadi.

Sharq mutafakkirlaridan Forobiy musiqa tarixini inson nutqining shakllanish jarayoni va hissiyotlari bilan bog‘liq holda, Ibn Xoldun (XIV asr) esa ijtimoiy tizimlarning shakllanish qadriyatlariga asoslangan holda tushintirgan.

Zamonaviy musiqashunoslik fani arxeologik va etnografiya ma’lumotlaridan kelib chiqib, musiqa san’ati ibtidoiy jamiyatda insonning amaliy faoliyati jarayonida boshqa san’at turlari (raqs, she’riyat va boshqalar)bilan qorishma (sinegretik) holda paydo bo‘lishini asoslab beradi.

Falsafa fanlari doktori, professor Jondor Tulenov “Hayot falsafasi” kitobida “Xalq nima uchun musiqani sevadi? Chunki musiqa mehnat unimini oshiradigan qudratli omillardan biridir. Qo‘shiqlar ham, o‘yinlar ham xalq tominidan o‘nlab yillar davomida yaratilgan qiyomiga yetkazilgan xalq ularda qimmatli narsalarnigina qoldirgan…Xalq barcha ma’naviy boyliklarining ham ijodkori ham asrovchisidir. Dunyoda qo‘shiq aytmaydigan dilrabo qo‘shiq, musiqa va baytlardan zavqlanmaydigan xalq, millat va elat bo‘lmasa kerak”, deb ta’kidlaydi.[2]

Musiqaning rivojlanishi ta’sirida yillar o‘tib, musiqa turizmi shakllanadi. “Musiqa turizmi – XIX–XX asrlarda Buyuk Britaniya va AQSHda paydo bo‘lgan. Keyinchalik, boshqa mamlakatlarga tarqalagan. Musiqa turizmini rivojlanishida yangi musiqiy janrlarning rivojlanishi, musiqaning ommalashuvi muhim omil bo‘lgan. Har bir janrning marshrut yo‘nalishi shunday ishlab chiqilganki, musiqa ixlosmandlari sayyoh ushbu janrning kelib chiqish shartlarini, rivojlanish tarixini bilib olishi mumkin edi. Infratuzilmaning xilma-xilligi va boyligi sayyohlarga qulay sharoitda dam olish imkonini berdi. Liverpul musiqa infratuzilmasi bilan uyg‘unlashgan shahar. Ko‘pgina muzeylar va do‘konlar “The Beatles” haqida gapirishadi va klublarda ijrochilar guruhnng qo‘shiqlarini ijro etishadi.

Demak, Yevropa davlatlarida musiqa turizmi haqida bilishadi va uning imkoniyatlaridan foydalanishmoqda. Musiqa turizmi 1969-yilda Nyu-Yorkda bo‘lib o‘tgan Vudstok festivalidan boshlangan. Ushbu festivalga yarim millionga yaqin kishi qatnashgan. Hozirgi kunda o‘tkazilayotgan tadbirlarda musiqadan tashqari, filmlar, tomoshalar, turli mamlakatlarning hunarmandchiligi bilan tanishish joylari, sport maydonchalari ham mavjud. Masalan, Vengriyadagi Sigetda dunyo turli mamlakatlarining butun “qishloqlari” bor. Bu yerda xalq hunarmandchiligi, xalqlar madaniyati, turli mamlakatlarning oshxonalari, albatta, musiqasi bor”.[3]

Musiqa turizmi yildan yilga rivojlanib bormoqda, festivallarning muxlislari ko‘payib bormoqda. Odamlar ofis va kafelardagi zerikarli yig‘ilishlardan charchagan, shu bois boy taassurotlarga ega bo‘lish uchun sayyohatlarga chiqishga tayyor. Bir qator Yevropa davlatlarida har yili minglab sayyohlarni to‘playdigan festivallar o‘tkaziladi. Masalan, Xorvatiyada Saundisavl festivali o‘tkaziladi. Bu, odatda, amfiteatrda yoki plyajda bo‘lib o‘tadi, iliq dengiz, oq qum, koktellar va ajoyib musiqa sayyohlarni zeriktirmaydi.

Italiyada Netmoge festivali mashhur bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati – g‘ayrioddiy ovoz, musiqaning sehrli olamiga sho‘ng‘ish va g‘ayrioddiy tasvirlar sirli va fantastik muhit yaratadi.

---

[1] Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., ”O‘zbekiston”, 2022, 440-bet.

[2] Tulenov J. Hayot falsafasi. T., “O‘zbekiston”, 1993, 309-bet.

[3] https://puteshestvennik.ru/muzyikalnyiy-turzm.html

Musiqa turizmining tarixiy ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. XVIII asrda Yevropa go‘zalligini biluvchilar Gendel yoki Motsartni tinglash uchun Gamburg yoki Vena shahriga kelishgan. Ovoz yozish imkoniyati bo‘lmagan kunlarda, bu musiqiy sayyohlar musiqasini eshitishning yagona yo‘li edi. Shuning uchun musiqiy sayyohlar soni sezilarli darajada oshgan.

Har yili dunyo bo‘ylab o‘tkazilyotgan musiqa festivallarida yoshlar faol ishtirok etmoqda. Musiqa ixlosmandlari o‘z sayohatlarida turli xil motivlarni boshqaradilar, kimdir jonli ijroni tinglashga, kimdir hamfikrlar bilan suhbatlashishga boradi. Barchaning asosiy maqsadi musiqa.[1]

Jahonda ilm-fan, madaniyat, me’morchilik, savdo-sotiqning rivojlanishida ko‘hna Sharqning alohida o‘rni bor. Jumladan, yer yuzining sayqali Samarqand qadimiy Sharq musiqa san’atining asosiy markazlaridan biri bo‘lib kelgan. Tarixchi olimlardan A.Berdimurodov va Sh.Indiaminovalarning “Buyuk ipak yo‘li” kitobida bu haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan: “Insoniyat tafakkurining buyuk kashfiyotlaridan biri bo‘lgan musiqa san’ati bizning yurtimizda ham shonli va qadimiy tarixiga ega. Musiqa madaniyati to‘g‘risida shohidlik beruvchi topilmalarning eng qadimgisi hozircha milloddan avvalgi XIII asrga borib taqaladi. Bu topilma Samarqand viloyati Urgut tumanidagi Mo‘minobod qishlog‘idagi bronza davriga oid qabrdan topilgan, hayvon suyagidan yasalgan mo‘jazgina sibizg‘a-naydir. Uning saqlanib qolgan uzunligi 4,2 sm bo‘lib, tashqi tomoni hafsala bilan silliqlangan, ikki tomoni ko‘ndalangiga kesilgan, o‘rtasida romb shaklida teshik bor. Shuningdek Samarqandning qadimiy o‘rni bo‘lgan Afrosiyobdan topilgan, milloddan avvalgi I asrlarga oid bir nechta ud chalayotgan ayol aks ettirilgan Terakota-haykalchalaridir. Afrosiyob shahar xarobalarida ochib o‘rganilgan saroylar, xonadonlarning devorlarida ko‘plab musiqachilar tasvirlari mavjud. Ulardan birida arfa chalayotgan, g‘oyatda bashang kiyingan aslzoda ayol tasvirlangan bo‘lsa, boshqa bir sur’atda musiqachilar guruhi o‘z aksini topgan.

Buyuk ipak yo‘li orqali sug‘diylarning musiqa madaniyati Sharqiy Turkiston, Xitoy, Koreya, Yaponiyagacha yetib borgan. Xitoylik olim Sun Siyanning yozishicha, V asrdan X asrgacha samarqandlik sug‘diylarning qo‘shiqlari, raqslari va musiqa asboblari doimiy ravishda Xitoy imperatorlarining saroylari, shahar va qishloqlari bo‘ylab tarqalib turgan. Yaponiyalik olim Kasibe Tan imperiyasi saroyida faoliyat ko‘rsatgan g‘arblik, ya’ni Markaziy Osiyo va Sharqiy turkistonlik o‘ttiz bitta musiqachining nomini ochiqlagan”.

Tan imperiyasi davrida 727-yilda Keshdan, 729-yilda Maymurg‘dan, 713 va 727-yillarda Samarqanddan Xitoyga yosh yigit va raqqosalar borganlar. Ular qirmizi ko‘ylak, qizil zamshdan kovush kiyib raqs ijro etganlar. Raqslar ikki turga bo‘lingan – birinchi tur raqslar shoirona nozik, gavda va qo‘l barmoqlariga alohida e’tibor beriladigan harakatlar orqali nafis ijro etilsa, ikkinchi tur raqslar esa sho‘x-shodon, shiddatli va akrobatik usullarda ijro etilgan. Ularning raqslari to‘g‘risida xitoylik shoirlar Bo Tszyuy va Yuan Chjenlar “shamoldek charx urayotgan g‘arblik qizlar”, degan she’rlar ham bitganlar. Bu qizlardan xitoylik malikalar Yan va Rokshanlar sug‘diy raqslarining bir necha ijro usullarini o‘rganishgan. Sharqiy Turkiston, Xitoy, Uzoq Sharq o‘zining noyob musiqa madaniyatini doimiy ravishda “eksport” qilib, bu mamlakatlarning musiqa, qo‘shiqchilik va raqs san’atining rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Arablarga qarshi olib borilgan kurashlar barham topgandan keyin, tinchlik sharoitida Markaziy Osiyo, Eron va Old Osiyo xalqlarining musiqa madaniyatlari bir-biriga yaqinlashdi. Jumladan, Markaziy Osiyo va Eron o‘lkalari uchun xos bo‘lgan ud–cholg‘u asbobi Old Osiyo, Shimoliy Afrika va Ispaniyagacha tarqalgan. Musiqa madaniyatining keyingi rivojlanishi Sohibqiron Amir Temur va temuriylar sulolasi bilan bog‘liq.

Faktlar shundan dalolat bermoqdaki, musiqa qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifodalaydi. Xalqlar va millatlar o‘rtasida muloqat madaniyatini rivojlantirishga o‘zaro do‘stlik, tolerantlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qilib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Shu o‘rinda tolerantlik tushunchasiga qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Tolerantlik (lotincha tolerantio–sabr-toqat, bag‘rikenglik, o‘zgalarning turmush tarzi, xulq atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalari, g‘oyalari va e’tiqodlariga nisbatan toqatli bo‘lish). Hozir dunyoda tolerantlik o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning globallashuvi va yanada mobillashuvi, kommunikatsiyalarning tez rivojlanishi integratsiya va o‘zaro bog‘liqlik, keng miqyosda va aholining ko‘chib yurishi boshqa jamiyatda tolerantlik tamoyilining ahamiyatini kuchaytiradi. Bag‘rikenglik tamoyili aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatadi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro-huquqiy hujjatlarda belgilangan qoidalarni tasdiqlaydi. Bu tamoyilga ko‘ra, har kim bu huquqqa boshqalar ham ega ekanligini tan olmog‘i lozim. Bir insonning qarashlarini boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas. Tolerantlikni alohida shaxslar, guruhlar va davlatlar namoyon qilishi lozim. Tole-

[1] Shu manba.

rantlikni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida UNESKO “Bag‘rikenglik tamoyillari deklorat-siyasi”ni 1995-yil 16-noyabrda qabul qilgan. Mamlakatimizda turli toifadagi odamlar, siyosiy kuchlar va partiyalar o‘rtasida hamkorlik millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglik tamoyili ijtimoiy taraqqiyot-ning muhim omillaridan biridir. O‘zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagan va xalqimizning azaliy bag‘rikengligini ko‘rsatadi.

Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida tolerantlikni rivojlantirishda bevosita musiqa turizmining o‘rni muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridagi misollar musiqa xalqlar, millatlar va ellatlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘stlik, birodarlik, yaqin qo‘shnichilik, bag‘rikenglik kabi insoniy sifatlarni shakllantirishga xizmat qilib keldi va bugun ham bu jarayon davom etmoqda. “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali, davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan Termiz shahrida xalq baxshichiligi, Shahrisabz shahrida har ik-ki yilda xalqaro maqom san’atiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tadbirlar va har yili mustaqillik bayrami arafasi-da shahar va tuman markazlarida o‘tkazilayotgan san’at festivallari barkamol avlod tarbiyasida musiqa va musiqa turizmi o‘rni va ahamiyatini amaldagi ifodasidir.

Yuqorida keltirib o‘tilgan fikr va mulohazalar bugungi kunda ko‘p millatli mamlakatimizning ya-nada tinch-osoyishta va farovon hayotini ta’minlashda musiqa turizmining o‘rni beqiyos ekanligini ang-latadi.

Shu bois musiqa turizmining talabalarda tolerantlikni rivojlantirishdagi o‘rni ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilsa;

–talabalarda musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirishning o‘rgalignalik darajasi tahlil qilinsa;

–talabalarda musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqilsa;

–bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘quv rejaga “Talabalarda musiqa turizmi vositasi-da tolerantlikni takomillashtirish” mavzusi maxsus kurs sifatida kiritilsa;

–talabalarda musiqa turizmi vositasida tolerantlikni rivojlantirishga oid o‘quv, o‘quv uslubiy, qo‘l-lanmalar nashr etilsa;

–musiqa nazariyasi va uslubiyati musiqa tarixi yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan yangi avlod dars-liklari musiqa turizmiga oid yangi ma’lumotlar bilan boyitilsa;

–talabalarga musiqa turizmi bo‘yicha saviyasi yuqori, bilim doirasi keng bo‘lgan professor-o‘qi-tuvchilar dars mashg‘ulotlarini olib borsa, malakali kadrlarni tayyorlashdek davlat buyurtmasi bajarilgan bo‘ladi.

Siddiqova Iroda Abduzuxurovna (O‘zbekiston Milliy universiteti Tarjima nazariyasi va qiyosiy tilshunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori),
Radjabov Nasir Nasimovich (O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti Tillarni o‘rganish kafedrasi professori, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent)

INGLIZCHA ‘A’ HARFI O‘QILISHINING HARBIY TERMINLARDA O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya*. Maqola ingliz tilida ‘a’ unlisi o‘qilishining harbiy terminlar misolidagi talqiniga ba-g‘ishlangan. Unda ‘a’ harfi o‘qilishining harbiy terminlarda o‘ziga xosligi tadqiq qilingan. Harbiy ter-minlarda ‘a’ unlisini grafik bo‘g‘in qoidasi asosida o‘qish borasida yuzaga keladigan qiyinchiliklar isho-narli dalillar bilan izohlangan. Maqola so‘gida, ingliz tili harbiy terminlarida ‘a’ harfi o‘qilishini orfo-epik lug‘atlar vositasida o‘qitish maqsdga muvofiq bo‘ladi, deb xulosa qilingan.*

Аннотация*. Статья посвящена интерпретации правил чтения английской гласной ‘a’ на примере военных терминов. В статье, более подробно изучены особенности прочтения гласной буквы ‘a’ в военных терминах, а также были объяснены проблемные моменты чтения гласной буквы ‘a’ согласно правилу графического слога. В статье сделан вывод о том, что целесообразно обучать чтению гласной буквы ‘a’ с помощью орфоэпических словарей, сели речь идет о военных терминах.*

Annotation*. The article is dedicated to the interpretation of reading rules of English vowel ‘a’ in the examples of military terms. The specialty of reading vowel letter ‘a’ in the military terms has been studied thoroughly in the article. The problematic points of reading the vowel letter ‘a’ according to the rule of graphic syllable have been explained with factual examples. The article has been concluded that it is expedient to teach the reading of vowel letter ‘a’ with help of orthoepic dictionaries when it comes in the military terms.*

Kalit so‘zlar: *fonetika, fonologiya, nutq tovushlari, urg‘uli bo‘g‘in, urg‘usiz bo‘g‘in, grafik bo‘g‘in.*

Ключевые слова: *фонетика, фонология, звуки речи, ударный слог, безударный слог, фонетический слог, графический слог.*

Key words: *phonetics, phonology, speech sounds, stressed syllable, unstressed syllable, phonetic syllable, graphic syllable.*

Tilning muloqot shakli bo‘lgan nutq fonetik, leksik va grammatik birliklarning sintakmatik aloqaga kirishishidan yuzaga keladi. Og‘zaki muloqot uchun tilning har uchala (fonetik, leksik va grammatik) qatlami ham muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu borada, fonetikaning o‘rnini alohida ta’kidlash lozim. Leksik birliklar ham, grammatik birliklar ham hosil bo‘lishi, shuningdek, muloqotda ifodalanish usuliga ko‘ra, fonetikaga bog‘liq ekanligi tildagi hech bir qatlam og‘zaki nutqda fonetikadan tashqarida mavjud bo‘la olmasligini ko‘rsatadi. Tilning tovush sohasini ifodalashda fonetika bilan bir qatorda, fonologiya termini ham qo‘llanadi. Fonetika va fonologiya Praga tilshunoslik maktabi nazariyasiga ko‘ra, turli fan sohalari sifatida talqin qilinsada,[1] ko‘pchilik tilshunoslar fonetika va fonologiyani bir fanning o‘zaro bog‘liq aspektlari, deb izohlashadi.[2] Fonetika va fonologiyani bir fan sifatida talqin qilishda R.Ogdenning “Fonetika – nutq tovushlarini, fonologiya – tovush tizimini o‘rganadi”,[3] degan ta’rifi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Mazkur ta’rif, bir qarashda, fonetikaning o‘rganish obyektini chegaralab qo‘ygandek tuyuladi. Zero, fonetika nafaqat nutq tovushlarini, balki bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya kabi birliklarni ham tadqiq qiladi. Lekin bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyani nutq tovushlaridan ajralgan holda o‘rganish imkonsiz ekanligini, ya’ni, bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiyani o‘rganishda nutq tovushlarining “material” sifatida ishtirokini hisobga olsak, fonetikaning asosiy o‘rganish obyekti nutq tovushlari ekanligi namoyon bo‘ladi. A.Maxsumov fonetikaning tadqiqot ob’ekti borasida quyidagi fikrni ilgari suradi: “Основным объектом предмета фонетики является «фонетические средства языка», т.е. образование звуков речи, их акустические, артикуляционные и слуховые особенности, а также природы, свойства и функции слога, ударения, ритма и интонации в предложениях.

Главное место среди этих средств занимают «звуки речи» или система сегментных единиц: это основное средство его материализации. Поэтому звуки речи составляют основной объект науке о «фонетике».[4]Mazkur fikr ham fonetikaning asosiy o‘rganish obyekti nutq tovushlari ekanligini izohlaydi.

Nutq tovushlarining fonetik xususiyatlarini o‘rganish ularni me’yor doirasida talaffuz qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Nutq tovushlarini risoladagidek talaffuz qilishning ahamiyati chet til o‘rganish jarayonida ikki hissa ortadi. Chunki so‘zlovchi o‘zining ona tili leksikasi hamda talaffuz me’yorlari borasida yetarli bilim va ko‘nikmaga ega ekanligi tufayli noto‘g‘ri talaffuz natijasida so‘z ma’nosiga putur etganini darhol his qilishi va yo‘l qo‘yilgan xatoni o‘z vaqtida bartaraf etishi mumkin. Lekin mazkur xatolik chet tili bilan ro‘y berganda, so‘zlovchiga uni o‘z vaqtida anglash har doim ham oson bo‘lmaydi. Bu so‘zlovchining muloqot qilayotgan chet tilini bilish darajasiga bog‘liq. Chet tilini, ayniqsa, uning leksikasini ona tilidek mukammal bilish esa amri maholdir. Mazkur holatdagi muammoni bartaraf etishda chet tili nutq tovushlarining talaffuz me’yorlarini sinchiklab o‘rganish asosiy omil sanaladi.

Chet tilidagi nutq tovushlarining risoladagidek talaffuzini o‘rganishda ularning yozuvda qaysi harflar bilan ifodalanishini ham o‘zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Chunki o‘rganuvchi o‘qish (reading), eshitgan ma’lumotni yozish (writing) kabi til ko‘nikmalarini namoyon etishda tovushlarning yozuvdagi aksi bo‘lgan harflarga duch keladi. Bu jarayonda o‘rganuvchi xatoga yo‘l qo‘ymasligi uning qaysi harf qaysi tovushni ifodalashini bilish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Nutq tovushlarining yozuvdagi aksi bo‘lgan harflar ham turli tillarda o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Masalan, unli harflarning har biri o‘zbek tilida bitta tovushni ifodalasa, ingliz tilida ularning har biri bir nechta tovushlarni ifodalaydi. Ya’ni, ingliz tilida bitta unli grafik bo‘g‘inning har bir turida boshqa-boshqa tovushlarni anglatadi. Tilshunoslikda bo‘g‘inning grafik hamda fonetik turlari farqlanadi.[5] Grafik bo‘g‘in harflarga, fonetik bo‘g‘in esa nutq tovushlariga asoslanadi. Ingliz tilida grafik bo‘g‘in soni fonetik bo‘g‘in soni bilan ba’zan mos kelsa-da, ba’zi so‘zlarda ular farqlanadi. Inglizcha *cat*/kæt/ so‘zi grafik va fonetik bo‘g‘in nuqtayi nazari-

[1] Трубецкой Н.С. Основы фонологии. 2-издание, М., “Аспект Пресс”, 2000, с. 9.
[2] Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. 2-нашр, Тошкент, “Ўқитувчи”, 2010. 58-бет.
[3] Ogden R. An Introduction to English Phonetics. Edinburgh University Press, 2009, p. 1.
[4] Maksumov A.G. English Phonetics. T., “Fan va texnologiya”, 2016, p. 28.
[5] Shu manba. 245-bet.

dan bir bo‘g‘inli hisoblanadi, biroq *ca/ke* /keık/ so‘zi grafik jihatdan ikki bo‘g‘inli, fonetik jihatdan esa bir bo‘g‘inli sanaladi. Ingliz tilida grafik bo‘g‘ining quyidagi turlari mavjud:

I. Ochiq bo‘g‘in (unli harf bilan tugagan bo‘g‘in: so/fa, la/te).

II. Yopiq bo‘g‘in (‘r’ harfidan boshqa undoshga tugagan bo‘g‘in: fat, pen).

III. r+undosh bo‘g‘in (‘r’ harfiga yoki ‘r’+undoshga tugagan bo‘g‘in: car, card).

IV. r+unli bo‘g‘in (‘r’+unliga tugagan bo‘g‘in: care, fare).

Ingliz tilida unli harflarning grafik bo‘g‘in turiga ko‘ra o‘qilishi urg‘uli va urg‘usiz holatlarda farq qiladi. Masalan, ‘a’ harfi urg‘uli holatdagi ochiq bo‘g‘inda /eı/: late /leıt/, yopiq bo‘g‘inda /æ/: *fat* /fæt/, r+undosh bo‘g‘inda /a:/: *card* /ka:d/, r+unli bo‘g‘inda /eə/: *rare* /reə/; urg‘usiz holatda esa, asosan, /ə/: *about* /ə′baut/ deb o‘qiladi. Bu umumiy qoidaga harbiy sohaga oid terminlarda qay darajada amal qili-nishini aniqlash maqsadida biz ‘a’ harfi ishtirok etgan 60 tadan ortiq harbiy terminni tahlil qildik. Tahlilga tortilgan harbiy terminlarda ‘a’ harfining grafik bo‘g‘in turiga ko‘ra o‘qilishini quyidagicha izohlash mumkin:

Harbiy terminlarda ‘a’ harfi urg‘uli ochiq bo‘g‘inda, aksariyat hollarda, /eı/ tovushini ifodalaydi: *base n.* [beıs] *(harbiy baza), cadence n.* [′keıdəns] *(harbiy qo‘shiq), fortification n.* [ˌfɔ:tıfı′keıʃn] *(xudud himoyasini ta’minlashga mo‘ljallangan mustahkam devorlar), grenade n.* [grı′neıd] *(granata), invade v.* [ın′veıd] *(boshqa davlat chegarasiga bostirib kirmoq), lane n.* [leın] *(minadan tozalangan yo‘lak), major n.* [′meıʤə] *(mayyor), navy n.* [′neıvı] *(dengiz harbiy qo‘shini), parade n.* [pə′reıd] *(harbiy parad).*

Harbiy terminlarning urg‘uli yopiq bo‘g‘inida ‘a’ harfi, ko‘p hollarda, /æ/ tovushi bilan o‘qiladi: *attack n.* [ə′tæk] *(harbiy hujum), adjutant n.* [′æʤətənt] *(batalon ofitseri), Barrett n.* [′bærət] *(snayperli avtomat), barracks n.* [′bærəks] *(kazarma), batman n.* [′bætmən] *(ofitserga yordamchi soldat), battery n.* [′bæt(ə)rı] *(olti va undan ortiq qurollardan iborat artilleriya), battle n.* [′bæt(ə)l] *(qurolli kuchlar o‘rtasidagi urush), camp n.* [′kæmp] *(harbiy qism), cannon n.* [′kænən] *(portlovchi moslamalarni otishga mo‘ljallangan g‘ildirakli yirik qurol), captain n.* [′kæptın] *(kapitan), flank n.* [flæŋk] *(harbiy qo‘shinning o‘ng yoki so‘l qanoti), garrison n.* [′gær.ı.sən] *(xududni himoya qilish maqsadida joylashgan qo‘shin), sangar n.* [′sæŋgə] *(ortida turib otishga mo‘ljallangan yarim aylana shakldagi himoya devori), tank n.* [tæŋk] *(tank)..*

Harbiy terminlarning ‘r’ undoshi yoki r+undosh bilan tugagan urg‘uli bo‘g‘inida ‘a’ harfi /a:/ tovushini ifodalaydi: *army n.* [′ɑ:mı] *(armiya), armament n.* [′ɑ:məmənt] *(harbiy uskunalar), bombard v.* [bɒm′bɑ:d] *(artilleriya bilan hujum qilmoq), carbine n.* [′kɑ:baın] *(engil, kichik avtomat), disarm v.* [dıs′ɑ:m] *(qurolsizlantirmoq), marshal n.* [′mɑ:ʃ(ə)l] *(marshal, harbiy unvon), march v.* [mɑ:ʧ] *(harbiycha shaxdam qadam bosmoq), unarmed adj.* [ʌn′ɑ:md] *(qurolsiz).*

Harbiy terminlarning r+unli bilan tugagan urg‘uli bo‘g‘inida ‘a’ harfi /eə/ tovushi bilan o‘qiladi: *flare n.* [flɛə] *(harbiy mashg‘ulotlarda belgi berish uchun qo‘llanadigan yorug‘lik hosil qiluvchi perotexnika vositasi).*

Harbiy terminlarning urg‘usiz bo‘g‘inida ‘a’ harfi ko‘p hollarda /ə/ tovushini ifodalaydi: *cadet n.* [kə′det] *(kursant)*, frigate [′frıgət] *(harbiy kema), general n.* [′ʤenrəl] *(general), infantry n.* [′ınfəntrı] *(piyoda askar), leytenant n.* [lef′tenənt] *(leytenant), patrol n.* [pə′trəʊl] *(hududni noqonuniy xatti-harakatlardan himoya qilish maqsadida nazorat qilish), platoon n.* [plə′tu:n] *(harbiy bo‘linma (vzvod), submarine n.* [ˌsʌbmə′ri:n] *(harbiy suv osti kemasi).*

Keltirilgan misollarda inglizcha ‘a’ harfining harbiy terminlarda o‘qilishi umumiy qoidalarga mos keladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ‘a’ harfining harbiy terminlarda o‘qilishi borasida muammo yo‘qdek tuyuladi, lekin aslida bunday emas. Ingliz tilida bir qator harbiy terminlar borki, ularda ‘a’ harfining o‘qilishi grafik bo‘g‘in qoidasiga to‘g‘ri kelmaydi. Bunga quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Abrams n. [′eıbrəmz] *(amerika harbiy tanki), armed neutrality n.* [ˌɑ:md nju:′trælıtı] *(neytral davlatning himoya maqsadida harbiy qo‘shindan foydalanishi), batalyon n.* [bə′tæljən] *(batalyon), cadre n.* [′ka:də] *(puxta harbiy tayyorgarlikka ega piyoda askarlarning kichik bo‘linmasi), casualty n.* [′kæʒʊəltı] *(jabrlangan yoki halok bo‘lgan askar(lar), cavalry n.* [′kæv(ə)lrı] *(otliq askarlar), chamber n.* [′ʧeımbə] *(qurolning o‘q joylanadigan qismi), commander n.* [kə′ma:ndə] *(komandir), lager n.* [′la:gə] *(qurollangan harbiy transportlarning vaqtinchalik qarorgohi), pacifist n.* [′pæsıfıst] *(urush muammoni bartaraf qilishning noto‘g‘ri usuli), parachute n.* [′pærəʃu:t] *(parashut), paratroops n.* [′pærətru:ps] *(parashutdan sakrashga tayyorlangan askarlar), sabre n.* [′seıbə] *(yarim oysimon qilich), submariner n.* [sʌb′mærınə] *(harbiy suv osti kemasi xizmatchisi), war n.* [wɔ:] *(urush), Warrior n.* [′wɒrıə] *(harbiy transport).*

Grafik bo‘g‘inga ajratish qoidasiga ko‘ra ‘a’ harfi *armed neutrality (neut/ra/li/ty), battalion (bat/ta/lion), casualty (ca/su/al/ty), cavalry (ca/val/ry), lager (la/ger), pacifist (pa/ci/fist), parachute (pa/*

ra/chu/te), paratroops (pa/rat/roops), submariner (sub/ma/ri/ner) kabi harbiy terminlarda ochiq bo‘g‘inda qo‘llangan. Unlilarni o‘qish qoidasiga asoslansak, ‘a’ harfi mazkur terminlarning urg‘uli ochiq bo‘g‘inida kelgani sababli /eɪ/ deb o‘qilishi kerak edi. Biroq, qayd etilgan terminlarning urg‘uli ochiq bo‘g‘inida ‘a’ harfini /eɪ/ deb o‘qish xato hisoblanadi. *cadre (cad/re), chamber (cham/ber), commander (com/man/der), sabre (sab/re), Warrior (War/ri/or)* kabi terminlarda esa ‘a’ harfining o‘rni grafik bo‘g‘in qoidasiga ko‘ra urg‘uli yopiq bo‘g‘in hisoblansa-da, uning o‘qilishi qoidaga mos kelmaydi. Shuningdek, ‘a’ harfini harbiy terminlarda o‘qilishining o‘ziga xos jihatlarini urg‘usiz holatda ham kuzatish mumkin. Unlilarni umumiy o‘qish qoidasiga ko‘ra, ‘a’ harfi harbiy terminlarning urg‘usiz bo‘g‘inida /ə/ deb o‘qiladi: *platoon n.* [plə′tu:n], *submarine n.* [ˌsʌbmə′ri:n]. Biroq, quyidagi harbiy terminlarda ‘a’ harfi urg‘usiz bo‘g‘inda bo‘lsa-da, /ə/ tovushi bilan o‘qilmaydi:

artillery n. [ɑ:′tɪlərɪ] *(harbiy qurollar), barrage n.* [′bærɑ:ʒ] *(artilleriya hujumi), campaign n.* [kæm′peɪn] *(ma’lum bir hududda maqsadli amalga oshiriladigan harbiy mashg‘ulotlar), combat n.* [′kɒmbæt] *(do‘shmanga qarshi kurashish), commandant n.* [′kɒməndænt] *(komendant ofitser), magazine n.* [mægə′zi:n] *(o‘qdon).*[1] Qayd etilgan misollarda ‘a’ harfining o‘ziga xos tarzda o‘qilishi ingliz tilida harbiy terminlarni o‘rganish jarayonida unlilarning o‘qilishi bilan bog‘liq xatolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Zero, unli harflarning o‘qilishini grafik bo‘g‘in qoidasi asosida o‘zlashtirgan til o‘rganuvchilar ‘a’ harfini mazkur terminlarning urg‘usiz bo‘g‘inida /ə/ deb o‘qish bilan xatoga yo‘l qo‘yishi, tabiiy. Bu kabi xatolarni oldini olish uchun ingliz tilida harbiy terminlarni orfoepik lug‘atlar vositasida o‘qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, orfoepik lug‘atlar so‘zlarning o‘qilishidagi o‘ziga xos xususiyatlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Ingliz tilida orfoepik lug‘atlar boshqa tillarga nisbatan ancha mukammal ishlab chiqilgan bo‘lib, ularda har bir so‘zning o‘qilishi Xalqaro Fonetik Assotsiatsiya tomonidan taklif qilingan fonetik transkripsiya asosida ifodalanadi. Mazkur orfoepik lug‘atlardan o‘rinli foydalanish kursantlarga ingliz tili so‘zlarining, xususan, harbiy terminlarning talaffuzini mukammal o‘qitishda o‘qituvchiga “yordamchi vosita” sifatida xizmat qiladi. Ingliz tili so‘zlarining o‘qilishida “qoidadan mustasno” holatlarning nisbatan ko‘p uchrashi harbiy terminlar talaffuzini o‘qitishda orfoepik lug‘atlardan foydalanishning ahamiyati naqadar muhim ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Zero, o‘rganilayotgan har bir harbiy terminning talaffuzi har doim ham umumiy talaffuz me’yorlari asosida bo‘lmasligi ingliz tili uchun tabiiy holdir. Shu nuqtayi nazardan, kursantlarga inglizcha so‘zlar, xususan, harbiy terminlar talaffuzini orfoepik lug‘atlar vositasida o‘qitish hamda dars jarayonida kursantlarning orfoepik lug‘atlardan foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish ingliz tili talaffuzini samarali o‘qitishda muhim omil bo‘ladi.

Yuqoridagi fikrlarni xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, ingliz tilida “a” harfining harbiy terminlarda o‘qilishi o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Inglizcha harbiy terminlarning talaffuzini o‘qitishda mazkur holatni alohida e’tiborga olish lozim. “A” harfini ba’zi harbiy terminlarda grafik bo‘g‘in qoidasi asosida o‘qish ularning talaffuziga putur yetkazadi. Mazkur muammoni bartaraf etishda inglizcha harbiy terminlar talaffuzini orfoepik lug‘atlar asosida o‘qitish samarali usul sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, inglizcha harbiy terminlar talaffuzini orfoepik lug‘atlar asosida o‘qitish hamda kursantlarda har qanday yangi so‘z yoki terminning talaffuzini orfoepik lug‘atlar yordamida o‘zlashtirish ko‘nikmasini shakllantirish ingliz tili talaffuzini o‘qitish jarayonini samarali tashkil etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mirzakarimova Maxliyoxon Madaminjonovna (Andijon davlat Chet tillari instituti;
e-mail: maxliyo82uz@gmail.com)

INGLIZ TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILAR TADBIRKORLIK KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. *Maqolada ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish va boshqarishda o‘qitishning tadbirkorlikka asoslangan shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasi mazmuni, tamoyillari, o‘quvchilarda tadbirkorlik sifatlarini shakllantirish bosqichlari, ingliz tili darslarida o‘quvchilarning tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishni modellashtirishning asosiy qoidalari yoritilgan.*

Аннотация. *В статье описаны содержание и принципы личностно-ориентированной технологии обучения на основе предприимчивости в совершенствовании и управлении методическими*

[1] Richard Bowyer. Campaign. Dictionary of Military Terms. Third ed. Thailand: Bloomsbury, 2004.

основами развития предпринимательских способностей учащихся на занятиях по английскому языку, этапы формирования предпринимательских качеств у учащихся, основные правила моделирования развития предпринимательских способностей учащихся на уроках английского языка.

Annotation. *The article describes the content and principles of entrepreneurship-based person-oriented technology of teaching in improving and managing the methodological foundations of the development of entrepreneurial skills of students in English classes, the stages of forming entrepreneurial qualities in students, the main rules of modeling the development of entrepreneurial skills of students in English classes.*

Kalit so'zlar: *tadbirkorlik ko'nikmalari, pedagogik texnologiya, tadbirkorlik sifatlari, shaxsga yo'naltirilgan texnologiya, tamoyillar, bosqichlar, modellashtirish.*

Ключевые слова: *предпринимательские способности, педагогическая технология, предпринимательские качества, личностно-ориентированная технология, принципы, этапы, моделирование.*

Key words: *entrepreneurial skills, pedagogical technology, entrepreneurial qualities, person-oriented technology, principles, stages, modeling.*

Jahon ta'limi tizimida ingliz tili darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslarini takomillashtirish orqali o'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ularda tashabbuskorlik sifatlarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ilg'or mamlakatlar ta'limi tizimida ingliz tili darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan dunyoviy va mintaqaviy dasturlar amalga oshirilmoqda. Bozor iqtisodiyotini diversifikatsiyalash sharoitida ingliz tili darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'lajak mutaxassislarni hayotiy faoliyatga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Jahon ta'limi tizimidagi o'zgarishlar va rivojlangan davlatlar tajribasiga ko'ra, mamlakat eksport salohiyatini yanada oshirish uchun ingliz tili darslarida o'quvchilarning tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning integratsiyalashgan mexanizmlarini takomillashtirish orqali o'quvchilarda tadbirkorlik kompetensiyasini rivojlantirish kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda.

Zamonaviy pedagogik texnologiya va yutuqlaridan keng foydalanish, ularni ta'lim tizimida joriy etib borish ta'lim tizimining sifatli tashkil etilishida muhim omil hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya–o'qitishning innovatsion modellarini amalga oshirishda tashxislanuvchi va kafolatlanuvchi natijani ta'minlovchi harakatlar, jarayonlar va tadbirlarning tartibga solingan yig'indisi.

Ingliz tili darslarida o'quvchilar tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning maqsadlari va tamoyillariga muvofiq, o'quv jarayonini jadallashtirish uchun shaxsga yo'naltirilgan texnologiya – mashg'ulotlarni o'tkazishning faol tashkiliy shakllarini tayyorlash sifati va monitoringi bilan birgalikda, o'qitish mazmunini modulli tashkil etishga asoslangan, shuningdek, ta'lim oluvchining shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyadir.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda tahsil oluvchi shaxs ta'lim jarayoni markaziga qo'yiladi, asosiy e'tibor uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoit yaratish, intellektual va emotsional-motivatsion rivojlanishi, bilim va kasbiy malakalar shakllanishi, ta'lim jarayoniga qadriyat sifatida yondashish munosabatini ta'minlash, faollikni oshirish, o'z-o'zini anglash va mustaqilligini shakllantirishga qaratiladi. Shuning uchun bu texnologiya o'quvchining faqat ingliz tili darslaridan bilimlar, ko'nikmalar va malakalarnigina emas, balki shaxsiy imkoniyatlarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. An'anaviy ta'limda o'quvchini o'qitish jarayonida o'quvchi shaxsining rivojlanishiga ma'lum darajada ahamiyat beradi, ammo bunda mazkur rivojlanishni kasb faoliyati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarning ma'lum to'plamining shakllanishi, shaxsning kasb qobiliyatlari va kasbiy muhim sifatlarining rivojlanish natijasi sifatida qarab chiqilmaydi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyaning asosida kasbiy majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan, shaxsning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari, malakalari va sifatlarining to'plamini shakllantirish yotadi. Unda birinchi o'ringa shaxsning intellektual va ma'naviy imkoniyatlari, murakkab ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda erkin o'z yo'lini topa olish qobiliyati, innovatsion, ijodiy jarayonlarni amalga oshirish qobiliyatini ochib berish yotadi.[1]

[1] Rahmatullayeva D.R. O'quvchilarni tadbirkorlik faoliyatiga yo'naltirib o'qitishga oid yondashuvlar. «Ta'lim, fan va innovatsiya», T., 2016, 4-son, 86 – 91-betlar.

1-rasm. Ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayoni tamoyillari.



Ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning tarkibiy qismi o‘zgaruvchan (moslashuvchanlik), modullilik, induvidiallashtirish tamoyillariga asoslangan. Bunda rivojlantiruvchi ta’lim modeli va tamoyillaridan foydalaniladi. Uning maqsadi o‘quvchida tadbirkorlik sifatlarini rivojlantirishdan iborat.

Rivojlantiruvchi ta’lim modeli muammoli-izlanuvchan, kommunikativ va immitatsion-rolli texnologiyalarning kompleks qo‘llanishi sharoitida amalga oshirilishi mumkin.

Muammoli-izlanuvchan texnologiyalar o‘quvchilarning muammoni mustaqil anglashi va uni hal etish usullarini izlashini nazarda tutadi.


Kommunikativ texnologiyalar jamoaviy fikrlash faoliyatini tashkil etishga imkon beradi.

Immitatsion-rolli texnologiyalar o‘quvchilarda turli xil vaziyatlarda amaliy harakatlar va yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya doirasida o‘quv-tarbiyaviy jarayonida ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning quyidagi tamoyillar yig‘indisi asosida tartibga solinadi: subyektivlik, integrativlik, differensional (tabaqalanish), induvididuallashtirish, moslanuvchanlik va refleksivlik.[1]

[1] Rahmatullayeva D.R. Bo‘lajak mutaxassislarni tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirib o‘qitish texnologiyasi. «Zamonaviy ta’lim”, “Sovremennoye obrazovaniye”, T., 2017, 1-son, 70 – 74-betlar.

2-rasm. Ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tamoyillari.



Ta’lim jarayonida barcha tamoyillarni birgalikda amalga oshirish o‘quvchilarning bilimini rivojlantirish, o‘qitish va tarbiyalash, boshqaruv va tadbirkorlik faoliyati bilan bog‘liq qadriyatli munosabatlarni rivojlantirish, kasb muammolarini hal etish tajribasini shakllantirish, natijalarni baholash mezonlarini anglashga erishishga olib keladi.

3-rasm. Umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo‘naltirib o‘qitishning konseptual qoidalari.

Ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning konseptual qoidalari		
- tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy jamiyatda ijtimoiy va iqtisodiy jihatidan muvaffaqiyati bo‘lajak tadbirkorning kasbiy tayyorgarlik darajasi va tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarligi bilan belgilanadi	-ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning maqsadi ishlab chiqarish va xizmatlar sohasidan, mehnat bozoridan kelib chiqib belgilanadi, ishni endi boshlagan tadbirkor o‘z faoliyatida boshidan o‘tkazadigan qiyinchiliklarni, biznes sohasi va tadbirkorlik madaniyatining rivojlanish istiqbollarini hisobga oladi	- tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarlik o‘quvchilarning o‘ziga xos kompetensiyalari, ijodiy yondashuvi va yetakchilik sifatlarini shakllantirishga imkon beruvchi tadbirkorlik faoliyati va o‘qitish texnologiyasining mazmuni, xususiyati va xarakterini ochib berish uchun o‘quv fanlarining o‘rgatuvchi va tarbiyalovchi imkoniyatlari vositasi bilan o‘quvchilarni sinfdan tashqari kasbiy tayyorlash jarayonida amalga oshiriladi

Ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy maqsadi – o‘quv-tarbiyaviy jarayonining turli xil bo‘g‘inlarining mazmuni, vositalari, shakllari va uslublarining ma’lum darajada kelishini muvofiqlashtirishni nazarda tutadi. O‘quv-tarbiyaviy jarayonning barcha bo‘g‘inlarining zarur darajada o‘zaro ta’sirlashuvi, mustaqil integrativ jarayonlarning faoliyat yuritishini ta’minlash mumkin. Har qanday integrativ jarayon ma’lum bir pedagogik ustuvorlikka mos keladi, u o‘zining mazmuni, vositalari, amalga oshirish usullariga ega bo‘ladi.

Integrativ jarayonlar o‘zining barqarorligi va mustaqilligini saqlab qolib, ma’lum darajada o‘zaro ta’sirlanadi va bir-birini to‘ldirib, bu bilan o‘quvchilarda umumta’lim fanlarini tadbirkorlikka yo‘naltirishni refleksiv boshqarish texnologiyasini izchil yoyadi. Mazmun jihatdan integrativ jarayonlar deyarli barcha o‘quv fanlarni tanlash orqali amalga oshiriladi va ilmiy bilish uslublari bilan belgilanadi.

O‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishning ijodiy vazifalarini amalga oshirish intellektual zo‘riqishni ta’minlovchi axborotdan foydalanish, ichki hayajonlanish, o‘quvchilarning ma’lum xislatlari, qiziquvchanlik munosabatlarini talab etadi.

O‘quvchilarda tadbirkorlik sifatlarini shakllantirish olti bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida umumiy tushunchalar berilishi kerak. Ikkinchi-uchinchi bosqichlar doirasida tadbirkorlik g‘oyalari va muammolarini tahlil qilishda sxema va usullarga ishlov berishni amalga oshirilishi kerak. To‘rtinchi-beshinchi bosqichlar ko‘proq tadbirkorlik ko‘nikmalari va malakalarini bevosita shakllantirishga bag‘ishlanadi. So‘nggi oltinchi bosqich egallangan bilimlar va faoliyat usullarini sifat jihatdan yangi darajada, loyihalash jarayonida umumiylashtirishni nazarda tutadi.

O‘qitishning vazifalari va maqsadlarini o‘quv-tarbiyaviy jarayonida foydalangan holda o‘quvchining tadbirkorlik faoliyatiga tayyorgarligi, bilimlar va ma’lum shaxsiy tajribaga asoslangan munosabatlar ko‘rinishidagi shaxsiy sifatlarni shakllantirish hamda salohiyat nazarda tutiladi. Shunday qilib, ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishning bosh maqsadi maktab o‘quvchilarining tadbirkorlik faoliyatiga yo‘naltirib o‘qitish orqali ularning kasbiy faoliyatiga tayyorgarligini shakllantirish uchun qulay sharoitlar yaratish hisoblanadi.

Demak, ingliz tili darslarida o‘quvchilar tadbirkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish tadbirkorlikka, ya’ni, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya asosida o‘qitish tizimi jamiyatning ma’naviy va moddiy salohiyatini oshirishga imkon beradi, har bir shaxsning tug‘ma va o‘zlashtirilgan qobiliyatlari va iste’dodlarini amaliy jihatdan amalga oshirish uchun zamin yaratadi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda bozor iqtisodiyoti sharoitida maktab pedagog xodimiga quyidagi tadbirkorlik talablari qo‘yiladi: mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olish va his etish, bozor qonun-qoidalarini, talablaridan kelib chiqqan holda dars mashg‘ulotlarini tashkil etish, taraqqiyot bilan barobar qadam tashlash, ko‘pchilik dardi bilan yashash, hamkorlik, hamjihatlik, hamijodkorlik bilan ish yuritish; mustaqil fikr yurita olish, maqsadni aniq qo‘ya olish, ishbilarmonlik, samimiy, vazmin, bag‘rikeng, ijodkor, bunyodkor, yaratuvchi, talabchan va mehribon, vaqtning qadriga yetadigan; xushmuomala inson bo‘lishi kerak.

Xudaykulov Rustam Zakirovich (Termiz Muhandislik-texnologiya instituti o‘qituvshisi; e-mail:rustam.75755@mail.ru)

TALABALARDA INNOVATSION MUHANDISLIK KASBIY FAOLIYATIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRUVCHI FANLAR NAZARIY TAVSIFI

Annotatsiya. *Maqolada oliy ta’lim muassasasi talabalarini fanlar bloki, fanlararo va predmetli yondoshuv asosida kasbiy kompetentlikni shakllantirish ko‘rib chiqilgan.*

Аннотация. *В статье рассматривается формирование профессиональной компетентности студентов высшего учебного заведения на основе блока дисциплин, междисциплинарного и предметного подхода.*

Annotation. *This article examines the formation of professional competence of students of a higher educational institution on the basis of a block of disciplines, an interdisciplinary and subject approach.*

Kalit so‘zlar: *kompetentlik, kasb, talaba, fanlar, innovatsiya, tayanch kompetentlik, fanlararo kompetentlik.*

Ключевые слова: *компетентность, профессия, студент, науки, инновация, базовая компетентность, междисциплинарная компетентность.*

Key words: *competence, profession, student, sciences, innovation, basic competence, interdisciplinary competence,*

Birinchi o‘rinda kompetentlik tushunchasi haqida to‘xtalib o‘tsak. Kompetentlik – bu talabaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirilishi uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo‘llay olishi bilan ifodalanishi yoritilgan. Mazkur o‘rinda «kompetentlik» tushunchasining mohiyati ham to‘la ochiladi, u quyidagi ikki ko‘rinishda namoyon bo‘ladi: kompetentlik talabalarning shaxsiy sifatlari to‘plami hamda kasbiy sohaning tayanch talablari sifatida.[1]

[1] Муслимов Н.А. ва б. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. Т., “Fan va texnologiya”, 2013, 128-бет.

Ta’lim mazmunining o‘quv rejadagi fanlar bloklari (barcha fanlar uchun), fanlararo (fanlar to‘plami uchun) va predmetli (ma’lum bir fan uchun) tarzda guruhlanganligi bois quyidagi uch darajani namoyon etuvchi kompetentlikni e’tirof etib o‘tamiz:


♦tayanch kompetentlik (ta’limning gumanitar, ijtimoiy-iqtisodiy mazmuniga ko‘ra);

♦fanlararo kompetentlik (umumkasbiy tayyorgarlikning o‘quv fanlari va ta’lim bloklarining ma’lum doirligiga ko‘ra);

♦bitta predmet (fan) bo‘yicha kompetentligi (maxsus o‘quv fani doirasida aniq va ma’lum imkoniyatga egaligiga ko‘ra).

Maxsus kasbiy fanlar muhandislik bilimlarining asosiy mazmuni tashkil etadi va aynan shular orqali talabalarda mos hamda zaruriy innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatni aniqlovchi kompetensiyalar shakllantiriladi. Xususan, “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” o‘quv fani sifatida sanoatning hozirgi vaqtda avtotransport vositalarining texnik ekspluatatsiyasini optimallashtirish hamda ularning ishonchliligi va texnik tayyorligini ta’minlash asosiy muammolardan hisoblanadi va ularni optimallashtirishni o‘rganadi.[1]

1.1-rasmda “Transport vositalari muhandisligi” yo‘nalishida umumkasbiy fanlarni o‘qitishning ketma-ketligi keltirilgan. Umumkasbiy fanlarni o‘qitish orqali talabalarda muhandislik kasbiy kompetensiyalari shakllantiriladi.



1.1-rasm. “Transport vositalari muhandisligi” yo‘nalishida umumkasbiy fanlarni o‘qitishning ketma-ketligi.

Bu yerda tabiiy-ilmiy, ixtisoslik, qo‘shimcha va tanlov fanlarini o‘rganishlarida umumkasbiy fanlarnita ishtiroki mazmun jihatdan o‘quv jarayoniga bosqichma-bosqich singdirilgan. Talabalarda, avvalo,

[1]Назаров А.А., Д.Иргашев, Ш.Бердиев. Касб-ҳунар коллежларида мутахасисслик фанларини ўқитишда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш. «Муқобил энергия манбаларидан фойдаланишнинг долзарб муаммолари” мавзусидаги республика илмий-техникавий анжуман, Қарши, 2013, 440 – 441-бетлар.

kasbiy sifatlarni shakllantirsh, undan keyin muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish orqali kasbiy kompetentligi hosil qilinadi va rivojlantiriladi. Umumkasbiy fanlar tabiiy-ilmiy va ixtisoslik fanlari o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik vazifasini bajaradi.

Biz o‘z tadqiqot ishimizda yuqoridagi umumkasbiy fanlar orqali talabalarda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantirdik. Quyida bu fanlarni o‘rganish orqali talabalarda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatni rivojlantirishni tasnifini keltiramiz.

“Avtotransport vositalarining diagnostikasi–ixtisoslik fan bo‘lib, unda mashina detallari va mexanizmlari resurslarini, nosozlik sabablari, turlari va joylarini aniqlaydigan zamonaviy qurilmalar orqali aniqlash, ya’ni, u innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga to‘liq javob beradi.

Matematik tabiiy ilmiy fanlar blokidagi fanlardan o‘zlashtirilgan bilimlarga tayangan holda “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” fanining o‘zi ham fundamental bilimlarni maxsus fanlar uchun yetkazuvchi hisoblanadi. Uning mazmunini quyidagilar tashkil etadi:

♦dalillar, tushunchalar, kattaliklar, fundamental qonunlar, ilmiy-nazariy qonunlar;

♦mashinasozlikda keng tarqalgan detallarni ishlash qobiliyati, ishlatilish joylari, afzalliklar va kamchiliklari;

♦materiallarni mustahkamligi, qattiqligi va ulardagi ekspluatatsiya jarayonidagi nosozlik holatlari;

♦detallarning konstruktiv o‘ziga xosligi hamda ekspluatatsiya sharotida turli yuklanishlar ta’sirida ularning o‘zgarishi;

♦tashqi muhit o‘zgarishi ta’siridan konstruksiya elementlarini xavfsiz foydalanishni ta’minlash;

♦mavjud mashina detallarini ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash maqsadida texnik xizmat ko‘rsatish;

♦ilmiy-texnikaviy vazifalar yechimini ta’minlovchi yangi mashina detallari va mexanizmlarini sintez qilish;

♦o‘ziga xos qoidalar va tafakkur qilish usullari hamda amaliy faoliyat;

♦innovatsion muhandislik kasbiy faoliyati muammolarini yechimiga yo‘naltirilgan bilim va ko‘nikmalardan amaliyotda foydalanish.

Mazkur holatlar talaba ijodiy potensiali hisoblangan zamonaviy innovatsion muhandislik ta’limi talablariga javob berishi lozim. O‘z navbatida, “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” fanining birinchi galdagi vazifasi – o‘ziga xos bilimlarni taqdim etish bilan birga talabalarda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatni mos kompetensiyalar asosida shakllantirish hamdir.

Shuni qayd etishimiz lozimki, fanlararo bog‘liqlik nafaqat fan bloklaridagi fanlarda namoyon bo‘ladi, balki bitta blokdagi fanlar o‘rtasida ham amalga oshadi.

Umumkasbiy fanlardan har birining ta’lim jarayonidagi o‘rnini, ahamiyatini va ta’sirini aniqlash mumkin. Xususan, matematika va tabiiy-ilmiy fanlar orqali taqdim etiladigan bilimlarning iste’molchisi umumkasbiy fanlar bo‘lsa, o‘z navbatida, umumkasbiy fanlar tomonidan taqdim etiladigan bilimlarning iste’molchisi maxsus fanlar sanaladi.

Bakalavrlarni tayyorlashning asosiy ta’lim dasturidagi minimum talablarini tahlil qilib, unga mos ravishda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarni shakllantiruvchi komponentlar tadqiq qilindi. Ularni shakllanish va rivojlanish bosqichlari mashg‘ulotlarni o‘tkazish turlarini, ya’ni, ma’ruza, laboratoriya, amaliy, kurs loyihasi kabilarni hisobga olgan holda qarab chiqildi. Yuqorida qayd etilgan fanlarni o‘rnini baholash qiyin, shu sababli ularning har biri ustida tadqiqot vazifalariga, mos ravishda, tahliliy yondashuvni amalga oshiramiz.

Jumladan, “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” fani hozirgi ko‘rinishida majmuaviy fan hisoblanadi, undagi tarkib, avtotransport vositalarini loyihalash, ishlab chiqarish va ularning ekspluatatsiyasi, og‘ir sharoit va favqulodda vaziyat vujudga kelgandagi ish qobiliyatini ta’minlash, texnik holatini diagnostikalash, prognozlash (oldindan aytib berish) hamda eng optimal (oqilona) konstruksion yechimlarni topish bo‘yicha vazifalarni qo‘yadi, talabalarning mexanik va matematik tayyorgarligiga asoslanib, DTS malaka talablari ularning oldiga quyidagilarga ega bo‘lish vazifalarini qo‘yadi:

♦ixtisoslik fanlarini o‘rganish va chuqur egallash uchun zarur bo‘lgan fundamental bilimlarni, amaliy ko‘nikma va o‘quvlarni shakllantirishi;

♦umumkasbiy vazifalarni hal etishda fan va ta’limning zamonaviy muammolariga doir bilimlardan foydalanishga tayyorlash;

♦talabalarni berilgan shartlarga ko‘ra, mashina detallarini mexanizmlarni, uzatmalarini optimal resurslarini o‘rganish;

♦talabalarni Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida talabalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash va ta’limni samarali tashkil etishga o‘rgatish lozim.

Shunday qilib, fan mazmuni invariant komponentni o‘zida namoyon etib, u nazariya asosini, qisman empirik bazasini, o‘zlashtirilgan qonunlarni, ilmiy-texnik nazariyalarni hamda variatsiyalanadigan komponentni aks ettiradi. Variatsiyalanadigan komponent kasbiy oliy ta’limning turli ta’lim muassasalari uchun muhandislik yo‘nalishi mahsuloti ko‘rinishiga bog‘langan holda bir necha ko‘rinishga o‘zgarishi mumkin. “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” fani ixtisoslik fan sifatida muhandislik faoliyatdagi kasbiy sifatlarni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi va aynan shu fanga tayangan holda Transport vositalar muhandisligi ta’lim yo‘nalishi talabalarini kelgusi kasbiy faoliyatida multifanlararo tizimli fikrlash qobiliyatlarini rivojlanishida alohida o‘rin tutadi. Ixtisolik fanlari va ishlab chiqarish korxonalari tomonidan kiritilgan paradigmalarga ko‘ra tayyorlash maqsadida keltirilgan maxsus fanlarni o‘qitishda umumkasbiy bilimlarni puxta egallashida “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” fanining ahamiyati beqiyosdir.

Umuman olganimizda, “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” fani ixtisoslik kasbiy fanlarga kirib, innovatsion korxona sharoitida texnik qurilma va tizimlar sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarish qonunlarini, texnik holatini diagnostikalashni va shu asosda eng kam sarf-xarajatlar bilan ularning buzilmasdan ishlash muddatlarini oshirish usullarini o‘rganish. imkoniyatini beruvchi mantiqiy yakunlangan o‘quv kursi hisoblanadi. U talabalarda har qanday detalni yoki real mexanik tizim agregatlarini ishlashini, nosozliklarni, buzilishlarni, aniqlash darajasida kasbiy ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” fani bo‘lg‘usi mutaxassislarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashdagi ta’limning o‘ziga xos jamlanmasi hisoblanadi.

Talabalarni innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga tayyorlashda umumkasbiy fanlarni o‘qitish orqali ularni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan umumkasbiy fanlar tavsifi keltirib o‘tildi. Xususan, “Avtotransport vositalarining diagnostikasi” fani talabalarda innovatsion muhandislik kasbiy faoliyatiga bo‘lgan qobiliyatlarini rivojlantiruvchi muhim jihatlarini o‘zida jamlagan, kasbiy masalalarni yechish imkoniyatini beruvchi mantiqiy tugallangan fan ekanligi asoslanga

Jumaniyozova Muhabbat Xusinovna (UrDU dotsenti, f.f.n.; khiva1970@mail.ru),
Urazbayeva Sabohat Ortiqboyevna (UrDU Ta’lim va tarbiyaviy ishlar nazariyasi va metodikasi boshlang‘ich ta’lim mutaxassisligi 2-bosqich magistranti; sabohat151@icloud.com)

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKSIS ELEMENTLARI USTIDA ISHLASHDA GRAMMATIK O‘YINLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya. *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda sintaksis elementlari (so‘z birikmasi, gapda so‘zlarning bog‘lanishi, gap va uning turlari, gap bo‘laklari)ni o‘rganishning ahamiyati ko‘rsatilgan. Boshlang‘ich sinflarda sintaksis elementlari ustida ishlashda grammatik o‘yinlardan foydalanishning mazmun-mohiyati ochib berilgan hamda bir qancha grammatik o‘yinlarni tashkil qilish yo‘llari aks ettirilgan.*

Аннотация. *В данной статье показано значение изучения элементов синтаксиса (сочетание слов, связь слов в предложении, предложение и его виды, члены предложения) в формировании речевой и языковой компетенции учащихся начальных классов. Раскрыт смысл использования грамматических игр в работе над элементами синтаксиса в младших классах и показаны способы организации нескольких грамматических игр.*

Annotation. *This article shows the importance of studying the elements of syntax (combination of words, connection of words in a sentence, sentence and its types, sentence fragments) in the formation of speech and linguistic competence of students in primary grades. The meaning of the use of grammatical games in working on syntax elements in elementary grades is revealed and the ways of organizing several grammatical games are shown.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, nutqiy kompetensiya, sintaksis elementlari, so‘z birikmasi, gap, gap bo‘laklari, grammatik o‘yin, fikrni grammatik to‘g‘ri ifodalash.*

Ключевые слова: *начальное образование, речевая компетенция, элементы синтаксиса, словосочетания, предложения, члены предложения, грамматическая игра, грамматически правильное выражение мысли.*

Key words: *elementary education, speech competence, elements of syntax, word combinations, sentences, sentence fragments, grammatical game, grammatically correct expression of thought.*

Uzluksiz ta’limning muhim bosqichi bo‘lgan boshlang‘ich ta’limda ona tilini o‘qitish asosiy o‘rin egallaydi. Ona tili ta’limi bolalarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirish, erkin fikrlay olish, o‘zgalar fikrini anglash, o‘z fikrlarini og‘zaki va yozma ravishda ravon bayon qila olish, jamiyat a’zolari bilan erkin muloqotda bo‘la olish ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.[1]

Maktabda tildan nazariy bilimni o‘rganishdan maqsad fikrni og‘zaki va yozma tarzda grammatik to‘g‘ri va uslubiy aniq ifodalash uchun undan ongli foydalanish hisoblanadi. Biroq nazariy bilimni amalda qo‘llashni esa maqsadga muvofiq va muntazam o‘rgatib borish talab etiladi. Bu borada o‘quvchilarda sintaksis elementlari ustida ishlash muhim hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili va o‘qish savodxonligi darslarining muhim vazifalaridan biri fikrni ifodalashda gapdan ongli foydalanish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari (tinglab tushunish, so‘zlash, o‘qish, yozish)ni shakllantirishda sintaksis elementlari (so‘z birikmasi, gapda so‘zlarning bog‘lanishi, gap va uning turlari, gap bo‘laklari)ni organishga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bois dasturda belgilangan bilimlarni berishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi darslarning samaradorligiga erishishda turli ish turlaridan foydalanishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinflarda sintaksis elementlari ustida ishlashda grammatik o‘yinlarning alohida o‘rni bor. Binobarin, bunday o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida berilgan, o‘zlashtirishi qiyin bo‘lgan materiallarni oson o‘zlashtiradi, shu bilan birga, atrof-muhit, voqealarni kuzatishga, solishtirib ko‘rishga, ular to‘g‘risida fikrlashga, ulardan to‘g‘ri xulosalar chiqarishga va xulosalarini asoslashga o‘rganadilar.[2] O‘quvchilarni fanga qiziqtirishda ham grammatik o‘yinlar muhim vosita bo‘ladi.

Darsga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida grammatik o‘yinlarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyatga ega. Grammatik o‘yinlar uchun grammatik materiallarni tayyorlab qo‘yish, grammatik o‘yin jarayoni vaqtini to‘g‘ri belgilash hamda to‘g‘ri nazorat qilish, grammatik o‘yinni yakunlash va xolisona baholash kabilarni aniq rejalashtira olish lozim. Bunda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

– grammatik materiallarni yetarli darajada tayyorlash;

–grammatik o‘yin jarayonida yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘z vaqtida nazorat qilish va yo‘l-yo‘lakay to‘g‘rilab borish;

– grammatik o‘yinlar o‘quvchilarda ziyraklik va mustaqillikni shakllantirib, rivojlantirishiga erishishga diqqatni qaratish lozim.

Quyida biz boshlang‘ich sinflarda sintaksis elementlari ustida ishlashda qo‘llanilishi maqsadga muvofiq bo‘lgan bir qator ta’limiy o‘yinlarni keltirib o‘tamiz.

“Kerak so‘zni tanlab ol” o‘yini. Bu o‘yin o‘quvchilarni so‘z birikmasi bilan amaliy tanishtiradi. Garchi bu sinflarda so‘z birikmasi yuzasidan nazariy bilim berilmasa ham, u haqida o‘quvchilar bir qator ma’lumotlar oladi. Amalda so‘z birikmasi tuzadilar. Ushbu o‘yinni o‘tkazish uchun o‘qituvchi oldindan so‘zlarni ikki ustun qilib yozadi. O‘quvchilar doskadagi so‘zlar bilan tanishadi, keyin chap tomondagi so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chirish topshiriladi. O‘yinni butun sinf bo‘yicha ham parta qatorlari orasida ham o‘tkazish mumkin. Qaysi guruh topshiriqni tez va to‘g‘ri bajarsa, g‘olib hisoblanadi. O‘yin bolalarning ijodiyliigini tarbiyalaydi, o‘quvchilarda ziyraklik, sinchkovlik sifatlarini va mustaqil fikrlash malakasini shakllantirishga yordam beradi.

tez	*qush*
yam-yashil	*bino*
baland	*ukam*
sayroqi	*bola*
qiziqarli	*kitob*
mening	*yuk*
bilimli	*gapirdi*
og‘ir	*o‘tloq*
kuzgi	*ekin*

“Aralash berilgan so‘zlardan gap tuz” o‘yini. O‘yinni o‘tkazish uchun kartochkalarga yozilgan so‘zlar aralashtirilib beriladi. O‘quvchilar so‘zlarni o‘rniga qo‘yib, gap hosil qilishadi. O‘yinni osonlash-

[1] Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. “Boshlang‘ich ta’lim”, 1998, 6-son, 5 – 8-betlar.

[2] Yoqubov Sh., Mustafoqulov R. Grammatik o‘yinlar orqali o‘quvchilarni faollashtirish. Yigirma birinchi asrda o‘zbek tili ta’limi masalalari. T., Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007, 42-bet.

tirish uchun gap qaysi so‘z bilan boshlansa, o‘sha so‘z boshqalaridan ajratib ko‘rsatiladi. Kim to‘g‘ri va tez gap tuzsa, o‘yin g‘olibi hisoblanadi.

“So‘zlardan gap tuz” o‘yini. Bu o‘yin ham “Kerak so‘zni tanlab ol” o‘yiniga o‘xshaydi. Biroq unda so‘z birikmasi tuzish ustida mashg‘ulot o‘tkazilsa, mazkur o‘yinda berilgan so‘zlardan gap tuzish bo‘yicha grammatik o‘yin o‘tkaziladi. Har ikkalasida ham berilgan so‘zlardan foydalaniladi. Gap tuzish o‘yinida berilgan so‘zlardan bir guruhi, albatta, harakat bildirgan (fe’l) so‘zlar bo‘lishi zarur. Chunki har qanday gapni ham shakllantirish markazi kesimdir. Kesim esa, ko‘pincha, fe’l so‘z turkumi orqali ifodalanadi. O‘yinni o‘tkazish uchun doskaga ikki qator qilib quyidagi so‘zlar yozib qo‘yiladi.

qish	ko‘kardi
bahor	tugadi
quyosh	boshlandi
qor	ochildi
maysalar	eridi
gullar	qizdirdi

O‘yinning sharti ushbu so‘zlar ishtirokida birinchi qatordagi so‘zlar (otlar)ga ikkinchi qatordagi so‘zlardan mosini tanlab gap tuzish, ularni yozish hisoblanadi. Berilgan so‘zlar ishtirokida tez va to‘g‘ri gap tuzgan guruh g‘olib hisoblanadi. O‘quvchilarning bilim darajasini hisobga olib so‘zlar sonini ko‘paytirish mumkin.

“Adashgan gap bo‘lagini top” o‘yini. Boshlang‘ich sinflarda ega, kesim va ikkinchi darajali bo‘laklar o‘rganiladi. Aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol bir butun holda umumiy nom bilan ikkinchi darajali bo‘laklar atamasi bilan yuritiladi. Shu tufayli barcha gap bo‘laklarini tanlab o‘z o‘rniga qo‘yish yuzasidan bir qator grammatik o‘yinlar o‘tkazish mumkin. O‘yin davomida o‘quvchilar gap bo‘laklarining vazifasini, so‘roqlarini, so‘zlarning bog‘lanishini o‘rganadi. Gap bo‘laklarining odatdagi tartibini bilib boradi. O‘yinni o‘tkazish uchun egasi tushurilib qoldirilgan gaplar beriladi. O‘quvchi egani tanlab yozishi kerak. Egasi bir necha bo‘lakdagi so‘zlar bilan birga beriladi.

1…maktabda a’lochi o‘quvchi (Sayyorani, Komilaga, *Abdulla,* Sherzodni).

2…matematika darsida “5” baho oldi (*o‘quvchi*, o‘quvchini, o‘quvchiga, o‘quvchida).

Bunday o‘yin sinf o‘quvchilar orasida ham, guruhlar o‘rtasida ham o‘tkazilishi mumkin.

“Adashgan kesimni top” o‘yini. Bu o‘yinda adashgan bo‘lak gap tarkibida qatnashadi. Ammo unda gap bo‘laklarining odatdagi tartibi buzilgan holatida beriladi. O‘quvchi o‘rnini adashtirgan bo‘lakni o‘z joyiga qo‘yish zarur. O‘yinning shartini bajarish uchun o‘quvchi gap bo‘laklari anglatgan mantiqiy ma’no ustida fikrlashi, uning qaysi so‘z bilan bog‘lanishi va qanday so‘roqqa javob bo‘layotganini bilib olishi lozim. Bu o‘quvchini tez o‘ylab xulosa chiqarishga, zukkolikka hamda sezgirlikka undaydi.

1. Kitobni o‘qidi Akbar.
2. Ketdi Gulnora Toshkentga o‘qishga kirish uchun.
3. O‘quvchilar bajardi o‘qituvchining topshirig‘ini tez.

“Adashgan ikkinchi darajali bo‘lakni top” o‘yini. O‘yinda xuddi yuqoridagidek ish tutiladi. Gap tarkibidagi ikkinchi darajali bo‘lak bajarayotgan vazifasi va qaysi gap bo‘lagiga birikayotganiga qarab, o‘z o‘rniga qo‘yiladi.

1. Opam universitetga kirdi bu yil.
2. Buvim boshini sarak-sarak qilib gapirdi tez.
3. Malika parvarish qildi gullarni.
4. Bobosi Gulshanning bog‘imizga mevali daraxtlar o‘tkazdi.

Bu va bu kabi grammatik o‘yinlar davomida o‘quvchilar xilma-xil topshiriqlarni bajarish davomida nazariy bilimlarni amaliy bajarib o‘zlashtirib boradilar. Bunday grammatik o‘yinlar o‘quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Grammatik o‘yinlar davomida o‘quvchilar sintaktik qoidalarni amaliy tarzda o‘zlashtirib oladilar. Bolalar bunday o‘yinlarni zo‘r qiziqish bilan bajarishga intiladilar. Chunki boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida g‘oliblikka intilish, topshiriqni birinchi bo‘lib bajarishga harakat qilish kuchli bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitishning asosiy vazifasi ushbu fanning bilimlar tizimini egallash, so‘zlarning grammatik shakllarini ishlab chiqish, savodli yozuv ko‘nikmasini hosil qilishdir. Bu vazifalarni ro‘yobga chiqarish o‘ta murakkab bo‘lib, o‘qituvchining xilma-xil o‘qitish metodlarini egallashini, o‘quvchilarni mumkin qadar ijodiy fikrlashga o‘rgatishni va har bir mashg‘ulotga qiziqtira bilishni taqozo qiladi. Binobarin, grammatik o‘yinlarni dars mashg‘ulotlarida

to‘g‘ri qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘ladi. Bunday o‘yinlar o‘quvchilarning so‘z birikmasi va gap tuzish borasidagi bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlashga yordam beradi hamda ularda nutq madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuldashov Qaxramon Kamulovich (Urganch davlat universiteti katta o‘qituvchisi;
e-mail: y.kaxraman.k.@mail.ru)

KASHTACHILIKNING O‘ZIGA XOS INNOVATSIYALARI

Annotatsiya. *Muallif mazkur maqolada kashtachilikning millatlararo o‘ziga xos xususiyatlarini misollar asosida tushuntirgan. Shuningdek, me’morchilikda va biror buyumni bezashda applikatsiya usulidan keng foydalanishga nisbatan tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *Автор приводит в данной статье примеры особые инновации вышивки. В нем также содержатся советы о том, как применять самые разнообразные приложения в архитектуре и при украшении предметов.*

Annotation. *The author explains in this article, the examples of distinctive innovations of embroidery. It also contains tips on how to apply a wide variety of applications in architecture and in decorating objects.*

Kalit so‘zlar: *urf-odat, xususiyat, element, naqsh, yaproq, so‘zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, palak, innovatsiya, yondashuv.*

Ключевые слова: *обычай, особенность, элемент, узор, лист, сюзане, плеть, зеркало, чайник, базилик, палак, инновации, подход.*

Key words: *custom, feature, element, pattern, leaf, suzane, whip, mirror, teapot, basil, palak, innovation, approach.*

Har bir xalqning o‘ziga xos urf-odatlari va xususiyatlari bo‘ladi. Chunonchi, qirg‘iz va qozoq naqshlarida shoxli hayvonlar va ularning shoxlari, o‘tovlar tasviri chizilsa, tojik xalq naqshlarida lola, bodom, har xil gullar, turkman xalq naqshlarida echki kallasi, uzum tanasi, qushlar ko‘p tasvirlansa, o‘zbek xalq naqshlarida esa tipik elementlar sifatida yaproq, gul, g‘uncha, kurtak, lola, qalampir, anor, anor bargi, nok, ko‘p bargli gul va boshqalar ifodalanadi.[1]

Applikatsiya lotincha yopishtirish degan ma’noni bildirib, gazlama qog‘oz va boshqa tikish yo‘li bilan bezash, demak. Applikatsiya kashtado‘zlikning maxsus turi bo‘lib, u o‘ziga xos texnologiyaga ega. Asosiy matoga rangdor mato parchasini, charm va boshqalarni qadab, atrofi choklanadi. Applikatsiyada, ko‘pincha, chizma choklardan foydalaniladi. Kashtaning bu turi O‘zbekistonda yaxshi rivojlangan. Hozirgi vaqtda, ko‘pincha, bolalar paltolariga, ko‘ylaklariga, bosh kiyimlariga har xil qush, meva, gul va hayvonlar tasviri applikatsiya usulida choklanadi. Ayrim hollarda ayollarning kiyimlari shu usulda bezatilyapti. Arxitekturada va biror buyumni bezashda applikatsiya usulidan keng foydalanib kelmoqda.

O‘rta Osiyoda kashtachilik san’ati keng tarqalgan bo‘lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi shart bo‘lgan. Shuning uchun har bir oila o‘zi uchun kirpech, so‘zana, dorpech, oynaxalta, choyxalta va boshqalarni o‘zlari tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko‘p, masalan, so‘zana, kirpech, choyshab, oynaxalta, choyxalta, zardevor, palak, guoko‘rpa, dorpech, bugjoma, parda, belbog‘, takyapush (yostiq ustiga yopiladigan), do‘ppi, ko‘ylak, dastro‘mol, hamyon, joynamoz, nimcha, mahsi-kalish, xaltacha va boshqalar badiiy did bilan matolarga tikilgan. Keyinchalik, satin, shoyi baxmalga tikiladigan bo‘ldi.

Joynamoz – yerga solib, ustida namoz o‘qiydigan tushama. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar ishlatishadi. U ibodat vaqtida kishini bu dunyodan ajratuvchi omil deb tasavvur qilinadi. Joynamoz har xil matodan tayyorlanib, uning uch tomoni mehrob shaklida tikilgan bo‘lib, undan masjid, madrasa va uylarda foydalaniladi. U turli o‘lchamda bo‘ladi. Ibodatni kanda qilmaslik uchun boshqa narsalardan foydalanish mumkin. Masalan, chopon, qiyiqcha, sholcha kabilardan, chunki ular diniy nuqtayi nazardan pok hisoblanadi. Joynamoz kashtachilikda chiroyli qilib bezatilgan bo‘ladi.

Zardevor – uy jihozi. U sidirg‘a shoyi, baxmal, satinga kashta tikib bezatilgan badiiy buyum. Zardevor o‘zbek hamda tojiklarda yangi tushgan kelinning uyiga, shiftiga yoki devoriga ilib qo‘yiladi. U zar ip yoki ipak hajmli bo‘lib, eni 40–70 sm, uzunligi mo‘ljallangan uyning devoriga moslab tikiladi.


[1]Shomirzayev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Yangi nashr”, 2017, 48-bet.

Palak – devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to‘lin oy aks ettiriladi. U qadimda oq va malla bo‘zga kashta tikib tayyorlangan. U so‘zanadan gullarining yirikligi, zaminga ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi. Palakning o‘rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofi juda chiroyli qilib qalampir elementlari qo‘llaniladi. Palakda qirqtacha oyni tasvirlash mumkin. Shuning uchun oyning soniga qarab, olti oyli palak, o‘n ikki oyli palak, hatto katta uylar uchun qirq oyli palak tikilgani bizga ma’lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan. Mashhur kashtado‘zlar ba’zida oyni ajoyib naqshlar bilan bezab, o‘z mahoratlarini namoyon etganlar. Agar oyning ichi sidirg‘a rangda ifodalangan bo‘lsa, uni oypalak, agar naqshli bo‘lsa, gulpanak va hokazo nomlari bilan yuritiladi. Keyingi vaqtlarda palakni qo‘lda tikishga katta ahamiyat berilmoqda.

Kirpech – kirpush, tokchaga taxlab qo‘yilgan kiyim-kechak ustidan yoki devorni vertikal bo‘sh joylariga ilib, uyni bezatib turishi uchun ishlatiladigan badiiy buyum. Kirpech kashtalari qo‘lda yoki mashinada tikiladi. Kirpech qo‘lda ilma kashta bilan bezaladi. U kiyim-kechakni changdan saqlaydi va uyni bezab turadi. Odatda, palakka o‘xshatib tikilgan kirpechpalak deb yuritiladi. Bu turi ham keng ishlatiladi.

So‘zana – forscha igna bilan tikilgan degan ma’noni beradi. So‘zana matoga kashta tikib tayyorlangan badiiy buyum bo‘lib, xonani bezatish uchun devorga ilib qo‘yiladi. U satin, baxmal, shoyi va boshqa matolarga kashta tikib tayyorlanadi. U o‘ziga xos badiiy ko‘rinishga ega. Matoning rangidan ustalarimiz kashta zamin sifatida foydalanadilar. Shuning uchun palakdan farq qiladi. So‘zana har bir xonadonda bo‘lgan, chunki har bir qiz turmushga chiqishdan oldin o‘zi uchun so‘zana tayyorlagan. So‘zana kelinlarning sepi hisoblangan.

Kambag‘al oilada so‘zanani malla, oq bo‘zdan, badavlatlarida esa shoyidan, baxmaldan tikishgan. So‘zana uchun kompozitsion joylashgan o‘simliksimon naqshlardan foydalaniladi. So‘zana o‘rtasida ko‘pincha, doirasimon gul tikilib, atrofi guldor islimiy naqshlar bilan bezatiladi. So‘zana tikish juda, qadimdan rivojlangan, lekin XIX asrgacha bo‘lgan so‘zanalar saqlanmagan. Faqat XIX asrga oid Samarqand, Boysun, Buxoro, Xiva, Nurota, Farg‘ona, O‘ratepa, Shahrisabz, Toshkent va boshqa joylardagi so‘zana turlaridan namunalar bor. San’atning bu turi, ayniqsa, O‘zbekiston va Tojikiston hududlarida qadimdan keng tarqalgan. XX asrning 40-yillaridan boshlab, so‘zana mashinada tikilib kelmoqda.



1-rasm. O‘quvchilarni amaliy va badiiy bezak san’atiga qiziqishlarini orttirishga qaratilgan tadbirlar tizimi.

Choyshab forscha-tojikcha ruyjo – tun chodiri degan ma’noni bildiradi. Choyshab, asosan, taxmonga tutish, yotganda yopinish uchun to‘shak ustiga to‘shaladi. To‘shak ustidan yoziladigan choyshab kam

kashtali oq surup, taxmonga tutiladigan satin, shoyi, baxmal va boshqalardan tikiladi. Hozirgi vaqtda choyshabdan so‘zana kabi badiiy buyum sifatida ham foydalanib kelmoqda.[1]

O‘zbekistonning turli hududlarida o‘quvchilarning amaliy san’atga bo‘lgan qiziqishlarini atroflicha o‘rganish natijasida ularning bu sohaga ishtiyoqlarini orttirishga qaratilgan tadbirlar tizimini ishlab chiqdik (1-rasm).

O‘quvchilar o‘zbek xalq amaliy san’atining asosini kashtachilik tashkil etishi, qadimgi Sharq me’morchilik san’atining betakror kompozitsiyalari, ganch, yog‘och o‘ymakorligi va amaliy san’atning boshqa turlarida kashta kompozitsiyalari o‘zining chiroyi, go‘zalligi va nafisligi bilan butun dunyoga mashhurligi haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘ladilar.

Kashtachilikning asosiy tamoyillari – uyg‘unlik, mutanosiblik, kolorit va usullarning vujudga kelishi tarixi va ularning ahamiyati bilan tanishadilar. Kashtachilik an’analari (san’atning ana shu turini o‘rgatish metodlari sifatida ham), unda rangning tabiiy jilosi, bejirim shakli, oliy namunalari, boy ijodiy fantaziyasi haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.[2]

O‘quvchilarning amaliy va badiiy bezak san’atiga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishda quyidagi innovatsiyali tavsiyalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

♦umumiy o‘rta ta’lim maktablarining DTSlari, namunaviy o‘quv rejalari va dasturlarida ta’lim oluvchilarga amaliy va badiiy bezak san’atini o‘rgatishning turli usullari, o‘qitishning samarali yo‘llarini rivojlantirish to‘g‘risida ma’lumot berish;

♦amaliy va badiiy bezak san’atidan dars beruvchi mutaxassis o‘qituvchilarning kasbiy bilimlari bo‘yicha axborot texnologiyalari asosida malaka oshirishini tashkil etish;

♦respublikada tasviriy va amaliy san’at turlari bo‘yicha turli tanlovlarning yuqori saviyada o‘tkazilishini va ularda o‘quvchilarning ishtirokini ta’minlash lozim.

Umummiy o‘rta ta’lim maktablarida milliy qadriyatlarimiz: o‘quvchining faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishda, oiladagi ijodiy muhit, yoshlarni ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan o‘zbek xalq amaliy san’atining haqiqiy davomchilari qilib tarbiyalashda, hayotga to‘g‘ri yo‘naltirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Pedagogik innovatsiyalar–bu maqsadlarga samarali erishishga yordam beradigan ta’lim sohasidagi yangiliklarni ishlab chiqish, joriy etish, sinovdan o‘tkazish va baholash jarayoni bo‘lib, quyidagi maqsadlarga erishishga yordam beradi:

●ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish, demokratlashtirish;

●o‘quvchilarning kognitiv va kreativ faolligini faollashtirish;

●ta’lim va tarbiya ishlarini tashkil etish samaradorligini oshirish;

●o‘quv materialining metodika va didaktika nuqtayi nazaridan o‘zgartirishlari.

Zamonaviy ta’limning talabi o‘quvchilarga, imkon qadar, ko‘proq bilim berish emas, balki ularni o‘z-o‘zidan o‘rganishga, nafaqat bilishga, balki olingan ma’lumotlar bilan ishlay olishga o‘rgatishdir.[3]

Mutaxassislar pedagogik innovatsiyalarni quyidagi ikkita asosiy yondashuvlarga tayanishi maqsadga muofiqligini e’tirof etadilar:

1. O‘quvchilarga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quv jarayonini har bir o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Zamonaviy pedagogika har bir o‘quvchining o‘ziga xos tajribasi va xarakterini hisobga olishi, uning individualligi va iste’dodini rivojlantirishi kerak. Ushbu yondashuvni amalga oshirish tanlov tamoyillariga tayanishni o‘z ichiga oladi, ishonch (o‘qituvchilar tomonidan avtoritar bosimning yo‘qligi), ijodkorlik va muvaffaqiyat, subyektivlik, individuallik;

2. Kompetensiyaga asoslangan yondashuv esa e’tiborni o‘rganish natijasiga qaratadi, natijada esa bilimlar yig‘indisi emas, balki ko‘nikmalar yig‘indisi, o‘quvchining muammolarni hal qilish, turli vaziyatlarda harakat qilish, o‘zgarishlarga javob berish, moslashuvchan bo‘lish, his-tuyg‘ularni boshqarish va to‘g‘ri ma’lumotni tanlash qobiliyati.

Innovatsion xulq-atvorning ahamiyatli tomoni shundaki, u moslashishni anglatmaydi, u o‘z shaxsiyligini shakllantirishni, o‘zini-o‘zi rivojlantirishni nazarda tutadi. O‘qituvchi – innovatsion ta’lim bar-

[1] Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy naqsh san’ati. Toshkent, “Mehnat”, 1991, 7-bet.

[2] Shomirzayev M.X. O‘zbek milliy hunarmandchiligida innovatsion jarayonlar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Yangi nashr”, 2017, 7-bet.

[3] Ta’limda innovatsion texnologiyalar turlari. Ta’limdagi zamonaviy innovatsiyalar. Misollar. Ta’lim muassasasining innovatsion salohiyatihttps://optolov.ru/uz/bedroom/vidy-innovacionnyh-tehnologii-v-obrazovanii-sovremennye-innovacii.html

kamol shaxsni tarbiyalash usuli ekanligini tushunishi kerak. “Tayyor shablonlar” unga mos kelmaydi, doimiy ravishda o‘z intellektual darajangizni oshirish muhimdir. “Komplekslar”, psixologik to‘siqlardan xalos bo‘lgan o‘qituvchi innovatsion o‘zgarishlarning to‘la huquqli ishtirokchisi bo‘lishga loyiq.[1]

Buyuk faylasuf Konfutsiyning shunday hikmati bor: “…agar sen xalqingni bir yil boqmoqchi bo‘lsang, bug‘doy ek, o‘n yil boqmoqchi bo‘lsang, daraxt ek, agar asrlar davomida boqmoqchi bo‘lsang, bilim, ilm ek”.[2]

Xulosa shuki, barcha sohalar kabi ta’lim sohasini jadal rivojlantirish, intellektual hamda ilmiy-innovatsion salohiyatdan keng foydalanish – davr talabi. Zero, ilm-fan yutuqlarisiz innovatsion taraqqiyotga erishib bo‘lmaydi.

Nosirova Dilnoza Sobirovna (Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi)

TALABALAR MA’NAVIY TAFAKKURINI HARAKATLI O‘YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya. *Maqolada innovatsion yondashuv asosida talabalar ma’naviy tafakkurini harakatli o‘yinlar orqali rivojlantirishning mazmun-mohiyati batafsil yoritilgan.*

Аннотация. *В статье подробно описывается сущность развития духовного мышления учащихся через игровые действия на основе новаторского подхода.*

Annotation. *The article describes in detail the essence of developing students’ spiritual thinking through action games based on an innovative approach.*

Kalit so‘zlar: *talaba, jismoniy tarbiya, tafakkur, xalq o‘yinlari, tezlikka doir o‘yinlar, kuchga doir o‘yinlar, chidamlilikka doir o‘yinlar, gigiyenik va sog‘lomlashtirish, milliy qadryatlar.*

Ключевые слова: *студент, физическое воспитание, мышление, народные игры, игры на скорость, игры на силу, игры на выносливость, гигиена и оздоровление, национальные ценности.*

Key words: *student, physical education, thinking, folk games, speed games, strength games, endurance games, hygiene and health improvement, national values.*

Har bir xalq o‘tmish avlodlaridan qolgan madaniy merosiga ega bo‘lib, uning madaniy boyliklari xazinasiga xalq o‘yinlari ham kiradi. Xalq o‘yinlari o‘zining vujudga kelishi va rivojlanishiga ko‘ra g‘ayrioddiy hodisa emas, balki xalqning hayotini obrazli, muayyan aks ettiradigan va jamiyat taraqqiyoti qonunlariga hamohang belgilanadigan faoliyatdir.

Xalq o‘yinlari xalq ijodiyotining o‘ziga xos janri bo‘lib, ko‘p asrlik tarixga ega. Ularda jamiyat rivojlanishining u yoki bu bosqichidagi ijtimoiy voqealar aniq aks etadi.

Ma’lumki, mehnat hamda faoliyatning boshqa turlari, shu jumladan, o‘yin ham ijtimoiy xarakterga ega. O‘yinlar kishilarning mehnat madaniyati paydo bo‘lishi va rivojlanishining asosiga aylangan tarixiy bosqichda vujudga kelgan. O‘yinlar ijtimoiy taraqqiyot mahsulidir. Har bir tarixiy davr olamni badiiy o‘zlashtirish uchun o‘z hissasini qo‘shadi: san’at ijtimoiy hayotning ko‘p qirrali hodisalarini to‘laroq va yorqinroq aks ettirishga intilib, fan, madaniyat, siyosat, axloq va iqtisodiyotning yutuqlarini muayyan tarzda umumlashtiradi. Jamiyat taraqqiyotining ilk pog‘onalarida xalq o‘yinlaridan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish unumli mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan. Xalq o‘yinlarining mazmuni va xarakteri hayotning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan va tarkib topayotgan elatlarning psixik xususiyatlaridan kelib chiqqan, uning xarakteriga tarbiya sistemasining yo‘nalishi, mafkurasi, turmush tarzi ta’sir etgan.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq o‘yinlarining tadrijiy rivojlanishi va ulardan tarbiyaviy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqishda xalq o‘yinlarining o‘ziga xos jihatlarini nazarda tutish lozim. O‘yinlar xalq tomonidan yaratilgan va kishilarning kundalik hayotidagi voqealar hamda hodisalarni obrazli aks ettirib, ularning hayotiy taassurotlarini, kuzatishlarini, tajriba va hissiyotlarini gavdalantirib, o‘zida so‘z, musiqa, raqs shakllarini mujassamlashtirgan. Masalan, ibtidoiy tuzumda bolalarni tarbiyalashning xarakterli jihati ularni urug‘ning urf-odatlari, an’analari, tarixi bilan shuningdek, xalq og‘zaki ijodi: rivoyatlar, qo‘shiqlar va raqslar bilan tanishtirishdan iborat bo‘lgan. Ibtidoiy jamiyatda yoshlarni kattalar safiga qo‘shish deb ataladigan bayram – diniy marosimlar keng tarqalgan. Bular o‘ziga xos o‘yin-musobaqalardan iborat bo‘lib, ularning mazmunini mehnat faoliyati, qabilalarning urf-odatlari, udumlari, xalq og‘zaki ijodi tashkil qilgan. Mana shunday o‘yin musobaqalarda yigitlar qurollardan ma-

[1] Shu manba.

[2] Odinaxon Otaxonova. Ilm-fan yutuqlarisiz inovatsion taraqqiyitga erishib bo‘lmaydi.https://baxtiyor.uz/ilm-fan-yutuqlarisiz-innovatsion-taraqqiyotga-erishib-bo-lmaydi/

horatli foydalana olishlarini, diniy odatlarga qoniqarli amal qila olishlarini, qabilaning muqaddas sanalgan rivoyatlarini bilishlarini namoyish etishlari lozim bo‘lgan. Marosimlarda raqslar ham ijro qilinib, ularda ibtidoiy odamlar o‘z hayotlaridagi voqealarni, yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari, shodliklari va qayg‘ularini ifodalaganlar.

Ibtidoiy odamlarning yovvoyi hayvonlarni ovlashlari va ularni o‘zlariga bo‘ysundirishga intilishlari ov voqealarini ijod qilishlariga va uni ijodiy namoyish etishlariga ehtiyoj tug‘dirdi. D.U.Elkonin o‘yin va san’atning kelib chiqishini tadqiq qilib, «Ibtidoiy kishilar ov, urush voqealarini va boshqa jiddiy faoliyat turlarini o‘yinlarda ifodalaganlar». Ovdagi muvaffaqiyatsizlikni o‘ynash ularga yo‘l qo‘yilgan xatolarni hamda muvaffaqiyatsizlikning sabablarini aniqlashda yordam bergan, degan xulosaga keldi.

Ishlab chiqarish kuchlarining tobora rivojlanishi, mehnat qurollarining takomillashuvi ibtidoiy jamoa tuzimining so‘nggi bosqichlarida bolalarning ana shu mehnat qurollaridan oddiy turmush va unumli mehnatda avvalgidek foydalana olmasligiga sabab bo‘lgan. Shu tufayli bolalar o‘yinchog‘iga o‘xshagan mehnat qurollari yasala boshlangan. Bolalar o‘yinining vositasi – o‘yinchoqlar ana shu tariqa vujudga kelgan bo‘lishi mumkin. E.A.Arkinning fikricha, ular «azaliy o‘yinchoqlar» bo‘lib, tarixiy taraqqiyotning mahsuli, shuningdek, inson mehnatining qurollari va sig‘iniladigan vositalari tarixining ifodasidir. Tunday qilib ibtidoiy jamoa tuzumi davrida o‘yinning rivojlanishi faqat «Diniy dabdaba» emas, balki atrofdagi voqealikni anglash, uning haqidagi bilimlarni mustahkamlash, «Obrazga ko‘ra va tabiatga o‘xshatib ijod qilishni» o‘rganish istagi ham bo‘ldi.

Har bir xalqning o‘z milliy o‘yinlari mavjud bo‘lib, ular xalq an’analari, millatlarning madaniyati va turmushiga xos xususiyatlar zaminida vujudga kelgan. Xalq o‘yinlari ma’naviy madaniyatning ko‘rinishlaridan biridir.

Ularda etnik tarixga borib taqaladigan an’analar, ijtimoiy munosabatlar, mafkura-e’tiqodning ayrim elementlari, axloqiy-estetik me’yorlar aks etadi. Xalq o‘yinlari mamalakatning milliy xususiyatlarini, katta yoshli kishilarning fe’l-atvorini, odatlarini, mehnat jarayonlarini, jo‘g‘rofiy sharoitlarini ifodalaydi. Shunga ko‘ra, o‘zbek xalq o‘yinlarini xalqning axloqiy-estetik tarixini, madaniyatini boshqa xalqlar bilan aloqalarini o‘rganishning manbalaridan biri sifatida qarab chiqish lozim. O‘zbek xalq o‘yinlari tarixini o‘rganishda xalq ma’naviy madaniyatining rivojlanish bosqichlarini yoritish juda muhim ahamiyatga molik.

O‘yinlar o‘zbek xalqining ko‘p avlodlari turmushi va ijtimoiy hayotining zarur elementi sifatida asrlar bo‘yi takomillashib keldi hamda rivojlanishning har bir tarixiy bosqichida turli ijtimoiy vazifalarni bajardi. O‘zbek xalq o‘yinlari tarixning ijodiy kuchini, moddiy va ma’naviy boyliklarini o‘zida mujassamlashtirilgan, ularda atrofdagi voqelikni bilish va o‘zlashtirishning tarixiy tajribasi aks etadi. O‘zbek xalq o‘yinlari o‘z tabiatiga ko‘ra amaliydir. Ularda xalq badiiy madaniyatining o‘ziga xosligi, uning milliy xususiyatlari yaqqol ko‘rinadi. Mazkur o‘yinlarning milliy xarakteri zamirida xalqning madaniy boyligi, katta merosi yotadi. Folklor, ayniqsa, uning doston va tarixiy rivoyatlar kabi janrlari manba sifatida xizmat qilishi mumkin. Ko‘p o‘yinlar mazmunining mavzulari qabilalarning urf-odatlarini, qadimiy udumlarni, mehnat faoliyati yoki madaniyatini yoritish mumkin. Xalqning unutilayozgan iltijolari, baytlari va sanoqlari bolalarning xalq o‘yinlaridagina davom etib keladi. Guruh bo‘lib o‘ynaladigan o‘zbek xalq o‘yinlari va ayrim sport o‘yinlari qadimiy qabilalarning o‘yinlariga borib taqaladi.

O‘zbek xalq o‘yinlari qadim zamonlarda bizning eramizgacha bo‘lgan davrlarda vujudga kelgan. Buni arxeologik qazilmalar va qadimgi rim yozuvchisi Elianning etnografik materiallari ham tasdiqlaydi. Chunki ularda saklar qabilasida o‘yin-musobaqalar juda keng tarqalgan va ular xalqning sevimli odati bo‘lgani haqida ma’lumotlar bor. Uning guvohlik berishicha, saklar qabilasining yigitlari ana shu o‘yin-musobaqalarda o‘zlari enggan qizlarga uylanish huquqini olganlar.

Qadim zamonlardayoq O‘rta Osiyoda yashovchi xalqlarda kurash, o‘qyoy otish, chavandozlik singari jismoniy mashq turlari mavjud bo‘lgan. Grek tarixchisi Gerodot xorazmiylar bilan yonma-yon yashagan saklar qabilasidagi mohir merganlar haqida bunday yozgan: «Saklar dunyodagi barcha merganlar orasida o‘qni zoya ketkazmaydigan juda mohir merganlar sifatida shuhrat qozongan edi». Rim yozuvchisi Klament Aleksandriyskiy (eramizdan oldingi II asr) saklar qabilasining ayollari haqida bunday deb yozgan edi: «Sak ayollari ayyorlik bilan qochib ketaturib, ot ustida xuddi erkaklarday orqaga o‘q uzar edilar».

Milliy xalq o‘yinlari qadimgi tomoshalar sifatida necha asrlar muqaddam maydonlarda vujudga kelgan. Ularning paydo bo‘lishi tarixi bizning hududimizda sport, teatr, raqs va sirk san’atining rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Xalq o‘yinlarining mazmuni g‘oyat boy, rang-barang va juda xilma-xil bo‘lib, muayyan tarixiy xarakterga egadir. Ular xalq tantanalari va tomoshalarining eng yaxshi an’analarini o‘zida

jamladi, betakror o‘ziga xosligi va xususiyatlari bilan milliy madaniyatini boyitdi,o‘z avlodlarining xalq an’analarini mujassam lashtirdi.

Milliy xalq o‘yinlari orasida, ayniqsa, qadimiy dorboz va simvozlik san’ati alohida ajralib turgan. Ilgari dor o‘yini juda mashxur bo‘lgan. Ommaviy va mahalliy bayramlar, mavsumiy bozorlar dorbozlarsiz o‘tmagan deyish mumkin. Registonda bozor maydonlarida chorsularda dorlar qurilgan. Karnay-surnay va nog‘oralar sadolari tomoshalarning boshlanishidan darak berib turgan. Odamlar to‘plangach, o‘yinlar boshlangan. Tomoshabinlar baland qilib tortilgan arqon ustida o‘ynayotgan dorbozning dadil harakatlarini hayajon bilan kuzatishgan.

Bir vaqtlar bizning hududimizda yog‘ochoyoq o‘yini ommaviy ravishda tarqalgan. Yog‘ochoyoqlar yugurib, sakrab, raqsga tushib, karnay, surnay kabi milliy cholg‘u asboblarda kuylar ijro etib, ajoyib tomoshalarko‘rsatgan. Mana shular haqida «Boburnoma»da anchagina ma’lumotlar bor. Xorazmda «Tayoq o‘yini» keng tarqalgan.

O‘zbek xalqining an’anaviy turmushini o‘rganishidan ma’lum bo‘lishicha, hozirgi O‘zbekiston Respublikasi hududida bir vaqtlar, asosan, ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi elatlar yashagan. Ularning asosiy mashg‘uloti chorvachilik bo‘lgan. Chorvachilik bilan nafaqat yarim o‘troq, balki o‘troq dehqonlar ham shug‘ullangan. Dehqonlar mollarni yer haydashda, bug‘doy yanchishda, daryo va quduqlardan suv tortishda ishlatgan. Shuningdek, chorvadan savdogarlar va hunarmandlar ham foydalangan. Mana shular tufayli “Podachi”, “Oqsoq bo‘ri va qo‘ylar”, “Echkilar va cho‘ponlar”, “Oq tuya”, “Bo‘ri keldi” singari qator o‘zbek xalq o‘yinlari kelib chiqqan.

Xalqimiz orasida hayvonlar va qushlar mavzuidagi juda qiziqarli “Kaptar o‘yini”, “Chag‘alak”, “Yumronqoziq”, “Ot o‘yini” kabi raqslar keng raem bo‘lgan. Shuningdek, o‘zbeklar orasida “Karnaymi, sunray”, “Nina, ip va tuguncha”, “Tapir-to‘pur qayrag‘och”, “Qovoq ekish”, “Xo‘rozlar jangi”, “Xo‘roz va tovuq”, “Qoch bolam, qush keldi”, “Oq terakmi-ko‘k terak” kabi o‘yinlar ham mashhur bo‘lgan.

Milliy xalq o‘yinlari juda qadim zamonlarda vujudga kelgan, rivojlanishining har bir tarixiy bosqichida mazmunan o‘zgarib, turli ijtimoiy vazifalarni bajargan.

An’analar, fanlar, shu jumladan, xalq milliy o‘yinlari, millatimiz hayoti bilan bog‘liq bo‘lib, avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tib kelgan. Avlodlar egallagan bilim va tajribalar amaliy hayotda sinalgan, keyingi avlodlar tomonidan mustahkamlangan va takomillashtirilgan. Ularning mazmunini har bir avlod, jamiyat rivojlanishining bosqichlari yangilab borgan. Bolalar jamiyat rivojlanishining o‘sha bosqichida kattalar o‘ynagan xalq milliy o‘yinlarini o‘ynaganlar. Ko‘pgina milliy o‘yinlar otalar va bobolardan bolalar, nabiralarga o‘tgan.

Milliy xalq o‘yinlarining tarixiy vujudga kelishini tahlil qilib, dramalashgan o‘yinlar o‘zbek qo‘g‘irchoq teatrining negiziga aylangan qadimiy xalqning «qo‘g‘irchoq o‘ynatish» san’ati asosida paydo bo‘lgan, degan xulosaga kelish mumkin. Muayyan badiiy obrazni ifodalaydigan qo‘g‘irchoq mamlakat va kishilar hayotidagi tarixiy turmush voqealarini aks ettiradi, madaniy-maishiy o‘zgarishlar amaliy ko‘rinishlarining go‘zalligi va kam-chiliklarini ifodalaydi.

Dramalashgan o‘yinlarga o‘zbek xalq ertaklari va afsonalari asos qilib olingan. Mana shunday o‘yinlarning maqsadi ertaklar va afsonalarni ijro etishdir. Dramalashgan o‘yinlar o‘z mazmuniga ko‘ra juda yorqin bo‘ladi. Ularda ishtirok etuvchilar esa hayvon yoki hush bo‘lsin, Odam bo‘lsin, badiiy obrazning barcha xususiyatlarini o‘zida mujassamlashtirgan shaxslardir. Bunda hayvonot olami insoniy xususiyatlarga ham ega bo‘ladi. Qo‘shiq va raqs o‘yinlari xalq madaniyatining o‘ziga xos janri, xalqimizning milliy ogzaki, teatr va musiqa an’analari targ‘ibotchisi sifatidagi folklorlarga asoslanadi. Ular xalqimizning ma’naviy boyligini, estetik didini ifodalaydi.

Mazmunli-rolli va mazmunli-harakatli o‘yinlar o‘ziga jozibador va qiziqarli bo‘lib, mukammal mazmun hamda turli olam, tabiat, ayrim narsalarning sifatlari bilan tanishtiradi. Mana shu guruhdagi o‘yinlarning mohiyati va ahamiyati boshqachadir. Mehnat bilan bog‘liq o‘yinlar. Inson faoliyati aqliy va jismoniy mehnat bilan belgilanadi. Ularni harakatli o‘yinlar mazmunida ham uchratish mumkin. Aqliy mehnatga doir o‘yinlar turkumiga “Sanash o‘yinlari”, “Sonlarni yozish va o‘ylab top”, “Ism yoki buyumlarni ketma ket va aralash turib aytish”, “Sakrab qo‘shiq aytish”, “Rasmlarni tez chizish”, “Shakllarni (kubok) joylashtirib o‘z holiga keltirish” (shakl yasash) va shunga o‘xshash faoliyatlarni aks ettiruvchi o‘yinlar kiradi.

Jismoniy mehnatni aks ettiruvchi harakatli o‘yinlar ham juda ko‘p. Ularga “O‘tin yorish”, “Poda to‘p” (cho‘pon), “Qo‘sh haydash” (yerni haydash, chopish), “Osilib chiqish”, “Tortilish”, “Yuk ko‘tarish”, “Eshak mindi”, “Piyoda poyga”, “Poezd” va h.k. kiradi. Ularning mazmunida mehnat qilish yo‘llari, bajarish usullari hamda chidamlilikni ifoda etuvchi hislatlar mujassamlanadi.

Yuqorida nomlari keltirilgan murakkab va oddiy (sodda) o‘zbek xalq milliy o‘yinlari barcha yoshdagilarning jismoniy sifatlarini tarbiyalash bilan birgalikda, insoniy fazilatlarni ham shakllantirish va ularni yanada takomillashtirishda bevosita xizmat qiladi.

Bolalarga xos bo‘lgan epchillik, ixchamlik, abjirlik, uddaburonlik qayishqoqlik kabi xususiyatlarni rivojlantirishda faqat jismoniy tarbiya darslaridagi harakatli o‘yinlar bilan chegaralanib qolmaslik lozim. Ularning bo‘sh vaqtlarida hovli, ko‘cha, maydonlarda erkin ravishda shug‘ullanishlari va bunda sport o‘yinlari, gimnastika, yengil atletika, kurash kabi sport turlarining qism (element)lari bilan shug‘ullanishlarini ham ta’minlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa shundan iboratki, xilma-xil turkumlarga bo‘linadigan harakatli o‘yinlarni o‘z vaqtida maqsadli qo‘llash zarurdir.

Kazakov Shavkat Norqobilovich (Nizomiy nomidagi TDPU o‘qituvchisi)

MUTAFAKKIRLARNING AXLOQIY VA JISMONIY TARBIYA BORASIDAGI PEDAGOGIK QARASHLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Avesto” asosida Markaziy Osiyo xalqlari ilk ajdodlarining tarbiyaviy qarashlari, antik davr yunon mutafakkirlari va Sharq allomalarining axloqiy tarbiya masalasidagi qarashlari o‘rganilgan hamda tarbiya masalasidagi yondashuvlari tahlil qilingan.*

Аннотация. *На основе «Авесты» изучены просветительские взгляды первопредков среднеазиатских народов, взгляды древнегреческих мыслителей и ученых Востока на проблему нравственного воспитания, а также их подходы к вопросу воспитания.*

Annotation. *Based on “Avesta”, the educational views of the first ancestors of the Central Asian peoples, the views of ancient Greek thinkers and scholars of the East on the issue of moral education were studied and their approaches to the issue of education were analyzed.*

Kalit so‘zlar: *axloqiy tarbiya, stixiyali g‘oya, mafkuraviy tahdidlar, zamonaviy jamiyat, tarbiya sifati, pedagogik an’ana, “gatlar”, shaxs ruhiyati, juvonmardlik, inson kamoloti.*

Ключевые слова: *нравственное воспитание, спонтанная идея, идеологические угрозы, современное общество, качество образования, педагогическая традиция, «гаты», менталитет личности, молодость, человеческая зрелость.*

Key words: *moral education, spontaneous idea, ideological threats, modern society, quality of education, pedagogical tradition, “gats”, personality mentality, youth, human maturity.*

Tarbiya masalasi insoniyat paydo bo‘lgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, insoniyat hayotining ibtidoiy davrlarida bolalarni tarbiyalashda stixiyali g‘oyalar paydo bo‘lgan va tarbiya mazmuni turli davrlarda, turli xalq, millat va elatlarda u yoki bu shaklda bo‘lishiga qaramasdan, ibtidoiy to‘da davridan insoniyat ongli yoki ongsiz ravishda ushbu murakkab va uzluksiz jarayonni amalga oshirib kelmoqda. Shu o‘rinda jamiyatda yosh avlodni axloqiy va irodali tarbiyalash dolzarb muammo bo‘lib kelgan va doimo shunday bo‘lib qoladi. Hozirgi mafkuraviy tahdidlar kundan kunga kuchayayotgan ayni paytda yoshlarni, ayniqsa, maktab o‘quvchilarini tarbiyalash muommalarini hal etish masalasini qiyinlashtirmoqda. Chunki bugungi zamonaviy jamiyatda aksariyat bolalarning jismoniy-irodaviy rivojlanishda zaiflik va xatti-harakatlarida salbiy xarakter xususiyatlarning namoyon bo‘lishi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy sifatlarini tarbiyalashni yetakchi masala sifatida namoyon qiladi.

Mahalliy olimlarimizdan K.Hoshimov, O‘.Asqarova, B.Ziyomuhammedova, Sh.Abdullayeva, J. Yo‘ldoshevlar axloq va axloqiy tarbiyaning pedagogik muammolari; J.Tulenov, Q.Nazarov, G.Tulenovalar axloq va axloqiy qadriyatlarning falsafiy jihatlarini tizimli ravishda tadqiq qilganlar. MDH tadqiqotchilaridan V.P.Baxterev, K.N.Ventsel, F.Kapterov, P.F.Lesgaft, Y.A.Komenskiy, A.S.Makrenko, K.D. Ushinskiy va boshqalar o‘sib kelayotgan yosh avlodda axloqiy sifatlarni tarbiyalashning muammolari va tarbiyaning dolzarb masalalari; E.V.Bondarevskaya, O.S.Bogdanova, R.S.Bure, A.M.Vinogradova, S.A. Kozlova, B.T.Lixchayev va boshqalar shaxsni axloqiy tarbiyalash muammolarini o‘rgangan. Xorijiy olimlardan axloqiy tarbiya muammosiga antik davr mutafakkirlaridan Suqrot, Platon, Aristotel, Foma Akvinskiylar, yangi davr olimlaridan I.Kant, G.Gegel va boshqalar etiborini qaratganlar. Tadqiqot ishimizda umumlashtirish, qiyosiy tahlil, analiz va sintez metodlaridan foydalanildi.

Jamiyatda axloqiy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

–yuksak axloq me’yorlariga mos keladigan axloqiy ongni, ya’ni, axloqiy tushunchalar, qarashlar va baholarni shakllantirish;

–axloqiy tuyg‘ularni shakllantirish: vatanga muhabbat, insonparvarlik, jamoaviylik tuyg‘usi, do‘stlik, axloqiy me’yorlarning buzilishiga murosasizlik hissi va h.k;

–axloqiy fazilatlarni, axloqiy me’yorlarga rioya qilish odatlarini, ijtimoiy asosli xulq-atvor ko‘nikmalarini shakllantirirish (mehnat natijalari va ma’naviy va moddiy madaniyat obyektlarini hurmat qilish, ota-ona va kattalarga hurmat, halollik, hayo, vijdonlilik va boshqalar);

–irodaviy xususiyatlar va shaxsiy xususiyatlarini tarbiyalash: jasorat, qatiyat, g‘alaba qozonish istagi, o‘zini tuta bilish va h.k.

Markaziy Osiyo xalqlarining o‘tmishdagi pedagogik qarashlar tarixini o‘rganish, tahlil qilish xalqimizning jahon pedagogika fani rivojiga bebaho hissa qo‘shganligidan dalolat beradi. O‘tmishdagi pedagogik an’analariga qiziqishning ijobiy jihati shundaki, bu, o‘z navbatida, shaxsda o‘z-o‘zini anglashning o‘sishi va yangi tarixiy sharoitlarda ta’limning eng samarali shakl va usullarini qayta tiklashga intilish bilan bog‘liq. Shu o‘rinda, Markaziy Osiyoda ilk pedagogik qarashlar zardushtiylikning muqaddas manbasi “Avesto”da o‘z aksini topgan bo‘lib, bunda ajdodlarimizning bola tarbiyasidagi boy merosini o‘rganish imkoniyati mavjud. “Avesto”da axloq va ma’naviyat masalalariga eng ko‘p to‘xtalinilgan qismi “Yasna” bo‘lib, u, asosan, Zardushtning o‘zi tomonidan yaratilgan gatlar, ya’ni qo‘shiqlardan iborat. Uning asosiy qismi oliy xudo – Axuramazdaga murojaati she’riy shaklda berilgan bo‘lib, dindagi ezgulik va yovuzlik o‘rtasidagi kurash, o‘limdan keyingi jazoning mavjudligi hamda muqarrarligi kabi asosiy qoidalarni o‘z ichiga oladi. Yodgorlik gatlarining asosiy mazmunini yaxshilikga intilish, halollik, jamoada ishlash, oila axloqining asoslari tashkil qiladi. Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi qadimgi davrdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy o‘ziga xos xususiyatlari mintaqa pedagogikasi rivojida sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. “Avesto” matnlarini tahlil qilar ekanmiz, bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish masalasiga yetakchi masala sifatida qaralganligi guvohi bo‘lamiz. «Avesto»da «bola» so‘zi 80 dan ortiq marta kelganligi zardushtiylarning bolalarga alohida e’tibor qaratilganligidan dalolat beradi.[1]

Din ta’limotida “Axloqiy bo‘lgan narsa go‘zal, go‘zal bo‘lgan narsa axloqiydir”, deyiladi. Bu birlik ajralgan joyda yolg‘on, xunuklik va bevafolik boshlanadi. Zero, go‘zallikda namoyon bo‘ladigan axloqning pirovard maqsadi Axura Mazda obrazini ifoda etuvchi Haqiqat, Ezgulik va Solihlikning ajralmas qismidir.[2] Insoniyat tafakkuri taraqqiyotida ilk bora ezgu niyat, ezgu so‘z va ezgulikga asoslangan amaliyot birligi har qanday ijtimoiy rivojlanishning asosi ekanligi to‘g‘risidagi ta’limot ilk bor zardushtiylik ta’limotida shakllantirilgan edi. “Avesto”da bayon etilgan mazkur fikrlar zamirida yuksak axloq, komil inson qiyofasini aks ettiruvchi axloqiy fazilatlar ifoda etilgan. Bu ta’limotda ezgu niyat, ezgu so‘z va ezgu amaliyotga izchil amal qilibgina inqirozdan qutulishi va farovon hayotga yetishishi mumkun, degan purhikmat xulosalar chiqarilgan.[3]

Zardushtiylikda ta’lim-tarbiya masalalariga katta ahamiyat berilib, jumladan, ta’limni hayotning eng muhim ustuni deb bilish kerakligi, har bir inson o‘qish va yozishni o‘rganib, yuqori darajaga ko‘tarilishi uchun bilim olishi kerakligi uqdiriladi.[4] “Avesto” talabiga ko‘ra, bolalar va yoshlar tarbiyasi, asosan, diniy-axloqiy, jismoniy tarbiya, o‘qish va yozishni o‘rgatishdan iborat bo‘lgan.[5] «Har bir yosh, avvalo, tarbiyani hayotning eng muhim ustuni deb bilishi, odob-axloqni, o‘qishni, keyin yozishni o‘rganib, eng yuqori darajaga yetishi uchun tarbiyalanishi kerak», deyiladi.[6] Ta’limda dastlab o‘qish, yozish, sanash, kamondan otish, otda chopish, diniy qonunlar,qiroat (maxsus intonatsiya bilan o‘qish) va qo‘shiq aytish o‘rgatilgan. Sanash va yozish boshlang‘ich ta’limning eng quyi darajasi, notiqliq va «shirin so‘z» eng yuqori darajasi hisoblangan. O‘g‘il bolalarni hayotga tayyorlashda kurash, ot egarlash, qoramol boqish va tuya va otlarni parvarish qilish, chorvani yirtqichlardan himoya qilish uchun 50 dan ortiq qurol-yarog‘-lardan foydalanish, ot minish va 32 dan ortiq sport turlari o‘rgatilgan. Hunarmandchilik ham bolaligidan o‘rgatilib, bu, o‘z navbatida, o‘sib kelayotgan yosh avlodning kamolatga yetishida alohida ahamiyat kasb etgan. Tadqiqotchilarning fikricha, o‘sha davrlarda ta’limning sinfiy tabiati shundan iborat ediki, agar har bir kishi diniy, axloqiy va harbiy-jismoniy tarbiya olgan bo‘lsa, o‘qish, yozish va hisoblashni o‘rganish

[1] Д.Р.Каримова. Постулаты «Авесты» о правах детей. Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов, 2012, 26.11.http://jurnal.org.article/2012/uri46.html

[2] Махмудова Г.М. Активный идеал в этике зороастризма в контексте национальной и общечеловеческой духовности.https://studfile.net/preview/5856403/

[3] Тоҳир Карим. Миллий тафаккур тараққиётидан. Т., “Чўлпон”, 2003, 33-бет.

[4] Маковельский А.О. Авеста. Баку, 1967, с. 28.

[5] Заратустра. Учение огня. Гаты и молитвы. М., “Эксмо”, 2008, с. 200.

[6] Зарастрийские тексты. Переводы. О.М.Чунаковой. Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1997.

faqat imtiyozli sinflarning huquqi bo‘lgan. Zardushtiylarda bolaning sog‘lom tug‘ilishi, har tomonlama kamol topishi uchun ham barcha sharoit yaratilgan. “Avesto”da bola tug‘ilgunga qadar ota-onaning salomatligi, xavfsiz tug‘ilishi va yangi chaqaloqni ona suti bilan boqishga alohida e’tibor qaratilgan. Chunki bularning barchasi bolaning normal rivojlanishi uchun zarur omillar hisoblangan (Yasna. 65-qism, 2–5-bandlar). Avestolog olim S.Ganbarov o‘z tadqiqotlarida “Avesto” voyaga yetmagan bolalarning huquqlarini shu darajada himoya qilinganki, hatto tug‘ilmagan bolalarning huquqlari qonun hujjatlariga kiritilganligini ta’kidlaydi.[1]

Islomda bola tarbiyasi Quroni karim va Hadislarda o‘ziga xos tarzda, bino g‘ishtining qo‘yilishiga talqin qilingan hamda uning izchilligi, shaxsiy axloqiy fazilatlar va yaxshi odatlarning to‘planish ketma-ketligi sifatida talqin qilinadi. Islom dinining diniy-axloqiy qarashlari shakllanishining tarixiy-pedagogik tahlili shuni ko‘rsatadiki, u kishilar hayotida ko‘p asrlar davomida yuksak darajada rivojlangan axloqiy tizim sifatida faoliyat ko‘rsatgan.[2] Antik davr mutafakkiri Aristotel axloqning jamiyat hayotidagi ahamiyati to‘g‘risida shunday degan edi: “Tabiat inson qo‘liga qurol – aqliy va axloqiy kuch bergan, ammo u shu qurolni teskari tomonga ham ishlatishi mumkun. Shu sababli axloqiy tayanchlari bo‘lmagan odam, eng insofsiz va yovvoyi, o‘zining jinsiy va did mayllarida eng tuban mavjudot bo‘lib qoladi”.

Mutafakkir axloqsiz insonni hayvondan farqli tomoni yo‘qligiga shama qiladi. Aristotel insonning jismoniy va ruhiy holatidagi bog‘liqlikni asoslashga harakat qiladi. Yunon mutafakkirlaridan Suqrot, Demokrit va Aflotunlar ham axloq masalasiga alohida to‘xtalganlar. Jumladan, Suqrot yunon olimlari ichida axloqning bilim bilan bog‘liqligini ta’kidlab, “Mard bo‘lish uchun mardlik haqidagi bilimlarni egallash kerak”, Qanoatli bo‘lish uchun hissiyotlarga yo‘l qo‘ymaslik kerak”, “Adolatli bo‘lish uchun birovlarga qanday yaxshilik qilishni o‘rganish kerak”, deya ta’lim beradi. Aflotun yaxshilik g‘oyasi haqida fikr yuritib, yaxshilik g‘oyasida go‘zallik, me’yor, haqiqat kabi tushunchalar uyg‘unlashgan bo‘lishini bayon qiladi.[3] U ta’lim va tarbiya insonning butun hayoti davomida davom etadigan uzluksiz jarayon ekanligini ta’kidlagan holda, inson hayoti ritm va uyg‘unlikga muhtojligini e’tirof qiladi. Qadimgi Yevropada jismoniy tarbiyaning axloqiy sifatlarni shakllantirishdagi o‘rni va rolini tahlil qiladigan bo‘lsak, bunga alohida e’tibor qaratgan mamlakatlardan biri Qadimgi Sparta ekanligini alohida e’tirof qilishimiz lozim. Bolaning jismoniy sog‘lomligi uning kelajak taqdirini belgilab bergan. Nosog‘lom bolalar yashash imkoniyatiga ega bo‘lmagan yoki maxsus uylarda qul sifatida tarbiyalangan. Bu mamlakatda jismoniy rivojlanish masalasida ayollarga ham jiddiy e’tibor qaratilganligi Plutarx ma’lumotlari asosida bizgacha yetib kelgan. “Tarix otasi” Gerodot o‘zining “Tarix” asarida qadimgi skiflar o‘z qizlarini jismoniy jihatdan epchil, va jasur qilib tarbiyalashga harakat qilganligini yozadi. Antik davr faylasuflari inson axloqiy sifatlarining shakllanishini bevosita bilim, tarbiya, muhit va boshqa turli omillarga bog‘lagan holda, uni jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida e’tirof qilishadi.

Pedagogik fikrlar tarixidan ma’lumki, Sharq uyg‘onish davri allomalari asarlarida shaxs kamolotida axloqiy tarbiyaning o‘rni haqidagi qarashlar alohida o‘rin egallaydi. Sharq renessansi davri mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida axloqiy fazilatlarni bilimlilik, donolik, farosatlilik bilan bog‘lagan holda, insonning xalq manfaatlarini o‘z shaxsiy istaklaridan ustun qo‘yishi bilan belgilaydi. Forobiyning fikricha, axloq insonning aqliy tafakkuri bilan bevosita bog‘liq. Shunday ekan, yoshlarning aqliy tarbiyasiga katta e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi.[4]

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog‘laydi. Uning inson kamolotida axloqiy tarbiyaning muhim ekanligi to‘g‘risidagi fikrlari “O‘tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, “Mineralogiya”, “Geodeziya” va boshqa asarlarida o‘z ifodasini topgan.[5]Allomaning fikricha, axloq odamzodning insoniy mohiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Abu Ali ibn Sino axloqni kishilarning o‘ziga va boshqalarga nisbatan xatti-harakati me’yorlari va qoidalarini sifatida talqin qiladi.[6]

---

[1] Ртveладзе Э.В., Саидов А.Х., Абдуллаев Е.В. Очерки по истории древнего Узбекистана: государственность и право. Т., “Адолат”, 2000, с. 168 – 169.

[2] Ибрагимов А.И. Абед Халил. Использование нравственного потенциала ислама в воспитании учащихся подросткового возраста. Автореферат дисс.канд.наук, 13.00.01.1996, с. 194.

[3] Ў.К.Жалолова. Шарқ ва Ғарб мутафаккирларининг маънавий-ахлоқий камолот ҳақидаги қарашлари. Иқтисодиёт ва инноватsion технологиялар илмий-электрон журнали, 6-сон, апрель, 2013, 2 – 7-бетлар.

[4] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Mas’ul muharrir M.M.Xayrullayev. Toshkent, Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993.

[5] Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild, Toshkent, 1968.

[6] Abu Ali ibn Sino. Hikmatlar. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1980.

Kaykovus “Qobusnoma” asarida juvonmardlik g‘oyasini ilgari surar ekan, bunda yoshlar tarbiyasida eng muhimi axloq tarbiyasi ekanligini ko‘rsatadi. U yoshlarda odamlarga nisbatan insoniy munosabatda bo‘lish adolatlilik, samimiylik kabi sifatlarni shakllantirish lozimligini ta’kidlaydi.[1]

Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa’diy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy kabi ko‘plab allomalar asarlarida axloqiy sifatlar va ularning o‘qib kelayotgan yosh avlod xulq-atvorida namoyon bo‘lishida, ota-onalar, ya’ni, oilaning, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning o‘rni, tarbiyaning jamiyat kelajagini belgilovchi omil ekanligi to‘g‘risidagi fikrlar o‘z aksini topgan.[2]

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yashab o‘tgan atoqli jadidchilarimizdan Abdurauf Fitrat farzandni to‘laqonli kamol toptirib o‘stirish uchun unga jismoniy, aqliy va ma’naviy tarbiyadan iborat ko‘p tarkibli tarbiya berish muhimligiga alohida e’tibor qaratadi. Odamning fe’l va harakatini bir yaxshi shakl va mazmunga keltirish uchun ruhini tarbiyalash, bolarni o‘ziga ishongan, kuchli, topqir, chaqqon va aqlli, o‘z qadr-qimmati, sha’nini hurmat qilish ruhida qilib tarbiyalash lozimligini alohida e’tirof qiladi. Tarbiyaning har bir qismini nomlagan jadidchi mehnatsevarlik va bilim olish tarbiyasiga alohida e’tibor bergan holda farzandlarining kelajakda qanday shaxs bo‘lib voyaga yetishlari, ularga ota-onalari nima bera olganliklari bilan bog‘liq, deydi. Adib “Bu dunyo kurash maydonidir. Bu maydonning quroli sog‘lom jismu tan, o‘tkir aql va yaxshi axloqdir”, degan fikrlari orqali farzand tarbiyasini mas’uliyatli burch sifatida, ya’ni, millat tarbiyasi sifatida qarash lozimligini uqdirib, o‘z davrining tarbiya masalasidagi og‘riqli muommolariga to‘xtalib o‘tadi.[3]U yaxshi va xush axloqqa ega bo‘lgan farzand tarbiyalashda, birinchi navbatda, ota-onalarning tarbiyalanganlik holatiga bevosita bog‘liqligini asoslaydi. Oilada olingan tarbiya inson tabiatiga mustahkam o‘rnashadi. Shaxs ruhiyati, axloqi va odatlari bolaligidanoq shakllanadi. Insonning kamoli faqat va sog‘liq va kuchdan iborat bo‘lmay, balki jismonan, aqlan va axloqan yuksalishdan iborat. Fitrat o‘zining “Oila yoki oilani boshqarish tartiblari” asarida tarbiyani quyidagi 3 qismga ajratadi:

1. Badan tarbiyasi.
2. Aqliy tarbiya.
3. Axloqiy tarbiya.

Tarbiyaning ushbu turlari bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va yaqinki, biriga zarar tegsa, boshqalarida ham nuqson paydo bo‘ladi. Biri yaxshilansa, ikkinchisi ham bundan ijobiy ta’sir oladi. Jumladan, tafakkuri sust inson o‘zi qilayotgan ishlari ustida jiddiy mulohaza qilmaydi. Natijada hissiyotiga erk bergan holda jismi zaiflashib axloqi buziladi. Axloqsizlik insonning aqliy va jismoniy rivojlanishiga bevosita ta’sir qilishini aytadi. Barkamol avlod tarbiyasida tarbiyaning barcha shakllarining bevosita bir-biriga bog‘liqligi e’tiborga olinishi lozimligini ta’kidlaydi. Fitrat mazkur fikrlari orqali tarbiya turlarini birini ikkinchisidan ustun qo‘yib bo‘lmasligi, ular o‘zaro chambarchas bog‘liqligini asoslaydi.

Tarbiya masalasida paydo bo‘lgan ilk qarashlar garchi uning shakli va mazmuni har xil bo‘lishiga qaramasdan, insoniyatning shakllanishi bilan bir vaqtda paydo bo‘lgan. Tarbiya masalasi doimo eng dolzarb masala bo‘lib kelgan. Zero, har qanday tarbiyaning oliy maqsadi, shubhasiz, jamiyat talablariga mos avlodni voyaga yetkazish va jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan insonni kamol toptirishdir. Ajdodlarimizning tarbiya borasidagi qarashlari asrlar silsilasida ham o‘z ahamiyati va qimmatini yo‘qotmagan. Hozirgi mafkuraviy va g‘oyaviy tahdidlar kundan kunga kuchayoyatgan davrda, xalq pedagogikasining o‘lmas merosidan unumli foydalanish o‘z ijobiy samarasini berishi, shubhasiz. Shunday ekan, ajdodlarimizning axloqiy tarbiya masalasidagi qarashlarni o‘rganish, ijobiy jihatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Azimov Adiz Abdulloevich (Buxoro Muhandislik-texnologiya instituti)

ZAMONAVIY GLOBALLASHAYOTGAN DUNYODA TA’LIM-TARBIYANING ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan bu davrda ta’lim-tarbiya borasida oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega ekanligi tahlil etilgan.*

Аннотация. *В статье раскрывается мысль, что сотрудничество между семьей, сообществом и образовательными учреждениями важно в образовании в эпоху ускорения процессов глобализации.*

[1] Кайковус. Қобуснома. Тошкент, 2010.
[2] Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1996.
[3] А.Фитрат. Оила ёки оилани бошқариш тартиблари. Тошкент, “Маънавият”, 2009, 110-бет.

Annotation. *It has been analyzed that cooperation between family, community and educational institutions is important in education in this era of accelerating globalization processes.*

Kalit so‘zlar*: globallashuv, texnologiyalar asri, ta’lim-tarbiya, mafkura, milliy g‘oya, avtoritar siyosiy tizim, demokratik tizim.*

Ключевые слова*: глобализация, технологический век, образование, идеология, национальная идея, авторитарная политическая система, демократическая система.*

Key words: *globalization, technological age, education, ideology, national idea, authoritarian political system, democratic system.*

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikricha, globallashuv, asosan, o‘z-o‘zidan kelib chiqadigan jarayon, insoniyatni atrof-muhit va hayotni tabiiydan sun’iygacha muqarrar va qaytarib bo‘lmaydigan o‘zgarishlarga olib keladi. N.A.Kosolapov ushbu globallashuv sharoitida masalaning bunday shakllanishi foydasiga dalillarni ko‘radi: a) zarur bilim, texnologik, moddiy va madaniy zamin yaratadi; b) Yerning tabiiy ekologiyasini tobora yo‘q qiladi, tarixiy jihatdan juda zaiflashadi; insonlar uchun mavjud bo‘lgan tabiiy resurslar; d) insonga yaqin kelajakda kapitalistik ishlab chiqarish rejimidan va ijtimoiy modeldan voz kechishni talab qilmaydigan ikkita iqtisodiy xulq-atvor strategiyasini qoldiradi. Jahon okeanining ommaviy rivojlanishi va yoki kosmosga ulkan iqtisodiy chiqish (ehtimol, birinchisi ikkinchisidan oldin bo‘lishi kerak, ammo keyin ikkinchisi esa sun’iy yashash muhitini va inson hayotini yaratmasdan imkonsiz darajaga tushishidir.[1]

Insoniyat bugun “texnologiyalar asri”da shaxdam qadamlar bilan odimlamoqda. Ilm-fan, tibbiyot, texnika sohalarida amalga oshirilayotgan kashfiyotlar, yangiliklarga qaramasdan, ta’lim-tarbiya masalasi yanada dolzarblashib bormoqda. Ta’lim degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya nazariy–fazilatni, ma’lum hunarni egallashi uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarini o‘rgatishdir, deydi olim.[2]

Vatanimiz tarixining qaysi davriga nazar solmaylik, ta’lim-tarbiya masalasi doim muhim masala hisoblanib kelingan. Jumladan, buyuk sarkarda, Sohibqiron Amir Temur davrida ham ta’lim tizimi, ilm-fan va madaniyat rivojiga alohida e’tibor qaratilib, Samarqand va Hirot shaharlari madaniyat, ilm-u ma’rifat markaziga aylandi. Amir Temur va Temuriy shahzodalar tomonidan ko‘plab madrasalar qurilishiga, olim-u fuzalolarga homiylik qilinishi ilm-fan taraqqiyotiga zamin yaratdi. Madrasalarda ta’lim to‘rt bosqichdan iborat bo‘lib, har bir bosqich muddati 8 yildan jami 24 yilni o‘z ichiga olgan. Ta’lim-tarbiyada diniy dunyoqarashni shakllantirish bilan bir qatorda, diniy-axloqiy tarbiya, huquqiy tarbiya va harbiy-jismoniy tarbiya ishlari olib borilgan. Temur Tuzuklarida “Amr qildimki, vazirlar toza nasllik, aql farosatli, xalq-ahvolidan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalalik, sabr-chidamlilik, tinchliksevarlik va yoshlar tarbiyasiga, ularning hayotiga befarq bo‘lmagan vazirlarga to‘rt imtiyoz: ishonch, e’tibor, ixtiyor va iqtodor berilsin”,[3] deb ta’kidlab o‘tilgan.

Ushbu ikki holatda, texnosfera manfaatlarini amalga oshirish bir-biri bilan ma’lum tuzilmaviy aloqada bo‘lgan va ko‘plab zamonaviy globallashuv jarayonlarining moddiy asosi bo‘lib xizmat qiladigan eng rivojlangan postindustriyadan keying davlatlarning birlashishi sifatida namoyon bo‘ladi. Bir vaqtning o‘zida inson hayotining sun’iy muhitini ifodalovchi texnosfera bir qator muhim xususiyatlar bilan ajralib turadi:

–hayotga chorlaydi va iqtisodiyotning barcha sohalarida, fan, madaniyatda o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yangi global faoliyat turlarini rivojlantiradi;

– davlatlar chegaralarida to‘xtamasdan zarur moliyaviy oqimlarni, tashkiliy tuzilmalarni yaratadi;

–ko‘plab an’anaviy muammolarni global miqyosda o‘zgartiradigan qiladi (subyektlarning madaniyati uchun texnosferaning ishlashi va ishonchliligi muhim omil bo‘ladi);

– uning o‘ziga xos ekologik va boshqa global oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Mafkura va zamonaviy globallashayotgan dunyo, tashqi dunyo bilan texnosferaning funksional munosabatlari tizimida davlatlar iyerarxiyasining mustahkamlanishiga olib keladi.[4] Aytib o‘tilgan munosabatlarning barcha majmuasida, shu jumladan, xalqaro siyosiy munosabatlarda davlatning o‘rnini o‘zgar-

[1] Косолапов Н. Глобализация: сущностные и международно-политические аспекты, с.70

[2] Giddens F. Modernity and Self-Identity. Cambridge, 1991, p. 26.

[3] Temur tuzuklari. T., 2011, 63-bet.

[4] Robertson R. Globalization: Social Theory and Global Culture. London, 1992; Albrow M.The Global Age. 1996. Cambridge, 1996.

tiradi. Bu texnosfera davlatni global aloqalar va qaramliklar tizimiga kiritadi, an'anaviy davlat suverenitetini yo'q qiladi va uni vertikal ravishda to'ldiradi.

Mafkura va zamonaviy globallashayotgan dunyo davlatlararo integratsiya va global iqtisodiyot darajasida xalqaro tartibga solishda katta rol oynaydi.

Paydo bo'layotgan xalqaro tartibni nafaqat hokimiyat va ta'sir doiralarini taqsimlash masalasini, balki uning turmush tarzining ishonchliligini ham hal qilishni talab qiladi. Bunday xavfsizlik, asosan, texnosferaning yetakchi ishtirokchilarining xudbinlik manfaatlarini zo'rlik bilan tasdiqlash shaklida bo'lishi yoki muvofiqlashtirilgan xalqaro asosda, xalqaro munosabatlarning ko'p yoki ko'p subyektlari manfaatlarining muvozanatiga asoslanishi mumkin. Ushbu imkoniyatlarning har birining dunyo taraqqiyoti sifatiga ta'siri tubdan farq qilishi mumkin, ayniqsa, agar biz uning uzoq muddatli ufqlarini yodda tutsak. Ushbu sxemalarning birinchisining xalqaro siyosiy shakllari siyosatshunoslikda qabul qilingan ta'rifga mos keladi.[1]

Avtoritar siyosiy tizim, ikkinchisi–demokratik tizim. Ta'riflangan texnosferaning hayotni qo'llab-quvvatlash tizimi ikkala variantda ham iyerarxik xususiyatga ega, bu muqarrar ravishda xalqaro va davlatlararo munosabatlarda avtoritar tamoyilni kuchaytirishi kerak. Birinchi holda, texnosferaning egoistik manfaatlarini kuchaytirish yo'nalishidagi evolutsiya tashqi dunyo bilan munosabatlarda totalitarizm elementlarining namoyon bo'lishiga olib keladi. Ikkinchi variantda avtoritarizmning boshlanishiga. Mafkura va zamonaviy globallashayotgan dunyo tashqi manfaatlarning o'zaro nomuvofiqligi mamlakatlarning texnosferalari o'zlarining kelishilgan kampaniyalari va texnosferaga qarshi harakatlarini, umuman, amalga oshirish mumkin emas.[2] Shu bilan birga, barchaga ayonki, agar bunday birdamlik va harakatlarning uyg'unligi amalga oshirilsa ham, texnosferaning normal faoliyatining buzilishi butun insoniyat uchun jiddiy muammolar tug'diradi va uning yo'q qilinishi uning rivojlanishini orqaga suradi. Texnosfera tushunchasi va u bilan bog'liq mafkuraviy inshootlar zamonamizning eng muhim va o'tkir muammolaridan biri–globallashuv jarayonlarining modernizatsiya bilan o'zaro bog'liqligi, yetakchi yo'nalishi g'arblashtirishdir.[3]

Mafkura va zamonaviy globallashayotgan dunyo – bu Sharqiy Osiyoning ko'plab mamlakatlarining tajribasidan kelib chiqib, rivojlanishning postindustriya bosqichiga kirib, ulardagi modernizatsiya imkoniyatlari poydevorlariga g'arbga qaramasdan amalga oshirilganligini aniq ko'rsatdi. Ikkinchi yondashuv shundaki, globallashuv izdoshlariga G'arb modernizmining global tarqalishi, ya'ni, kengaytirilgan g'arblashtirish, sayyoraviy miqyos, kapitalizm va G'arb institutlarining tarqalishi kabi ko'rinadi.

Ayniqsa, vatanga muhabbat, vatanparvarlik tushunchalari, insoniy tuyg'ular, dastlab, ona suti, allasi va ota mehri orqali bolaning murg'ak qalbida shakllanib boradi. Bu tuyg'ular mahalla va ta'lim tizimda yanada yuksaltirib boriladi. Bugungi kunda ko'plab oilalarda ota-ona, asosan, turmush tashvishlari bilan band bo'lib, farzand ta'lim-tarbiyasi masalasini ta'lim tizimiga zimmasiga yuklab qo'yishgan.[4] Globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan bu davrda ta'lim tarbiya borasida oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Ba'zi bir yoshlarimiz o'z tarixini yaxshi bilmaslik tufayli ota-bobolari, ajdodlari tarixiy merosi, urf-odatlari va madaniyatidan uzilib qolayotgani, oxir-oqibatda ular turli kuchlar ta'siriga tushib qolish xavfi kuchayib borayotgani kuzatilmoqda. Ayrim nosog'lom kuchlar, guruhlar va oqimlar tarixni ma'naviy va mafkuraviy qurolga aylantirib, o'z manfaati yo'lida zararli g'oyalarni yoyishga urinayotganligi sir emas.[5]

Xulosa qilib aytganda, mafkura va zamonaviy globallashayotgan dunyoda ushbu ikki yondashuv vakillari o'rtasida juda qizg'in munozaralar olib borilmoqda, uning markazida asosiy savol tug'iladi: G'arbiy bo'lmagan dunyo G'arbning sivilizatsiyasining asoslari uchun o'z madaniyatini to'lamasdan, G'arblashtirishsiz, globallashuv bosqichiga o'tishi mumkinmi? Garchi har xil fikrlar bo'lsa-da, globallashuv dunyoni uning eng rivojlangan qismi sharoitida birlashishiga olib keladi, degan ishonch ustunlik qiladi. Shunga qaramay, dunyo taraqqiyotining barcha obyektiv jarayonlarini va shu munosabat bilan yuzaga keladigan global ilmiy tartib-muammolarini obyektiv tasavvur qilish uchun, ilmiy yoki ijtimoiy-siyosiy g'oyalar va nazariyalarning mazmuni va xilma-xilligiga ta'sir eta oladigan yoki kam ta'sir ko'rsatadigan global tartibning muammolarini obyektiv ravishda tasavvur qilish uchun hozirgi zamonning asosiy xususiyatlarini umumlashtirish maqsadga muvofiqdir.

---

[1] Connoly W.E. The Etos of Pluralization. Minneapolis, 1996.
[2] Amin S. Capitalism in the Age of Globalization. London, 1997, s. 89.
[3] Callinicos A. Marxism and the New Imperialism. London, 1994.
[4] Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. T., 2002, 168-bet.
[5] Jabbarov I. O'zbeklar. T., 2008, 183-bet.

Рузметова Новваль Вахабджановна (старший преподаватель центра Узбекский язык и иностранные языки Академии МВД Республики Узбекистан; novval_r@mail.ru.(90)

СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ЭТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩЕГО ЮРИСТА

Аннотация. *Мақолада бўлажак ҳуқуқшуносларнинг касбий-этик маданиятининг мазмун-моҳияти ва тузилиши очиб берилган. Юридик техникумда касбий-этик маданият жиҳатлари ўқув жараёнига жорий этиш муаммолари, унинг замонавий профессионал ҳуқуқшунос мутахассисларни тайёрлашдаги роли ва аҳамияти таҳлил қилинади.*

Аннотация. *В статье раскрываются сущность и структура профессиональной-этической культуры будущих юристов. Анализируются проблемы внедрения признаков профессионально-этической культуры в образовательный процесс в юридическом техникуме, его роль и значение в подготовке современных профессиональных кадров правоведов.*

Annotation*. The article reveals the essence and structure of the professional and ethical culture of future lawyers. The problems of introducing the signs of professional and ethical culture into the educational process in the legal college, its role and importance in the training of modern professional legal specialists are analyzed.*

Калит сўзлар: *касбий компетенциялар, гуманизация, профессиограмма, компонентлар, маданият.*

Ключевые слова: *профессиональные компетенции, гуманизация, профессиограмма, компоненты, культура.*

Key words: *professional competencies, humanization, profesiogramma, components, culture.*

В Узбекистане средне-специальное (профессиональное) юридическое образование занимает особое место в шкале профессиональной и социальной престижности. Жизненные реалии показывают, что профессиональная деятельность высококвалифицированных юристов оказывает существенное влияние на разные стороны развития нашего общества – экономику, культуру, бизнес, социальные и политические процессы.

В последнее десятилетие возрос интерес молодых людей к юридическим профессиям. Перед юридическими техникумами встала насущная проблема удовлетворения спроса на высококвалифицированные кадры, способные отвечать вызовам времени. В качестве субъектов социального заказа выступают государство, общество и бизнес. Однако решить проблему обеспечения рынка труда юристами, отвечающими новым требованиям, непросто. Существует опасность разрыва между объемами спроса и качеством предложений на рынке правовых услуг.

Современные интеграционные процессы Узбекистана в международное право актуализируют введение в национальную правовую систему новых отраслей права, таких как банковское, финансовое, торговое (коммерческое), частное и др. и осознанию нашими законодателями и правоведами факта отставания от высокоразвитых правовых систем.[1] Тем самым в образовательный процесс юридических учебных заведений, в том числе техникумы, стали внедряться

Складывающаяся политико-правовая среда востребовала введение новых правовых дисциплин (например, право негосударственных некоммерческих организаций) с учетом международного и зарубежного законодательства. Следует отметить, что многими учеными-правоведами, а также педагогами поддерживаются подобные нововведения в образовательный процесс, что непосредственно положительно отражается в деле подготовки профессиональных кадров-правоведов, отвечающих современным потребностям развития демократии, защиты прав человека и эффективному функционированию рыночных отношений. Вместе с тем ими выражается критическое мнение по недопущению «слепого» копирования норм законодательства зарубежных стран и указывается на необходимость учета современных реалий политической, социально-экономической особенностей и социокультурной самобытности узбекского народа.

При этом, говоря о качестве юридического образования, необходимо уделить специальное внимание вопросу о формировании профессиональной социокультурной компетенции у будущих юристов. Этого в свою очередь можно достигнуть посредством гуманизации и гуманитаризации системы образования путем внедрения и расширения объема гуманитарных дисциплин. Это позволит сформировываться у будущих специалистов органов государственной власти, обличенными

[1] Сагдуллаева Д. Ҳуқуқий маданият – демократик тараққиет омили. “Фан ва технология”, 2012, 108-бет.

правом применения силовых (принудительных) методов воздействия на человека, профессиональной компетенции по ответственному отношению к правам и свободам человека и предупреждению от злоупотребления полномочиями.

Современный юрист, особенно если он хочет стать профессионалом высокой квалификации, должен обладать глубокими знаниями не только в области права, но и навыками общения с другими людьми, иметь широкий кругозор, разбираться в основах устройства современной жизни, быть подготовленным к работе, связанной с решением самых разнообразных задач.[1]

Несмотря на определенные успехи в решении ряда проблем юридического образования в Узбекистане, многие из них до последнего времени практически не исследовались. В частности, к их числу относится вопрос о развитии профессиональных качеств студента юридического техникума как будущего юриста, что должно являться полноценным итогом образовательного процесса, с одной стороны, и реализации этих качеств в практической деятельности, с другой.

Во всем соотношении понятий «юридическое образование – юридическая профессия – юридическая деятельность» именно практическая юридическая деятельность выполняет функцию целеполагающего фактора, ради которого и осуществляется весь непрерывный процесс профессионального обучения (в техникуме). Формирование и развитие профессиональных качеств, профессиональных умений юриста – длительный процесс, который начинается в техникуме и проходит несколько этапов, продолжается в период самостоятельной трудовой деятельности специалиста.

Следует заметить, что профессиональные качества юриста существенно различаются в зависимости от вида юридической деятельности (специализации юриста). Очевидно, они имеют общие черты (инвариант), позволяющие сформировать единую (государственную) часть образовательно-квалификационных требований, отражающих наиболее фундаментальные, стабильные и общие качества специалиста, приобретаемые им в техникуме как гарантированный уровень подготовки. Естественно, каждый техникум должен стремиться превысить этот уровень подготовки за счет совершенствования качества обучения в каком-либо отраслевом направлении.[2]

Периодически предпринимаются попытки описать «идеальную модель» юриста-профессионала, составить профессиограмму, т.е. обосновать объективно необходимый специалисту перечень знаний, умений и навыков, а также систему профессионально важных качеств, которыми должен обладать юрист. Без этого очень трудно организовать эффективную систему профессионального образования. Однако построение профессиограммы требует глубоких и длительных исследований.

Профессиограмма выступает в качестве эталонной модели, т.е. квалификационной характеристики. Она представляет собой государственный документ, где определены обобщенные требования к личности специалиста, его профессиональной культуре и профессиональной компетентности.

Профессиональная деятельность юриста является общественно значимой деятельностью, сферой взаимного воздействия человека на человека, вызывающей изменения в личности каждого из них. Содержание труда юриста характеризуется спецификой объекта и спецификой средств деятельности. Особенности юридической деятельности включают необходимость высокого уровня владения специальными знаниями, развития культуры и профессионально значимых личностных качеств.

В современном мире юридическая деятельность становится сферой повышенной ответственности не только для настоящего, но и для будущего, т.к. обладает большими созидательными возможностями. Работая с людьми, юрист создает своего рода новую правозащитную реальность, способствует формированию новых демократических, гуманно-правовых взаимоотношений, новой правовой культуры. В этом, в частности, проявляется ценностно- гуманистический характер деятельности юриста, выступающего в качестве «человека правовой культуры». Взаимодействие с людьми является формой профессионального существования, профессиональной реализации юриста. В этом процессе имеет место взаимодействие культур, поэтому без преувеличения можно констатировать, что профессионально-этическая культура юриста приобретает особое значение. Рассмотрим основные компоненты юридической деятельности (таблица 1).

---

[1] Тожихонов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. Т., “Академия”, 1998, 1-том, 320-бет.

[2] Сальников В.П. Правовая культура. Теория государства и права курс лекций. Под ред. Н.И.Матузова, А.В. Малько, М., “Юрист”, 2001, с. 629.

Таблица 1

Структурные компоненты юридической деятельности

Конструктивный компонент
Текущий и завершающий анализ всей собранной информации по делу и выдвижение на базе ее синтеза, анализа и специальных знаний рабочих версий (гипотез). Планирование и проектирование коллективной деятельности и ее субъектов, а также собственной деятельности
Организационный компонент
Разрешение организационно-управленческих вопросов. Реализация к проверка рабочих версий и планов. Самоорганизованность и организация людей в коллективном решении профессиональных задач. Информирование субъектов правоохранительной деятельности.
Коммуникативиый компонент
Получение необходимой информации в процессе общения. Установление оптимальных отношений с субъектами деятельности. Разрешение конфликтных ситуаций в процессе межличностных отношений.
Гностический компонент
Исследование объекта, процесса деятельности и анализа результатов деятельности. Изучение индивидуально-личностных и возрастных особенностей субъектов профессионального взаимодействия. Рефлексия особенностей процесса и результатов индивидуальной профессионально- юридической деятельности.

Одной из важных характеристик профессиональной культуры юриста является высокий уровень профессионально-речевой культуры специалиста. Речь в деятельности юриста выступает как носитель информации и как средство воздействия на субъектов правозащитной деятельности.

Ю.В.Чуфаровский отмечает, что содержание и форма речи человека зависит от его профессии, опыта, темперамента, характера, способностей, интересов, состояний и т.д. Речевую деятельность юриста автор рассматривает как устную и письменную, внутреннюю и внешнюю, диалогическую и монологическую, обыденную и профессиональную, подготовленную и неподготовленную. Кроме того, профессиональная речь юриста сочетает в себе различные аспекты: лексикон, произношение терминов и специальных фраз, логика высказывания и т.д.[1]

Таким образом, высокая профессионально-речевая культура является одним из основных условий эффективности деятельности юриста.

Mustaqillikning ilk yillaridagi mafkuraviy jarayonlarning o‘ziga xosligi shunda bo‘ldiki, yuqorida sanab o‘tilgan ekstremistik oqimlar hamda shular qatori, dastlab, milliy harakat to‘lqinlari va kommunistik mafkuraga muholifat sifatida shakllangan – «Birlik» xalq harakati va Erk demokratik partiyalarni siyosiy va huquqiy jihatdan legallashuviga yo‘l qo‘yilmadi. Ya’ni, mazkur harakat va partiya 1996-yil 26-dekabrda qabul qilingan «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi qonuniga ko‘ra qayta ro‘yxatdan o‘ta olmadi.[3]

Ta’kidlash kerakki, mustaqillikning dastlabki yillaridagi ushbu harakatlar progressiv va regressiv g‘oyalarni ajratish borasida xalqimiz va hukumatimiz faoliyatida muayyan tajriba shakllanganligini ko‘rsatdi. Biroq ushbu davrda, mafkuraviy masalada ayrim kamchiliklarga ham yo‘l qo‘yildi. Jumladan, sotsialistik g‘oyalar qadrsizlangan bir vaziyatda sotsial-demokratik asosdagi Xalq demokratik va Adolat sotsial-demokratik partiyalariga va shu qatori ijtimoiy asoslari shakllanib ulgurmagan Leberal-demokratik g‘oyalarga asoslangan Liberal-demokratik partiyalarning siyosiy va huquqiy jihatdan legallashuvi qo‘llab-quvvatlandi. Biroq yurtimizdagi mafkuraviy jarayonlar rivojiga hissa qo‘shishi kutilgan ushbu partiyalar o‘z g‘oyalarining ijtimoyilashmagani sababli ko‘zlagan natijani bermadi. Mana shunday holatlar davlat bosh islohotchi tamoyilidan kelib chiqqan holda, jamiyatdagi mafkuraviy jarayonlar rivojiga amaliy va nazariy jihatdan yordam berish zaruriyati yuzaga kelganligini ko‘rsatdi.

Amaliy jihatdan bu, birinchi navbatda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-apreldagi «Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni[4]

[1] Nazarov Q. Mafkura. Respublika Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. T., 2014, 10-bet.

[2] Ekstremizm va terrorizm – taraqqiyot dushmani. Ichki ishlar tizimi xodimlari (proflaktika inspektorlari) uchun o‘quv-amaliy qo‘llanma. Mas’ul muharriri Z.Islomov, Sh.Ikramov. T., O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015, 164-bet.

[3] O‘zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to‘g‘risida»gi 337-I-son qonuni. 1996-yil 26-dekabr. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 15.10.2021, 03/21/722/0960-son.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 23-apreldagi «Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi,

hamda shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundani 288-sonli qaroriga ko‘ra, «davlat budjetidan mablag‘lar bilan ta’minlanish bilan bir qatorda, xo‘jalik hisobida ham ish yurituvchi ijtimoiy tashkilot»[1] – Respublika Ma’naviyat targ‘iboti markazining ochilishida ko‘rindi. Bu jarayon davom etib, 2006-yilga kelib, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi negizida Respublika Ma’naviyat targ‘iboti markazi hamda Milliy g‘oya ilmiy-amaliy markazi alohida tashkilot sifatida ish boshladi.[2]

Ikkinchidan, 2001-yil 18-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar fani bo‘yicha ta’lim dasturini yaratish va respublika ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risidagi farmoyishi qabul qilindi.[3] Mazkur farmoyish asosida mamlakatimizdagi g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni barqarorligini ta’minlash va yosh avlodni regressiv g‘oyalar ta’siridan himoyalash maqsadida yangi Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari fani joriy etildi. Mazkur fan qariyb o‘n to‘qqiz yil davomida maktab o‘quvchilaridan to oliy ta’lim muassasalari talabalariga o‘qitilib keldi.

Albatta mazkur amaliy ishlar g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar murakkab va tezkor bo‘lgan bir sharoitda siyosiy va mantiqiy jihatdan to‘g‘ri edi. Faqat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida «...Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas»ligi hamda 41-moddasida «Maktab ishlari davlat nazoratidadir»,[4] deb belgilangan sharoitda hukumat tashabbusi bilan Respublika Ma’naviyat targ‘iboti markazi, Milliy g‘oya ilmiy-amaliy markazi singari davlat tashkilotlarini tuzilishi hamda Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslarini fan sifatida maktab va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilishida huquqiy g‘alizlik yuzaga keldi. Bizningcha, o‘sha davrda hukumat tashabbusi bilan mazkur ishlarni amalga oshirilishida davlat va mafkura munosabatlarining huquqiy jihati e’tiborga olinmadi yoki vaziyat taqozosi nuqtayi nazaridan bu huquqiy normalar chetlab o‘tildi.

Ta’kidlash kerakki, milliy istiqlol mafkurasining amaliyotini yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq huquqiy g‘alizliklar bo‘lishiga qaramay, mazkur davrda uning nazariy asoslari yaratildi. Jumladan, Milliy istiqlol mafkurasining nazariyasi «Prezident Islom Karimov asarlari, ma’ruza va nutqlari, chiqishlaridagi ma’naviy-ma’rifiy mavzuda bildirgan fikrlari asosida» O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan ishlab chiqildi.[5]

Albatta, mazkur ishchi guruh Konstitutsiyaning 12-moddasi bilan Milliy istiqlol mafkurasi o‘rtasidagi munosabatga e’tibor qaratdi. Ular yuqoridagi huquqiy g‘alizlikni tushuntirish maqsadida «Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen – ijtimoiy hodisa. Bu mafkurada biror dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi yoki u mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash maqsadida siyosiy qurolga aylantirilmaydi», degan fikrni ilgari surishdi.[6]

Bir qarashda, yuqoridagi huquqiy g‘alizlikning yechimidek ko‘ringan ushbu fikrning o‘zi amalda ko‘plab qarama qarshi fikrlarni yuzaga keltiradi. Masalan, «Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen – ijtimoiy hodisa» deyilishi barobarida huddi shu ishchi guruh tomonidan «Har bir partiyaning o‘z dasturiy g‘oyalarini hayotga tatbiq etish jarayonida milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi siyosiy hayotning bosh mezonidir»[7] deya belgilanishi milliy istiqlol mafkurasiga berilgan «ijtimoiy fenomen» statusi hamda «mavjud siyosiy hokimiyatni mustahkamlash uchun siyosiy qurolga aylantirmaslik» tamoyilini zaiflashtirdi. Bu nazariy jihatdan milliy istiqlol mafkurasini «ijtimoiy fenomen» emas, ko‘proq siyosiy hayotda partiyalarga davlat buyurtmasini yetkazuvchi mafkura obrazini hosil qilinishiga olib keldi.

Undan tashqari, milliy istiqlol mafkurasining nazariyasi bilan bog‘liq holda, «bu mafkurada biror dunyoqarash mutlaqlashtirilmaydi» deyilishi ham har qanday mafkura, albatta, muayyan dunyoqarashga

---

1994, 6-son, 169-modda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi «Respublika «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazining faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi 288-sonli qarori. https://lex.uz/docs/735209

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagi «Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida»gi PQ-451-sonli qarori. https://lex.uz/docs/1354503

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001-yil 18-yanvardagi «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fani bo‘yicha ta’lim dasturini yaratish va Respublika ta’lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida»gi PF–1331-sonli farmoyishi.//Ma’rifat. T., 20.01.2001.

[4] O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.03/21/671/0093-son.

[5] Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., “O‘zbekiston”, 2001, 80-bet.

[6] Shu manba. 45-bet.

[7] Shu manba. 68-bet.

qatiiy tayanishi to‘g‘risidagi ilmiy xulosalarga zid kelar edi.[1]

Milliy istiqlol mafkurasining falsafiy asoslarida ham g‘alizlik mavjud bo‘lib, bu «Mafkuramizning falsafiy asosini, avvalo, milliy-ijtimoiy tafakkurning mumtoz namunalari bo‘lgan dunyoviy bilimlar, jahon falsafasi durdonalari belgilaydi. Olam va odamning yaralishi va takomillashib borishi haqidagi diniy va ilmiy qarashlar ...mafkuramiz shakllanishiga ta’sir o‘tkazadi»[2] deyilgan jumlalarda ko‘rinadi. Mazkur fikrda aytilayotganidek, mafkuramizning falsafiy asosini «dunyoviy bilimlar» belgilaydi va ayni vaqtda «diniy va ilmiy qarashlar» ham uning shakllanishiga ta’sir o‘tkazadi. Odatda, «dunyoviy bilimlar»ga alohida urg‘u berilganda mantiqan «diniy bilimlar» ikkinchi planga tushiriladi yoki rad etiladi. Mana shunday mazmun ifoda etila turib, milliy istiqlol mafkurasining shakllanishiga «diniy qarashlar»ni ta’sir o‘tkazishini belgilanishi ham mohiyatan ziddiyatli edi.

Ta’kidlash kerakki, mana shunday ziddiyatli jihatlarga qaramay milliy istiqlol mafkurasining nazariy asoslarini shakllantirishda muayyan yutuqlarga erishilgan. Jumladan, ishchi guruh tomonidan o‘z vaqtida milliy istiqlol mafkurasining bosh g‘oyasi: «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish» hamda uning «Vatan ravnaqi», «Yurt tinchligi», «Xalq farovonligi», «Komil inson», «Ijtimoiy hamkorlik», «Millatlararo totuvlik» va «Dinlararo bag‘rikenglik (tolerantlik)» singari asosiy g‘oyalari ishlab chiqilgan va ular ilmiy jihatdan asoslab berilgan.[3]

Lekin, shunga qaramay, bu davrda milliy istiqlol mafkurasining nazariyasi va amaliyotida yuqorida tahlil qilganimiz:

– O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12- va 41-moddalari bilan milliy istiqlol mafkurasi o‘rtasidagi huquqiy munosabat masalasi;

– «Milliy istiqlol mafkurasi turli siyosiy partiya va ijtimoiy guruhlar mafkurasidan ustun turadigan sotsial fenomen» ekani, ayni vaqtda, «har bir partiyaning o‘z dasturiy g‘oyalarini hayotga tatbiq etishda milliy istiqlol mafkurasining asosiy tamoyillariga amal qilishi» masalalari;

– milliy istiqlol mafkurasida «biror dunyoqarashni mutlaqlashtirilmasligi» qoidasi ilmiy jihatdan mafkura, albatta, muayyan dunyoqarashga qatiiy tayanishi to‘g‘risidagi xulosaga zid kelishi masalasi;

– milliy istiqlol mafkurasining falsafiy asosini «dunyoviy bilimlar» belgilashi va ayni vaqtda «diniy qarashlar» ham uning shakllanishiga ta’sir o‘tkazishi to‘g‘risidagi g‘alizliklar ilmiy jihatdan o‘z yechimini topmadi.

Mana shunday omillar vaqt o‘tishi bilan milliy istiqlol mafkurasini bir guruh intiligensiya qo‘lida bahs-munozara obyekti, oddiy xalq uchun esa ularning o‘y-fikri va kundalik hayotidan uzoq bo‘lgan tushunarsiz «obyekt»ga aylanishiga olib keldi. Buning natijasida ijtimoiy hayotda milliy istiqlol mafkurasiga nisbatan tushunarsiz, g‘aliz obyekt munosabati shakllandi. Mohiyatini anglay olmagan keng xalq ommasi tomonidan esa unga nisbatan «musaffo osmon» tushunchasi qo‘llanila boshlandi. Bu holat milliy istiqlol mafkurasining nazariyasi va amaliyotida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar sababli yuzaga chiqdi.

Mana shunday «g‘oya»ni amaliyotda o‘z isbotini topishi mavhumlashib borayotgan sharoitda yurtimizgi mafkuraviy jarayonlarda quydagi mafkuraviy tahdidlar:

–islom xalifaligini tiklab, uning bayrog‘i ostida musulmon xalqlarini yangi imperiyaga birlashtirishga qaratilgan intilishlar;

–yosh mustaqil davlatlarni sobiq ittifoqqa birlashtirish g‘oyasi;

–tariximizni, milliy qadriyatlarimiz va dinning mohiyatini soxtalashtirishga urinishlar;

–axloqsizlik g‘oyalarini yoyib, xalqni ma’naviy jihatdan buzishga intilishlar;

–turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolarni keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlarning mavjudligi yaqqol ko‘zga tashlana boshladi.[4]

Afsuski, yuqoridagi kabi mafkuraviy tahdidlarning uyg‘onishi sharoitida yurtimizda milliy istiqlol mafkurasining nazariyasi va amaliyotidagi kamchiliklar ilmiy va amaliy jihatdan bartaraf etilib, har bir inson va fuqaroga tushunarli mafkuraviy sistema yaratilishi o‘rniga, 2010-yillaridan boshlab mafkuraviy izolatsiyalash yo‘liga o‘tilib, bu jarayon 2017-yillarga qadar davom etdi.

Darhaqiqat, «dunyo XXI asr boshida postmodern va didjimodernga o‘tayotgan bir vaqtda biz o‘zimizni dunyo ilmi va madaniyatidan berkitdik. Izolatsionizmning eng yorqin belgisi siyosiy va ijtimoiy borliqni boricha, tafakkursiz qabul qilish va tanqidiy yondashuvni yo‘q qilishdan iborat edi. Bunday holat

[1] Nazarov Q. Mafkura. Respublika Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. T., 2014, 9 – 11-betlar.
[2] Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., “O‘zbekiston”, 2001, 47 – 48-betlar.
[3] Shu manba. 50 – 60-betlar.
[4] Shu manba. 41-bet.

esa bizning jamiyatni ma'lum ma'noda madaniy turg'unlikka olib keldi».[1]

Xullas, mustaqillikning dastlabki yillaridan to 2017-yilga qadar mafkuraviy jarayonlarning murakkabligi va tezkorligi boshqa davrlardan ajralib turdi. Mazkur davrda, birinchidan, kommunistik mafkura rasman bekor qilindi va uning inersiaviy kuchini to'xtatish ishlari amalga oshirildi.

Ikkinchidan, jamiyatda yuzaga kelgan «g'oyaviy bo'shliq» muxolif siyosiy guruhlar va diniy-ekstremistik harakatlarni faollashtirdi. Ularga qarshi kurashish jarayonida progressiv va regressiv g'oyalarga munosabat masalasida hukumat faoliyatida muayyan tajriba shakllanganligini ko'rsatdi.

Uchinchidan, o'zbek xalqi tarixining mafkuraviy taraqqiyotida ilk bor milliy istiqlol mafkurasining nazariyasi ishlab chiqilib, uning bosh va asosiy g'oyalari belgilab olindi.

To'rtinchidan, milliy istiqlol mafkurasining nazariyasi va amaliyoti bilan bog'liq quyidagi muammolar: «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va milliy istiqlol mafkurasi o'rtasidagi huquqiy munosabat masalasi», «Milliy istiqlol mafkurasining sotsial yoki siyosiy fenomenligi masalasi», «Milliy istiqlol mafkurasini muayyan dunyoqarash bilan bog'liqligi masalasi» hamda «Milliy istiqlol mafkurasining falsafiy asosida dunyoviy va diniy bilimlar masalasi» ushbu davrda ilmiy va amaliy jihatdan xal etilmadi.

Beshinchidan, milliy istiqlol mafkurasi nazariyasi va amaliyotidagi kamchiliklar sabab, jamiyatda diniy-ekstremistik, axloqsizlik, pansovetizm va boshqa shakllardagi regressiv g'oyalarning faollashuvi kuzatila boshlandi.

Oltinchidan, jamiyatda mafkuraviy jarayonlar murakkablasha boshlagan sharoitda har bir igson uchun tushunarli mafkuraviy sistema yaratilish o'rniga mafkuraviy izolatsiyalash yo'lidan borildi.

Yettinchidan, mustaqillikning dastlabki yillaridan to 2017-yilga qadar bo'lgan davr mafkura masalasida o'zining mana shunday xarakterli jihatlari bilan tarixga aylandi. 2017-yildan boshlab mafkuraviy takomillashuv boshlanib, mafkuraviy jarayonlar o'zining sifat jihatdan yangi bosqichiga qadam qo'ydi.

Ahmedova Kamola Kudratovna (UrDU tayanch doktoranti)

INTERNET MULOQOTI VA NUTQ JARAYONI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada muloqot tushunchasi, dunyo olimlari tomonidan unga berilgan izohlar, muloqot turlari va ijtimoiy tarmoqdagi ommaviy muloqot xususida mulohaza yuritilib, nutq tushunchasi, uning ko'rinishlari va onlayn muloqotning nutq jarayoniga bo'lgan ta'siri, shuningdek, bu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlari tahlil qilinadi.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается понятие общения, комментарии к нему мировых ученых, виды общения и публичного общения в социальных сетях, понятие речи, ее проявления и влияние онлайн-общения на речевой процесс, а также анализируются положительные и негативные стороны этого процесса.*

Annotation. *In the following article, the concept of communication, its definitions given by the world scientists, types of communication and public communication in social networks are discussed and the concept of speech, its forms and the impact of online communication on the speech process as well as the positive and negative sides of it are analyzed.*

Kalit so'zlar: *muloqot, kommunikativ kompetensiya, virtual muloqot, globallashuv, lisoniy savodxonlik, bifurkatsiya, norasmiy leksika.*

Ключевые слова: *коммуникация, коммуникативная компетенция, виртуальное общение, глобализация, языковая грамотность, бифуркация, неформальная лексика.*

Key words: *communication, communicative competence, virtual communication, globalization, linguistic literacy, bifurcation, informal lexicon.*

Kirish. Avvalambor, muloqot tushunchasiga izoh keltirib o'tadigan bo'lsak, muloqot – bu ma'lumot almashish, shuningdek sheriklar tomonidan bir-birini idrok etish va tushunishdan iborat bo'lgan odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab jarayoni sanaladi. Bu tushunchaga ko'plab olimlar turlicha izohlar keltirib o'tganlar. Quyida ulardan bir qanchalarini ko'rib chiqamiz.

A.B.Zverinsev muloqotni, birinchi navbatda, muloqot jarayonida odamlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir shakllaridan biri, muloqotning axborot jihati sifatida qaraydi. G.G.Pochepsov "Muloqot nazariyasi" kitobida muloqotni "og'zaki bo'lmagan og'zaki va og'zaki bo'lmagan og'zaki sohaga qayta kodlash jarayon-

[1] Alimjanov B. Mafkura aslida nima.https://ishonch.uz/archives/5746

lari” deb tushunadi. Bu yerda V.A.Spivak “Korporativ madaniyat” kitobida: “Muloqot – bu faoliyat jarayonida axborot almashinuvi, aloqa (shuningdek, aloqa usullari)” deb keltirib o‘tgan.[1]

Inson faoliyatining barcha turlari o‘zaro muloqot jarayonlarida kechadi. Jamiyatning to‘liq faoliyat yuritishi uchun muloqot tushunchasi asosiy shartlardan biridir. Shunday ekan, muloqot madaniyati, muloqot jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, turli-tuman sotsiopragmatik vaziyatlarda muloqot amaliyotini o‘zlashtirish kabi masalalar dolzarb bo‘lib qolmoqda. Insoniyat madaniyatining san’at, fan, siyosat, din, moddiy-madaniy boyliklari kabi qirralari izchil o‘rganib kelingan bo‘lsa-da, muloqot jarayonining yaxlit tarixi haligacha yaratilgan emas. Keyingi paytlarda tilshunoslikning o‘rganish obyekti ancha kengayib, fanlararo integratsiyalashuv jarayoni kuchaydi va fanga “madaniyatlararo muloqot”, “lingvokulturologiya”, “jamiyat bilan muloqot” singari tushunchalar kirib keldi.[2]

Muloqot murakkab antropotsentrik jarayon bo‘lib, unda inson omili yetakchilik qiladi. Biroq inson nutqiy vaziyat va sharoitni, makon va zamonni, tinglovchining xususiyatlari va holatini ham inobatga olmasdan, bu omillar bilan hisoblashmasdan, o‘z kommunikativ maqsadini amalga oshirishi qiyin.[3]

L.Buyeva, M.Kagan, P.Krauss, T.Rodermel, V.Fefelova, A.Leontev, B.Lomov, A.Petrovskiy, I. Kon, L.Shneyder va boshqalarning tadqiqotlarida muloqotning falsafiy va nazariy asoslari tahlil etilgan bo‘lsa, Sh.Balli, D.Shirrin, G.Apresyan, E.Sepir, F.Shuman kabi olimlar tomonidan uning ijtimoiy va psixologik jihatlari o‘rganilgan.[4]

Internet muloqoti yoki internet kommunikatsiyasi tushunchalari qulog‘imizga ko‘p bora chalingan. Shu o‘rinda, muloqot tushunchasi bilan birgalikda, kommunikatsiya tushunchasiga ham to‘xtalib, ular o‘rtasidagi farqni ham ko‘rib o‘tamiz.

M.Kagan subyekt-obyekt munosabatlaridagi inson faoliyatining falsafiy tahlilida dialektik-materialistik asoslarga tayanish kerakligi, bu faoliyat psixolog va faylasuflar tomonidan turli yo‘llar bilan aniqlanishini ta’kidlaydi. Hozirgacha subyekt-obyekt munosabatlari ko‘rib chiqilgan. Ammo subyektlarning o‘zaro ta’siri ham mavjud. M.S.Kagan yozganidek, bu holatda biz faoliyatning kommunikativ turi yoki muloqotga duch kelamiz. O‘zining 1988-yilda nashr etilgan “Muloqot dunyosi: intersubyektiv munosabatlar muammosi” kitobida u madaniyat va falsafa tarixida muloqot muammosi qanday paydo bo‘lganligi, uning strukturasi va funksiyasini tahlil qiladi. Dastlab, faqat muloqot tushunchasi anglashilganligi, zamonaviy qarashlar talqinida “kommunikatsiya” tushunchasi ham kirib kelganligi va endi ular bir-birini taqozo etuvchi alohida kategoriyalar sifatida ajratila boshlaganligini asoslab berdi. Muloqot, birinchi navbatda, ikki subyektning o‘zaro ta’siridir. Muloqot amaliy (moddiy), ma’naviy, informative xarakterga ega. Kommunikatsiya – bu sof axborot jarayoni, subyektning u yoki bu obyektga axborot yetkazishi.[5]

Metodlar. 20-asrning so‘nggi yillariga kelib muloqotning onlayn shakli ancha rivojlandi. Bu, dastlab, rivojlangan davlatlar aholisi orasida keng qo‘llanilinib, keyinchalik, rivojlanayotgan davlatlar aholisi uchun ham odatiy holga aylandi. Globallashuv jarayoni shiddat bilan jadallashar ekan, o‘zi bilan birga hozirgi zamon talabi hisoblanmish axborot texnologiyalari, internet, ijtimoiy tarmoq sohalarini ancha ilg‘orlatdi. Xususan, hozirda virtual dunyo haqida umuman, tushunchaga ega bo‘lmagan shaxsni topish ancha murakkab. Kundalik hayotda ham, kasbiy hayotda ham uning o‘rni sezilarli darajadadir.

“Ijtimoiy fikr” jamoatchilik fikrini o‘rganish jamg‘armasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2010-yil kuzida mamlakatimiz balog‘at yoshiga yetgan aholisi o‘rtasida internet foydalanuvchilar ulushi 40%ni (yoxud 12 mln. odamni) tashkil qilgan. Shu bilan birga, global tarmoqqa, hech bo‘lmaganda, bir sutkada bir marotaba kiruvchi auditoriyaning faol qismiga 7–8 mln. odamni kiritish mumkin. Ikki yil oldin, taxminan, shuncha odam oylik internet auditoriyani tashkil qilardi (10,7 mln). Yirik (100 mingdan va undan ortiq aholiga ega) shaharlarda internet bilan ta’minlanishi O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichlardan yuqori. Aholisi 100 mingdan 1 mln.gacha bo‘lgan shaharlarda oylik internet auditoriya 45% atrofini tashkil qiladi. Kichikroq shaharlarda va qishloqlarda internet unchalik ham keng tarqalmagan, ammo aynan bu yer-

[1] https://muegn.ru/uz/cognitive/chto-oznachaet-kommunikaciya kommunikaciya-ponyatie-i-vidy-smotret.html muegn.ru

[2] Sh.Shaxobitdinova, D.Rustamov, D.Popov, D.Rustamova, B.Abdullayev, Sh.Miralimova. Ommaviy lisoniy madaniyat. Monografiya, Andijon, 2020.

[3] Rustamova D.A. Metaforik evfemizatsiyaning lingvokulturologik va sotsiopragmatik aspekti. Filol. fan bo‘yicha fals. d-ri ...diss., Farg‘ona, 2018, 22-bet.

[4] Балли Ш. Французская стилистика. М., Эдиториал УРСС, 2001, с. 392; Балли Ш. Язык и жизнь. М., “Стереотип”, 2018, с. 230; Сафьянов В.И. Этика общения. Учебное пособие, М., изд-во МГУП, 1998, с. 164.

[5] Каган М.С. Мирообщения. Проблема межсубъектных отношений. М., “Академия”, 2008, с. 124.

larda eng katta o‘sish qayd etilmagan: bir fasl (ozdan boshlab) aholisi 100 mingdan kam bo‘lgan shaharlarda va qishloqlarda internet auditoriya 10% atrofida, bir yil ichida 28% va 31%, mos ravishda, o‘sish qayd etilgan.[1]

Natijalar. Bugungi kunda insonlar bir-birlari bilan ma’lumot almashish, ya’ni, muloqot qilish uchun o‘zlari uchun eng qulay bo‘lgan axborot kanalini tanlamoqdalar. Bu, albatta, ijtimoiy tarmoq sanaladi. Ijtimoiy tarmoq tushunchasi, dastlab, Jeyms Braun tomonidan qo‘llanilgan bo‘lsa, hozirga kelib, bu tushunchani eshitmagan insonning o‘zi deyarli yo‘q. Ijtimoiy tarmoq muloqot jarayonidan o‘zining mustahkam o‘rnini egallab ulgurgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ijtimoiy tarmoq ingliz tilidagi “social networking service” so‘zidan olingan bo‘lib, tarkibi, faqatgina ishtirokchilardan iborat va ular orasida muloqotni o‘rnatuvchi, ko‘p foydalanuvchili interaktiv veb-saytlar asosida yaratilgan tarmoq sifatida tushuniladi. Turli ijtimoiy qatlamlar va qiziqishlari yaqin insonlarni birlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqqan va shaxslararo muloqotga imkon beradigan “Facebook”, “Instagram”, “Odnoklassniki”, “Vkontakte”, “ Twitter” kabi ijtimoiy tarmoqlar millionlab foydalanuvchilarga xizmat qilayotgan bo‘lsa, o‘zbek segmentida ham “ziyonet.uz”, “muloqot.uz” kabi milliy tarmoqlar rivojlanib bormoqda.[2]

Hozirgi kunga kelib, o‘zbek tadqiqotchilari va mutaxassislari ham internetning ijtimoiy-psixologik jihatlari, internet jurnalistikasi, muayyan soha tarmoqlariga e’tibor qaratmoqdalar.[3] Jumladan, internet muloqotining til xususiyatlariga bag‘ishlangan dastlabki tadqiqotlar ham olib borilmoqda.[4]

Internet tili ham og‘zaki ham yozma nutq unsurlarini o‘zida jamlagan. Xususan, ko‘p jihatdan og‘zaki nutqqa xos belgilar ijtimoiy tarmoqdagi muloqot jarayonida ko‘p bora guvohi bo‘linsa ham, yozishma va sharhlar ko‘rinishida berilishi yozma nutqqa xosdir. Norasmiy leksika kabi so‘zlashuv nutqiga xos jihatlar virtual muloqot jarayonida keng qo‘llaniladi va deyarli barcha tarmoq foydalanuvchilari uchun odatiy holga aylanib ulgurgan.

Bor-yo‘g‘i o‘n yil oldin ham “so‘zlashuv nutqining yozma shakli yo‘q va mana shu jihati bilan boshqa funksional uslublardan tubdan farqlanadi. So‘zlashuv nutqi og‘zaki shaklda yuzaga chiqadi”,[5] deya aytib o‘tilgan bo‘lsa, “Bugungi kunda mohiyatan lingvistik o‘zaro munosabatlarning yangi shakli – yozma so‘zlashuv nutqi paydo bo‘ldi”.[6]Darhaqiqat, fan-texnika taraqqiyoti ta’sirida xalqaro globallashuv ja-rayonining tezlashuvi natijasida internet muloqoti vositasi sifatida so‘zlashuv uslubining yozma shakli paydo bo‘ldi. Yozma so‘zlashuv nutqining dastlabki ko‘rinishi sifatida u qadar ommalashmagan maktub, XX asr oxirida telefon orqali qisqa xabar (sms – short message service) shaklida qo‘llangan bo‘lsa, XXI asrga kelib, internet kommunikatsiyasi paydo bo‘lishi bilan ommaviy muloqot turiga aylandi. Bu hodisani sinergetika tili bilan aytganda, “bifurkatsiya” holati deb aytishimiz mumkin, chunki “rivojlanishning ikkiga ayrilib, tartibga tushish holati bifurkatsiya sanaladi”.[7]I.Prigojinning fikriga ko‘ra, bifurkatsiya jarayonlari tizimning murakkablashuvidan dalolat beradi”.[8]Bifurkatsiya nuqtasida tizim barqarorlikning yangi sifat bosqichiga o‘tadi bunda tasodif va zaruriyat to‘qnash keladi.[9]

Muhokama. An’anaviy va struktur tilshunoslik doirasida so‘zlashuv nutqi yuzasidan qator tadqiqot ishlari olib borilgan.[10] Ilmiy manbalarda so‘zlashuv nutqi, ko‘pincha, adabiy so‘zlashuv nutqi va oddiy so‘zlashuv nutqi turlariga ajratiladi. Suyun Karimov so‘zlashuv nutqini uch tipga ajratadi: adabiy-so‘zla-shuv, muomala-maishiy, oddiy nutq.

---

[1] Beknazarov K.T. Internet samarali kommunikatsiya kanali sifatida. “Namangan davlat universiteti milliy axborotnomasi”, 2019.

[2] Qosimova N. Onlayn jurnalistika. T., 2019, 31-bet.

[3] Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Internet odoblari//https://www.islom.uz/view.

[4] Karimov R.G. Tijorat xatlarining lingvopragmatik aspekti (ingliz va o‘zbek tillari materialida). Filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss., T., 2018, 138-bet.

[5] Karimov S. O‘zbek tili funksional stilistikasi. Monografiya, Samarqand, SamDU, 2010, 32-bet.

[6]Виноградова Т.Ю. Специфика общения в интернете. Русская и сопоставительная филология. Лингвокультурологический аспект, Казань, 2004, с. 63 – 67.

[7] Nurmonov A. Tanlangan asarlar. III jildlik, I jild, Toshkent, “Akademnashr”, 2012, 39-bet.

[8] Князева Е.Н., Курдюмов С.П. Синергетика как новое мировидение: диалог с И.Пригожиным. “Вопросы философии”, 1992, № 12, с. 3 – 20.

[9] Nurmonov A., Rahimov A. Lingvosinergetikaga kirish. T., “Akademnashr”, 2013, 45-bet.

[10] Уринбаев Б. Вопросы синтаксиса узбекской разговорной речи. Автореф. дисс... д-ра филол.наук, Т., 1974; O‘rinboyev B. O‘zbek so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. T., “Fan”, 1974.

Har qanday tipdagi so‘zlashuv nutqiga biz ijtimoiy tarmoq yozishmalarida ham guvoh bo‘lishimiz mumkin. Xususan, adabiy-so‘zlashuv nutqi rasmiy doiralarda qo‘llanilib, quyidagi internetdan olingan namunamizda ham buni kuzatishimiz mumkin: *Hurmatli hamkasblar! Sizga shuni ma’lum qilamizki, Hamidova Nargiza Samandar qizi 2021-yil oktabrdan O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasining Biznes ingliz tili kafedrasiga dotsent lavozimiga ishga qabul qilindi. Hamidova Nargiza Samandar qizini jamoamizga qabul qilinganligidan xursandmiz. Umid qilamizki, u jamoamizning bir bo‘lagiga aylanadi, unga kasbiy kamolot va ishlarida muvaffaqiyatlar tilaymiz!*

Oddiy so‘zlashuv nutqida nutqning nisbatan soddaroq birikma va qurilmalaridan foydalaniladi. Bunda ba’zi-ba’zida til me’yorlariga bo‘ysunmaslik holatlari ham kuzatilib turadi. Shuningdek, fonetik, grammatik yoki leksik jihatdan nomutanosibliklar yuzaga kelishi ham mumkin. Buni quyidagi Internet yozishmasi misolida kuzatishimiz mumkin: *Shu rasmda ko‘rib turganila Fransuzkiy pirojniysi oddiy telegram kanalida Bitta Ustozimiza bepul o‘rgatkanla shundan ko‘rib tayyorlab mazasi zo‘r chiqqaniga rasa zakazlaga pishirib berardim hammaga yoqardi pullik kurslada o‘qigan retseptlarimni ham bunaqa kop zakazga qimaganman.*

Ushbu misol *telegram* ijtimoiy tarmog‘ining kulinariyaga oid kanalidan olingan bo‘lib, ko‘rib turganimizdek, adabiy til nutq me’yorlariga bo‘ysunmagan. Xabarda grammatik, fonetik, puktuatsion, leksik, orfografik xatoliklar ko‘p uchragan. Biroq, shunga qaramasdan, nutqdan ko‘zlangan maqsad xabarni qabul qiluvchilar tomonidan to‘g‘ri va aniq tushuniladi. Chunki yuqoridagi xatoliklar xabar shaklini o‘zgartirgan bo‘lishi mumkin, lekin ma’no-mazmuni matndan to‘liq anglashilgan.

Internet kommunikatsiyasi, uning nutq jarayoniga ta’siri xususida mulohaza qilinar ekan, avva-lambor, virtual muloqot shakli bugungi kun talabi ekanligi, shu bilan birga, o‘zining ko‘plab afzalliklari va qulayliklari bilan o‘z foydalanuvchilarining muntazam tanloviga aylanganligini alohida ta’kidlab o‘tish joiz. Shunga qaramasdan, ko‘plab olimlarni ijtimoiy tarmoqdan muntazam ravishda foydalanuvchi-larning susayib borayotgan lisoniy savodxonligi tashvishga solmoqda va bu borada bir qancha chora-tad-birlar ham amalga oshirilmoqda.

Mamatmurodova Sohiba Muhammad qizi (Termiz davlat Pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti ingliz tili magistranti; Sohibamamatmurodova9597@gmail.com),
Qodirova Muqaddas Tog‘ayevna (Termiz davlat Pedagogoka instituti, Phd)

“YOSHLIK” KONSEPTIGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya. *Ushbu maqola tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri lingvomadaniy aspekt va unda konseptologiyaning o‘rni hamda muammolariga bag‘ishlangan. Shuningdek, lingvomadaniy aspectda konseptni ilmiy jihatdan tadqiq va tahlil qilishda frazeologik birliklar vositasi, xususan, “Yoshlik” konseptiga oid frazeologik birliklar tanlovi va tahlili amalga oshirilgan. Maqolaga Sharl Balli, V.V. Vinogradov, Y.D.Polivanov, A.V.Kunun kabi olimlar nazariyalari metodologik asos qilib olingan. Shu bilan birgalikda, mavzuning terminologik tizimidagi muammolari ham ochib berilgan.*

Аннотация. *Данная статья посвящена одному из новых направлений языкознания, лингвокультурологическому аспекту, роли и проблемам концептологии в нем. Также в научном исследовании и анализе концепта в лингвокультурологическом аспекте осуществлялся инструментарий фразеологических единиц, в частности, осуществлялся отбор и анализ фразеологизмов, относящихся к концепту «Молодежь». Методологическую основу статьи составляют теории Шарля Балли, В.В.Виноградова, Е.Д.Поливанова, А.В.Кунуна. Вместе с тем были выявлены и проблемы в терминологической системе предмета.*

Annotation. *This article is dedicated to one of the new fields of linguistics named lingvocultural aspect, also the roles and problems of conceptology in it. Furthermore, in the lingvocultural aspect, the tool of phraseological units in the scientific research and analysis of the concept, in particular, the selection and analysis of phraseological units related to the concept of “Youth” were carried out in the research. The methodological basis of the article is the theories of Charles Bally, V.V.Vinogradov, Y.D.Polivanov, A.V.Kunun. At the same time, the problems in the terminological system of the subject were also revealed.*

Kalit so‘zlar: *frazeologiya, frazeologik birlik, ibora, konsept, konseptologiya, lingvomadaniyatshunoslik.*

Ключевые слова: *фразеология, фразеологическая единица, словосочетание, концепт, концептология, языкознание и культура.*

Key words: *phraseology, phraseologic units, phrase(idiom), concept, conceptology, lingvoculturology.*

Kirish. Har bir xalqning tilida nutqda so‘z kabi takrorlanadigan, muloqot yoki matn yozish jarayonida hosil bo‘lmaydigan turg‘un obrazli iboralari mavjud. Bunday barqaror birikmalar *frazeologizmlar, frazeologik birliklar* yoki *frazeologik oborotlar* deyiladi. Fikrimiz dalili sifatida, V.P.Jukovning frazeologik birlikka bergan ta’rifini keltirishimiz mumkin: “frazeologik birlik – bu “nutqda takrorlanadigan, muvofiqlashtiruvchi yoki bo‘ysunuvchi iboralar (predikativ bo‘lmagan yoki predikativ xarakter) modeli asosida qurilgan, yaxlit (yoki kamdan kam hollarda qisman to‘liq) ma’noga ega va so‘z bilan birlashtirilgan oborot”.

Olib borilgan tadqiqotda esa o‘zbek hamda ingliz tili o‘rtasidagi bu xususiyatlarning o‘ziga xosligi, farqlanishi, bugungi kun lingvistikasidagi dolzarblilik jihatlari yoritib berildi.

Frazeologiya termini ilk marotaba Sharl Balli tomonidan “Precisde stylistique” asarida qo‘llanilgan. Frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar, fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanadi. U o‘zining “Stilistika ocherki” (1905) va “Fransuz stilistikasi” (1909) nomli asarlarida so‘z birikmalari, frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan.

Bundan tashqari, V.V.Vinogradov frazeologik birliklar haqida gap ketganda, quyidagicha ta’rif keltirgan edi: “turg‘un birikmalar frazeologiya tarkibiga kiritilmaydi hamda maqol va matallar shakl jihatdan gapga to‘g‘ri kelgani uchun ularni frazeologiya o‘rganishi kerak bo‘lgan predmet bo‘lishi mumkin emas”.[1]

Frazeologiya iboralar haqidagi ta’limot bo‘lib, bu terminni 1928-yilda Y.D.Polivanov qo‘llagan edi: ”Men morfologiyaga nisbatan sintaksis qanday aloqada bo‘lsa, leksikaga nisbatan xuddi shunday munosabatga kirishuvchi maxsus fanga *frazeologiya* terminini qo‘llashni lozim topdim”.[2]

Ushu sohaning mustaqil bo‘lim sifatida o‘rganilishi oson kechmadi. Frazeologiya ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil bo‘limi sifatida rus tilshunosi Polivanov tomonidan tahlil qilingan bo‘lib, u frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas, balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini quyidagicha asoslab bergan edi: “Leksikologiya – so‘zlarning leksik ma‘nolarini, morfologiya so‘zlarning gramatik ma‘nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining grammmatik ma‘nolarini o‘rganadi. Ammo, alohida olingan, ko‘chma ma‘noli so‘z birikmalarining, individual ma‘nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda”. U tilshunoslikda frazeologiya ham fonetika yoki morfologiya kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi bo‘lim ekanligini ta‘kidlab o‘tgan tilshunoslardan biridir.

B.A.Larin Polivanovdan so‘ng frazeologiyani tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida o‘rganilishini taklif qilgan tilshunoslardan biridir. “Frazeologiya tilshunoslik bo‘limi sifatida hali yashirin rivojlanish bosqichida, u hali alohida fan sifatida rivojlanib bo‘lgani yo‘q, ammo uni alohida fan sifatida shakllanishi hozirgi zamon tilshunosligida katta zaruratni taqozo qilmoqda. Zero, bu sohaga oid muammolarni ba‘zan leksikografiya, ba‘zida esa stilistika yoki sintaksisda hal qilinishi hech kimga sir emas”, deb ta‘kidlab o‘tgan.[3]

Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham, boshqa qardosh tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari ma’lum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas. Shu ma’noda frazeolog olim A.V.Kunin ingliz tili frazeologizmlarining ko‘pchiligining muallifi noma’lum bo‘lib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda ko‘rsatib o‘tgan. Ammo ba’zi frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu ma’noda frazeologiya tilining umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistema bo‘lib, bu tizim o‘zida o‘tmish me’rosni, qadriyatlarni aks ettiradi, avloddan avlodga o‘tadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning ko‘pchiligi ma’lum tilning boyish manbayidir.[4]

Adabiyotlar tahlili va metodlar. So‘nggi o‘n yil davomida *konsept* tushunchasi filologiya fanida eng keng tarqalgan terminlardan biri hisoblanadi. U nafaqat tilshunoslik elementi, balki adabiyotshunoslik, falsafa, mantiq va madaniyatshunoslik kabi fan sohalarida ham o‘z ifodasini topgan.

Konsept (lotincha conceptum – o‘ylab topilgan narsa) biror narsaning barcha xususiyatlari yoki tavsifini aqliy birlashtirish natijasida hosil bo‘lgan g‘oya, konstruksiya. Konseptga ko‘plab olimlar o‘z yondashuvlaridan, izlanishlaridan kelib chiqib, turlicha ta’rif va izohlar qoldirishgan. Ammo tilshunoslikda

[1] Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Москва, “Наука”, 1977, с. 61.
[2] Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko‘rki. “Fan”, Toshkent, 1970, 150-bet.
[3] Красных В.В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология. Курс лекций. Москва, «Гнозис», 2002, с. 201 – 202.
[4] Жуков В.П., Жуков А.В. Русская фразеология. Москва, “Высшая школа”, 2006, с. 466.

konsept termini ilk marotaba 1928-yil S.A.Askoldov tomonidan “Konsept va so‘z” maqolasida qo‘llangan. Olim konseptga quyidagicha ta’rif beradi: “Bu bir tur yoki boshqa turdagi tushunchalar haqida fikrlash jarayonini o‘zida aks ettiradigan birlikdir”.[1]

N.D.Aryutunova esa “Konsept falsafadagi amaliy tushuncha bo‘lib, milliy an’ana, hayotiy tajriba, din, ideologiya, folklor, san’at obrazlari kabi ko‘plab omillar va fikrlash jarayoni o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi. U – inson va dunyo o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatadigan madaniy qatlamni o‘zida namoyon qiladi”, deya yozadi.

Ma’lumki, dunyoning har qanday manzarasi milliy madaniy o‘ziga xoslikka asoslanadi. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda lisoniy birliklarda aks etgan shaxs moddiy va ma’naviy madaniyatining predmet va hodisalarini o‘rganish olimlarda alohida qiziqish uyg‘otmoqda. Tadqiqotning bu jihati, ko‘pincha, lingvokulturologiya doirasida amalga oshiriladi – “til va nutqda madaniyatning namoyon bo‘lishi, aks etishi va fiksatsiyasini o‘rganadigan fan”.

Tan olish kerakki, konsept tushunchasining tilshunoslikda qabul qilinganligi madaniyat, ong, tafakkur va til birligining asosiy o‘ziga xosliklarini aniqlashda, lingvistikaning madaniyatshunoslik aspektlari uchun ham yangi bosqich bo‘lib xizmat qildi va “lingvomadaniyatshunoslik” deb nomlangan terminning paydo bo‘lishiga turtki bo‘ldi.

Tilshunoslikda XX asrning oxirlariga kelib, “til madaniyat bilan bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki uning o‘zi madaniyatdan o‘sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir” degan faraz qabul qilina boshlandi. Lingvokulturologiya tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan bo‘lib, o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan til va madaniyat uning predmetini tashkil qiladi. Binobarin, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: “Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog‘i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo‘lgan inson to‘g‘risidagi antropologik paradigmaga xos bo‘lgan yutuqlar majmuasidir”.[2]

Professor N.Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o‘rganilishi xususida shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e’tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo‘nalish nihoyatda keng tarqalganini ko‘rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog‘iga yetish mushkul. Hatto so‘nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlangan”.[3]

Demak, konsept lingvokulturologiyada eng faol qo‘llanuvchi birlik sanaladi. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

Har qanday ilmiy tadqiqotning aniq metodi o‘zining qo‘llanish chegarasiga ega. Biroq o‘zaro aloqada bo‘lgan til va madaniyat shunchalik ko‘p qirraliki, ularning tabiati, funksiyalari va genezisini bir metod vositasida bilish mumkin emas. Shuning uchun ham bu sohada bir-birini to‘ldiruvchi qator metodlarning qo‘llanilishi g‘oyat tabiiydir.

Lingvokulturologiyada lingvistik, kulturologik, sotsiologik (kontent-tahlil, freym tahlil metodika), etnografik (tasvirlash, tasniflash va h.k.) metodlarni qo‘llash mumkin. Xususan, til va madaniyatning o‘zaro munosabatini o‘rganish uchun J.Lakoff *metaforalarni tahlil qilish apparatini* taklif qiladi. Chunonchi, metaforalarning kognitiv nazariyasi nima uchun chet tillaridagi ba’zi iboralar oson tushuniladi, hatto ular o‘zlashtiriladi, boshqalarini esa tushunish qiyin ekanligini izohlab beradi. Ushbu metod qiyoslanilayotgan tillar orasidagi kognitiv nomuvofiqlikni aniqlashga yordam beradi. Bunday farqlar tasodifiy bo‘lmaydi, ular u yoki bu xalq tomonidan dunyo hodisalarini o‘ziga xos tarzda tushunilishidan dalolat beradi.

Muhokama va natijalar. Tilning frazeologik qatlamiga nazar soladigan bo‘lsak, unda iboralar alohida ma’no kasb etishini ko‘rish mumkin. Qomusiy lug‘atlarda ibora quyidagicha izohlanadi. Ibora (arab) – biror tushuncha yoki fikrni ifoda etuvchi til birliklarining birikmasi; ta’bir.

Sh.Rahmatullayev esa o‘zining “Nutqimiz ko‘rki” asarida iboralarga munosabatini quyidagicha aniq bayon qiladi: “Bittadan ortiq leksik negizdan tarkib topgan, tuzilish jihatidan birikmaga, gapga teng, mazmunan so‘zga ekvivalent, yaxlitligicha ustama ko‘chma ma‘no anglatuvchi lug‘aviy birlikka ibora (frazeologik birlik) deyiladi. Bu o‘rinda “lug‘aviy birlik” deyish bilan iborani erkin bog‘lanmadan, “bitta-

[1] Аскольдов С.А. Концепт и слово. Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. Под общ. ред. В.П.Нерознака. Москва, “Academia”, 1997, с. 267 – 279.

[2] Ларин Б.А. Очерки по фразеологии. Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике. Уч. зап. ЛГУ, Л., 1956, № 198, с. 222.

[3] Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. Москва, 1972, с. 9.

dan ortiq” deb ta‘kidlash bilan soda so‘zlardan “leksik negizlar” deb ta‘kidlash bilan analitik formadan, “birikma, gapga teng” deb ta‘kidlash bilan qo‘shma so‘zdan, “yaxlitligicha ustama ko‘chma ma‘no” deb ta‘kidlash bilan to‘g‘ri ma‘noli turg‘un birikmadan farqlaymiz”.[1]

Iborani konsept atamasi bilan bog‘lab o‘rganish bu sohaning muhimlilik darajasini yanada kengaytirmoqda, ayniqsa, “yoshlik” konseptiga oid ingliz va o‘zbek tillaridagi iboralarni tahlil va tadqiq qilish maqolaning eng muhim xususiyatidir. Shu sabab ba’zi bir iboralar tahlili bilan tanishib chiqsak:

Growing youth has a wolf in his belly (Young people who are growing seem to be hungry all the time) iborasi–yoshlar serg‘ayrat, ildam, harakatchan, jismoniy faolligi yuqori bo‘lganligi sababli ochlik hissini tezroq sezishadi degan ma’noda qo‘llaniladi. Masalan: *My teenage son has eaten very last bit of food in the house. I guess it is true that a growing youth has a wolf in his belly.*

Youth is wasted on the young iborasi – yoshlikning qadrini keksayganda bilasan degan ma’noda ishlatiladi. Masalan: all the time and energy these kids have at their disposal, and they would rather sit around all daywatching TV instead of exploring the world around them. Youth is wasted on the young.

Old head on young shoulders iborasi esa aqlli, tengdoshlariga nisbatan ziyrak bo‘lgan yoshlarga qarata ishlatiladi va bu ibora, asosan, yoshlar orasida keng tarqalgan.

O‘zbek tilida esa *balog‘atga yetmoq iborasi* yosh yigit yoki qiz katta bo‘lib el nazariga tushadigan bo‘lib qoldi, degan ma’noda yosh o‘g‘il-qizlarga ishlatiladi:

1. Yoshi oila qurish darajasiga bormoq. O‘xshashi: bo‘yi yetdi “Ertaga qizingga *balog‘atga yetgan* deb spravka qilib beraman”, dedi Tojiboy.[2]

2. Yetuk, yuksak darajaga erishmoq (umuman).…harbiyda tishi chiqib, harbiyda *balog‘atga yetgan* kapitanga taktikadan dars bermoqchi deb o‘yladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o‘zbek tilshunosligida frazeologiya sohasi ko‘p yillardan beri jahon tadqiqotchilarning turli ilmiy ishlarida har jihatdan yoritilayotgan bo‘lishiga qaramay, bu soha hali to‘liqliligicha o‘rganilib bo‘lingan emas. Nafaqat tilshunoslik, balki lingvomadaniyatshunoslik sohasi uchun ham yangi bo‘lgan “konsept” tushunchasi doirasida frazeologik birliklarni, ikki bir biriga qardosh bo‘lmagan ingliz va o‘zbek tillarida talqin etish, ular yuzasidan olib borilgan ilmiy ish, nazariyalarni tahlil etish, ularga tayangan holda, bu ikki xalqning til va madaniyat bog‘liqliklarini ochib berish tilshunoslik uchun ahamiyat kasb etadi.

Kazakov Ilhom Rozmamatovich (Qoraqalpoq davlat universiteti)

PAREMIYALARDA GENDER XUSUSIYATI ISTIFODASI

Annotatsiya. *Maqolada, dastlab, gender tushunchasining zamonaviy tilshunoslikka tatbiq etilishi haqida so‘z yuritilgan. Gender xususiyatni ifodalovchi paremiyalarda har qanday xalq milliy madaniyatining nozik qirralari yashiringanligi o‘zbek va qoraqalpoq tillari va ularning madaniyatlararo hamkorligi asosida o‘rganilgan.*

Аннотация. *В статье впервые говорится о применении понятия гендера в современной лингвистике. На примере узбекского и каракалпакского языков и их межкультурного взаимодействия изучено, что в паремиях, выражающих гендерный признак, скрыты тонкие стороны национальной культуры любого народа.*

Annotation. *The article first talks about the application of the concept of gender to modern linguistics. It was studied on the basis of the Uzbek and Karakalpak languages and their intercultural cooperation that the subtle aspects of the national culture of any people are hidden in paremias expressing the gender characteristic.*

Kalit so‘zlar: *paremiya, gender, erkak, ayol, gender tenglik, milliy madaniyat, lingvokulturologiya, lison, milliy nigoh, olam manzarasi, olamning fonetik manzarasi.*

Ключевые слова: *паремия, гендер, мужчина, женщина, гендерное равенство, национальная культура, лингвокультурология, язык, национальное мировоззрение, картина мира, фонетическая картина мира.*

[1] Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб...”Ўзбек тили ва адабиёти”, Т., 2012, 5-son, 56-bet.

[2] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., Школа “Языки русской культуры”, 1996, с. 32.

Key words: *paremia, gender, man, woman, gender equality, national culture, linguo-culturology, language, national view, view of the world, phonetic view of the world.*

Gender tushunchasi zamonaviy tilshunoslikka boshqa gumanitar fanlarga nisbatan ancha kech kirib kelgan. Ushbu termin ilmiy hayotga ilk marotaba amerikalik psixoanalitik R.Stoller tomonidan tatbiq etilgan.[1] Uning tavsiyasiga koʻra, gender tilshunosligi deb atalgan alohida yoʻnalish shakllangan.

Gender termini fanga insonlarni erkak va ayol toifasiga ajratuvchi tushuncha sifatida taqdim etilgan. Aslida, erkak va ayol oʻrtasidagi tafovut insoniyat paydo boʻlganidan boshlab mavjud. Bu farq ibtidoiy davrlarda erkaklar va ayollarning kundalikli bajaradigan yumushlarida kuzatilgan. Chunonchi, erkaklar, asosan, ovchilik bilan shugʻullangan. Shu yoʻl bilan ular oilasi tirikchiligini taʼminlash uchun oʻz hissasini qoʻshishgan. Ayollar esa uyida oʻtirib, eri va farzandlari uchun biror yegulik taom tayyorlash ishi bilan mashgʻul boʻlgan. Kishilik jamiyatining taraqqiy etishi orqali erkak va ayollar feʼl-atvori, kiyinish madaniyati, yurish-turishi, soʻzlashuvida ham bir-biriga, aslo, oʻxshamaydigan alomatlar qaror topgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda gender tenglikka jiddiy eʼtibor qaratilib, erkak va ayollarning jamiyatdagi maqomiga bir xil darajada baho berilyapti. Ayollar ham erkaklar bilan teng mavqeda, bir safda turib, yaratish, bunyod etish ishlarini bajarishga qodir hilqat ekanligi oʻz tasdigʻini topdi. Qayd qilish lozimki, avvalgi vaqtlarda ayollarning huquq-erkinliklari toptalgan. Ularga nihoyatda past nazar bilan qarash odat tusiga aylangan. Endi bu xildagi munosabat batamom barham topganligini mamnuniyat bilan taʼkidlash kerak. Haqiqatan ham, bugun ayollar erkaklar bilan yonma-yon turib, jamiyatimizning barcha boʻgʻinlarida faoliyat olib borayotganligi hech kimga sir emas.

Kelib chiqishiga koʻra bir-biriga qarindosh boʻlgan xalqlar milliy madaniyatini oʻzida ifodalaydigan paremiyalar gender xususiyatiga koʻra bir-biridan, albatta, farqlanadi. Xususan, oʻzbek va qoraqalpoq xalq paremiyalarida bu holat yaqqol koʻzga tashlanadi. Shunga muvofiq, bu ikki qardosh xalq paremiyalaridagi gender tarkibni lingvokulturologik nuqtayi nazardan oʻrganish zamonaviy tilshunoslikdagi dolzarb masaladir. Taʼkidlash kerakki, biz har ikki xalq ogʻzaki ijodi namunalari orasidan faqat milliy-madaniy rang-baranglik yanada boʻrtib turgan paremiyalar talqiniga koʻproq eʼtibor qaratishni lozim deb topdik. Oʻzbek xalq paremiyalarini yoritishda Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedovlarning «Нега шундай деймиз», shuningdek, T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqovlarning «Oʻzbek xalq maqollari» manbalariga murojaat etdik. Qoraqalpoq milliy madaniyatidan dalolat beruvchi paremiyalar talqinida esa «Қарақалпақ фольклоры. Көп томлық. 88-89-90-91-томлар» manbasidan foydalandik.

Bola yoshdan, xotin boshdan deb ataluvchi paremiya oʻzbeklar orasida keng qoʻllaniladi. Bu paremiyani qoraqalpoqlar ham xuddi shu shaklda, yaʼni *Balanı jastan, qatındı bastan* tarzida ifodalaydi. Har ikki xalq milliy madaniyatiga bogʻliq ushbu paremiyalar, avvalambor, bola, xotin tarbiyasiga bevosita aloqador. Paremiyada xoh bola, xoh xotin kishi boʻlsin, ular tarbiyasiga boshidan diqqat agʻdarish kerakligi uqdirilgan. Maʼlumki, ota-ona uchun farzandning tugʻilishi eng katta baxt. Farzand oʻzi mehmon boʻlib kelgan oila uchun oliy neʼmat. Farzand tugʻilgan kunda, u oʻgʻil yoki qiz boʻlishidan qatʼiy nazar, ota-onalar nihoyatda baxtiyor boʻlib, oʻzlarini qoʻyarga joy topa olishmaydi. Chunki, birinchidan, dunyo yuzini koʻrgan chaqaloq ollohning inoyati. Ikkinchidan, oʻsha yangi tugʻilgan vujudni ota-onalari, uning barcha yaqinlari kun sanab intizorlik bilan kutishgan. Yaratgandan oʻzlari uchun toʻrt muchasi sogʻ, qobil farzand ato etishini iltijo etib kelishgan. Koʻpchilik hollarda, ota-onalar farzandli boʻldim deb, hoy-u havasga berilib ketadi. Bola tarbiyasiga jiddiy eʼtibor bermaydi. Natijada boshi toshga tekkan kunda, farzandi biror ishkal chiqarib, nomini isnodga qoldirgan paytda bolasining tarbiyasiga u tugʻilgan chogʻidan, yoshligidan eʼtibor qaratishi zarur boʻlganligini anglab yetishadi. Soʻnggi pushaymon oʻzingga dushman, deyishganidek, ayni damda, vaqt oʻtib, boʻlar ish boʻlgan. Vaqtni ortga qaytarishning esa, aslo, imkoni yoʻq. Xuddi shunday holat ahyon-ahyon oilaning qiz farzandlari hayotida ham kuzatiladi. Qiz bolaga yoshligidanoq, odob-axloqdan dars berib borilmasa, u balogʻat yoshiga yetgach, koʻchadagi har kimning yolgʻon-yashiq gaplariga laqqa ishonib, aldanib, ota-onasini isnodga qoldirishi, uning yuzini yerga qaratishi mumkin.

Avvalo, ota-onalarning oʻz oʻgʻli uchun umr yoʻldoshi sifatida tanlagan qizlari oqila, dono boʻlsin. Agar uning aksi boʻlib chiqsa, oilaga qabul qilingan yangi kelinchak oʻrgangan koʻngil oʻrtansa qoʻymas, deganlaridek, oʻz xonadonida oʻrgangan noloyiq odatlaridan voz kechmay, dastlabki kunlardanoq, eriga itoat qilmasdan, u bilan hisoblashmay, oʻz xohishiga binoan yashashni odat qilishni afzal bilsa, kelishmovchiliklar tufayli bunday oila barbod boʻlishi turgan gap. Yoki boshidan oila jilovini oʻz qoʻliga olgan

[1] Stoller R.J. Prezentations of Gender. New Heaven, 1985, p. 45.

kelin butun umri davomida erini ham o‘z nog‘orasiga o‘ynatishga odatlanib qoladiki, oilada bunday munosabatlarning shakllanishiga, albatta, birinchi navbatda, o‘sha xotinning eri, qolaversa, butun xonadon ahli tengma-teng javobgardir. Umuman, ana shunday muhit vujudga kelmasligi uchun xotinni boshidan tarbiyalash muhim ahamiyatga egaligini o‘tmishda yashab o‘tgan ota-bobolarimiz fahmlab, yuqoridagi paremiyani kashf etishga muyassar bo‘lishgan.

O‘zbek xalqi *Chiqqan qiz–chiydan tashqari* degan paremiyani ishlatadi. Qoraqalpoqlarda ham uning muqobili mavjud bo‘lib, u *Shıqqan qız shiyden tısqarı* deb ataladi. O‘zbek va qoraqalpoq xalqlarida shaklan va mazmunan muvofiq ushbu paremiyada keltirilishicha, turmushga uzatilgan har bir qiz o‘z taqdirini yangi kelin bo‘lib tushgan xonadonidagilar bilan birgalikda hal qilishi kerak. Uning bundan keyingi hayotiga ota-onasining aralashuvi maqbul emas. Dastavval, paremiya tarkibidagi *chiy* so‘zining ma’nosini anglash kerakki, u *o‘tov* ga tashqari tomondan qoplanadigan qamish to‘siqdir.[1] Tarkibida ushbu so‘zning qo‘llanilishi o‘sha paremiyaning tarixiyligini, xalqimiz madaniyatiga xos urfni ifodalash xususiyatiga egaligini tasdiqlaydi. Darvoqe, bizning ota-bobolarimiz o‘tmishda o‘tovlarda yashagan. O‘sha o‘tovda katta bo‘lib, balog‘at yoshiga yetgan qiz kuyovga uzatilgan. Kuyovga chiqqan qiz o‘zining ota makoni – chiydan, ya’ni o‘tovdan, oila a’zolaridan ajralib ketdi hisobi. Endi u hayotini, kelajakdagi taqdirini faqat o‘zi belgilashi kerak. Har qanday vaziyatda ham qizning ota-onalari uning turmushiga aralashuvi nojoiz. Demak, paremiyada nima bo‘lishidan qat’iy nazar, yangi xonadonga borgan qizning taqdirini o‘sha oiladagilar hal qilishi maqsadga muvofiqligi ta’riflanadi.

O‘zbek xalqi madaniyatidan dalolat beruvchi *Qiz bersang, otasiga qarab ber, Qiz olsang, onasiga qarab ol* degan paremiyaning qo‘llanilishi ancha faoldir. Qoraqalpoqlarda aynan uning muqobili uchramasa-da, *Anasın kór de, qızın al, Erisin kór de, bózin al* tarzida ifodalanuvchi paremiya ishlatiladi. Uni o‘zbek xalq og‘zaki ijodiga taalluqli paremiya mazmuniga ancha yaqin deb hisoblash mumkin. O‘zbek va qoraqalpoqlar azal-azaldan bolajon xalqdir. Ular farzandlarini oq yuvib, oq tarab, o‘zlari yemasa ham ularning qornini to‘yg‘izib, buning uchun hayotning turli xil zarbalariga bardosh berib, har qanday og‘ir mehnatni bajarib, xullas, butun umrini ularga baxshida qilib kelishgan. Farzandlari kamolga yetgach, ota-onalar o‘g‘lini uylantirish yoki qizini chiqarish taraddudiga tushishgan. Ular o‘g‘li boshini ikkita qilishda oilasiga keladigan kelinning aqli raso, qo‘l-oyog‘i chaqqon, ishbilarmon, tarbiyali bo‘lishini astoydil xohlashgan. Buning uchun o‘zlari taniydigan qishloqdoshlari, tanish-bilishlari, oshna-og‘aynilarining balog‘at yoshiga yetgan qizlarini zimdan kuzatishgan. Bunda, birinchi navbatda, o‘sha qizning onasi fe’l-atvorini, asosan, uning uy-ro‘zg‘or tutishdagi tejamkorligini e’tiborga olishgan. Onasi qanday bo‘lsa, qizi ham shunday bo‘ladi deb to‘g‘ri xulosa chiqarishgan. Ularda ona qanchalik xushmuomala, mukammal bo‘lsa, uning qizi ham, so‘zsiz, onasiga o‘xshaydi degan tasavvur paydo bo‘lgan. Haqiqatan, oilada ona o‘z qizini yoshlik davridan boshlab balog‘at yoshiga yetguniga qadar vaqti kelib, baribir, oilali bo‘ladi, deb katta hayotga tayyorlab borgan. Ota-onalar ana shunday ko‘rib-bilib yurgan qiz onasining uyiga sovchilikka borib, uning qizini o‘g‘liga olib bersa, hech ham kam bo‘lmasligini anglab yetishgan.

O‘z uyida otaning tutgan o‘rni, farzandlariga mehr-oqibatliligi, ayniqsa, o‘g‘illariga qattiqqo‘llik bilan bergan tarbiyasi ham ajdodlarimizni qiziqtirgan. Ular ota yaxshi yoki yomon xulq egasi bo‘lsa, uning o‘g‘li ham xuddi shunday sifatlarni o‘zida jo qiladi, ya’ni qush uyasida ko‘rganini qiladi, degan fikrda bo‘lishgan. Bu esa ota-onalar oldiga qizini kelinlikka so‘rab kelgan sovchilarga javob qaytarishlarida juda qo‘l kelgan. Ular o‘z qiziga uylanmoqchi bo‘lgan kuyovlikka da’vogarning otasini ko‘rib, uni kuzatib, shundan keyingina yakdil qarorga kelishgan. Agar yigitning otasi ularga ma’qul kelsa, uning o‘g‘li ham kuyovlikka munosib deb qaralib, qizini unga berishga rozilik bildirishgan. Ana shu taxlitda biz talqin qilgan paremiya yuzaga kelgan. Qoraqalpoq xalqiga oid paremiyaning birinchi komponenti o‘zbek xalqiniki bilan bir xil. Demak, ular mazmuniga ko‘ra, umumiylikni shakllantiradi. Ammo tahlildagi paremiyaning *Erisin kór de, bózin al* komponenti orqali ifodalangan ma’no faqat qoraqalpoqlar madaniyatiga xosligi bilan ajralib turadi. Bu o‘rinda, *bóz* so‘zi mato ma’nosini ifodalab, paremiyaning ushbu qismi, *dastlab, o‘sha matoning qanday tayyorlanganligi jarayonidan voqif bo‘l, shundan keyingina uni sotib olishing mumkin*, degan tushunchani anglatadi. Manbada qayd qilinishicha, qoraqalpoq tilida *eris – «matoning asosi,*[2]ya’ni o‘tmishda palos, gilam yoki boshqa biror mato to‘qish jarayonining dastlabki bosqichida maxsus moslamaga gorizontal, vertikal holatda har xil rangdagi iplar joylashtirilgan. Shundan keyingina to‘qish ishlariga kirishilgan.

[1] Этнографические очерки узбекского сельского населения. М., 1969, с. 201.
[2] Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. Москва, «Наука», 1974, с. 294.

O‘zbek xalqida o‘g‘il bilan bog‘liq *Qobil o‘g‘il otga mindirar, Noqobili otdan tushirar* deb ataluvchi paremiya uchraydi. Kuzatishlar natijasida qoraqalpoq tilida unga mazmun jihatdan ancha yaqin bo‘lgan *Jaqsı bala – súyinish, Jaman bala – kúyinish* yoki *Ul usıllı, qız qılıqlı bolsa – erge dáwlet, Ul usılsız, qız qılıqsız bolsa – erge miynet* singari paremiyalarni ajratib olishni lozim topdik. Har bir oilada ota va ona voyaga yetayotgan o‘g‘il farzandini kelajakda har tomonlama yetuk, mukammal, qobil va dono inson bo‘lib yetishishini astoydil xohlaydi. Agar ularning orzusi ro‘yobga chiqsa, ya’ni vaqti kelib, farzandi el-yurt orasiga qo‘shilib, odamlarga yaxshilik qilib, ularning duosini olib yursa, bu dunyoda ota-onadan baxtli inson bo‘lmaydi.

O‘zbek xalqining o‘g‘il bilan bog‘liq paremiyasida *ot* konsepti qo‘llanilishining o‘ziga xos sababi bor. Xalqimiz azaldan ot hayvonini juda e’zozlashgan. Chunki ot xo‘jalik yumushlarida, insonlar og‘irini yengil qilishda muhim rol o‘ynagan. Og‘ir-og‘ir yuklarni tashishda, uzoq masofalarni bosib o‘tishda ota-bobolarimiz otdan foydalanishgan. Shuni ham e’tirof etish kerakki, barcha xonadonlar ham ot sotib olish imkoniga ega bo‘lmagan. Shuning uchun eshigiga ot bog‘langan xonadon ahliga boshqacha ko‘z bilan qaralgan. Bunday oila sohibining obro‘-e’tibori baland sanalgan.

Demak, ot o‘tmishda yashagan oilalarning mavqeyini bildirib, o‘sha xonadon ahlining bekam-ko‘st hayot kechirishlarini ham ifodalagan. Paremiya tahlilidan ayon bo‘ladiki, qobil farzand otasiga ot hadya qiladi, bu bilan uning xalq oldidagi obro‘sini yanada ko‘taradi. Ota o‘z o‘g‘liga aytilgan «balli, azamat, otangga rahmat» degan samimiy va iliq gaplarni eshitib, ko‘ngli tog‘dek ko‘tariladi. Agar farzand noqobil chiqsa, otaga la’natlar yog‘iladi. O‘g‘lining nobop, nojoiz xatti-harakatlaridan ota adoyi tamom bo‘ladi. Qo‘ni-qo‘shnilari, yaqinlari, do‘st-u birodarlari oldida qaddi bukilib, umr bo‘yi to‘plagan obro‘si bir zumda yo‘qqa chiqadi.

Xullas, talqin qilingan paremiyada xuddi shunday ma’no mujassamlashgan bo‘lib, u xalqimizning o‘tmish madaniyatidan guvohlik beradi. Qoraqalpoqlar ishlatadigan dastlabki paremiya ma’no jihatidan o‘zbek xalqiniki bilan hamohangdir. Haqiqatan ham, yaxshi o‘g‘il ota-onaga quvonch olib keladi. Ular farzandi orqasidan roxat-u farog‘atda yashaydi. Yomon, tarbiyasiz, noqobil o‘g‘il esa ota-ona umriga zomin bo‘ladi. Bundaylarning fe’li, bo‘lmag‘ur harakatlari ota-onalar obro‘sini bir pul qiladi. Qoraqalpoqlar tomonidan ishlatiladigan, o‘zbek xalqida kuzatilmaydigan keyingi «Ul usıllı, qız qılıqlı bolsa – erge dáwlet, Ul usılsız, qız qılıqsız bolsa – erge miynet» paremiyasida o‘g‘il-qizlar tarbiyasi, ularning epliligi, tadbirkorligiga doir g‘oya ilgari surilgan. O‘g‘il va qiz hayotda ota-onalarning ko‘makchisi, qanotlaridir. Ular tufayli ota-ona yuki yerda qolib ketmaydi. Oilada farzandlar aqlan yetuk bo‘lib voyaga yetsa, ular ota-onasiga hamisha rahmat eshittiradi. O‘g‘il va qiz balog‘at yoshiga yetgan davrga kelib, xonadondagi ko‘p ishlarni o‘z zimmasiga oladi. Ular shundan keyin ham padari buzrukvori va volidalari tarbiyasi asosida o‘rgangan tadbirkorligini o‘z hayotida ishga solib, ularni doim xushnud etib yuradi.

Shuningdek, o‘g‘il va qiz oilada dangasa, yalqov bo‘lib o‘ssa, qo‘lidan hech bir ish kelmasa, har narsaga yetti o‘lchab bir kesish nuqtayi nazaridan yondasha olmasa, avvalo, o‘ziga jabr. Bunday farzandlar hayotda shunday to‘siqlarga duch keladiki, ulardan oshib o‘tish uchun esa sermulohazalilik va metin iroda talab etiladi. Avval boshdan, ana shunday sifatlarni qon-qoniga singdirmagan bu xildagi o‘g‘il va qizlar mashaqqatlarga chiday olmay, kalavasining uchini yo‘qotib qo‘yishadi. Biror muammoli masalaga ro‘baro‘ kelsa, uning yechimi nimadan iboratligini mustaqil hal eta olmaydi. Ular bilan yonma-yon yashab yurgan ota-ona farzandlarining bunday epsiz, tadbirsizligini ko‘rib kuyunadi, albatta. Ana shu vaziyatda buning hammasiga o‘zlari sababchiligini ular anglab yetishadi. Farzandlariga noto‘g‘ri tarbiya berganligini yurak-yuragidan his qilib afsuslanishadi. Tahlildagi paremiyaning mohiyati ana shundan iboratdir.

Xalqimizda *Yaxshi o‘g‘il uy tuzar, Yomon o‘g‘il to‘y buzar* mazmunini anglatuvchi paremiya mavjud. Qoraqalpoqlar unga ancha o‘xshash *Jaman jigit toy buzar, Jaman qatın uy buzar* degan paremiyani ishlatadi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida ushbu paremiyaning har ikki komponentida ham *o‘g‘il* konsepti keladi. Paremiya ifodalaydigan mazmun shuki, bekam-ko‘st tarbiya ko‘rgan, oilasi, ota-onasi obro‘sini o‘ylaydigan, ularga hurmat va e’tiqodi baland, el-ulus olqishi va e’tirofiga sazovor bo‘lgan farzand mudom yaxshi amallarni bajarish bilan mubtalo bo‘ladi. Uning qiladigan ishi bunyodkorlikdir. Yaxshi farzand bunyod etgan uylarda odamlar hayot kechiradi, qurgan ko‘priklaridan xalq kundalik turmushida foydalanadi. Ular qazigan ariqlardan oquvchi suv ekinzorlarni sug‘orishda asqotadi. Boringki, yaxshi tarbiya ko‘rgan o‘g‘ilning har qanday sa’y-harakati Vatanga sadoqat bilan xizmat qilishga qaratilgan bo‘ladi. Shuningdek, yaxshi o‘g‘il ota-onasi hurmatini joyiga qo‘yib, ularni umrbod e’zozlab, oq fotihasini olib yurishni o‘ylaydi. Ota rozi, xudo rozi, deganlaridek, otaning, qolaversa, xalqning olqishini olgan bunday o‘g‘il farzandlar hamisha baxt-saodatga erishadi. Hayotda buning aksi, ya’ni shunday farzandlar ham bo‘-

ladiki, ularning qiladigan ishi yangi uy bunyod etish emas, balki uni vayronaga aylantirish, ekilgan hosilni payhon qilish, tekkanga tegib, tegmaganga kesak otishdan iboratdir. Umuman, ularning ishi tayinli bo‘lmay, boshqalarga faqat yomonlikni ravo ko‘radi. Ular Vatan, xalq oldidagi insoniylik burchini unutib, tug‘ilib o‘sgan yurtining gullab-yashnashi uchun halol mehnati bilan o‘z hissasini qo‘shishdan bo‘yin tovlashadi. Xuddi yomon o‘g‘il sarmast holda to‘yni buzganidek, bundaylar ham hayoti davomida boshqalarda ana shunday taassurot uyg‘otishadi. Ular atrofidagi maqsad-muddaolari bir xil bo‘lgan, yaqin kelajakda nurli va charog‘on kunlarga yetishish, albatta, muqarrar, degan o‘y bilan yashab, ushbu yo‘lda jonini jabborga berib mehnat qilib kelayotgan qishloqdoshlari, eldoshlarining yuziga oyoq qo‘yishadi. Bundaylar har qanday yovuz maqsadlari amalga oshishi uchun jon-jahdi bilan tirishib, fisq-u fasod gaplari bilan butun bir jamoa orasiga nifoq solishga, uzoq yillar davomida bir tan, bir jon bo‘lib istiqomat qilib kelayotgan insonlar orasini buzishga bel bog‘lagan nopok kimsalardir.

Qoraqalpoqlar qo‘llaydigan paremiyaning birinchi komponenti o‘zbek xalqida uchraydigan paremiyaning ikkinchi komponenti bilan aynan bir xil. Ya’ni, har ikki xalq milliy madaniyatiga aloqador *Yomon o‘g‘il to‘y buzar//Jaman jigit toy buzar* komponentlari orqali yomon o‘g‘il nafaqat to‘yni, shuningdek, butun jamiyatni buzishga intilib yashashiga oid ishora mavjud. Qoraqalpoqlardagi mazkur paremiyaning *Jaman qatın uy buzar* komponenti zamirida esa yomon xotin o‘zining to‘la-to‘kis oilasini, xonadonini parokanda qilishi muqarrarligi mazmuni mujassam.

O‘zbek xalqi *Qiz–ovulning ko‘rki, O‘g‘il–ovulning erki* paremiyasini qo‘llaydi. Qoraqalpoqlar uni sal boshqacharoq ohangda, ya’ni, *Qız ósse eldiń kórki, Ul ósse eldiń bórki* kabi ishlatadi. O‘zbek millati o‘tmishiga daxldor bu paremiyada ifodalangan mazmunga ko‘ra, qiz bola nafaqat o‘zi voyaga yetgan xonadonning, balki yashaydigan ovulining – qishlog‘ining ham ko‘rki hisoblangan. Qizlarning odobi, mehnatsevarligi, husn-u jamolidan qishloqdoshlari ham faxrlanib yurishgan. Chunki atrofidagi barcha qo‘niqo‘shnilar, qolaversa, butun qishloq ahli ularning mehnatkashligi, odob-axloqi, kamtar-kamsuqumligidan boxabar bo‘lishgan. Xonadonini saranjom-sarishta tutishlari, uyi atrofini supurib-sidirib qo‘yishlarini har kuni ko‘rib-bilib, kuzatib yurishgan. O‘g‘il bolalar esa o‘z qishlog‘ining g‘ururi sanalgan. Bizga ma’lumki, o‘tmish zamonlarda ota-bobolarimizning har bir kuni tahlikali ravishda o‘tgan. To‘rt tomondan ham ularning tinch, osuda hayotiga yovuz kuchlar – dushmanlar tomonidan tajovuzlar uyushtirilishi ehtimoldan xoli bo‘lmagan. Ko‘pchilik hollarda, albatta, bunday bosqinchiliklar sodir bo‘lgan. Shunday vaziyatlarda qishloqda istiqomat qiladigan har bir oilaning mard, bilagi baquvvat o‘g‘il farzandlari qishloq ahli jonlariga oro kirgan. O‘sha jasur yigitlar har qanday yovuz kuchlar oldiga chiqib, ularga qarshi mardonavor kurashgan. O‘zi tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i sha’nini dushmandan qattiq turib himoya qilishgan. Haqiqatan ham, qadimdan el-yurt erki, ozodligi yo‘lida o‘g‘il bolalar o‘rni nihoyat darajada yuksak bo‘lgan. Xalqimiz buni anglab yetib, shu asosda yuqorida tahlili berilgan paremiyani vujudga keltirgan.

Qoraqalpoqlar ijodiga mansub paremiyaning birinchi komponentidan anglashiladigan ma’no o‘zbek xalqiniki bilan bir xil deyish mumkin. Qoraqalpoq xalqiga oid paremiyaning o‘ziga xos jihati shunda ko‘rinadiki, uning ikkinchi komponentida millat konsepti maqomiga ko‘tarilgan bosh kiyim – *bórk* qo‘llanilgan. Qoraqalpoq millati er yigitni, o‘g‘ilni azaldan o‘z eli, xalqi hayotida porlagan yulduz, boshidagi toj deb bilishgan. Butun millat *bórk*ni qay tarzda asrab-avaylab, e’zozlab kelayotgan bo‘lsa, o‘g‘il farzand ham ulg‘ayib, voyaga yetgach, o‘z kindik qoni to‘kilgan zaminni xuddi shu *bórk* singari ko‘z qorachig‘iday asraydi, degan tasavvurda bo‘lishgan. Bu paremiyaning shakllanish tarixiga oid qarashlarimiz shulardan iborat.

O‘zbek xalqining o‘tmish madaniyatidan guvohlik beruvchi *Kuyovnikida quyruq yegandan, o‘g‘ilnikida musht ye* degan paremiya bor. Qadimgi davrlardanoq, ota-bobolarimiz ne-ne niyatlar bilan yig‘ib-terganini el oldiga to‘kib-sochib, boshlagan to‘ylarini eson-omon o‘tkazib olishgach, qizi uzatilgan kuyovning xonadoni bilan doimiy bordi-keldi aloqalarini o‘rnatishgan. Har ikki tomon bir-birlarining xonadonlariga mehmondorchilik tashriflarini amalga oshirgan. O‘zbek xalqi qon-qoniga singib ketgan odatga ko‘ra, kuyov uyiga borgan qizning ota-onalari, qarindoshlari o‘zlarini, baribir, sal xushyorroq tutishgan. To‘g‘ri, muloqot chog‘ida o‘zbekona samimiyat aks etgan. Ammo taom tamaddi qilish jarayonidagi tortinish hissi ular nafsini jilovlashiga undagan. Shu sababli dasturxonga tortiq qilingan osh-ovqat, barcha noz-u ne’matlardan qisinib-qimtinib iste’mol qilishgan. Shunga muvofiq, uyalib, iymanib kuyovnikida qo‘chqorning quyrug‘ini – dumbasini yoki boshqa har qanday lazzatli taomni yegandan ko‘ra, o‘z o‘g‘-ling xonadonida musht yesang ham mayli, degan fikr shakllangan. So‘ngra xalqimizning ana shunday azaliy odatlariga bog‘liq talqin qilingan paremiya vujudga kelgan. Bu paremiya qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida uchramaydi.

Xalqimizda *Qizniki qiyin bilan bitar, o‘g‘ilniki o‘yin bilan bitar* paremiyasi ham qo‘llaniladiki, qoraqalpoq xalq og‘zaki ijodida uning muqobili kuzatilmaydi. Shuni alohida qayd qilish lozim, ushbu paremiya bevosita o‘zbek xalqi milliy madaniyatining yorqin qirralarini o‘zida namoyon qiladi. Qadimdan xalqimizda o‘g‘il uylantirish qiz chiqarishga qaraganda ancha osonlik bilan bitgan. Chunki qiz uzatilishi uchun juda ko‘p mag‘lag‘ sarf etishga to‘g‘ri kelgan. Qizga sep yig‘ish yoki boshqa qilinadigan sarf-xarajatlar, sarpolar ota-bobolarimiz oilasida moddiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan. Qiz xonadoniga yetkaziladigan qalin puli mo‘ljaldagi ehtiyojlarni qoplash imkonini bermagan. Kuyov tomonidan beriladigan qalin pulining jami, hatto undan ham ortiq mag‘lag‘ to‘y xarajatlari uchun sarflangan. Xullas, barcha odat, rasm-rusumlar asosida to‘yni o‘tkazish oldidan qiz ota-onalari gardanida haddan ortiq tayyorgarlik ishlarini olib borish turgan. O‘z qizining kuyov bilan baxtli-taxtli yashashini chin ko‘ngildan niyat qilgan ota-onalar qarz ko‘tarib bo‘lsa-da, to‘yni hech bir kamchiliksiz o‘tkazishga harakat qilishgan. Bu esa xalqimizning tahlildagi paremiyani yaratishiga turtki bo‘lgan.

Qoraqalpoqlarda bu xildagi paremiyaning mavjud emasligi boisi shuki, garchi hozirgi kunda ahyon-ahyon uchrab tursa-da, azaldan ushbu millat madaniyatida qiz uyiga sovchi bo‘lib borib, uni ayttirib olish odati kuzatilmaydi. Ularda, asosan, qizni olib qochish, keyinchalik, har ikki tomon murosa-yu madorasiga binoan to‘yni o‘tkazish odat sifatida shakllangan. Bunda to‘yga hozirlik ishlari avvaldan emas, balki qiz olib qochilgandan ma’lum vaqt o‘tib ko‘riladi. Demak, to‘y xarajatlarini qiz va kuyov tomonning kelishuvi, rozi-rizoligi asosida birgalikda qoplash, uni ortiqcha dabdabasiz o‘tkazish odatining qaror topganligi qoraqalpoq xalqi orasida «Qizniki qiyin bilan bitar, o‘g‘ilniki o‘yin bilan bitar» mazmunini ifodalovchi paremiya yaratish uchun zarurat tug‘dirmagan. Buni o‘tmish davrlarda o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari olamni o‘ziga xos va mos tarzda ko‘rib, tafakkuri orqali anglab, paremiyalarni ham shunga muvofiq yashash sharoiti va ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda yaratgan deb baholash hech kimda shubha tug‘dirmaydi.

Umuman, o‘zbek va qoraqalpoq tillari qadimgi davrlardan e’tiboran bir-biriga hamohang madaniyat og‘ushida biri ikkinchisini oziqlantirib kelayotganligini ta’kidlash joiz. Bu tillarni lingvokulturologik tomondan madaniyatlararo hamkorlik asosida o‘rganish ularning mushtaraklik, shu bilan birga, har biriga xos turfa xillik alomatlarini namoyon bo‘lishini ta’minlaydigan omildir. Gender xususiyatlar ifodalangan paremiyalardagi mazmunan umumiylik boisi shuki, qadimgi davrlardan o‘zbek va qoraqalpoq xalqlari o‘zaro yaqin hududda istiqomat qilib, ularning olamni kuzatishi va idrok etishi, anglagan narsa-hodisalarini lisonda ifodalashida yaxlitlik aks etgan. Bu holat milliy-madaniy unsurlarning qorishuvi, xususan, o‘zbek tilining qoraqalpoq tiliga ta’siri natijasida yuz bergan. Ba’zi o‘rinlardagi paremiyalar o‘rtasidagi tafovutlar esa azaldan bu ikki xalq milliy nigohi, tasavvuri va tafakkuri, olam manzarasini lisonda tasvirlashi xilma-xil bo‘lganligini dalolatlaydi. Ko‘pchilik hollarda o‘zbek xalqi ta’siri o‘laroq, qoraqalpoqlar milliy nigohida olamning fonetik manzarasi shakllangan. Bu jarayon qoraqalpoq lisonida o‘zbek xalqiga mansub muayyan paremiyaning ular mentalitetiga muvofiq tarzdagi tovushlar talaffuzida, ya’ni o‘zgacha shakl-u shamoyil kasb etishida ko‘zga tashlanadi. Demak, qardosh tillar paremiyalaridagi gender xususiyatlarni lingvokulturologik jihatdan talqin etish madaniyatlararo munosabatlarni yanada mustahkamlash uchun xizmat qiladi.

Kallibekova Gulnara Palbekovna (Qoraqalpoq davlat universiteti assistenti, PhD)

PERIFRAZALAR GAZETA TILINING TASVIRIY VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. *Tilning tasviriy vositalaridan biri perifrazadir. Perifrazalar gazetalar tilida faol qo‘llaniladi. Davriy matbuotdagi perifrazalar voqea-hodisalarga, reformalarga xos, o‘rin-joy ma’nosini, predmetni ifodolovchi sifatida foydalanilgan. Jurnalist ijodidagi yangi perifrazalar, sanoq sonlarning ishlatilishi, shaxsni ifodolovchi va sarlavha sifatida tanlangan perifrazalar tizimli o‘rganilgan.*

Аннотация*. Одним из описательных средств языка является перифраз. Перифразы активно используются в языке газет. Перифразы в периодической печати используются как выражение событий, реформ, значения места, предмета. Систематически изучаются новые перифразы в работе журналиста, выбраны и проанализированы заголовочные перифразы и перифразы, выражающие личность чловека..*

Annotation. *One of the descriptive tools of the language is periphrasis. Periphrases are actively used in the language of newspapers. Periphrases in the periodical press are used as expressions of events, reforms, meaning of places, subjects. New periphrasis in the journalist's work, the use of numerals, periphrasis selected as personal and headlines are being systematically studied.*

Kalit so‘zlar: *perifraza, gazeta, gazeta tili, davriy matbuot, ijod, jurnalist, uslub, shaxs, reforma.*

Ключевые слова: *перифраз, газета, газетный язык, периодическая печать, творчество, журналист, стиль, личность, реформа.*

Key words: *periphrasis, newspaper, newspaper language, periodical press, creativity, journalist, style, personality, reform.*

Perifrazalar ularning adabiy tilimizdagi o‘rni beqiyos. Shuning uchun tadqiqotchilar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida tanlangan va o‘rganilgan. B.Yo‘ldoshev va D.Yo‘ldoshevalarning «Perifrazalarning frazemalar bilan munosabati va ularni o‘qitishning didiaktik tamoyillari» o‘quv qo‘llanmasida perifraza va frazemalarning o‘zaro o‘xshash va farqli xususiyatlari misollar yordamida tahlil etiladi, lingvodidaktik tamoyillariga oid fikr-mulohazalar bildiriladi.[1] A.Pirniyazovaning «Qaraqalpaq tilindegi perifrazalar», «Berdaq shayırdı ta’riyplewshi perifrazalar»[2] maqolalarida perifrazalar maxsus o‘rganilgan. Gazeta tilidagi perifrazalar Z.Orazımbetovaning «Qaraqalpaq ku’ndelikli baspaso‘zi tiliniń stillik o‘zgesheliklerі» monografiyasida tadqiq etilgan.[3] Perifrazalar tasviriy vositalarning biri sifatida jurnalistlar ijodida faol ishlatiladi. Ommaviy axborot vositalarinining barcha dasturlari jamiyatning diqqat markazida bo‘ladi. Ularning qatorida gazeta ham yangilik yetkazuvchi manbalarning biri sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Davriy matubot orqali jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy voqea-hodisalar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Ma’naviy dunyoqarashni, savodxonlikni, nutq madaniyatini yanada takomillashtirishda ularning tili va uslubi yetakchi manba hisoblanadi. Chunki gazeta xilma-xil mavzular doirasida so‘z yurituvchi, jonli muloqot manbasi. Hayotiy voqealarni gazetxonga ta’sirchan uslubda, qiziqarli ma’lumotlar asosida yetkazib beradi. Mazkur jarayonlarni gazetxonga qiziqarli, sifatli, mohirona yetkazib berishda tilning tasviriy vositalarining biri perifrazalardan foydalanish diqqatga sazovar. Davriy matubotning biri – «Yangi O‘zbekiston» gazetasi. Gazetaning 2022-yil 13-sentabr, 187-sonida «SHHT sammiti oldidan» ruknida «Turizmni rivojlantirish bo‘yicha ulkan imkoniyatlar» sarlavhasida «Yangi O‘zbekiston» gazetasining muxbiri Lutfilla Suvunovning «İpak yo‘li» Turizm va madaniy meros xalqaro universiteti birinchi prorektori Jo‘liboy Eltazarov bilan intervyu-dialog chop etilgan. Jurnalist matnida, savollarda va respondentning javoblarida perifrazalar faol ishlatilgan. Gazeta tilidagi perfirazalarni qator misollarda ko‘rsatib o‘tamiz.

Voqea-hodisalarga, yangi reformalarga xos ishlatilgan perifrazalar. «Dunyo miqyosida *yil voqeasi, yilning eng yirik va nufuzli siyosiy tadbiri* deya e’tirof etilayotgan Samarqand sammitida 15 davlat rahbari qatnashishi kutilmoqda» («Yangi O‘zbekiston» gazetasi, 2022-yil 13-sentabr, 187-son). Bu matnda *yil voqeasi, yilning eng yirik va nufuzli siyosiy tadbiri* singari perifrazalar *sammit* so‘zini badiiy va ta’sirchan uslubda yetkazib berish uchun tanlanganligi ko‘rinib turibdi. «Bundan tashqari, sammit doirasida qator arab davlatlarining yuqori martabali vakillari hamda BMT, MDH va 10 ga yaqin boshqa xalqaro tashkilotlar rahbarlari ham Samarqandga tashrif buyurishi kutilmoqda. Mazkur tadbirning ko‘lami va formati shu qadar kengki, uni *sammitlar sammiti*, deb atasak, hech mubolag‘a bo‘lmaydi». Bu yerda *sammitlar sammiti* perifrazasi orqali tadbirning ko‘lami va formati keng ekanligini ko‘rishimiz mumkin. «San’at va madaniyat xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan asosiy omillardan bo‘lib, davlatlararo munosabatlarda *eng ilhombaxsh sohadir* («Yangi O‘zbekiston». 2022.13.09). «*Xalq diplomatiyasi*, ya’ni, mamlakatlar aholisi o‘rtasidagi aloqani kengaytirish ham muhim omildir. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston rahbari tashabbusi bilan Toshkentda tashkil etilgan SHHT *Xalq diplomatiyasi* markazi bu ishga katta hissa qo‘shmoqda» («Yangi O‘zbekiston». 2022.13.09). Bu misollardagi *eng ilhombaxsh sohadir* deb *san’at va madaniyat sohasini, xalq diplomatiyasi* deb *mamlakatlar aholisi o‘rtasidagi aloqani* nazarda tutgan. Perifrazalar kontekstga mos ravishda mahorat bilan tanlangan. Yurtimizdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar faqat jurnalistlar axborotlarida emas, balki tashqi mualliflar, mutaxasslar tomonidan ham yoziladi.

O‘rin-joy ma’nosini ifodalab keluvchi perifrazalar. «*Butun dunyo uchun turizm xabiga aylanayotgan Samarqand shahrida* o‘tadigan SHHT sammiti turizmning yanada taraqqiy etishiga ham xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir». Mazkur matnda ham Samarqand shahrini *butun dunyo uchun turizm xabiga aylanayotgan «shahar»* sifatida ta’kidlab ko‘rsatilgan. «–Samarqandning sammit o‘tkaziladigan joy sifatida

[1]Йўлдошев Б., Йўлдошева Д. Перифразаларнинг фраземалар билан муносабати ва уларни ўқитишнинг дидактик таомйиллари. Тошкент, “Наврўз”, 2015, 108-бет.

[2] Пирниязова А.К. Қарақалпақ тилиндеги перифразалар. Ҳаял-қызлардың илимдеги орны (2008-жыл «Жаслар жылы»на бағышланады). Республикалық илимий-әмелий конференция материаллары. Нөкис, 2008, 55–56-бетлар; Бердақ шайырды тәрийплеўши перифразалар. Бердақ–классикалық әдебиятымыздың бийик шыңы. Нөкис, “Qaraqalpaqstan”, 2017, 121–125-бетлар.

[3] Оразымбетова З. Қарақалпақ күнделикли баспасөзи тилиниң стильлик өзгешеликлери. Т., “Hilol Media”, 2019, 51–52-бетлар.

tanlanishi chuqur manoga ega. Bu shahar *azaldan tarixiy uchrashuvlar va sivilizatsiyalar muloqoti manzili, madaniy-gumanitar aloqalarni, xalqaro savdoni rivojlantirish, yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash ko‘prigi* bo‘lib kelgan, deydi J.Eltazarov». Misollardagi *azaldan tarixiy uchrashuvlar va sivilizatsiyalar muloqoti manzili, madaniy-gumanitar aloqalarni, xalqaro savdoni rivojlantirish, yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash ko‘prigi* singari perifrazalar tarixiy shaharga xos va o‘rinli tanlangan. «Zero, Xitoydagi Buyuk Xitoy devori, Deamin imperator saroyi, Rossiyadagi qadimgi rus me’morligining *«Oltin halqa» shaharlari*, Moskva va Sankt-Peterburgning betakror saroy va ko‘priklari, *tabiat mo‘jizasi* – Boyko‘l va Sibir o‘rmonlari, Hindistondagi Tojmahal va boshqa boburiy hukmdorlar saroylari, Pokistonning Lahor shahridagi boburiylar merosi, Qozog‘istondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi, oltin kiyimli odam topilmalari sayyohlarni jalb etib kelmoqda». «O‘zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi *qadimiy va ochiq osmon ostidagi muzey-shaharlari*, Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, İmom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, İmom Termiziy, Pahlavon Mahmud kabi buyuk siymolar maqbaralari, Qirg‘izstonning moviy İssiqko‘li, Tojikistonning osmono‘par cho‘qqilari – bularning hammasi SHHTga a’zo davlatlar sayyohlik imkoniyati ham bozor, ham talab, ham imkoniyat jihatidan naqadar katta va muhtashamligini ko‘rsatadi» («Yangi O‘zbekiston». 2022.13.09). Keltirilgan misollardagi *«Oltin halqa» shaharlari, tabiat mo‘jizasi, qadimiy va ochiq osmon ostidagi muzey-shaharlari* singari perifrazalar orqali *shaharlar* va *o‘rmonlar* o‘z nomi bilan atab ko‘rsatilmastan tasviriy ifodalarda bayon etilgan. «Shunday qilib, *O‘zbekiston poytaxti Toshkent* – haqli ravishda televideniyaning Vatanidir» («Hurriyat». 2022.15.06). Toshkent deb shaharning nomini to‘g‘ridan to‘g‘ri ishlatmasdan *O‘zbekiston poytaxti* perifrazasini tasviriylikni ta’minlash maqsadida foydalanilgan.

Jurnalist ijodida yangi perifrazalarning ishlatilishi. Masalan, *turizm, kadr, mutaxassis* so‘zlarini ifodalab keluvchi perifrazalar faol ishlatilgan. «O‘zbekiston turizmni rivojlantirishda katta yutuqlarga erishayotgani jahon hamjamiyati, jumladan, SHHTga a’zo davlatlar tomonidan ham e’tirof etilmoqda. Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan *istiqbolli tarmoqlardan biri – turizm*». «Bu yerda tahsil olayotgan 1,5 mingga yaqin kunduzgi, 1,5 mingdan ziyod sirtqi bo‘lim talabasi erta-indin turizm sohasiga *«yangi qon»* bo‘lib qo‘shiladi» («Yangi O‘zbekiston». 2022.13.09). Ko‘rishimiz mumkin, jurnalistlar o‘z intervyularida, reportajlarida, maqolalarida o‘z fikri bilan respondent fikrini uyg‘unlashtirgan holda perifrazalarning yangi shakllarini yaratmoqda. *Istiqbolli tarmoqlardan biri* perifrazasi *turizm*, *«yangi qon»* perifrazasi *kadr, mutaxassis* so‘zining o‘rniga ishlatilgan. Keyingi misol: «Davlatimiz rahbari «Qonuniy faoliyat yuritayotgan barcha jurnalist va blogerlar bundan buyon ham qonun va Prezident himoyasida bo‘ladi», deb alohida ta’kidlaganini, afsuski, ayrim *osoyishtalik posbonlari* unutib qo‘yganga o‘xshaydi». «Amaldagi qonun normalarini chetlab o‘tgan, OAV xodimlariga zo‘ravonlik qilgan «*osoyishtalik posbonlari*» yana hech narsa bo‘lmaganidek, o‘z ishini davom ettiraveradimi?» («Hurriyat». 2022. 15.06). Misollardagi *osoyishtalik posbonlari* perifrazasi *ichki ishlar organlari* va *milliy gvardiya xodimlari* so‘zini ifodalash maqsadida ishlatilgan. «Albatta, bu ixtiro, yangilikning ahamiyati juda beqiyos edi. Chunki o‘sha vaqtda, ya’ni bundan 94 yil avval hozirgidek hamma *tikilib o‘tiradigan «quti» – televizor* yo‘q edi» («Hurriyat». 2022.15.06). Bu misolda televizorni *tikilib o‘tiradigan «quti»* perifrazasi bilan atab ko‘rsatadi.

Predmet nomini ifodalab keluvchi perifrazalar. Ommaviy axborot voistalarining biri televizorga xos perifrazalar gazetalar tilida faol qo‘llaniladi. Masalan, O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi tashkillashtirishida chop etilayotgan «Hurriyat» gazetasi. Gazetada «Nuqtayi nazar», «İkkinchi fikr», «15-iyun – SHHT tashkil topgan kun», «Talqin», «Uyushma faoliyatidan», «Siyrat», «Hikoya», «Tabiyat tilsimlari», «Mutolaa», «Munosabat», «Hayotiy voqealar», «Pamflet», «Hamkasb», «Rag‘bat», «Yod etib», «Xorijda» singari ruknlar tashkil etilgan. Gazetaning shiori – «O‘zingi angla!». Bosh muharrir: Abdurasul Jumaqulov. Gazeta 1996-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan. 2007-yil 3-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi 0080-raqami bilan ro‘yxatga olingan. Adadi 4129. «Hurriyat» gazetasining 2022-yil 15-iyun 23-sonida «Alisher Navoiyning bashorati yoki buyuk shoir orzu qilgan *Oynayi jahon* Toshkentda qanday yaratilgan edi?..» sarlavhali maqola Umid Bekmuhammad muallifligida yozilgan. Maqolada *Oynayi jahon* perifrazasi jami 9 marta ishlatilgan. Misollar, «Chunki, xalq o‘rtasida tarqalgan ertak va afsonalardagina dunyoda bo‘layotgan jarayonlarni kuzatuvchi *oynayi jahon* to‘g‘risida gapirilar edi-da». «Negaki, odamzod azaldan o‘zi yashab turgan hududdan olisdagi o‘lkalarni ko‘rishga ishqiboz bo‘lib, asosan, savdogar, sayyohlardan ko‘rgan-kechirganlarini eshitaverib, o‘zining u yerlarga borish imkoni bo‘lmagani uchun, *oynayi jahon* degan ko‘zguni orzu qilgan». «Hatto, Alisher Navoiy hazratlari ham «Farhod va Shirin» dostonida *oynayi jahon*ni shunday tasvirlab o‘tgandi». «Buni qarangki, oradan asrlar o‘tib, Navoiy orzu qilgan *oynayi jahon* Toshkentda yaratildi…». «Jahonda ilk bor *oynayi ja-*

hon bizning zaminimizda ixtiro qilindi». *Oynayi jahon* kashf qilingan O‘zbekistonda esa 1970-yillarga kelib, butun boshli qishloqlarimizda bir-ikki nafar odamning uyida televizori bo‘lgandir, hamma qo‘ni-qo‘shnilar shularnikiga chiqib *oynayi jahon* tomosha qilishgan». «Oradan qariyb to‘rt yarim asr otib, ana shu afsona – *oynayi jahon*ni haqiqatga aylantirgan makon ham Vatanimiz poytaxti Toshkent bo‘ldi».

Perifrazalar sarlavha sifatida tanlangan. «Miletti dúnyaǵa tanıtqan *ullı jazıwshı*» («Еркин Қарақалпақстан». 2022.12.05), «*Qaraqalpaq ádebiyatınıń qos bayteregi*» («Еркин Қарақалпақстан». 2022. 14.05), «*Saxna juldızı*» (Quwatbay Abdireymov tuwralı eske túsiriwler. «Еркин Қарақалпақстан». 2022. 19.05), «Alisher Navoiyning bashorati yoki buyuk shoir orzu qilgan *Oynayi jahon* Toshkentda qanday yaratilgan edi?..» («Hurriyat». 2022.15) sarlavhali maqolalar mazmunida A.Navoiy, İ.Yusupov, T. Qayip-bergenov singari shoir-yozuvchilar hayoti, ijodi haqida so‘z yuritiladi. Matnlardagi *ullı jazıwshı*, *qos bay-teregi, saxna juldızı, oynayi jahon* perifrazalari orqali qahramonlarning o‘ziga xos ijod faoliyati ochib be-rishga erishilgan.

Sanoq sonlardan foydalanib perifrazalar yaratilgan. Masalan, «Ularning dunyoda «*sakkizinchi mo‘jiza*» degulik bu ixtirolari xalqaro miqyosda ham e’tirof etiladi va UNESKOda ularning shaxsiy fond-lari ochiladi» («Hurriyat». 2022.15.06). Bu yerda televideniyaga asos solgan İvan Filippovich Belyan-skiy va Boris Pavlovich Grabovskiylarning ixtirolari *sakkizinchi mo‘jiza* perfirazasi bilan tushuntirilgan. «Bularning bari o‘z yo‘liga, albatta. Bizni g‘ururlantiradigan – dunyoda *birinchi bo‘lib televizorni xayoliy ravishda o‘z asariga muhrlagan inson buyuk bobomiz* Alisher Navoiy edi» («Hurriyat». 2022.15.06). Alisher Navoiy birinchi bo‘lib televizorni o‘z asarlarida ishlatganligi haqidagi faktlar borligini nazarda tutgan. «2003-yili Chanchun shahrida Kamoliddin Behzod sharafiga bunyod etilgan yodgorlik Xitoyda o‘zbek madaniyati vakiliga o‘rnatilgan *birinchi haykal* bo‘ldi, 2017-yilda esa Shanxay universiteti hovli-sida buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy haykali qad rostladi» («Yangi O‘zbekiston». 2022.13.09). «O‘z navbatida, 2015-yili Shanxay xalqaro tadqiqotlar universitetida Xitoydagi *birinchi o‘zbek tili kafedrasi* ochildi» («Yangi O‘zbekiston». 2022.13.09). «So‘nggi uch yilda Xitoy O‘zbekistonning *birinchi* savdo hamkori sifatidagi mavqeyini saqlab qolmoqda» («Yangi O‘zbekiston». 2022.13.09). Bu matnlarda *birin-chi* sanoq soni orqali qandaydir bir yangilikning o‘ziga xos namunasini ko‘rsatishda takrortakror ishlatil-gan.

Shaxsni ifodolovchi perifrazalar. «Ushbu tarixiy davr zamonaviy O‘zbekiston hududida jahon ilm-fani, madaniyati, adabiyoti, umuman, tsivilizatsiya rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan juda ko‘plab olim va mutafakkirlar silsilasi paydo bo‘lishiga ko‘maklashgan. Ular orasida *dunyoga mashhur olimlar* Xoraz-miy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek va boshqalar bor» («Yangi O‘zbekiston». 2022.13.09). «İs’hoqxon to‘ra İbrat faoliyat doirasi keng shoir va olim, noshir va publitsist, pedagog va sayyoh, *milliy uyg‘onish davrining mashhur islohotchisi* sifatida butun hayotini Vatan va millat manfaat-lariga, uning istiqloliga bag‘ishladi». «Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuksak lavozimni bajarishga ki-rishgan dastlabki kunlarda Namangan viloyatiga safari chog‘ida *istiqlol fidoyilari*dan İs’hoqxon to‘ra İbrat haqida gapirib, uning muzeyni qayta tiklash va to‘ldirish, asarlarini nashr etish haqida qimmatli fikr-lar bayon qilgan edi». «Darhaqiqat, mustaqillk, istiqlol mafkurasi millat, Vatan uchun jon fido qilgan in-sonlarning umumbashariy ishlarini, o‘lmas asarlarini xalqimiz tafakkuriga, *kelajagimiz egalari* – yoshlar shuuriga singdirish orqali amalga oshiriladi». «Komil Xorazmiy, Sattorxon Abdug‘afforov, Muhiddin-xo‘ja qozi, Sharifxo‘ja qozi, Rojiy Marg‘inoniy, Furqat, Saidrasul kabi *Milliy uyg‘onish davrining dast-labki namoyandalari* – yangicha marifatparvarlik oqimining rahnomalari ushbu gazetada o‘z maqolalari, sherlari bilan faol ishtirok etgan. Shular qatorida İshoqxon İbrat ham bor edi». «*O‘zbek mutaffakkirlari* – jadidchilik harakatining M.Behbudiy, Munavvar qori, Abdulla Avloniy, İs’hoqxon İbrat, Siddiqiy Ajziy kabi sardorlari o‘z vatanini mustaqil, xalqini rivoj topgan xalqlar bilan teng ko‘rishni orzu qildi» («Yangi O‘zbekiston». 2022.24.06). «Do‘stimiz Nasriddinning *o‘lmas milliy qahramonimiz* – Nasriddin Afandi bilan adash ekanligi xarakteridagi ta’sir etgan bo‘lsa, ajab emas.

Darvoqe, o‘zaro muloqotlarimizda men uni «Afandim» deb atardim» («Hurriyat». 2022.15.06). Matnda Nasriddin Afandini *o‘lmas milliy qahramonimiz* perifrazasi bilan ta’riflagan. Shaxsni ifdolab ke-luvchi perifrazalar sifatida *dunyoga mashhur olimlar, milliy uyg‘onish davrining mashhur islohotchisi, istiqlol fidoyilari, kelajagimiz egalari, milliy uyg‘onish davrining dastlabki namoyandalari, o‘zbek muta-fakkirlari, o‘lmas milliy qahramonimiz* perifrazalari qo‘llanilgan. Jurnalistlar qahramonni, ijodkorni, sho-irni, o‘z ishining oldingi mutaxassini ta’riflashda qator perifrazalarni kontekstga mos ravishda mahorat bi-lan foydalangan.

Gazetalar tilida perifrazalar matnning emotsional-ekspressivligini oshiradi. Gazetxonni mantiqiy o‘ylashga chaqiradi, so‘zlarni takror qo‘llashning oldini olishga xizmat qiladi. Rasmiy xabarlar, maqola-

lar, reportajlar tilida ham so‘zlarning ma’no taraqqiyotini, yangi so‘zlarning ishlatilish jarayonini kuzatamiz. *Makon, bozor, turizm, platforma, milliy* so‘zlari bilan aloqadar jumlalar yangi ma’noda qo‘llanilish jarayonlari mavjud. Masalan, umumiy makoni, turizm bozori, ekstremal turizm, turizm xablari, bulutli platforma, transmilliy, milliy gvardiya, milliy qahramon, milliy uyg‘onish davri. Gazeta tili orqali adabiy tilimizga kirib kelayotgan yangi so‘zlarning soni cheksiz. Ularning asosiy ma’nosi esa gazeta tili orqali tushuntirilmoqda. Yangi leksik birliklar alohida ilmiy tadqiqot ishi sifatida o‘rganish ham oldimizda turgan dolzarb ishlarning biri. Maxsus lug‘atlarda tizimlashtirilsa, adabiy tilimiz yana ham kengayadi. İkkinchi jihati esa jamiyatimiz a’zolari, yoshlar, boshqa kasb egalari leksik birliklarning kelib chiqishi, ishlatilish jarayonlari haqida to‘liq, aniq va to‘g‘ri ma’nosi haqida ma’lumotga ega bo‘lgan bolar edi. Endi, gazetalardan olingan misollarga to‘xtab o‘tamiz. Masalan: *festival, format, fakultativ fan, forum, «BRİKS pls» muloqoti, blok, diversifikatsiya, grant-investitsiya, infeksiya, investitsiya, epidemiya, vaktsina, vik-torina, uezd, pandemiya, portal, modernizatsiya, memorandum, monitoring, model, multimodal transport yo‘lagi, konstruktiv hamkorlik, strategik sheriklik, startap, sammit, sektor, traektoriya* so‘zlari gazeta tilida faol ishlatilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, gazeta tilida tilning tasviriy vositalarining biri perifrazalar tasviriylikni ta’minlash maqsadida faol ishlatilgan. Demak, jurnalistlar, muxbirlar adabiy tilni, tilning funksional uslublarini mukammal o‘zlashtira olgan. Biz, asosan, perifrazalarning kontekstda ishlatilish jarayonlariga ko‘rpoq e’tibor qaratdik. Ularni qator mavzular doirasida o‘rgandik. Davriy matbuotdagi sarlavhalar sifatida undov gap, so‘roq gaplar tanlanganligi e’tiborga loyiq. Gazetalardagi interyu-dialog, publitsistik maqolalar va xat janrlaridagi materiallar asos etib olindi. Asosan:

– voqea-hodisalarga, yangi reformalarga xos ishlatilgan perifrazalarda jonli hayot, yangilanishlar, reformalar so‘z bo‘lgan;

– o‘rin-joy ma’nosini ifolab keluvchi perifrazalarda o‘lkamizdagi shaharlarning go‘zalligi, tarixiy manzalarga, diqqatga sazovor joylarga boy ekanligi tasvirlangan;

– jurnalist ijodida yangi perifrazalarning ishlatilishida adabiy tilning go‘zalligini, boyligi va yana da takomillashib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin;

– predmetni ifodolovchi perifrazalar maxsus ruknlarda, ya’ni, gazetaning bayram sonlariga tayyorlangan maqolalarda mavjud;

– sarlavha sifatida tanlangan perifrazalar mazmunida, asosan, adabiyot, jurnalistika va madaniyat sohalaridagi davr qahramonlarining ijodi ko‘rsatib berilgan;

– sanoq sonlardan foydalanilgan perifrazalarda statistika, tahlil va adabiy tilni uyg‘unlashtirgan uchlikni ko‘rish mumkin;

– shaxsni ifodalovchi perifrazalarda tarixiy shaxslar, bugungi kun qahramonlari va yoshlar faoliyati ochib berilgan.

Husanova Fazilat Jahongirovna (Termiz davlat Pedagogika instituti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili magistranti), Urolova Oysuluv (TerDPI, PhD)

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QARINDOSHLIK TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya*. Mazkur maqola tilshunoslikning terminologiya bo‘limi rivojlanishi hamda sohaviy terminlar ahamiyati va bu bo‘lim birliklaridan biri hisoblangan qarindoshlik terminlarining ilmiy-nazariy tadqiqi ehtiyojini hisobga olgan holda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, lug‘aviy ma‘nolari va qo‘llanilish doirasi muammolariga bag‘ishlangan. Maqolada ingliz va o‘zbek tilidagi qarindosh-urug‘chilikka oid terminlarning lingvistik xususiyatlari tadqiq qilinadi.*

Аннотация. В данной статье учтено развитие терминологического отдела языкознания и значение полевых терминов и необходимость научно-теоретического исследования терминов родства, которые рассматриваются как одна из единиц этого отдела, их специфические особенности, возникновение, словарь значения и посвящены проблемам сферы реализации. В статье рассматриваются лингвистические особенности терминов, связанных с родством, в английском и узбекском языках.

Annotation. *This article takes into account the development of the terminology department of linguistics and the importance of field terms and the need for scientific and theoretical research of kinship terms, which are considered as one of the units of this department, their specific features, emergence, dic-*

tionary meanings and dedicated to the problems of the scope of implementation. The article examines the linguistic features of the terms related to kinship in English and Uzbek languages.

***Kalit so‘zlar**: termin, terminologiya, qarindoshlik terminlari, lingvistika, lug‘aviy ma‘no.*

Ключевые слова: термин, терминология, термины родства, языкознание, словарное значение.

***Key words**: term, terminology, kinship terms, linguistics, dictionary meaning.*

Kirish. Inson hayoti davomida til qatlamlarining barchasidan foydalanadi. Ular orasida esa terminologoya bo‘limi alohida ahamiyat kasb etadi. Terminologiya bo‘limi uzoq yillardan buyon rivojlanayotgan bo‘limdir. Bu bo‘lim bo‘yicha ko‘plab o‘zbek va xorijiy olimlar tadqiqot ishlarini olib borganlar (B.N.Golovin, A.S.Gerd, N.Dmitriyev, N.Baskakov, A.A.Reformatskiy, V.Danilenko, N.Mamatov, U. Tursunov, S.Ibrohimov, A.Hojiyev, E.Begmatov, O.Usmonov, X.Doniyorov, G‘.Abdurahmonov, S.Akobirov, H.Dadaboyev, H.Jamolxonov, L.A.Kapanadze, D.S.Lotte, N.Mahmudov, N.Mahkamov, M.Abdiyev, N.Ikromova, M.Asomutdinova, T.Tursunova, T.Dadaxonova, A.Madvaliyev, I.Yo‘ldoshev, A.Sobirov, Sh.Usmanova, N.Qosimov, H.Yodgorov va boshqalar).

Termin grekcha *terminus* so‘zidan olingan bo‘lib, chek, chegara degan ma’noni bildiradi. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Chunki terminlarning lug‘aviy qatlamlaridagi o‘rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglash imkonini beradi. Terminologiyaga bag‘ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan hamda nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi.

A. Reformatskiy terminga ta’rif berar ekan, “...teminlar – bu maxsus so‘zlardir” degan xulosaga keladi. V.Kalinin esa muayyan fanlar va kasbkorlikda ishlatiladigan so‘zlarni “maxsus leksika” deb ataydi va uni ikki guruhga ajratadi. 1. Maxsus leksikaga, bi-rinchi navbatda, terminlar kiradi. 2. Maxsus leksika tarkibiga terminlardan tashqari professionalizmlar ham kiradi. U o‘z fikrini davom ettirib, “Termin bilan professionalizmlar o‘rtasidagi farq shuki, termin bu muayyan fan, sanoat sohasi, qishloq xo‘jaligi, texnikadagi tamomila rasmiy bo‘lgan, qabul qilingan va qonunlashtirilgan biror tushunchaning ifodasidir, nomidir, professionalizm esa biror kasb, ko‘pincha, jonli tilda tarqalgan, aslini olganda, tushunchaning qat`iy, ilmiy tavsifiga ega bo‘lmagan yarim rasmiy so‘zdir”, deydi.[1] V.P.Danilenkoning ta’kidlashicha, terminologiya deganda umumadabiy tilning mustaqil funksional turi, ya’ni an’anaviy fan tili nazarda tutiladi.[2] Fan tili umumadabiy tilning funksional sistemalaridan biri sifatida jonli so‘zlashuv tili va badiiy adabiyot tili tushunchalari bilan bir qatorda turadi.

Terminologiya rivojlangani sari, uning tarmoqlari, ya’ni, sohaviy terminlarni o‘rganish ahamiyati ham oshib bordi. Sohaviy terminologiyaning dolzarb mavzularidan biri qarindosh-urug‘chilikka oid terminlar sohasidir. Bu terminologik tizim haqida lingvistik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilgan ko‘plab tadqiqotlar mavjud. Qarindoshlik terminlarini tizimli o‘rganish Lyuis Genri Morganning XIX asr o‘rtalaridagi asosli ishlariga borib taqaladi.[3]U strukturaviy farqlarni butun dunyo bo‘ylab o‘rganishni amalga oshirgan. Turkiy tillarda qarindoshlik terminlari bilan bog‘liq L.A.Pokrovskaya, X.G.Yusupoz va S.A.Burnasheva tomonidan yozilgan maqollarnigina ko‘rishimiz mumkin.[4]Demak, terminlar lug‘at bo‘lib, ularning doirasi cheklangan. Qabul qiluvchi uchun muhim bo‘lgan ma’lumotni yetkazish qobiliyati bilan bir qatorda, terminlar so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi qarindoshlik munosabatlarini aks ettiradi. Jamiyatda bir nechta atamalar bir xil maqsad uchun ishlatilishi mumkin. Ammo bu terminlar jamiyatma jamiyat bir-biridan tuzilishi, kelib chiqishi, yasalish usuli, lug‘aviy tub ma’nosi jihatdan bir-biridan farq qiladi. Shu boisdan ingliz va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik terminlari chog‘ishtirib tadqiq qilish lozim deb topildi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Bu mavzu haqida gap ketar ekan, qarindoshlik o‘zi nima degan savolga javob berishimiz kerak. Longman ingliz tili lug‘atida qarindosh terminiga quyidagicha ta’rif beriladi: 1. Oilaviy munosabatlar, qarindoshlik rishtalari. 2. Odamlar o‘rtasidagi mustahkam aloqa. O‘zbek tilining izohli lug‘atida keltirilishicha esa *qarindosh* so‘zi quyidagi ma‘noni anglatadi. Qarindosh – bir ajdodga mansub bo‘lgan kishilar.

Qarindoshlik terminologiyasi shunchaki nomenklatura tizimi emas, ma’lum bir jamiyatda tan olingan qarindoshlik munosabatlari qarindoshlik terminologiyasini tashkil etuvchi qarindoshlik munosabatla-

[1] Калинин А.В. Лексика русского языка. 1971, с. 141.
[2] Даниленко В.П. Русская терминология. Опит лингвистичекого описания. М., “Наука”, 1977, с. 157.
[3] Morgan L.H. 1871. Systems of Consanguinity and Affinity in the Hum. 3 p.
[4] Мусаев К.М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986, с. 163.

rining ham tashkil etilishini, ham konseptual munosabatlarini ifodalaydi.[1] Terminologiya lingvistik jihatdan jamiyatning mahalliy qarindoshlik munosabatlari nazariyasini ifodalaydi. Qarindoshlik atamalarining semantik mazmuni va madaniy jihatdan qarindoshlik atamalari orasidagi konseptual munosabatlarni tushuntiradi. Qarindoshlik atamalari universaldir. Ularni ifodalash uchun foydalaniladigan mos yozuvlar to‘plamiga ega emas jamiyat yo‘qdir. Albatta, har bir jamiyatda tan olingan qarindoshlik munosabatlari mavjud. Qarindoshlik terminlarini tizimli o‘rganish qarindoshlik terminologiyalari asosli ishiga borib taqaladi.

Lyuis Genri Morgan (1871) XIX asr o‘rtalarida strukturaviy farqlarni butun dunyo bo‘ylab o‘rganishni amalga oshirgan. Morgan qarindoshlik munosabatlari nasl va nikoh, demak, qarindoshlik orqali belgilanadi, degan.[2] Ko‘rinib turibdiki, qarindoshlik terminlari ingliz va o‘zbek tillarida chog‘ishtirib o‘rganish muhim. Shu o‘rinda so‘zning lingvistik xususiyatlari va lingvistik tahlili izohiga to‘xtalish zarur. Lingvistik tahlil – til, nutq birliklarini uni tashkil etuvchi qismlari, mazmuni, vazifalari va boshqa xususiyatlari nuqtayi nazaridan tadqiq etish, shu nuqtayi nazardan, til birliklarining aniq holatini belgilab beradi. Lingvistik tahlilning quyidagi turlari farqlanadi: 1) leksikologik tahlil; 2) frazeologik tahlil; 3) semasiologik tahlil; 4) fonetik tahlil; 5) imloviy tahlil; 6) orfoepik tahlil; 7) morfem tahlil; 8) so‘z yasalishi tahlili; 9) morfologik tahlil; 10) sinktaktik tahlil 11) punktatsion tahlil; 12) uslubiy tahlil; 13) etimologik tahlil.[3]

Muhokama va natijalar. Tadqiqotchilar terminlarni lingvistik tahlil qilishning asosiy 3 usulini tavsiya etadilar: leksik, strukturaviy, leksikografik. Ingliz va o‘zbek tillarida qarindoshlik terminlarini quyidagicha solishtirishimiz mumkin. Misol uchun, *ona* so‘zi turkiy tillarda qon-qarindoshlik termini sifatlida bola tug‘ib, katta qilgan, tarbiyalagan, o‘z bolasi bor yoki biror shaxsning bolasini boqib, asrab olgan ayolga nisbatan berilgan va uni aniqlovchi termindir. Ingliz tilida xuddi shu ma‘noni bildiruvchi so‘z *mother* deyiladi. O‘zbek tilida *ona* so‘zining turli ko‘rinishlari mavjud: *aya, oyi, ana, ena, onajon*. Shuningdek, ingliz tilida ham *mum, mummy, mom* kabi variantlari mavjud. Yoki *ota* so‘zini misol qilib olsak, bu so‘zning *dada, ada, ata* kabi varintlari bor, ingliz tilida esa bu terminni ifodalash uchun *father, dad, daddy* so‘zlari ishlatiladi.[4]

Ingliz va o‘zbek tillaridagi qarindoshlik terminlarini quyidagicha qiyoslash mumkin

O‘zbekcha	Inglizcha
Ona	Mother
Ota	Father
O‘g‘il farzand	Son
Qiz farzand	Daughter
Opa	Elder sister
Singil	Little sister
Aka	Elder brother
Uka	Little brother
Bobo	Grandfather
Momo	Grandmother
Xola-amma	Aunt
Amaki-tog‘a	Uncle
Qiz jiyan	Niece
O‘g‘il jiyan	Nephew
Nevara	Grandchild

Qarindoshlik terminlarini morfologik jihatdan tahlil qilar ekanmiz, *ona* va *mothet* so‘zlari ot so‘z turkumiga mansub, tuzilishiga ko‘ra, sodda tub so‘zlardir. *Momo* termini ot so‘z turkumi, sodda tub so‘z, uning inglizcha ekvivalenti grandmother so‘zi ham ot so‘z turkumiga mansub, tuzilishiga ko‘ra, qo‘shma so‘z va yasama so‘zdir.

[1] Leaf M., Read D. 2012. The Conceptual Foundation of Human Society and Thought: Anthropology on a New Plane. Lexington Books, Lanham.
[2] Kinship terminology. Article by Dewight Read. 2015, p. 3.
[3] A.Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. 2002, 25-bet.
[4] И.А.Исмоилов. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. 1966, 4-жилд, 8-бет.

Xulosa. Xulosa qilganda, terminologiya masalalari lingvistikaning muhim masalalaridan biridir. Uning bir sohasi bo‘lgan qarindoshlik terminlari alohida obyekt sifatida o‘rganilmaganligi sababli tadqiqot olib borish uchun muhim mavzudir. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillaridagi qarindosh-urug‘chilik terminlarini chog‘ishtirib o‘rganish lingvistik yangiliklarga olib keladi.

Ermamatov Shohrux Tursunovich (Termiz davlat Pedagogika instituti 2-kurs magistranti),
Uralova Oysuluv (filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori)

NON, OSH, TUZ KONSEPTLI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada non, osh, tuz konseptli paremiologik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi haqida so‘z yuritilib, turli maqollar va ularning ma’nolari keltirib o‘tilgan.*

Аннотация. *В данной статье говорится о лингвокультурологическом исследовании паремиологических единиц с концептом хлеб, суп, соль, приводятся различные пословицы и их значения.*

Annotation*. This article talks about the linguistic and cultural research of paremiological units with the concept of bread, soup and salt, various proverbs and their meanings are cited.*

Kalit so‘zlar*: qadriyatlar, non, osh, tuz, paremiologik birliklar, rizq-u ro‘z, hayot, to‘kinlik, tinchlik ramzi, maqol, matallar, frazeologizmlar.*

Ключевые слова*: ценности, хлеб, суп, соль,паремиологические единицы, пропитание, жизнь, изобилие, символ мира, пословицы, поговорки, фразеология.*

Key words: *values, bread, soup, salt, paremiological units, sustenance, life, abundance, symbol of peace, proverbs, sayings, phraseology.*

O‘zbek xalqi azal-azaldan taomlarga, oziq-ovqatlarga, xususan, non, osh, tuzga ayricha munosabatda bo‘lgan. Ularni muqaddas bilgan, rizq-ro‘z, nasiba sifatida e’zozlagan, qadrlagan, ulug‘lagan va farzandlarini ham shu ruhda tarbiyalagan. Natijada tilga olingan ne’matlar, yeguliklar borasida xalqona betakror qadriyatlar shakllanib, xalq og‘zaki ijodida non, osh va tuz uzvli maqol va matallar, frazeologizmlar yuzaga kelgan hamda yillar davomida bu birliklar shaklan va mazmunan sayqallanib, boyib va mukammallashib borgan, bizgacha yetib kelgan.

Non, osh, tuz tushunchalari barcha xalqlarda birday aziz, mukarram, ulug‘. Deyarli ko‘pgina xalqlarda, jumladan, o‘zbek xalqida uyga mehmon kelsa, dasturxonga birinchi bo‘lib non qo‘yadilar. Diplomatik, hamkorlik aloqalar munosabati bilan tashrif buyurgan mehmonlarga ham non, tuz bilan peshvoz chiqadilar. O‘zbek xalqida osh taomlarning shohi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki palov ham o‘zbek mehmondo‘stligining ramzi hisoblanadi, shuning uchun ham o‘zbek xonadoniga mehmon kelsa, palov damlaydilar, o‘zbekning to‘yidan tortib, hatto azali kunlarida ham dasturxon ko‘rki bo‘lgan palov damlanadi.

O‘zbek tilida va bir qator boshqa xalqlarda non konsepti eng qadimiy, eng ulug‘, eng noyob, eng tanqis, eng muqaddas ne’matni va u bilan bog‘liq tushunchalar, qadriyatlar majmuyini ifodalashi bilan alohidalik kasb etadi. Non konsepti zamirida o‘zbek xalqiga xos mehmondo‘stlik, mehnatkashlik, tantilik, o‘ziga xoslik, soddalik kabi odamiylik xislatlari, o‘zbekona urf-odatlar, an’analar bilan bog‘liq qadriyatlar sirasi jamlanganki, bu, o‘z navbatida, bir qator lingvomadaniy xususiyatlarga ham ega.

Non so‘zi Vatan kabi muqaddas, ona singari aziz, ulug‘, eng yuksak tushunchadir. Tandiri bor kulba bu – eng kichik Vatan! Inson Ona, Vatan kabi yuksak tushunchalarni qanchalik g‘urur, iftixor bilan takrorlasa, non so‘zini tilga olganida ham ana shunday yuksak tuyg‘ularni his etadi, chunki endigina atak-chechak qilib tili chiqayotgan jajji bolajon, dastlab, “ba-ba-aba (ona)” deb o‘zini dunyoga keltirgan zotni taniy boshlasa, “na-na-nanna” deb ilk ozuqa, tirikchilik manbayi, rizq-u ro‘zi bo‘lgan muqaddas ne’matni taniydi va undan oziqlana boshlaydi. Demak, ona qanchalik muqaddas, ulug‘ bo‘lsa, non ham ana shunday aziz va mukarramdir.

Non bu rizq-u ro‘zimiz, non bu bizni balo-qazolardan asraydigan, har qanday kunimizga yaraydigan eng arzon va eng buyuk ne’mat. U – qismat, u – taqdir, unda bor mehr, u – hayot! Nonni muqaddas bilish, uni asrash azal-azaldan ota-bobolarmizdan bizgacha yetib kelayotgan odatdir. Odatgina emas, qadimiy, merosiy, an’anaviy va bardavom qadriyatdir.

Nonga bo‘lgan hurmat, ehtirom hissi va uni e’zozlash bilan bog‘liq o‘zbekona milliy an’analarning ildizlari qadimiy davrlardan beri avloddan avlodga, asrlardan asrlarga o‘tib kelmoqda.

Non jahondagi ko‘p xalqlar qatori, o‘zbek xalqiga xos bir qator qadriyatlar bilan bog‘liq milliy an’analar ramziga ham aylangan: non – mehmondo‘stlik, hurmat, rizq-u ro‘z, hayot, to‘kinlik, tinchlik ramzi.

Nonni aziz-u mo‘tabarligi, uning muqaddasligi, nonning uvog‘i ham non ekanligi bolaning yoshligidan ongiga singdirilgan. Bularning barchasi tilda bir qator non uzvli frazeologizm va paremiyalarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan.

Sharq xalqlarida non, osh, tuz konseptlarining muqaddasligi, ulug‘ligi, ushbu konseptlarning xalq hayotidagi o‘rni juda ham yuksakligi tilimizda bir qator non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar va paremalarning vujudga kelishida muhim omil bo‘lgan.

O‘zbek tilshunosligida maqol, matallar va frazeologizmlar yuzasidan juda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, maqollar haqida Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlarning “Ma’nolar mahzani”, To‘ra Mirzayev va boshqalarning “O‘zbek xalq maqollari”, Sh.Shomaqsudov va Sh.Shorahmedovlar tomonidan tuzilgan “Nega shunday deymiz?” deb nomlangan o‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati, M.Afzalov va boshqalar tomonidan tuzilgan “O‘zbek xalq maqollari” hamda frazeologizmlar yuzasidan Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, M.Sodiqovaning “Ruscha-o‘zbekcha frazeologik lug‘at”, M.Abdurahimovning “O‘zbekcha-ruscha aforizmlar lug‘ati”, O‘zbek tilining izohli lug‘ati” jildlarida non, osh, tuz uzvli frazeologizm kabilar o‘rin olgan. Lekin non, osh, tuz uzvli frazeologizm va paremiyalar yuzasidan ularni alohida to‘plab ish qilinmagan va non, osh, tuz uzvli frazeologizm va non, osh, tuz uzvli paremalarni til tomondan tadqiq etilmagan. Non, osh, tuz konseptlari milliyligimiz, madaniyati-miz belgisidir. Non, osh va tuz konseptlari o‘zaro taomligi, oziq-ovqat ekanligi, rizq-nasiba, tirikchilik ma’nolari bilan birlashadi. Ushbu tushunchalar eng ulug‘, eng aziz ne’mat sifatida xalqimizning qon-qoniga singib ketganki, hatto mana shu konseptlar zamirida tilak bildirish (osh bo‘lsin!), duo (noni ko‘paysin, noni butun bo‘lsin, bitta noni ikkita bo‘lsin), qarg‘ish (non ko‘r qilsin, non ursin, bergan tuziga rozi bo‘lmaslik, tuzim ko‘r qilgur) ma’nolari ham shakllangan.

Non–boylik. Foydasi shuki, bolam, bozordan non sotib olmayman. Kunda ikkita non o‘zimga qolsa, shu katta davlat…(Oybek. Qutlug‘ qon, 311-bet).

Non, osh, tuz konseptlari hayotimizning asosini, negizini, mag‘zini, yadrosini tashkil etadi. Shunga ko‘ra, ushbu konseptlar asosida bir necha xil frazeologizmlar shakllangan. Non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar ovqat, rizq, duo, qarg‘ish ma’nosini bildirishiga ko‘ra ham bir umumiy maydonda birlashadi:

Oziq-ovqat ma’nosida: Tuz bermoq, tuzini yemoq (ichmoq), tuz totmaslik, tuzini ichib, tuzlug‘iga tupurmoq.

Rizq-u ro‘z: Noni butun, noni yarimta, nonini tuya qilmoq, bitta noni ikkita bo‘lmoq, non topmoq, non yemoq, sheriklik osh, tuz tortgan ekan.

Duo-tilak: “*Osh berganga yosh bersin”, “Qozon to‘la osh bersin”, “Noni ko‘paysin”, “Noni butun bo‘lsin”, “Bitta noni ikkita bo‘lsin”, “Osh bo‘lsin”.*

Qarg‘ish: *“Nonko‘r qilsin, non ursin”, “Bergan tuzimga rozi emasman”, “Tuzim ko‘r qilgur”.*

Non, osh, tuz uzvli frazeologizmlar ovqat, rizq, duo, qarg‘ish ma’nosini bildirishiga ko‘ra bir umumiy maydonda birlashadi.

Non uzvli frazeologizmlarning har biri o‘ziga xos ma’no-mundarijasiga ega. *“Nonini tuya qilmoq”* – mazkur ibora “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va boshqa lug‘atlarda qayd etilgan bo‘lib, “bo‘sh-bayovligidan foydalanib, birovga tegishli haqning ma’lum qismini olmoq, o‘zlashtirmoq, aldab-suldab haqini o‘zlashtirmoq” ma’nolarini bildirib, salbiy baho (uslubiy bo‘yoq) semasi bilan qoplangan, birikmaga teng, fe’l frazema. “Bo‘shanglik qilsam, nonimni tuya qilib berishlari aniq”, o‘yladi Yo‘lchi (Oybek. Tanlangan asarlar).[1]

“Noni butun”– (ot+sifat) ushbu ibora “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” va “O‘zbek tilining frazeologik lug‘at”ida qayd etilgan bo‘lib, “tirikchilik, yashash uchun zarur narsalari but, muhayyo, hech narsadan kamchiligi yo‘q, bekam-u ko‘st, to‘kis” ma’nolarini bildirish bilan birga, ijobiy baho (uslubiy bo‘yoq) ham ifodalangan, birikmaga teng, sifat frazema. Sartarosh u dunyo, bu dunyo xor bo‘lmaydi. Hamma vaqt noni butun (dedi kampir Shodiga).[2]

“*Bitta noni ikkita bo‘ldi”* – mazkur ibora lug‘atlarda qayd etilmagan, “tinmay mehnat qilishi natijasida tirikchiligi yaxshilanmoq, ro‘zg‘ori but bo‘lmoq” ma’nolari ijobiy baho (uslubiy bo‘yoq) semasi bilan qoplangan, gapga teng, fe’l frazema. Nima, Qobilov kelib, nonimiz yarimta bo‘lib qoldimi, aksincha, qo‘lni-qo‘lga berib ishlasangiz, bitta noningiz ikkita bo‘ladi (С.Маҳкамов. Шогирд).

“Non yemas” – mazkur ibora lug‘atlarda qatd etilmagan, badiiy asarlarda uchraydi. Xalqimizda “pishiq, ziqna, ortiqcha sarf-xarajatga toqati yo‘q inson”ga nisbatan mana shunday ibora qo‘llanadi. Fra-

[1] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тошкент, Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2008, 3-ж, 57-бет.
[2] Э.Раимов, Ажаб қишлоқ.

zemaning ifoda plani birikmaga teng, pishiq, ziqna ma'nolari bilan birga salbiy baho (uslubiy bo'yoq) ham ifodalangan, sifat frazema. Avvalgi rahbarlar bilan oramiz yaxshi edi. Bunisi yangi odam, o'lgudek non yemas ko'rinadi. O'sha kuniyam So'poq damlab qo'ygan oshga turmay ketdi-qoldi.[1]

"Non bermas" iborasi ham lug'atlarda qayd etilmagan, belgi bildiradi. Ziqna, haddan ortiq pishiq insonga nisbatan aytiladi. Birikmaga teng, ziqna, "haddan tashqari pishiq" ma'nosi bilan birga salbiy baho semasi bilan ifodalangan, sifat frazema.

"Tuzini oqlamoq" (yoki halollamoq) frazemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da qayd etilgan. "Kim kimning sarf-mehnat zoe ketmaganini o'z faoliyati bilan isbot qilmoq". "Kimsaning bergan osh-tuzi, boqqani, parvarish qilgani zoe ketmaganini isbot qilmoq, yaxshilikka yaxshilik qaytarmoq" degan ma'noni bildiradi. Bergan tuzimni halollamasang, bugun kecha enangdi o'zim olib yotaman.[2]

Har qanday xalq hayotdagi voqea-hodisalarni, jarayonlarni obrazli ta'sirchan ifodalashga harakat qiladi va bunda ko'proq o'zi yaxshi bilgan, tasavvur qiladigan narsa-buyumlarni ifodalovchi lug'aviy birliklardan va lisoniy ramzlardan keng foydalanadi. Buning dalilini o'zbek tili frazeologiyasida alohida leksik-semantik guruhni tashkil etuvchi non uzvli frazeologizmlarda ham ko'rish mumkin.

O'zbek xalqi non uzvli frazeologizmlarda ezgu niyatlarga yo'g'rilgan olqish, duolarini va razil, jirkanch, ikkiyuzlamachi kimsalarga nisbatan qarg'ishlarini ifodalagan.

Non uzvli frazeologizmlarning ma'no doirasi juda keng bo'lib, bu ma'nolar non lug'aviy birligining eng aziz ne'mat, eng tansiq yegulik, mehmondo'stlik, hurmat, to'kinlik, tinchlik, rizq-u ro'z, boylik, mehnat mahsuli, hayot bardavomligi kabi semalari asosida shakllangan.

Non uzvli paremalar mazmun mohiyatiga ko'ra, kishilarni, xususan, yoshlarni mehnatsevarlik, hallollik, kamtarlik, insoniylik kabi ijobiy xislatlarga chorlovchi milliy qadriyatlarning lisoniy ifodasidir.

Non uzvli paremalar boshqa o'zbek maqol matallari kabi sa'j, tazod, o'xsahtish, sifatlash va ellips kabi badiiy-tasviriy vositalar bilan sayqallangan.

Non uzvli paremalar o'zbek xalqining ulug', aziz, mo'tabar, muqaddas ne'matga xos qarashlari, urf-odatlari, an'analarining lisoniy va madaniy ifodasi sifatida milliy konseptlar sirasiga mansub lingvokulturologik birliklardir.

Xulosa qilib aytganda, non, osh, tuz boshqa xalqlar kabi o'zbek xalqining qadimiy, azaliy va bardavom yashovchan kundalik, milliy qadriyatlari bilan bog'liqligi bois ular asosida shakllangan barqaror lisoniy birliklar mazmunan hamda mohiyatan umumiylik kasb etadi. Bizningcha, non, osh, tuz xalqning yashash tarziga xos milliy qadriyatlarini ifodalovchi lingvomadaniy triadadir.

Ibragimova Muxlisa Kabulovna (Urganch davlat universiteti 2-bosqich magistranti)

"DEVONU LUG'ATIT TURK" VA UNING XORAZM SHEVALARIGA MUNOSABATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada "Devonu lug'ati turk" asari va uning tilshunoslikda tutgan o'rni, hozirgi shevashunoslik bilan bog'liq jihatlari, qadimgi turkiy xalqlar tili va hozirgi kunda tilimizda faol qo'llanilishi haqida so'z boradi.*

Аннотация. *В данной статье говорится о произведении «Девону лугатит турк» и его месте в языкознании, его аспектах связанных с современной диалектологией, языком древних тюркских народов и его активном использовании в нашем языке в настоящее время.*

Annotation. *This article is about the work "Devonu lug'atit turk" and its place in linguistics, its aspects related to modern dialectology, the language of the ancient Turkic and its active use in our language at the present time.*

Kalit so'zlar: *"Devonu lug'ati turk", sheva, o'g'uz sheva vakillari, fonetik tarkib.*

Ключевые слова: *Девону лугатит турк, диалект, представители огузского диалекта, фонетический состав.*

Key words: *Devonu Lugatit Turk, dialect, representatives of the oguz dialect, a phonetic structure.*

"Devonu lug'atit turk" asari eski turkiy tilning, turkiy lug'atchilikning tengi yo'q yodgorligidir. O'z zamonida asar arablarga, qolaversa, arab tili orqali Sharq-u G'arb xalqlariga qadimgi turklarning tili, madaniyati, tarixi to'g'risida to'liq ma'lumot beuvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan.[3]Ushbu asar bilan olim turkiy leksikografiya ilmining tamal toshini qo'yish bilan birga, bu sohani yuqori bosqichga olib

[1] Ў.Ҳошимов. Икки эшик ораси. 236-бет.
[2] N.Eshonqul. Urush odamlari. 6-bet.
[3] Qosimjon Sodiqov. Devonu lug'atit turk. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. T., 2017, 3-bet.

chiqdi. Qolaversa, Mahmud Koshg‘ariy turkiy tilshunoslik rivojigagina emas, Sharq tilshunosligi, xususan, jahon lug‘atshunosligiga ham katta hissa qo‘shgan olimdir.

“Devon” XI asrda O‘rta Osiyoda mavjud bo‘lgan turkiy qabilalar va ularning til xususiyatlarini o‘rganishda va hozirgi ayrim turkiy xalqlarning shakllanishi va taraqqiyotini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. “Devon” XI asrdagi hamda undan oldingi va so‘nggi davrdagi yozma yodgorliklarni tushunish va o‘rganish uchun qimmatli bir qo‘llanma bo‘lib qoladi.

Olim o‘z asari haqida shunday deydi: “Oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma’lum bo‘lmagan alohida bir tartibda tuzilgan asar…men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlari, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik faktlarni ham aniqlash uchun qildim”.[1] Mahmud Koshg‘ariy haqida berilgan ushbu ma’lumotlar juda qisqacha bo‘lsa ham, uning tarjimayi holini tiklashda juda qimmatli hujjat hisoblanadi. Olim hayoti haqida ma’lumotlar deyarli uchramaydi. Shu asarda olim til nuqtayi nazaridan qiyosiy qoidalarni bergan. Foydalanuvchiga tushunarli bo‘lishi uchun sodda tartibda tuzilgan. Bu asarda VIII–XI asrlar adabiy tili, adabiyoti keng yoritilgan, qabilalar tillarida ishlatilgan so‘zlar maqollar, to‘rtliklar bilan izohlangan, shuning uchun ham nafaqat tilshunoslikda, balki adabiyotshunoslik va xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganishda ham muhim manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda.

“Devonu lug‘atit turk” asari o‘zbek tili tarixi, uning dialektlarini o‘rganishda ham katta ahamiyatga ega, chunki bu kitob bilan o‘zbek tilining shevalarini monografik tarzda qiyosiy o‘rganish, tadqiq etish o‘zbek tili va uning shevalarinigina emas, balki barcha turkiy tillardagi ko‘pgina mavhum masalalarni oydinlashtirishga imkon beradi.[2]

Xurshid Davron o‘z asarlarida shunday deydi: “Turkiylarning tarixdagi o‘rni haqida gap ketsa, aynan “Devonul lug‘ati turk” asari tilga olinadi”.[3]

Xorazm hududida tarqalgan o‘zbek shevalari leksikasining asosiy qismini, hech shubhasiz, umumturkiy so‘zlar qatlami tashkil qiladi.[4]

Ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlarida shevalarning qadimgi turkiy yozma yodgorliklar tiliga munosabati haqida gap ketgudek bo‘lsa, birinchi navbatda Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati turk”asari muhokama qilinadi.

“Devon”dagi ayrim so‘zlar Xorazm o‘g‘uz lahjasida hozirda ham bir nechta fonetik va morfologik o‘zgarishlarini hisobga olmasa, asosan, mos kelishini ko‘ramiz. Masalan, “Devon”dagi *yashil, ellik, yetti, yana, yurak, yupqa, yolg‘on, yulduz, yostiq, tup, kech, kuch, sut, suv, tish, tush, bel, til, qo‘l, bosh, qosh, tog‘, sovchi, qon, tayoq, bo‘yin bo‘ri, kengash* kabi bir qator so‘zlar hozirgi o‘zbek tilidagidek, Xorazm o‘g‘uz va qipchoq lahjasi shevasi nutqida aktiv ishlatiladigan so‘zlar sirasiga kiradi.

Xorazm o‘g‘uz shevasidagi lingvistik faktlarni “Devon” bilan qiyosiy o‘rganish natijasida, o‘g‘uz shevalari vakillari tilida turkiy yozma yodgorliklarga doir so‘zlar hozirgacha iste’moldaligini ko‘rishimiz mumkin.

“Devon”dagi ko‘pgina so‘zlar shevalarda bir oz fonetik o‘zgarishga uchragan holda ishlatiladi: ögrändì (o‘rgandi – 1, 253), yalŋus (3, 394 – yolg‘iz), tüŋlük (3, 394 – tuynuk), köŋläk (3,394 – kuylak), yïĝač (3, 34 – yog‘och), yaĝmur (3,47 – yomg‘ir), qaĝun (3,323 – qovun), yapurĝaq (3,58 – yaproq) kabi.[5]

“Devon”dagi ba’zi so‘zlar Xorazm o‘g‘uz sheva vakillari o‘zbek shevalari leksikasida o‘sha paytdagi ma’nosini, asosan, saqlab kelmoqda. Masalan, *jgìm* (3,14) so‘zi “Devon”da har narsaning yoshi, yosh payti ma’nosida berilgan. Ammo o‘zbek tilida bu so‘zning faqat odam bolasiga nisbatan ishlatiladigan formasi saqlangan, xolos. Bu so‘zning avvalgi ma’nosi ustiga botirlik, kuchga to‘lganlik kabi ma’no ottenkalari ham qo‘shilgan.[6] Xorazm viloyati o‘g‘uz va qipchoq sheva vakillari tilida esa xuddi “Devon”dagi ma’nosi saqlangan: qavïn häli yigit äkän (Olt.) – qovun hali pishmagan, yetilmagan ekan. Bu so‘z faqat qovunga nisbatan emas, balki boshqa narsalarga ham ishlatiladi.

---

[1] “Devonu lug‘atit turk. I t., 9-bet.

[2] M.Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. I tom, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi nashriyoti, T., 1960, 5-bet.

[3] www.kh-davron.uz

[4] Madrahimov O. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi leksikasi. Toshkent, “Fan”, 1973, 20-bet.

[5] Qavs ichida “Devon”ning jildi va sahifasi ko‘rsatilgan.

[6] Yo‘ldoshev R. Toshhovuz gruppa o‘zbek shevalaridagi qadim turkiy so‘zlar. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali .1985, 56-bet.

“Devon”dagi so‘zlarning ayrimlari ma’nolarida sal o‘zgarish sodir bo‘lganligini kuzatish mumkin. Chunonchi, yek (3,179) so‘zi, aslida, shayton ma’nosini anglatadi. Shevalarda ushbu so‘zning yomon, ko‘pchilik yoqtirmaydigan, aldamchi ma’nolari mavjud: yek körinji – hamma yomon ko‘radigan.

“Devon”da uchraydigan so‘zlar shevalarda bugungi kunda ham ko‘p foydalaniladi. Bular quyidagilar:

jïgach (3,34) (DLT) og‘och (o‘g‘uz shevasida) yog‘och (adabiy tilda);
jïлan (3,36) (DLT) yilon (o‘g‘uz shevasida) ilon (adabiy tilda);
jüzük (3,26) (DLT) yuzik (o‘g‘uz shevasida) uzuk (adabiy tilda);
jïp (2,338) (DLT) yip (o‘g‘uz shevasida) ip (adabiy tilda);
jalïn (3,29) (DLT) yolin (o‘g‘uz shevasida) olov uchquni (adabiy tilda);
jïmirtga (3,363) (DLT) yimirta (o‘g‘uz shevasida) tuxum (adabiy tilda);
bal (3,172) (DLT) bol (o‘g‘uz shevasida) asal (adabiy tilda).

“Devon”da keltirilgan “ini” so‘zini ma’nosi – ini, kichik birodar, uka. Hozirda esa bu ma’nosi ancha taraqqiy etgan kichik ukani ham yoki katta akani ham “ini, inim” deymiz. Bu ko‘proq o‘g‘il bolalarga nisbatan ishlatiladi.

Ögä – tajribali, aqlli, ko‘p yashagan odam. Qadimda urushga katta tajribali og‘alarni yuborishgan. Bugungi kunda o‘g‘uz sheva vakillarida esa og‘a ma’nosi qarindoshlikni bildiradi, ya’ni og‘a (adabiy tilda “aka”) katta o‘g‘il ma’nosida.

Ko‘nni – ko‘ndi, iqror bo‘ldi. Hozirgi ma’nosi bir xil, bizor talaffuzda farq qiladi. Biror ishga rozi bo‘ldi ma’nolarida ham ishlatiladi.

Tapchan (3,395) so‘zi, aslida dasturxon kattaligidagi uch oyoqli narsa ma’nosida berilgan. Bog‘bon uning ustiga chiqib, ishkom – so‘ridagi uzumni oladi, uzadi. Shevalarda endilikda avvalgidek maxsus qurilma, emas, balki odamlar o‘tiradigan, hordiq chiqaradigan, taxtadan yasalgan katta ko‘chma supa ma’nosiga ega.

Yazïlïštï (3,114) so‘zi Xorazm viloyati o‘g‘uz va qipchoq shevalarida faol ishlatiladigan so‘zlardan biri hisoblanadi. “Devon”da sü yazìlìštì –askar har tarafga tarqaldi ma’nosida berilgan. Shuningdek, u yoki bu narsa yoyilsa ham, ushbu so‘z ishlatiladi. Siyohning qog‘ozga yoyilib ketishi ma’nosi bunga misol bo‘la oladi. Shevalarda esa bu so‘z davrada bemalol o‘tirib, yaxshilab hordiq chiqarish, chaqchaqlashish, otamlashish ma’nolarini beradi.

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, “Devon”da keltirilgan fikrlar va chiqarilgan xulosalarning aksariyati barcha turkiy tillarga hamda ularning shevalariga oiddir. Turkiy tillar uchun umumiy bo‘lgan bunday xulosalar chiqarish uchun, albatta, bu tillarni qiyosiy o‘rganish zarur edi. Boshqacharoq tarzda bo‘lsa ham, bundan to‘qqiz asr ilgari Mahmud Koshg‘ariyning turkiy tillarini qiyosiy o‘rganish borasida olib borgan ishi hozirgi kunda ham shevashunoslarimiz uchun eng asosiy qo‘llanmalardan biridir. “Devon”da uchraydigan so‘zlar shevalarda bugungi kunda ham ko‘p foydalaniladi.

Sheva adabiy til shakillanishida jonli til sifatida alohida ishtirok etib keladi, tilni yanada boyishiga xizmat qiladi. Nafaqat o‘g‘uz sheva vakillari tilida, balki boshqa sheva vakillari tilida ham uchratishimiz mumkin. Umuman olganda, shevalar bir-biriga bog‘liq,tilning rivojiga, boyishiga xizmat qilib kelgan necha yuz yillardan buyon, bundan keyin ham shevalar alohida tilda o‘z faolligini yo‘qotmaydi.

Begmatova Sohiba Mustafoyevna (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti Ingliz tili integrallashgan kursi 1-kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi; sokhibabegmatova@gmail.com)

KADZUO ISIGURONING “MENI QO‘YIB YUBORMA” DISTOPIK ROMANIDA EVFEMIZMLAR VA ULARNING ASAR MOHIYATINI OCHISHDAGI ROLI

Annotatsiya. *Maqolada ingliz adibi Kadzuo Isiguroning “Meni qo‘yib yuborma” distopik asarida qo‘llanilgan evfemizmlar haqida so‘z boradi. Adibning evfemizmlardan mohirona foydalangani va ular asar mohiyatini kitobxonga yetkazishda o‘lkan vazifa bajargani misollar bilan dalillangan.*

Аннотация. *В статье говорится об эвфемизмах, использованных в дистопическом произведении «Не отпускай меня» английского писателя Кадзуо Исигуро. На примерах доказывается, что писатель умело использовал эвфемизмы и что они сыграли большую роль в донесении до читателя сути произведения.*

Annotation. *The article deals with the euphemisms used in the dystopian work “Never Let Me Go” by the English writer Kazuo Ishiguro. The examples prove the writer skillfully used euphemisms and that they played a crucial role in conveying the essence of the work to the reader.*

Kalit so‘zlar: *evfemizmlar, o‘lim, xotira, ilmiy atamalar, mutaxassis lug‘ati.*
Ключевые слова: *эвфемизмы, смерть, память, научные термины, специальная лексика.*
Key words: *euphemisms, death, memory, scientific terms, specific vocabulary.*

Kirish. Yozuvchi o‘z asari shakllanib, adog‘iga yetgunga qadar o‘z qahramonlari tili bilan yashaydi va ularning o‘y-xayollarini kitobxonga yetkazish uchun kerakli o‘rinda qo‘llanguvchi, mazmun-mohiyat bag‘ishlovchi so‘zlar qidiradi. Biz tadqiqotimiz davomida Kadzuo Isiguro distopik asarlarida, jumladan, “Meni qo‘yib yuborma” romanida ana shunday ma’no aks etuvchi so‘zlar, ya’ni, evfemizmlarga murojaat va ularni mahorat bilan qo‘llanilishini ko‘p marotaba guvohi bo‘ldik. Tadqiqotimizda adibning distopik asarlarida evfemizmlarning qo‘llanilishi va ularning asar jozibadorligini ta’minlashidagi vazifasi haqida so‘z yuritiladi.

Evfemik nutq tafakkurning, inson aql-zakovatining oliy formasi, “qaymog‘i”, voqelikning pardozlangan, “parda ichiga olingan”, beozorlashtirilgan, yumshatilgan obrazli ifodasidir. Ilmda “Evfemik ma’no anglashilgan so‘zlar va iboralar adabiyotning qadim daholari, jumladan, Demokrit, Arastu va Aflotun davrida ham qiziqish uyg‘otgan”,[1] degan muhim qarash bor. Lekin rus olimasi N.Potapova: “Evfemizmlar, dastlab, XII–XV asrlarda ingliz tilida paydo bo‘ldi, so‘ngra fransuz madaniyatiga ko‘chdi. Bu hodisalar, o‘z navbatida, fransuz tilida ham aks sado berdi”,[2] degan ilmiy qarashni ilgari su-radi. So‘zlarga qo‘shimcha ohang berish, ularni sayqallash o‘quvchiga asar obrazlarini talqin qilishda va ularning ruhiyatini kashf qilishda yordam beradi. Zero, adabiyotshunos olim Bahodir Karim ta’kidlaganidek, “Badiiy ijodda topilgan va o‘rnida ishlatilgan bitta noyob so‘zning quvvati ham yozuvchi mahoratidan darak beradi”.[3] Shu o‘rinda, ulug‘ adib, o‘zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriy asarlarida evfemizmlar nihoyatda keng va o‘rinli qo‘llanilganligini ham ta’kidlab o‘tish darkor deb hisoblaymiz.

Tahlil va muhokama. Evfemizm atamasi grek tilidan olingan bo‘lib, ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, noo‘rin birlikning o‘rinli birlikka almashinuvi sifatida qaraladi.[4] Shuning uchun evfemizm hodisasini o‘rgana turib, albatta, uning kelib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-madaniy muhitni inobatga olish kerak.[5] Virdjiniya Yeng o‘zining “Kadzuo Isiguroning “Meni qo‘yib yuborma” romanidagi o‘lim va xotira” ilmiy maqolasida adibning asardagi evfemizmlarni qo‘llash madaniyatiga quyidagicha izoh beradi: “Kadzuo Isiguroning ushbu romanida evfemizmlar ikkita yirik vazifani bajaradi: ular, avvalo, klonlash korxonasini niqoblash, shuningdek, o‘lim bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalasa va shu bilan birgalikda insonlarning o‘lim va unga bog‘liq tushunchalar haqida so‘zlash tarzini aks ettirib, asarda ana shunday g‘oyalarni ifodalash uchun ijobiy, jarangli so‘zlar qo‘llanilgan”.[6] *Donation*, ya’ni, *xayriya* so‘zi hayotiy muhim organlarning majburiy ko‘chirib o‘tkazishni anglatadi va klonlar uchinchi yoki ba’zi hollarda to‘rtinchi *xayriya* jarayonidan so‘ng vafot etishadi. Asarda *vafot etish* degan jumlani uchratmaymiz, buning o‘rniga *complete,* ya’ni, *tugamoq, tugallanmoq* so‘zlari ishlatilgan Bunday evfemizmlar o‘lim tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq, chunki asardagi klonlash insonning o‘limini nazorat qilish istagidan kelib chiqqan fandir.

Tilning taraqqiyoti natijasida evfemizmlarning yangi shakllari, aytilishi me’yor bo‘lib kelgan ko‘pgina so‘z va iboralar o‘rnida unga nisbatan yanada qulay, so‘zlovchi va tinglovchi uchun yoqimliroq bo‘lgan ifodalar paydo bo‘laveradi. Hassos va shuning barobarida so‘zga “xasis” adib esa turli mazmundagi tushunchalarni ifodalash uchun bir so‘zning o‘zinigina evfemizm sifatida qo‘llaydi, ajablanarlisi shuki, u kishini zeriktirish o‘rniga jalb qiladi, tortadi. Narsa yoki voqelikni kuzatib, muhim belgi-xususiyatlarini ajratadi, umumlashtiradi, makoniy-zamoniy bog‘lanishlarni aniqlaydi va turli xil tusga soladi. [7] Kadzuo

[1] Античная теория языкознания и стиля. Под. ред. О.М.Фрейденберга. СПБ, “Питер”, 1996.
[2]Потапова Н.М. Краткий обзор некоторых исследований эвфемизмов. Язык, сознание, коммуникация. №34. М., 2007, с. 28.
[3] Карим Б. Сўз сўйлашда ва улардан жумла тузишда узоқ андиша керак». Абдулла Қодирийнинг ўзбек тилига доир қарашлари. https://daryo.uz/k/2021/04/10/soz-soylashda-va-ulardan-jumla-tuzishda-uzoq-andisha-kerak-abdulla-qodiriyning-ozbek-tiliga-doir-qarashlari/Мурожаат этилган сана 17.08.2022.
[4] Кадирова Х.Б. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати (ном.дисс.). Т., 2011, 27-бет.
[5] Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи. Русский язык конца столетия. Москва, ЭКСМО, 1996, 432 с.
[6] Yeung V. Mortality and Memory in Kazuo Ishiguro’s Never Let Me Go .Transnational Literature Vol.9 no. 2, May 2017, p. 2 http://fhrc.flinders.edu.au/transnational/home.html)
[7]Kadirova X.B. Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati (Nom.diss.). Toshkent, 2011, 91-bet.

Isiguroning “Meni qo‘yib yuborma” romaning dastlabki satrlari o‘quvchiga unchalik ham tushunarli bo‘lmagan xotiralar bilan boshlanadi. Bunda adib, tabiiyki, asar qahramoni va hikoyachisi Keti X.ning hikoyasida bir qancha evfemizmlarni o‘z o‘rnida mahorat bilan qo‘llagan: *“My name is Kathy H. Im thirty-one years old, and Ive been a* ***carer*** *now for eleven years.That sounds long enough, I know, but actually they want me to go on for another eight months, until the end of this year”.*[1] Bu yerda bizni e’tiborimizni tortgan birgina *Carer* so‘zi bo‘ldi. Ingliz tilining izohli lo‘g‘atlarida *Carer* so‘ziga *g‘amhur*, *vasiy, qarab turuvchi* va *enaga* ma’nolari anglashilgan izohlar berilgan. Taabiyki, kitobxon asarning mutolaasi davomida guvoh bo‘ladiki, asarning boshida keltirilgan *Carer* so‘zi o‘z o‘rnida emas, balki evfemik ma’no kasb etgan. Keti X.ning vazifasi o‘sha o‘n bir yil davomida o‘z tana a’zolarini bosqichma-bosqich boshqa tirik insonlarga berayotgan klonlarga ruhiy madad berish, klonlarni keyingi bosqich donorlik operatsiyalariga tayyorlash va oradagi vaqt masofasini ular bilan birga o‘tkazish edi. Asarda keltirilgan yana bir evfemizmga to‘xtalib o‘tishni lozim deb topdik, qaysiki, *complete* so‘zi. “Meni qo‘yib yuborma” asarida ushu so‘z evfemik ma’no kasb etgan bo‘lib, u *tugash, tugallanish, tugatish, yakunlash* yoki *nihoyasiga yetkazish* ma’nolarini kasb etmaydi. Balki *complete* so‘zi asarda *vafot etmoq, o‘lmoq* ma’nolarini aks ettirib, u roman qahramonlarining o‘limiga ishora tarzida keladi. Asardagi ushbu parchani ko‘zdan kechiramiz: “…*They might start off positively enough, but then comes all that time spent so close to the pain and the worry. And sooner or later a donor doesnt make it, even though, say, its only the second donation and no one anticipated* ***complications****. When a donor* ***completes*** *like that, out of the blue, it doesnt make much difference what the nurses say to you afterwards, and neither does that letter saying how theyre sure you did all you could and to keep up the good work…*”.[2]

“Evfemizmlar tushunchaning salbiy mohiyatini, xossasini to‘la yashira olmaydi–xotiradan bartaraf qilolmaydi”,[3]deydi adabiyotshunos olim. Rus adabiyotshunosi V.Vinogradov ta’kidlaganidek, “Ba’zan bunday turdagi sirli noaniqlik oxirigacha oshkor etilmaydi. Bu ifoda etilmagan, ammo noaniq taxmin qilinganidan yaxshiroq, oldindan aytib bo‘ladigan ma’nodan olingan hissiy taassurotlarning keskinligiga tayanadi... Ko‘rinib turibdiki, bunday hollarda ataylab umumiyligi tufayli eng sodda va chuqur ahamiyat kasb etmaydigan so‘zlar tanlanadi”.[4] Asarda mutaxassis lug‘atining yo‘qligini Isiguroning “odatiy” bilvosita uslubi va ishlab chiqarilgan noaniqlik nuqtayi nazaridan izohlash mumkin. “Meni qo‘yib yuborma” asarida, tabiiyki, ilmiy tilning qo‘llanilishi kuzatilmaydi. Vaholanki, biz bilgan va o‘qigan distopik adabiyotlarda ilmiy til bilan birgalikda neologizmlar ham qo‘llanilishi kuzatiladi. Ilmiy-fantastik va mifologik asarlarda an’anaviy bo‘lganidek, ikkinchisiga faqat vositachilar orqali murojaat qilish mumkin, o‘quvchi tushunadigan narsalarni tarbiyalash va o‘qitish uchun mas’ul bo‘lgan “g‘amhurlar” – klonlar. Ular ulg‘ayganlaridan keyin organ donorlari sifatida foydalanish uchun yaratilgan: “Sizning hayotingiz siz uchun belgilangan. Siz katta odamlarga aylanasiz, keyin keksalikdan oldin, hatto o‘rta yoshga ham kirmasdan, siz o‘zingizning muhim organlaringizni xayriya qilishni boshlaysiz. Har biringiz shunday qilish uchun yaratilgansiz”. Klonlar yoki donorlar yoki g‘amxo‘rlik qiluvchilar va “oddiy insonlar” o‘rtasida yaratilgan bo‘shliqda ham farq mavjud.

“...Evfemizmlarning strukturaviy-semantik tasnifini amalga oshira turib, shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, evfemizmlar, ya’ni, evfemistik gap tuzilishi tilda deyarli barcha til sathlarida uchraydigan umumiy fikrga qaraganda ancha keng tarqalgan hodisadir.[5] A.M.Katsayevning fikriga ko‘ra, evfemiyadagi uyushmalar tashkil etish jarayoni quyidagicha bo‘ladi: qo‘rquv, jirkanish yoki uyat ta’sirida hikoyachi u yoki bu denotatsiyani (obyekt yoki hodisani) bevosita ifodalashdan qochadi. Chunki to‘g‘ridan to‘g‘ri

[1] Tarjima: Mening ismim Keti Sh.va yoshim o‘ttiz birda. Men o‘n bir yildan beri enaga bo‘lib ishlab kelmoqdaman. Bilaman, bu yetarlicha uzoq muddat, lekin ular meni yil oxirigacha yana sakkiz oy ishlashimni xohlashayapti (O‘zimizning tarjima). Ishiguro K.Never Let Me Go. London: Faber and Faber, 2005, p. 3.

[2] Tarjima: “...Ular boshida hammasini juda yaxshi boshlashlari mumkin, ammo, keyin asta-sekinlik bilan og‘riq va tashvish yaqinlashadi. Ertami-kechmi donor bularni ko‘tara olmaydi, ba’zida bu endigina ikkinchi xayriya bo’lsa-da. Hech kim asoratlarni oldindan ko‘ra olmaydi. Xayriyachi to‘satdan vafot etib qolsa, hamshiralar sizga nima deyishlarining endi ahamiyati ham qolmaydi. Xuddi mana bu maktubga o‘xshab, ular sizning qo‘lingizdan kelganini qilganingizga va xuddi shu ruhda yana davom etishingizga amin ekanliklarini aytadilar...” (O‘zimiznitп tarjima) Ishiguro K.Never Let Me Go. London: Faber and Faber, 2005, p. 203.

[3] Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2000, 12–14-betlar.

[4] Виноградов В.В. Поэтика русской литературы. М., 1976, “Наука”, с. 447.

[5] Таджибаева А.А. Социокультурные и когнитивные аспекты лингвистического исследования эвфемизмов в английском языке: Автореф.дис...канд.филол.наук, Ташкент., 2006, с. 35.

denotat o‘ziga mos keladigan denotat bilan shunchalik chambarchas va odatiy bog‘langanki, u so‘zlovchi yoki tinglovchida denotat bilan bir xil tuyg‘ularni uyg‘otadi. Shuning uchun ularni yumshatish maqsadida boshqa belgidan foydalanishga to‘g‘ri keladi. Bunday ifoda turi bir darajada yoki boshqa darajada chalg‘ituvchi kuchga ega bo‘lsa, o‘z maqsadiga erishgan hisoblanadi, ya’ni, nutq harakati ishtirokchilari ongida taqiqlangan doiradan tashqaridagi denotativ belgilar bilan bog‘lanish yuzaga keladi.[1] Adabiyotshunoslarning yuqorida bayon etilgan fikrlariga qo‘shilgan holda, shuni aytish mumkinki, Kadzuo Isiguroning “Meni qo‘yib yuborma” romanida qo‘llanilgan evfemizmlar asar qahramonlarida qo‘rquv yoki iztirob uyg‘otmaydi, aksincha, ular o‘zlarining oldilarida turgan vazifani burch, deya qabul qilishadi.

Xulosa. Tadqiqotimiz nihoyasida shuni ta’kidlab o‘tmoqchimizki, ingliz adibi Kadzuo Isiguroning “Meni qo‘yib yuborma” (Never Let Me Go) distopik asarida qo‘llanilgan evfemizmlar tuzilishi va asarda qo‘llanilishi o‘rniga ko‘ra roman ta’sirdorligini oshirishga xizmat qilgan. Asardagi evfemizmlar sodda va yasalishi jihatidan murakkablik kasb etmasa-da, asarning distopiya janriga oidligini va unda qahramonlarni ayanchli taqdir kutib turganligiga ishora beradi.

Radjapova Umida Baxramovna (Urganch davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi; radjapovaumida87@gmail.com)

“LAHJAT UL-LUG‘OT”DA QARINDOSHLIK TERMINLARI

Annotatsiya. *Maqolada Shayxulislom Mehmed As’ad Afandi tomonidan yaratilgan “Lahjat ul-lug‘ot” asar tarkibidagi qarindoshlik terminlari etimologiyasi va semantikasiga oid mulohazalar yuritilib, ushbu atamalar turkiy xalqlar tili uchun mushtarakligidan dalolat berdi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются этимология и семантика терминов родства, встречающиеся в произведении “Лахжат ул-лугот” Шайхулислома Мехмеда Асад Афанди, всё это свидетельствует об общности этих терминов для языков тюркских народов.*

Annotation. *The article contains reflections on the etymology and semantics of kinship terms in the work “Lahjat ul-dictionary” created by Sheikhulislom Mehmed as’ad Efendi, which testified to the commonality of these terms for the language of Turkic peoples.*

Kalit so‘zlar: *qarindoshlik terminlari, eski o‘zbek tili, tarixiy leksikografiya, qarindoshlikni ifodalovchi yasama so‘zlar, qarindoshlik ifodalovchi juft va takroriy so‘zlar.*

Ключевые слова: *ермины родства, староузбекский язык, историческая лексикография, образованные слова, выражающие родство, парные и повторяющиеся слова, выражающие родство.*

Key words: *kinship terms, old Uzbek script, historical lexicography, common kinship phrases, kinship constructions, kinship pairs and reduplications.*

O‘zbek tilshunosligida qarindoshlik atamalari yuzasidan bir qator ilmiy ishlar, monografiyalar va ayrim maqolalar e’lon qilingan.[2] Mavzuga oid xorijiy materiallar L.A.Pokrovskaya, N.E.Gadjiaxmedov, N.X.Olmesov, A.Buran, Ch.Gyulen, A.Sumru Ozsoy, E.Taylan, Z.Qo‘rqmaz, I.Telliog‘lu, M.Sh.Saribayeva, K.Levi-Stross[3] ishlarida keng tahlil qilingan. Shuningdek, “Türk ləhfələri sözlügü”, “Türkcə agizlan sözlügü” va har bir turkiy tilning o‘z lug‘at materiallarida aks etgan. L.Gadjiyeva ilmiy ishlarida[4] qumiq tilidagi qarindoshlik terminlari turk tili bilan qiyosiy o‘rganilgan bo‘lishiga qaramay, uning o‘zbek adabiy tili va shevalari tadqiqida ham ahamiyati bor. Bu kabi tadqiqotlardan chiqadigan umumiy xulosa shu bo‘ldiki, turkiy xalqlar madaniyatida qarindoshlik munosabatlarining rivojlanishi ularning tillaridagi qarindoshlik tushunchalarini boyitdi. Qarindoshlik terminlarida, ular asosida shakllangan tushunchalarda xalq madaniyati va ularning bir-biri bilan munosabatlari haqida muhim ma’lumotlar mavjud bo‘ladi. Turkiy tillardagi qarindoshlik tushunchalari yosh, jins, ota-onadan kelgan qarindoshlik, nikoh orqali shakllanish kabi ko‘plab ma’lumotlarni o‘z ichiga olganligi bilan ham diqqatga sazovordir.

---

[1] Кацаев А.М. Эвфемизмы в современном английском языке. Автореф.дис...канд.филол.наук, Л.,1977, 16 с.

[2] Покровская А.А. Термины родства в тюркских языках. История развития лексики тюркских языков. М., издательство АН СССР, 1967; Исмоилов И. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари. Тошкент, “Фан”, 1966, 150-бет; Туркий тилларда тўнғич, кенжа, эгизак сўзлари. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1975, 2-сон; Туркий тилларда баъзи бир сўзлар этимологияси ҳақида. “Ўзбек тили ва адабиёти”, 1986, 4-сон.

[3] Леви-Стросс К. Структурная антропология. Anthropologie structurale. Пер. с фр. В.В.Иванова, М., 2001, 512 с.

[4] Гаджиева Л.А. Термины родства и свойства в кумыкском и турецком языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук, Махачкала, 2009, 24 с.

“Türkçə Sözlük”da[1] qarindoshlik tushunchasi bir-biriga qon rishtalari bilan bog‘langanlik holati sifatida izohlanadi. Bundan tashqari, nikoh orqali qarindoshlik aloqalarini o‘rnatish mumkin. Turkiylar qarindoshlik munosabatlariga katta ahamiyat berganlar. Bu munosabat natijasida turkiy tilda qarindoshlik tushunchasini o‘z ichiga olgan so‘zlar ko‘paydi. Qarindoshlik nomlari odamlar ko‘p ishlatadigan so‘zlar qatoriga kiradi. Shuning uchun bu so‘zlar bilan asosiy lug‘at tarkibiga kiradi. Mavzuga oid e’tiborli ishlardan biri Yong-Song Li tomonidan tayyorlangan “Turkiy tillarda qarindoshlik nomlari” nomli asardir.[2].

Har bir tilda o‘zining madaniyatini aks ettiruvchi qarindoshlik atamalari mavjud. Bundan tashqari, qarindoshlik terminlarining ma’nosi ma’lum bir jamiyatdagi qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rsatib beradi. Turli xil tillarda qarindoshlik atamalarini va ularning munosabatlarini tavsiflash uchun turli xil xususiyatlar va xususiyatlarning kombinatsiyalari qo‘llaniladi.

Lug‘atdagi qarindoshlik terminlarini quyidagi tiplarga ajratish mumkin bo‘ladi:

1.1. Qarindoshlik haqidagi umumiy tushunchalar: *amûca (amca) (100), ana (104), kök (65), ata (9), baba (219), bacanak (223), çocuk (367), damad (410), dayı (393), döl (441), ər (36), əş (62), gəlin (s683), güvəği (731), hısım (387), karı (600), oğul (185), soy (539), təyzə (325), torun (566), yavru (811), yəngə (811).*

Ko‘rinib turibdiki, bu so‘zlarning katta ko‘pchiligi o‘zbek tili uchun hammushtarakdir. Bundan tashqari, ular tilimizdagi ayrim lug‘aviy birliklar etimologiyasi va semantikasiga oid mulohazalarga asos bo‘ladi. Masalan, *bacanak* atamasi qipchoq etnonimi bilan aloqadorligi ko‘pgina ishlarda qayd etilgan.

Bijanaklar, pecheneglar, paszinaklar Itil (Volga) va Yoyiq (Ural) daryosi bo‘ylari, Orol dengizi oralig‘idagi dashtlarda hamda Kaspiy dengizining sharqi va shimolida milodiy I ming yillikning ikkinchi yarmida yashagan bir qancha turkiy qabilalar birlashmasi edi.[3] Muallif bu so‘zning arabiysi sifatida *za’b* زأب hamda *salif* سلف so‘zlarini, forsiysi sifatida *domod* داماد so‘zini keltiradi. Aslida, arab tilida bu tushunchani ifodalovchi yana صِهرُ *sihr*, عديل *adil* (ko‘pligi عدلا *udalo*) so‘zlari ham bor.[4] Xuddi shuningdek, boshqa qarindoshlik atamalarining arabcha va forscha muqobillari keltiriladi. E’tiborlisi, boshqa mavzuiy guruhlarga mansub aksar lug‘aviy birliklarda bo‘lgani kabi, qarindoshlik terminlarida ham o‘zlashmalar, asosan, majoziy va badiiy ifoda vositasi sifatida ishlatilgan. Masalan, eski o‘zbek tilida kelin ma’nosini ifodalovchi arabcha *arus* عروس so‘zi majoziy ma’noda *kelinni* anglatgan. Masalan, *dahr arusi* – aynan dunyo kelinchagi, majozan inson qalbini rom etuvchi dunyoviy hissiyotlar, aloyiq. Birgina Ogahiy lirikasida *arus* bilan bog‘liq bir qancha birikmalar mavjud:

Aysh-u tarab arusi – dunyo huzur-halovati, o‘tkinchi ayshu ishrat:
Mahriga bergali diram topmayin, umrimiz o‘tub,
Aysh-u tarab arusidin xoli erur quchoqimiz.
Dahri daniy arusi – pastkash dunyo kelinchagi:
Himmatimiz baland erur uylaki, hech tushmagay
Dahri daniy arusining jilvasiga nigohimiz.
Dahr arusi – dunyo tashvishlari:
Chun Ogahiyni oldadi bu *dahr arusi*,
Bildimki, ekan dallai muxtola hamul qiz.
Jahon arusi – dunyo, moddiy olam:
Jahon arusi agarchi ko‘ringusi dilkash,
Valek berma ko‘ngul lahzayi vafo qilmas.
Maqsad arusi – dunyoviy havas, foniy hayotga bo‘lgan ishtiyoq:
Hama *maqsad arusin* aqd etib, kom ayladi hosil,
Vale yuz sa’y etib bo‘lmay anga domod, man qoldim.
Arusi sho‘x – sho‘x kelinchak, ya’ni dunyo jilvasi.
Jahon zoli agarchi ko‘rguzur o‘zni *arusi sho‘x*,
Vale er ulki qilsa, o‘zni ul makkordin ayru.
Arusi dahr, dunyo arusi – dunyo kelinchagi, nafs:
Er ersang berma ko‘nglungni arusi dahr husniga-
Ki, garchi dilrabodur, lekin asru bevafodur bu.

[1] Türkçe Sözlük. Ankara, TDK Yayınları, 2011, s. 72.
[2] Li Y.S. Türk Dillerinde Akrabalık Adları. Ankara, TDK Yayınları, 2019.
[3] https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bijanaklar-uz/
[4] Баранов Х.К. Арабско-русский словарь. М., “Русский язык”, 1985.

Istading dunyo arusin tushdagi mahbubdek,

Topmas ergach kom la'lidin pushaymon bo'ldi tut.[1]

LL[2]da *kelin* ma'nosini anglatuvchi so'zlar sifatida *arûs* (ko'pligi *arâyis,* forsiy *dag'd* دغد, *sünnâr* سنار, *sunhâr* سنهار, *nîvak* نیواک, *bayû* بایو so'zlari keltirilgan. Ular bugungi kunda fors tili uchun nofaol so'zlar bo'lib, *kelin* ma'nosida *arus* عروس faol sanaladi. Shulardan *sünnâr* سنار so'ziga "Burhoni qote'"da turkiydagi *kelin* ma'nosidagi so'z hindiyda esa zargarni bildiradi",[3] deydi. E'tiborlisi, ushbu manbada qayd etilishicha, so'zning dastlabki ma'nolaridan biri "oshiq, maftun"dir.

Onaning er qarindoshlari *tog'a* tushunchasi turk tilida ham Xorazm shevalaridagi kabi *dayi* termini bilan ifodalanadi. Aslida, bu ikki termin – *tog'a* va *doyi* bir so'zning ikki fonetik variantidir. Unga ishonch hosil qilish uchun so'zning nomlanish tamoyiliga e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Terminning asosi *tay* so'zi, dastlab, "yaqin", "o'zniki" mazmunini anglatgan. Bu mazmundagi so'z "ona urug'i" mazmunidagi qarindoshlik terminiga aylanishi ajdodlar hayot tarzi bilan izohlanadi. Keyinchalik, unga "tegishli" mazmunidagi *ы* qo'shilib, "ona urug'iga mansub" ma'nosidagi *tayы//dayы//taayы//tag'ayы* so'zlari hosil bo'lgan. Bu holat so'zning tarixida "tay"dan keyingi ikkinchi bosqich bo'lib, *tayы* ona urug'iga mansublikni umumiy tarzda ifodalashini qirg'iz tilida *taga* (*tay* so'zidan tashqari) "ona tomondan bobo" ma'nosida ishlatilishi yoki Ibn Muhanna qayd etgan ma'no bilan izohlanadi.[4]

Lug'atda qarindoshlik terminlari tahlil orqali ularning ayrimlari turkiy bo'lmagan tillar bilan ham bog'lanishini ko'rsatadi. Masalan, turk tilida *damad,* eski o'zbek tilida *domod* so'zlarining, tojik tilida esa turkiy tillardan o'zlashgan bir qancha qarindoshlik terminlarining mavjudligi e'tiborlidir.[5] Masalan, tojik tilida ham *domod//kuyov* so'zlari parellel ishlatiladi.[6] *Domod* so'z ham eski o'zbek tilida ham *kuyov* ma'nosida ishlatilgan: "Ali sulton ibn So'fiyonxonkim, o'z *domodi* erdi, tig'i bedarig' bila aning rishtai hayotin munqate' qildi".[7] *Domod,* bundan tashqari, tasavufiy termin sanalib, dunyo *arus* (kelini)ga ko'ngil bog'lagan inson ma'nosini ham anglatadi. Buni yuqorida Ogahiy qalamiga mansub baytlar misolida ko'rdik.

1.2. Qarindoshlikni ifodalovchi yasama so'zlar: *atalık (9), əvləndirmək (108), əvlənmək (107), hısımlık (387), ikiz (146), kardaş (599), kardaşlık (600), nişanlanmak (759), nişanlı (759), oğlan (186) öksüz (195).*

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, lug'atdagi qarindoshlikni ifodalovchi yasama so'zlar so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali hosil qilinganligini va qo'shimchalarning tarixiy ildizlarini ham ko'rishimiz mumkin.

1.3. Qarindoshlik ifodalovchi juft va takroriy so'zlar: *karı koca (602)*.

Lug'atda keltirilgan qarindoshlik terminlari soni 34 tadir. Bulardan 22 sodda tub, 11 tasi sodda yasama va bitta qo'shma so'zdir (*karı koca* – (602).

Turkiy tillar qarindoshlik tushunchalari jihatidan juda boy. Ikki yoki uchta qarindoshlik tushunchasi ko'p tillarda bir so'z bilan ifodalansa, turkiy tillarda har bir tushunchaga nom berilgan. Misol uchun, Turkiya turkchalarida *amcaoğlu, dayıoğlu, halaoğlu, təyzəoğlu, amcakızı, dayıkızı, halakızı, təyzəkızı* kabi sakkizta so'z bilan ifodalangan qarindoshlik nomlari fransuz tilida faqat *cousin* – qarindosh so'zi bilan ifodalanadi. Masalaga "Devon"dagi qarindoshlik tushunchalari tahlil ham bu masalaga oydinlik kiritadi.[8]

---

[1] Муҳаммад Ризо Огаҳий. Тўла асарлар тўплами. 1-жилд. Девон. Нашрга тайрловчилар Д.Ғойипов, С. Сариев, Б.Умрзоқов. Тошкент, "Mumtoz so'z", 2014, 131, 132, 133, 143, 229, 254, 255, 315-betlar ва бошқалар.

[2] Lahjat ul-lug'otning qisqartma shakli.

[3] شمس الدین محمد بن خلف تبریزی . برهان قاطع. با اهتمام دکتر محمد معین. تهران. امیر کبیر. ١٣٨٦ . جلد ٤ ص ١١٧٩

[4] Покровская А.А.Термины родства в тюркских языках. История развития лексики тюркских языков. М., с. 48.

[5] Джаббаров Б. Номинации значений свойства в таджикском и узбекском языках. Автореф. дисс. канд. филол. наук, Хужанд, 2009, с. 11 – 12.

[6] Shu manba. C. 8.

[7] Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 2-жилд, 1-китоб, Шермуҳаммад Авазбий ўғли Мунис, Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Фирдавс ул-иқбол (Бахт-саодат жаннати). Тошкент, "Sharq", 2019, 149-бет.

[8] Emiroğlu S. Türkçe Sözlükteki Akrabalık Adlarının Tasnifi. Türkish Studies, İnternational Periodical For the Languages, Literature and History of Türkish or Türkic, Volume, 7/4, 2012, s. 1691 – 1710.

Turkiy tillardagi qarindoshlik terminlari va yaqinlik nomlari turkiy xalqlarning tarixiy aloqa va munosabatlari, etnik kelib chiqishlari va tillarning tarixiy taraqqiyoti bir-birlari bilan chambarchas bog‘langandir.

“Lahjat ul-lug‘ot”dagi qarindoshlik atamalarining arabiy-forsiy tarjima va sinonomik qatorlarining berilishi har uchala tilning leksikologiyasini boyitib keladi.

Sadinov Oybek Ziyot o‘g‘li (QarDU Ingliz tili o‘qitish metodikasi va amaliyoti kafedrasi o‘qituvchisi; antarescobodero@gmail.com)

BADIIY TARJIMADA MILLIY MENTALITETNI BERISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy tarjimashunoslikdagi “mentalitet” va “olam milliy manzarasi” kabi tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqliklar haqida so‘z boradi. Mentalitet tarjimashunoslik doirasida ko‘rib chiqish masalasi ekspansionizmning zamonaviy tamoyilini aks ettiradi, ammo ushbu tushuncha haqida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lish uchun tegishli sohalardagi o‘rni hamda vazifasini ham tadqiq etish joiz. Jumladan, tilshunoslik, tarjimashunoslik, madaniyatshunoslik, antropologiya, sotsiologiya va boshqa shunga doir fanlarning ma’lumotlaridan foydalanish kerak. Maqolada “olam milliy manzarasi” masalasiga ham asosiy yondashuvlar haqida fikr yuritiladi. Tarjimashunoslikda mentalitet masalalari uning badiiy tarjimadagi o‘rni xususida ham to‘xtalib o‘tiladi.*

Аннотация. *В статье говорится о связи таких понятий, как «менталитет» и «национальное мировоззрение» в современном переводоведении. Вопрос рассмотрения ментальности в рамках переводоведения отражает современный принцип экспансионизма, но для того, чтобы иметь полную информацию об этом понятии, допустимо изучение его роли и функции в соответствующих областях. В частности, необходимо использовать данные языкознания, переводоведения, культурологии, антропологии, социологии и других смежных наук. Также в статье рассматриваются основные подходы к проблеме «национальный ландшафт мира». В переводоведении вопросы менталитета обсуждаются с точки зрения его роли в художественном переводе.*

Annotation. *The article deals with the connection of such concepts as “mentality” and “national view of the world” in modern translation studies. The issue of considering mentality within the framework of translation studies reflects the modern principle of expansionism, but in order to have complete information about this concept, it is permissible to study its role and function in the relevant areas. In particular, it is necessary to use the data of linguistics, translation studies, cultural studies, anthropology, sociology and other related sciences. The article also discusses the main approaches to the problem of “national view of the world”. In translation studies, issues of mentality are discussed from the point of view of its role in literary translation.*

Kalit so‘zlar: *mentalitet, olam milliy manzarasi, badiiy tarjima, adekvatlik, lingvomadaniyatshunoslik.*

Ключевые слова: *менталитет, национальная картина мира, художественный перевод, адекватность, лингвокультурология.*

Key words: *mentality, national view of the world, literary translation, adequacy, linguoculturology.*


Til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar va undagi madaniy qarashlarni tahlil etuvchi lingvomadaniyatshunoslik dunyo xalqlarining urf-odat, an’ana, qadriyat, madaniy, qadimiy va zamonaviy dunyoqarashlarini ma’lum bir tilda ifodalanishini o‘rganadi. Tilshunoslikda lingvomadaniyatshunoslik antroposentrik paradigmaning mahsuli bo‘lib, oxirgi 20 yil ichida tilshunoslikning asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Antropotsentrik tilshunoslikda yetakchi hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik (lot. lingua – til, cultura – ishlov berish, logos – ta’limot) tilning madaniyat, urf-odat, etnos, milliy mentallik bilan o‘zaro aloqasini antropotsentrik paradigma tamoyillari orqali o‘rganadi.[1]Turli madaniyatlarda munosabatlar ularning individual xususiyatlaridan kelib chiqadi.

Mentalitet (mentalis – aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma’naviy salohiyat tushuniladi. Jamiyat, millat yoki shaxsning mentaliteti ularning o‘ziga xos tarixiy an’analari, urf-odatlari, diniy e’tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va bir qancha omillar bilan bog‘langan bo‘ladi. Masalan, o‘zbek millati mentalitetining shakllanish jarayoni deyarli uch yarim ming yillik tarixga ega. O‘zbek xalqi insoniyat ma’naviy va moddiy durdonalar bilan boyitgan.

[1]Сабитова З. Лингвокультурология. Учебник, М., “Флинта”, “Наука”, 2013, с. 8.

Mentalitet so‘zini zamonaviy Longman lug‘atida “odatlangan fikr mulohazasi, shaxsning ijtimoiy kelib chiqishidan o‘ylashi va dunyoqarashi” deb izohlanadi.[1] Mentalitet – olamning milliy manzarasini shakllantiradi va insonlarning hayot tarzi, turmushi, ularning xatti-harakatlari va munosabatlar shaklini belgilaydi. G.Gachev mentalitetni olamning milliy manzarasi sifatida belgilab, “Bizni milliy xarakter emas, balki olamga milliy qarash qiziqtiradi”,[2]deydi. Mentalitet ma’lum etnik guruhning milliy xususiyatlarini aks ettiruvchi, uning madaniyati va tarixi bilan belgilanadigan dunyo modeli.[3] Aniqlanishicha, mentalitet dunyoning madaniy va tarixiy jihatdan shartlangan ko‘rinishidir. “Mentalitet” va “Olamning milliy manzarasi” tushunchalari o‘rtasidagi munosabat va yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, aslida, “Olam milliy manzarasi” bu tilda aks etgan xalq mentalitetidir.

R.Milrud o‘zining ilmiy maqolasida inglizlarning mentalitetini asosiy uch qismga bo‘ladi:[4] bilim, munosabat hamda tarbiya. Bizning izlanishimizda esa mentalitetni uch ko‘rinishda belgilaymiz, ya’ni mentalitet egasi, idrok qilish va ifoda etish.



Badiiy tarjima jarayonida ma’lum xalqning mentalitetining o‘ziga xos bo‘lgan ma’nolarini anglash muhim sanaladi. Masalan, ba’zi bir ingliz mentalitetiga ega insonlar boshqa millat vakiliga mansub bo‘lgan odamlar bilan muomalaga kirishganda ularga boshqacha tuyular ekan. Iqtisodiy aloqalarda, inglizlar o‘z manfaatini ko‘zlab ish qilishsa, o‘zbek mentaliteti jamoaning manfaatini ustun qo‘yar ekan. Kelajakdagi umidlari inglizlarda optimistik, o‘zbeklarda ikkilanish va ko‘proq vaziyatni o‘ylaydi. Munosabatlar inglizlarda norasmiy, o‘zbek millatida ko‘proq hurmat yuzasidan rasmiy ekan. Inglizlar qaror qabul qilishda amaliyotga ishonishsa, o‘zbeklar hissiyotni ustun qo‘yar ekan. Ishda esa o‘zbeklar jamoaning fikrini ustun qo‘yib, hammaga barobar ma’qul tushadigan usulni tanlashsa, inglizlar raqobat qilib, bir-birlaridan manfaatini ustun qo‘yish yo‘li bilan yondashar ekan.

Mentalitet urf-odatlarga va geografik joylashuviga ko‘ra ham bir-biridan tubdan farq qiladi. Misol tariqasida, o‘zbek millatida yaqin qarindoshingiz yoki biron tanishingiz hayotdan ko‘z yumsa, millatimizga xos odatlar bilan chuqur qayg‘u-alam, achinish, afsuslanish, ayollarimiz yig‘lab anduh chekib marhumni so‘nggi manzilga kuzatishadilar va marhumning yaqin qarindoshlari ancha muddat marhumning hurmati uchun maxsus tikilgan kiyim kiyib, boshlariga oq ro‘mol o‘rashadi. Bu kabi odatlarga o‘zbek millati odatlangan hamda o‘rgangan.

Ammo Yangi Zelandiyada dafn marosimiga tashrif buyurib qolsangiz, to‘yga keldingizmi yoki dafn marosimiga keldingizmi, anglay olmaysiz. Chunki bu o‘sha xalqning avloddan avlodga o‘tib kelgan odati hisoblanadi, ya’ni bu o‘sha xalq uchun odatiy hol. Ular dafn marosimida ham uylarini gulchambarlar bilan bezatib, sariq sharlar ilib, eng chiroyli liboslarda o‘yin-kulgi bilan, marhum haqida eng iliq so‘zlar aytilib, uni so‘nggi manzilga kuzatishar ekan. Buni ham o‘ziga xos mentalitet desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Lekin bu odat o‘zbek mentaliteti uchun aql bovar qilmaydigan ajablanarli rusum hisoblanadi. Bu kabi o‘ziga xos mentalitet va urf-odatlarni aks ettiruvchi badiiy asarlar tarjimoni juda puxtalik bilan adekvat tarjimani berishi darkor. Bu uchun esa o‘sha tarjima qilinayotgan asar tilining tarixi va madaniyatini ham o‘rganishi lozim.

[1] https://www.ldoceonline.com/dictionary/mentality

[2] Гачев Г. Ментальности народов мира. М., “Алгоритм”, 2003, с. 349.

[3] Джиоева А.А. «Stiff Upper Lip» сквозь призму англосаксонского менталитета. Английский язык на гуманитарных факультетах. Вып. 4, М., “Макс Пресс”, 2010, с. 15 – 43.

[4] Мильруд Р.П. Порог ментальности российских и английских студентов при соприкосновении культур. “Иностр. языки в школе”, 1997, № 4, с. 17 – 22.

Tilshunos olim V.Gumboldt ham til xalqning mentalitetini, tafakkur tarzini anglashning kalitidir.[1] deydi. Badiiy tarjima jarayonida mentalitetning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish adekvat til vositalarini tanlashda, masalan, badiiy va ilmiy tarjimalarda, shiorlar tarjimasida, reklamalardagi sarlavhalarda mumkin qadar konnotatsiyalar, realiyalar va lakunalarni chuqur tahlil etib, muqobil variant bilan almashtirish mumkin. Tarjimada so‘zlarni tanlash, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan so‘zlarning ma’nolarini farqlash, mentalitetning o‘ziga xos xususiyatlarini e’tiborsiz qoldirish tarjima jarayonida istalmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Darhaqiqat, har qanday muvaffaqiyatli tarjima har bir o‘ziga xos til va milliy mentalitetning o‘ziga xosligini maksimal darajada hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, badiiy tarjimada tarjimon asarning tarjima tilida qanday qabul qilinishi va tarjima kitobxon dunyoqarashiga qanchalik mos kelishini nazardan qochirmasligi darkor. Kerakli o‘rinda, asliyatdagi ba’zi so‘z va iboralar (mazmuni saqlangan holda) resteptor dunyoqarashidan kelib chiqib o‘zgartirilishi asar mazmunini chuqurroq anglashiga xizmat qiladi. Badiiy tarjimada ko‘chma ma’noda kelgan ko‘p ma’noli so‘zlarning har biri alohida o‘rganilib, ular orasidan eng kontekstga mos bittasining tarjimada berilishi asliyat matnini to‘g‘ri tushunishga xizmat qiladi.

Arziqulov Xurshida Akbaraliyevna (Samarqand davlat Chet tillar instituti mustaqil tadqiqodchi; e-mail: d16409906@gmail.com)

“ANDROMAXA” TRAGEDIYASI HAQIDA

Annotatsiya. *XVII asrda Fransiya o‘z taraqqiyotining yuqori cho‘qqisiga chiqadi. Bu davr badiiy adabiyotning gullab-yashnashi bilan o‘chmas iz qoldiradi, yalovbardor klassik yozuvchilarning butun bir guruhini dunyoga keltiradi. Ushbu buyuk vakillarning biri Jan Rasin edi. Uning ijodi aynan Kornel ijodining yuksak ideallari yo‘qqa chiqgan bir davrga to‘g‘ri keldi.*

Аннотация. В XVII века Франция достигла пика своего развития. Этот период оставил неизгладимый след расцветом художественной литературы, породил целую группу плодовитых писателей-классиков. Одним из таких великих представителей был Жан Расин. Его творчество совпало с периодом, когда исчезли высокие идеалы творчества Корнелла.

Annotation. In the 17th century, France reached the peak of development. This period left an indelible mark with the flourishing of fiction, gave birth to a whole group of prolific classical writers. One of these great representatives was Jean Racine. His work coincided with a period when the high ideals of Cornell’s work disappeared.

Kalit so‘zlar: *tragediya, ziddiyat, fojiyanavislik, tarixiy afsonalar,burch va sadoqat, vatanparvarlik, xarakter, sahna, falsafiy, fazilatlar, ahloqiy, siyosiy, ijtimoiy rollar.*

Ключевые слова: трагедия, конфликт, трагедия, исторические легенды, долг и верность, патриотизм, персонаж, сцена, философские, добродетели, нравственные, политические, социальные роли.

Key words: *tragedy, contradiction,tragic, historical legends, duty and loyalty, patriotism, charater, scene, philosophical,qualities, moral, political, social, roles.*

Rasin 1668-yilda “Andromaxa” tragediyasini yozganidan so‘ng, uzoq yillar muvaffaqiyatli ijod qiladi va shon-shuhratga erishadi. Uning ijodi haqida ko‘plab fikrlar bildiriladi va bahs-munozaralar yuritiladi. Yosh ijodkor ushbu jarayonda tragediya haqidagi o‘z munosabatini bildiradi va tragediya haqidagi aynan o‘zining qattiy tushunchasini aytadi. “Andromaxa” asari sujetini alohida ta’kidlash lozim, asosan, uning qahramonlari grek mifologiyasidan olinganligi bilan ajralib turadi. Ushbu tragediyada voqealar rivoji Troyaga bo‘lgan hujumlar natijasida sodir bo‘ladi. Rasin ijodigacha bo‘lgan davrda ham klassik tragediyalarda baxtsizlik bilan tugallanuvchi muhabbat, sevgi mavzusiga tez-tez murojaatlar qilingan. Bu mavzuga aynan shu davr yozuvchilari ketma-ket qo‘l urgan. Davrning dolzarb muamolari bo‘lgan burch va tuyg‘u xuddu qoidalar sifatida singib borgan, ikki shaxs bir-birini sevadi, ammo undan yuqori qo‘yiladigan aqidalar ularning birga bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shu tartibda shaxsning burchi paydo bo‘lgan. Misol uchun, Kornelning “Sid” tragediyasi qahramonlari Ximena va Rodrigo. Qahramonlar taqdiridagi shunday o‘zgarishlarni kuzatib turgan tomoshabinlar ularning zodogonlik hissiyotlaridan hayratlanadi, hokimiyat oldidagi burchlari uchun o‘z hissiyotlarini qurbon qiladi.

Rasinning Andromaxasi muqaddimasida, Andromaxa va Eney o‘rtasidagi uchrashuvda qisqacha Virgil “Eneidi”ning boshlanishidan parchalar beradi. “Bu fojianing butun mavzusi bir necha she’rda ko‘-

[1] Гумбольдт В. Язык и философия культуры. М., “Прогресс”, 1985, с. 450.

rinadi. Bu yerda sahnaning joylashuvi, u yerda sodir bo‘ladigan harakat, to‘rtta asosiy aktyor va ularning qahramonlari”dan iborat.

Yevripidning Andromaxasi unga Germiona xarakterini yaratishida yordam berganida edi. Faqat so‘z boshida shoir bizning ishonishimiz istagan narsani aytmaydi.

Rasin o‘zining birinchi (Alexandre le Grand) so‘z boshisida manbalarni, paradokslarni, bahs-munozaralarni, qisqasi, yomon niyatni yashirish san’atining ustasi ekanligini ko‘rsatgan edi. Shuning uchun uning bayonotiga ishonishimiz kerakmi? Rasinni Yunon mifologiyasining nafaqat poetik xususiyatlari, balki uning chuqur gumanizmi hamda qahramonlari xarakteri bizni o‘ziga jalb qiladi. Ularni o‘zining zamondosh fransuz saroy ahli bilan qarama-qarshi qo‘yishga harakat qiladi. Antik davrni ilhom bilan tasvirlaydi. Rasin uning mavzularini boricha haqiqiy holatda o‘rganib chiqadi.

Rasin birinchi bor tomoshabinning e’tiborini oddiy, “o‘rtacha” odamlarning hayotiga qaratadi, ammo o‘rta hol insonlarning qalbida spektaklga nisbatdan, albatta, tanqidiy qarashlarni uyg‘otmasligi lozim. “Sid”da qirollik saroyiga nisbatan juda ochiqchasiga hurmatsizlik aks etadi, endi uning davri o‘tdi. Y.B. Bipperning ta’kidlashicha, “Rasinning badiiy dunyoqarashi, feodal aristokratiyaning siyosiy qarshiligi bostirilgan sharoitda shakllangan va u monarx xohishlariga bo‘ysungan, o‘z ijodiy hayot maqsadlaridan mahrum bo‘lgan saroy zodagonlariga aylangan. Rasinning fojialarida, birinchi planga hokimiyat ta’sirida buzilgan odiiy xalqni qo‘yadi, shafqatsiz ehtiroslar alangasiga tushib qolgan bundan esa ikkilanib esan-kirab qolgan odamlar edi. Rasin dramaturgiyasida siyosiy emas, balki axloqiy mezonlar ustunlik qiladi”.[1]

Lekin Volter, Rasindan farqli o‘laroq, Rotrani o‘qimadi, ammo XX asrning boshlariga kelib amerikalik olimlardan biri G.Rudler[2] Rasin ham Geraklning o‘limidan (1634) ruhlanganini payqadi. Bu paytda allaqachon Geraklni zabt etilish tarixi hikoya qilingan edi, Dejanir o‘z qonuniy xotinidan voz kechib, asirani butun vujudi bilan sevishga harakat qilar edi, chunki u butun Iol oilasini o‘ldirgan va yaqin insonlarining hayotiga tahdid qilib uni majburlamoqchi bo‘lgan; va bu haqiqatdan ham ushbu fojiada

III aktdagi 2-sahnada bo‘lishi mumkin. Lol aqildan ozgan uni eshitishni istamayotgan ayolga o‘zining aybsizligini tushintirishga harakat qiladi, Germionaga Andromaxaning bu behuda iltijolarini Rasinning o‘zi o‘ylab topadi (III, 4). Nihoyat, Dejanirni o‘zining jozibasi yordamida qaytarib olishiga ishonadi, (ammo, beixtiyor) uning o‘limiga sabab bo‘ldi, unga qachonlardir u o‘ldirgan bir kentavrning qoni bilan bo‘yalgan kiyimni yuboradi. Volter ham “Sallebre Troadasi” (“La Troade de Sallebray”, 1640) bilan tanish emas edi, undan Rasin o‘ziga mashhurlik “men yoqgandan ko‘ra ko‘proq gulxan yoqish”ni oldi, bu safar yana bir XX asr ingliz olimi R.K.Nayt tomonidan ko‘rsatildi (R.C.Knight).[3] Biz u yerda o‘z asirasi Kasandraga telbalarcha oshiq bo‘lgan Agamemnon tasvirlanganini ko‘ramiz, uning ko‘nglini ovlash orqali Astyanaxning (jiyani) va Poliksenaning (singlisi) hayotini saqlab qolishni o‘ylaydi ammo buni amalga oshirolmaydi. Bu uch pyesaning hech birini istisno qilib bo‘lmaydi, chunki Rasin o‘z tragediyasini yozayotganida ular ko‘z o‘ngida bo‘lgan, bu yerda bir she’r, bu yerda bir g‘oya, bu yerda yana bir munosabat bu hammasi haqiqat. Bitta savol tug‘iladi, ulardan unisi yoki bunisi Vergiliya va Yevripidni topgani uchun fitna chiqarishga homiy bo‘lib xizmat qila olganmi?

Gumanist Rasin o‘z-o‘zidan Virgilning rivoyatida qadimiy mavzu va zamonaviy (Jasur) tuzilish o‘rtasida uyg‘un sintez qilish imkoniyatini ko‘rgan bo‘larmidi? Sevgi munosabatlari, rashk va nikoh bilan ozmi-ko‘pmi bog‘langan to‘rtta personaj, faqatgina sevgi zanjirining ushbu tasdiqlangan formulasiga tirishqoq o‘quvchi va tomoshabinning refleksiga murojaat qilishi mumkin bo‘lganmi? Darhaqiqat, hamma narsa biroz murakkabroq bo‘lib tuyuladi, chunki nima bo‘lishidan qat’iy nazar, qadimgi afsonaning ma’lumotlari sevgi zanjiri prinsipiga o‘z-o‘zidan yaqinlashishni qiyinlashtiradi. Ushbu ma’lumotlarga ko‘ra, haqiqatan ham Orestni sevadigan Germiona o‘zi sevmaydigan Pirrga turmushga chiqishi kerak edi, u Andromaxani olib, keyin uni rad etdi. Ya’ni, Orest va Germionaning o‘zaro muhabbati sevgi zanjiri bilan yaqinlashish haqidagi har qanday o‘z-o‘zidan paydo bo‘lgan g‘oya oldida haqiqiy ko‘rinish yaratganga o‘xshaydi.

“Andromaxa” tragediyasidagi axloqiy tamoyilning boshlanishi Gektorning bevasi timsoliga aylanadi. Pirrdan, Germiona yoki Orestdan farqli o‘laroq, uning oldida o‘g‘lining taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan tanlov turadi. Ammo Kornel qahramonlaridan farqli o‘laroq, Andromaxa davlat oldidagi vazifasi yoki oila burchu masalalarini hal qilish uchun tanlov qilmaydi. N.A.Jirmunskiyning fikriga ko‘ra, Andromaxa-

[1] История всемирной литературы. В 8 томах, АН СССР, Ин-т мировой лит. им. А.М.Горького. М., “Наука”, 1983–1994. На титл. л. изд. История всемирной литературы, в 9 т, т. 4, 1985, с. 139.

[2] Modern Language Review. XII, 1917.

[3] Brûlé de plus de feux. Dans Fraser Mackenzie et alii éd., Studies presented to R.L.G. Ritchie, Cambridge, 1949.

ning oldida boshqa qahramonlarning ehtiroslari tufayli soxta tanlov turadi. Pirr, uning butun oilasining qotili bo‘lishiga qaramasdan, uning qo‘lini so‘raydi va taxtni taklif qiladi. Agar Andromaxataklifni rad etsa, uning o‘g‘li o‘lim xavfi ostida qoladi. Andromaxaning ishonchli kishisi Sefiz bilan sahnadagi suhbati asira Malika boshdan kechirayotgan ulkan ichki yukni anglatadi. Bu buzilgan iboralar, urg‘u berishlar, chalkash nutqlardan dalolat beradi. Xotiralar va haqiqatning tasvirlari aralashgan, hamma narsa toboro yaqinlashib kelayotgan tanlovning murakkabligini ochib berish uchun xizmat qiladi:

Andromaque

Dois-je les oublier, s'il ne s’en souvient plus ?
Dois-je oublier Hector privé de funérailles,
Et traîné sans honneur autour de nos murailles ?
Dois-je oublier son père à mes pieds renversé,
Ensanglantant l’autel qu’il tenait embrassé ?
Songe, songe, Céphise, à cette nuit cruelle,
Qui fut pour tout un peuple une nuit éternelle.
Figure-toi Pyrrhus, les yeux étincelants, [1] SCÈNE VIII (p. 39).

Ma’nosi:

Agar u endi eslamasa, men ularni unutishim kerakmi?
Gektor dafn qilindi deb unutishim kerakmi?
Va g‘ururini toptab, devorlarimiz atrofidan sudrab o‘tdimi?
Uning otasining oyoqlarim ostiga yiqilganini unutishga majburmanmi
U o‘ldi qurbongoh qon bo‘ldimi?
Sefiz bu dahshatli kecha, tush, tush,
Bu butun xalq uchun abadiy tun edi.
O‘zingizni Pirr bilan tasavvur qiling, ko‘zlari yonib turardi,

Ushbu parchada Andromaxa oxirgi vaziyatlarga kelganda kuchli iztirob chekishi, uch mushkul yechim Vatan shani, mamlakat Qirolichasi va Ona sifatida qahramoning ichki azobi va ruhiy kechinmalarini tasvirlaydi.

Céphise

Hé bien, allons donc voir expirer votre fils.
On n’attend plus que vous. Vous frémissez, Madame.[2] SCÈNE VIII (p. 40)

Ma’nosi:

Xo‘sh, o‘g‘lingiz ko‘z o‘ngingizda o‘ladi.
Biz faqat sizni kutmoqdamiz. Seskanib ketyapsizmi Xonim.

Keltirilgan parchada Sefizning Andromaxaga murojaatida “frémissez” so‘zi orqali uning qalbidagi barcha iztiroblarini ochib beradi.

Andromaque

Non tu ne mourras point, je ne le puis souffrir.
Allons trouver Pyrrhus. Mais non, chère Céphise,
Va le trouver pour moi.[3] SCÈNE VIII. (p. 40)

Ma’nosi:

Yo‘q, sen o‘lmaysan, men uni azoblay olmayman
Ketdik, Pirrni topamiz. Ammo yo‘q, azizim Cyefiz,
Bor uni men uchun top.

Ushbu parchada Troya malikasi qalbidagi dahshatli iztirob tufayli ma’lum daqiqalar Vatani va Gektor oldidagi burchini unutadi. Pierr nomini yodga olganda esa g‘ururi va axloq qoidalariga rioya qilgan holda Sefizga murojaat qiladi. Bu holat Andromaxa obrazida ichki ikkilanishlar doimiy mavjud ekanligini ko‘rsatadi.

Céphise

Que faut-il que je dise ?[4] SCÈNE VIII. (P. 40)
Nima deyishim kerak ?

[1] Racine Jean. Andromaque (1697). TragédiePublié par Gwénola, Ernest et Paul Fièvre, Septembre 2015, p. 39.
[2] Racine Jean. Andromaque (1697). TragédiePublié par Gwénola, Ernest et Paul Fièvre, Septembre 2015, p. 40.
[3] Shu manba.
[4] Shu manba.

Andromaque

Dis-lui que de mon fils l'amour est assez fort…
Crois-tu que dans son coeur il ait juré sa mort ?
L'amour peut-il si loin pousser sa barbarie?[1] SCÈNE VIII. (p. 40)

Ma'nosi:

Unga o'g'limga mehrim juda kuchli ekanligini ayting…
Siz u qalbida o'z o'limiga qasam ichganiga ishonasizmi?
Sevgi o'zining manqurtligi bilan shu qadar uzoqlasha oladimi?

Yuqorida keltirilgan parchalarda Andromaxa obrazi farzandini himoya qilish uchun hech narsadan qaytmaydigan mehribon ona timsolida tasvirlangan. Uning uchun "o'g'li Astenaks Gektor va Troyadan qolgan yolhiz yodgorlik", shu sababli u farzandining hayotini saqlab qolishi lozim, ammo buning uchun u yaqinlaridan judo qilgan, Troyani vayron qilgan, Gektorning o'limiga sababchi bo'lgan Pierrga turmushga chiqishga rozilik berishi kerak. Andromaxa esa hech qachon bunday bo'lishini xohlamaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. (éd. R.A.Carr, Société des Textes Français Modernes, 1977, p. 137–167). Pour les tragédies, voir Alcméon ou la vengeance féminine d'Alexandre Hardy (publ. 1628).

2. (éd. S.Poli, Naples, Edizioni Scientifiche Italiane, 1995). Pour les tragédies, voir La Mort de Démétrius de Boyer (repr. 1660, publ. 1661) et Arsace de Prade (repr. 1662, publ. 1666).

3. Артамонов С.Д. История зарубежной литературы XVII–XVIII вв. Учебник для студентов пед. интов по спец. № 2101 «Рус. яз. и лит.», М., «Просвещение», 1978, с. 21 – 23; 86 – 141.

4. Racine Jean. Andromaque (1697). Tragédie Publié par Gwénola, Ernest et Paul Fièvre, Septemb-re, 2015, p. 40.

5. Жан Расин. Трагедии. Л., «Наука», 1977, с. 409.

Sadikov Erkin Tursunovich (Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi; e-mail: sadikoverkin87@gmail.com)

INKORNI IFODALOVCHI NUTQ AKTLARINI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANING AJRALMAS QISMI SIFATIDA O'QITISH

Annotatsiya. *Kommunikativ kompetensiyada ijtimoiylik masalasi yetakchi o'rin tutadi. Tildan muvaffaqiyatli foydalanish uchun, albatta, lingvistik kompetensiyaning talaffuz me'yorlari, grammatika va lug'at kabi ko'nikmalarni imkon qadar teranroq o'zlashtirish talab etiladi. Ammo, bundan tashqari, ijtimoiy-lingvistik kompetensiya, suhbatni qanday boshlash va yakunlash, qanday va qachon xushmuomala bo'lish, odamlarga qay tariqa murojaat qilish kabi ijtimoiy-normativ bilimlar ham ahamiyatli hisoblanadi. Shu bilan birga, muloqot jarayonida o'zini qanday tutish, suhbatni samarali rivojlantirish, tushunmovchiliklardan qochish, ziddiyatlarning oldini olish, ma'lum bir holatlarda kompensatsiya qilish qobiliyatlari ham suhbatdoshlar uchun dolzarbdir.*

Аннотация. *Ведущую роль в коммуникативной компетенции играют социальные вопросы. Для успешного пользования языком нужно в совершенстве овладеть лингвистическими компетенциями, нормами произношения, грамматикой и словарем изучаемого языка. Однако, помимо этого немаловажную роль играют социально-лингвистические компетенции, умение как начать и закончить беседу, как обращаться к людям, как проявлять вежливость в общении. Вместе с тем, для собеседников актуально и то, что нужно знать, как держать себя в процессе общения, как плодотворно развивать беседу, избежать недопониманий, предотвратить острые углы в беседе и обладать в особых случаях способностью компенсировать недостатки.*

Annotation. *In communicative competence, the issue of sociality takes a leading place. In order to use the language successfully, it is necessary to master the pronunciation standards of linguistic competence, grammar and vocabulary skills as much as possible. But in addition, socio-linguistic competence, social-normative knowledge such as how to start and end a conversation, how and when to be polite, how to address people are also important. At the same time, how to behave during the communication process, effectively develop the conversation, avoid misunderstandings, prevent conflicts, and compensate in certain situations are also relevant for interlocutors.*

Kalit so'zlar: *pragmatika, nutq aktlari, inkorni ifodalovchi nutq aktlari, kommunikativ kompetensiya, tilshunoslik.*

[1] Shu manba.

***Ключевые слова**: прагматика, речевые акты, речевые акты, выражающие возможности, коммуникативная компетенция, языкознание.*

***Key words:** pragmatics, speech acts, speech acts expressing negation, communicative competence, linguistics.*

Kommunikativ kompetensiyaning qonun-qoidalari hamda atamasi nutq aktlari nazariyasining maydonga chiqib kelishidan deyarli qirq yil o‘tib amerikalik tilshunos Dell Slayms tomonidan ixchamroq talqinda ilm ommasiga taqdim etildi. Slayms o‘zining nazariyasida tildan maqsadli va to‘g‘ri foydalanishning muhimliligi xususida so‘z yuritadi. Bugungi kunda tilshunoslarning antropologik, funksional tilshunoslik sohalarida tadqiqot olib borayotganlari ham kommunikativ kompetensiyaning keng qamrovli ekanligini e’tirof etmoqdalar.[1]

Erkak va ayollarning muloqot qurishlari va muloqotga kirishishlari turlicha bo‘lib, ikkala jins vakillari ham tildan foydalanganlarida dinamiklik xususiyati mavzularga nisbatan qarashlar, qiziqishlarning plyuralistik ekanligi bilan ajralib turadi. Odatda, ayollar ko‘proq vaqtlarini kiyim-kechaklar, bolalar haqida gapirishga sarflasalar, erkaklardagi tematika mashinalar va sportni qamrab oladi. Mazkur tafovutlarni alohida tadqiq qilganda quyidagi tasnif muvofiqlashadi.

1. Ayollar muloqot jarayonida hayratlanish, zavqlanish holatlarini ko‘proq his qiladilar, erkaklarda esa mazkur sohalar nisbatan kamroq uchraydi.

2. Ayollar narsa tanlashda sotib olayotgan xaridlarning farqini turli parametrlar asosida tahlil qiladilar, masalan, rang, mato, uslub, sifat, baho, chidamlilik, loyiqlilik belgilariga alohida e’tibor qaratadilar, qarama-qarshi jins vakillarida esa bu u qadar ko‘p uchramaydi.

3. Qasam ichish, va’da berish hamda so‘kinish aspektlaridan nutq aktlari sifatida foydalanish erkaklarda salmoqli bo‘lsa, ayollarda bu sohalarda minimal ko‘rsatkichlar uchraydi.

4. Ayollar erkaklarga nisbatan ko‘proq so‘roq gaplarni qo‘llaydilar, ayniqsa, “It is fine, isn’t it?” (“Bu yaxshi, shunday emasmi?”) kabi tasdiq-inkor so‘roqlardan muloqotning silsilasini ta’minlash uchun foydalanish holati odatiy hisoblanib, mazkur holatlarda ayollar e’tiborni tortishni, murojaatlari yuzasidan tasdiqni qabul qilib olishni xohlaydilar.

5. Muloqot jarayonida suhbatdoshining gapini bo‘lish, to‘xtatish esa ko‘proq erkaklarga xos bo‘lib, ayollarda bu jihatlar nisbatan kamroq uchraydi.

6. Muloqot jarayonida ayollar, imkon qadar, kooperativ diskursdan foydalanishga harakat qiladilar, shu tariqa, suhbatdoshlari bilan hamkorlikni, qo‘llab-quvvatlashni yo‘lga qo‘ymoqchi bo‘ladilar. Erkaklar ishlatadigan diskurs esa, aksariyat holatlarda, raqobat shaklida kechib, suhbatdoshlar jarayonga, voqeahodisaga o‘zlarining ta’sirlarini o‘tkazishga urinadilar.

“Ijrochi fe’llar” (“Performance verbs”) haqidagi qarashlarini shakllantirar ekan, Ostin so‘zlarning ta’siridan kelib chiqib, ularning na tugallangan gap, na so‘roq ekanligini e’tirof etib, so‘zlarni–harakatlar sifatida obrazlashtiradi hamda o‘z xulosasida ularni uzil-kesil “ijrochi fe’llar” deb hukm chiqaradi. Ijrochi fe’llarning xususiyatini tushunib olish uchun quyidagi to‘rtta misolni tahlil qilib ko‘ramiz.

A. I drive a white car.

B. I apologize.

C. I name this ship “The Titanic”.

D. I bet you 100 dollars it will snow.

Sintaktik jihatdan ushbu gaplarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ulardagi quyidagi o‘xshashliklarga guvoh bo‘lamiz: mazkur gaplarning barchasi birinchi shaxs birlikda, darak shaklda, aniq nisbatda va hozirgi zamonda. Ammo pragmatik analiz bizga birinchi gapning qolgan uchta gapdan farqli ekanligini ko‘rsatadi.

So‘zlovchining “Men oq rangdagi mashinani haydayman” degan gapi aslida yuz foiz haqiqat bo‘lmasligi mumkin deylik, haydovchining mashinasi qaymoqrang, oqimtir yoki sutsimon rangda bo‘lishi, so‘zlovchi esa uni shunchaki “oq” deb tasvirlagan bo‘lishi mumkin. Deylik, tinglovchi so‘zlovchining mashinasini ko‘rib, “That is not true, your car is silver” (“Yo‘q bu to‘g‘ri emas, mashinangiz kumush rang-ku”) qabilida e’tiroz bildirishi mumkin. Ammo qolgan uchta gapga nisbatan boshqacharoq fikr bildirishga, ularni to‘g‘ri emasligini ta’kidlashning iloji yo‘q. Aynan mazkur nuqtada Ostin ijrochi fe’llarning xususiyatini ochib bermoqchi bo‘ladi: 2,3,4-gaplardagi fe’llar ijrochi fe’llar bo‘lib, masalan, “I apologize” (“Men uzr so‘rayman”) bu gap tuzish uchun emas, aksincha fe’l orqali harakatni/vazifani ijro etish nazarda tutilayotganligi ravshanlashadi. Muloqotni amalga oshirish jarayonida nutq aktlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga, suhbatdoshlarning quyidagi pragmatik parametrlarini ham e’tiborga

[1] Bach K. (1999). The myth of conventional implicature. Linguistics and Philosophy, 22, p. 327–366.

olish lozim: jins, yosh, suhbatdoshlarning soni, ularning ijtimoiy holati, so‘zlashuvchilarning o‘zaro munosabati.

Inkorni ifodalovchi nutq aktlarini o‘qitish masalasi nozik va qiyin bo‘lib, o‘qituvchilar dars jarayonida o‘quvchilarga qator hayotiy vaziyatlarni taqdim etish orqali buni amalga oshirishlari mumkin. Mazkur parametlarni ochiqlash uchun bir qator dialoglarni tahlil etish zarurati tug‘iladi:

1) o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi muloqot;

2) ikki o‘smir orasidagi dialog;

3) ota va o‘g‘il o‘rtasidagi suhbat;

4) nevaraning buvisi bilan uyushtirgan muloqoti;

5) rahbar tadbirkor va uning xodimi o‘rtasidagi dialog;

6) rahbar va uning kotibasi o‘rtasidagi suhbat.

Birinchi vaziyat. Russel: “Well, Brown, how did you get on with the fourth form?”–“Xo‘sh, Braun, to‘rtinchi sinfdagilar bilan qanday chiqishdingiz?”

Brown: “Eh, not very well. I had some troubles with the young Watkins. He asked a lot of ridiculous questions during the whole lesson and distracted the class’s attention”.–“Eh, unchalik yaxshi emas. Yosh Uotkins bilan bir qator muammolarga duch keldim. U dars paytida juda ko‘p kulgili savollar so‘radi hamda boshqalarning diqqatini bo‘ldi”.

Russel: “Oh, he is not so bad, really, when, you know him as well as I do. But he is lazy and he had much rather play a fool than do any work in class. Am I right?”

– “Oh, yo‘q, u bunchalik yomon bola emas, ochig‘i, siz uni men bilganchilik bilsangiz, bu qarorga kelmas edingiz. Ammo uning yalqovligi hamda dars bilan bog‘liq hech narsa qilmay o‘yinqaroqlik qilishi – bu bor gap. Haqmanmi?”

Brown: “Yes, you are right, of course”.–“Ha, albatta, siz haqsiz”.

Ushbu dialogda ikki nafar suhbatdosh o‘zaro muloqot qurishmoqda, birinchisi Rassel – katta yoshli, tajribali o‘qituvchi, ikkinchisi – talaba. Talaba amaliyot vazifasiga ko‘ra to‘rtinchi sinf o‘quvchilariga kirib dars o‘tadi. Suhbat aynan mazkur mashg‘ulotning tahlili asosida shakllanadi. Ijtimoiy mavqega ko‘ra o‘qituvchining maqomi yuqoriroq. Tomonlar o‘rtasidagi muloqot do‘stona, shu tariqa rad etish kontekstda neytral tarzda amalga oshiriladi: “He is not bad, when you know him as well as I do”.

“U yomon emas, uni men bilganchalik bilsangiz … .”

Ikkinchi vaziyat. Elizabeth: “Oh, you are a cool swimmer. I have been glancing you for a while. Frankly speaking, that’s the most brilliant swan dive I have ever seen. Please, do it again!”–“Oh, siz zo‘r suzuvchi ekansiz. Sizni biroz muddatdan buyon kuzatib turibman. Ochig‘ini aytsam, bu men umrim bino bo‘lib ko‘rgan eng ajoyib oqqush sho‘ng‘ishi. Iltimos, yana bir karra takrorlang!”

Arthur: “Oh, rubbish! You must be joking! I dive like an elephant”.–“Qo‘ysangiz-chi, hazillashayapsiz, shekilli? Men xuddi fildek sho‘ng‘iyman-ku”.

Ikki o‘smir o‘rtasida kechgan ushbu dialogda suhbatdoshlarning o‘zaro tanish, tengdosh ekanliklarini anglash mumkin, bu esa ularning ijtimoiy mavqelari barobar ekanligidan dalolat beradi. O‘zining replika – reaksiyada adresat yuqoridagilardan kelib chiqib, norasmiy turdagi inkorni ifodalaydi:

“Rubbish! You must be joking!”–“Qo‘ysangchi! Hazillashayotgan bo‘lsang kerak”.

Uchinchi vaziyat. Son: “Pa, let me go to the night club tonight?” – “Dada, bugun kechqurun tungi klubga borishimga ruxsat berasizmi?”

Father: “What? You are only fifteen. You are small. I don’t’ think that it is a really good idea”. – “Nima? Sen bor-yo‘g‘i o‘n beshdasan. Hali kichkinasan. Men buni juda yaxshi fikr deb o‘ylamayman”.

Ota va o‘g‘il o‘rtasidagi dialogda, garchi tomonlar qon-qarindoshlardek do‘stona munosabatlarga ega bo‘lsalar-da, otaning o‘g‘lining iltimosiga nisbatan qo‘llagan rad javobi murosasizlikni ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy mavqe ham teng emas, shunday bo‘lishiga qaramay, ota o‘z javobida neytral shakldagi inkorni ifoda etadi:

“I don’t think that it is a really good idea!” – “Men buni juda yaxshi fikr deb o‘ylamayman.”

To‘rtinchi vaziyat. Granny: “Why are you so sad, Ben?” –“Nega bu qadar xomushsan, Ben?”

Ben: “You know I bother about my future. I want to be an artist but my mother wants me to enter the Foreign Languages Institute, What can I do?” –“Bilasizmi, men kelajagim borasida tashvishdaman. Men rassom bo‘lishni istayman, ammo oyim meni xorijiy tillar institutiga kirishimni xohlaydilar. Nima qila olman axir?”

Granny: “She only wants to see her son safely settled in the future, she wants you to have a lot of money”.–“U faqatgina o‘g‘lining kelajakda o‘z o‘rnini topib olishini istaydi, ko‘p pul topishingni xohlaydi”.

Ben: “Oh, I disagree with you. Money isn’t everything. There are other things in the world to be considered”.–“Oh, men sizning fikringizga qo‘shila olmayman. Pul bu hamma narsa degani emas. Dunyoda e’tiborga olinishi kerak bo‘lgan boshqa narsalar ham bor”.

Yuqoridagi dialog buvi hamda uning nevarasi o‘rtasida kechadi. Tomonlarning munosabatlari do‘stona, ijtimoiy mavqe teng emas, rad javobi neytral tarzda amalga oshiriladi:

“I disagree with you”. –“Men sizning fikringizga qo‘shilmayman”.

Nevara buvisini xafa qilib qo‘ymaslik uchun norasmiy tipdagi rad javobni qo‘llamadi.

Beshinchi vaziyat. Rahbar tadbirkor hamda uning xodimi orasidagi suhbat quyidagicha shakllanadi:

Mr.May: “When will these papers be ready?” – “Bu hujjatlar qachon tayyor bo‘ladi?”

Witman: “I guess, tomorrow”.–“Menimcha, ertaga”.

Mr.May: “Tomorrow? What? Another day? Oh! Imagine it! Two days late already, and then tomorrow! Well, I hope by tomorrow you mean Wednesday, and not tomorrow’s tomorrow, or some other absurd day that you have just thought of”. –“Ertaga? Nima? Boshqa kun? Oh! Tasavvur qila olasanmi? O‘zi ikki kun kechikdi, endi yana ertaga emish! Xo‘p, ertaga deb siz Chorshanbani nazarda tutayapsiz, boshqa ertaning ertasini yoki yana qandaydir boshqa bo‘lmag‘ur o‘ylab chiqarilgan kunni emas”.

Rasmiy ruhda kechgan ushbu suhbatda rahbar ijtimoiy mavqe jihatidan xodimidan ustun, natijada bir tomonlama ziddiyatga moyillik ko‘zga tashlanadi. Bu rahbarning hissiy- emotsional bo‘yoqdagi inkor replikasida ham aks etadi.

Oltinchi vaziyat. Mr. Grey: “I’d like to invite you to a business party this evening. What do you think of it?”–“Bugun oqshomda sizni biznes ziyofatga taklif etmoqchiman. Bu haqida nima deb o‘ylaysiz?”

Julia: “Sorry, I can’t accept your invitation. I’ll be busy”.–“Uzr, sizning taklifingizni qabul qila olmayman. Band bo‘laman”.

Ikki hamkasbning ushbu muloqotida munosabatlar rasmiy va kasbiy xarakterga ega, ijtimoiy mavqeda ham tenglik kuzatiladi. Shu asnoda javob variantida qo‘llanilgan inkor ham rasmiy.

“I can’t accept your invitation.” –“Taklifingizni qabul qila olmayman.”

Shu tariqa suhbatdoshlarning yoshi, jinsi, ijtimoiy mavqei, soni hamda munosabatlari nutq aktlarining ijro etilishini belgilab beruvchi muhim pragmatik faktorlar hisoblanadi.

Ingliz madaniyatida so‘zlashuv, muloqot qilish ham san’at darajasiga ko‘tarilgan etiket qoidasi sifatida qaraladi. Odatda, inglizlar noroziliklarini qo‘pol bo‘lmagan shaklda, o‘z fikr va mulohazalarini bahslashmaslik tamoyili nuqtai nazaridan ifoda etishga urinadilar. Quyidagi iboralarning nutqda juda ko‘p marta ishlatilishi fikrimizni dalillashga xizmat qiladi.

1) “It is not the way I see”.–“Men buni boshqacha talqin qilaman”.

2) “I can’t say that I share your point of view”–“Men sizning nuqtai nazaringiz bilan o‘rtoqlasha olmayman, chamamda”.

3) “I see things rather differently myself” – “Men bu borada boshqacha o‘ylayman”.

Norasmiy shakldagi inkorni inglizlar juda kam qo‘llaydilar.

1) “Rubbish! – “Bo‘lmag‘ur, arzimas!”

2) “Nonsense!” – “Hech narsa!”

3) “Are you joking?” – “Hazillashyapsizmi?”

Deylik, siz inglizlarni kechki ovqatga, bazm yoki ziyofatga taklif qilsangiz, ular to‘g‘ridan-to‘g‘ri rad javobini bermaydilar. Masalan, “I’d like you to go to my party today”.– “Bugun men bilan bazmga borishingizni istardim”.

“I’m sorry, I don’t see any opportunity to accept your invitation. –“Afsusdaman, ammo sizning taklifingizni qabul qilish men uchun imkonsiz”.

Xushmuomalalik fazilati inglizlarda bolaliklaridanoq singdirib borilishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bu holat ingliz ijtimoiy hayoti uchun ommalashgan va qadriyatga aylangan aqidadir. Suhbat chog‘ida faqat o‘z manfaatlaridan kelib chiqib muloqot qilish asl inglizlarga yot bo‘lgan tushuncha bo‘lib, suh-

batdoshining ham shaxsiyati shu qadar hurmat qilinadi. Inglizlar suhbatdoshlarini tinglay oladilar, ammo bu ular doimo so‘zlovchining fikriga qo‘shiladilar degani emas[1].

“Perhaps, you are right, but, in my opinion, this skirt is too short.” – “Ehtimol, siz haqsiz, ammo mening nazdimda bu yubka juda kalta.

Ammo inglizlar shaxsiy masalalarda gapirishni u qadar yoqdirmaydilar hamda bu kabi muloqotdan qochishga harakat qiladilar.

“What is your monthly salary?” –“Oylik maoshingiz qancha?”

“I wouldn’t like to discuss this.” – “Men buni muhokama qilishni istamayman”.

Lingvo-madaniy hamda lingvo-geografik xatolarga yo‘l qo‘ymaslik, nizo hamda bahsli holatlarni keltirib chiqarmaslik, ayniqsa, suhbat qurayotgan ikki boshqa etnik guruh vakillarining asosiy maqsadlaridan biri bo‘lishi lozim.

References:

1. Bach K. (1999b). The myth of conventional implicature. Linguistics and Philosophy, 22, p. 327 – 366.
2. R.Mahan Taylor (Eds.). Teaching pragmatics. Washington DC Office of English Programs, U.S. Department of State. Retrieved May 30, 2014.
3. Kramsch C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford: Oxford University Press.
4. Rasulov Z.I.,&Saidov K.S. (2022). Linguistic Economy as an Inseparable Law of Language Evolution. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 8–12. Retrieved from http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/28
5. Sadikov E. (2022). Noval Teaching Technologies of Pragmatic Speech Acts. Центр научных публикаций (buxdu.Uz), 25(25). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8389
